Mamlakatning g'arbidan nemis harbiy asirlarining hududlarga bo'lib ulgurmasdanoq, sharqiy mintaqadan Davlat Mudofaa qo'mitasining 1945-yil 23-avgustdagi qaroriga ko'ra, Yaponiya imperiyasining Manchuriyadagi Kvantun armiyasida xizmat qilayotgan yapon harbiylari ham, asirlar sifatida mamlakat ichkarisiga olib kirila boshlangan. Kvantun armiyasining 530 mingdan ziyod yapon harbiylari SSSRning turli ishlariga jalb etilganidan so'ng, mamlakatdagi ishchilar ko'rsatkichi 2,5 foizga o'sgan [4; C. 515–516.]. Yapon harbiy asirlarining mehnatga jalb etilishi SSSR Ichki ishlar xalq komissariatining 1945-yil 29-sentyabrdagi "Harbiy asirlarning mehnatidan foydalanish to'g'risida"gi nizomi asosida olib borilgan. O'zbekiston SSRda ham o'ndan ortiq ishlab chiqarish, sog'lomlashtirishga moslashtirilgan va maxsus hospital ko'rinishidagi harbiy lagerlar bo'lib, deyarli barcha lagerlardagi asirlar xalq xo'jaligi, qurilish va sanoat, ishlab chiqarish ishlariga jalb etilgan. O'zbekistonga jo'natiladigan harbiy asirlar asosan davolanish maqsadida olib kelingan bo'lsa-da, shart-sharoitdan kelib chiqib asirlarning jismoniy holatiga qarab ish turlariga taqsimlangan. Harbiy asirlarni mehnatga jalb etish to'g'risidagi nizomga ko'ra, asirlar O'zbekistonga olib kelinganidan so'ng, uch hafta davomida boshqa asirlarga qo'shilmagan holda, lager hududidan chiqarilmay ushlab turilgan. Mazkur vaqt mobaynida ularning mehnatidan faqat lager hududidan chiqmagan holda foydalanilgan, ichki obodonlashtirish ishlariga olib chiqilishi mumkin bo'lgan [5; C. 112–113.]. Shunday bo'lsa-da, yapon harbiylarining boshqa mamlakatning iqlimlariga moslashishi, ularga qo'yilgan ish miqdorini bajarishi qiyin kechgan. Harbiy asirlarga qo'yiladigan kunlik ish me'yori oddiy aholinikidan farq qilmagan.

O'zbekiston SSR Andijon viloyatida 26-sog'lomlashtiruv harbiy asirlar lageri tashkil etilib, lagerga davolash maqsadida olib kelingan harbiy asirlar, dastlab lagerning ichki holatini yaxshilash uchun lager va uning atrofini obodonlashtirish hamda bunga qo'shimcha tarzda lager uchun ajratilgan yordamchi xo'jalikdagi qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgan. Bunday qilinishining asosiy sabablaridan biri asirlarning zaifligi bo'lgan. Mazkur yerdan olingan hosil lager asirlarining o'zlariga ishlatilgan. Dastlab asirlarning mutaxassisligi hisobga olinmasdan ishlarga jalb qilingan bo'lsa, keyinroq ular orasida tekshiruv o'tkazilib, barcha asirlarning mutaxassisligi aniqlashtirib olingan va o'ziga yarasha ishga qo'yishga harakat qilingan.

Keyingi yillarda yapon harbiy asirlari kasbiy terapiya jarayonida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (paxta tolasi chiqindisidan to'qilgan poyabzal va to'r qoplar, poyabzal ishlab chiqarish)da ishlatilgan. Iste'molchi tovarlarini ishlab chiqarish, buyurtmachi tomonidan yetkazib beriladigan xom ashyo asosida amalga oshirilgan.

26-harbiy asirlar lagerida davolanib bo'lgandan so'ng asirlarni ko'proq Bekobodagi 288-harbiy asirlar jamlog'iga jo'natilgan. Bu yerda ular Farhod Gesining to'g'onini qurishda ishtirok etganlar. 1946-yildan boshlab lager ma'muriyati yirik tashkilotlar bilan shartnoma tuzgan holda asirlarning bir qismini ishlata boshlagan. Lagerdagi asirlar doimiy ravishda bir

joyda ishlashmagan, shartnomalar ham shunga qarab ma'lum qisqa muddatga tuzilgan. Shunday tashkilotlardan Andijon paxta trestida 500 nafar harbiy asirlar ishlagan.

Bundan tashqari, asirlar 1946-yilda sug'orish tarmoqlarini tiklash va tozalash, 250 kishi temir yo'l ko'prigi qirg'oqlarini mustahkamlashda ishlaganlar. Yapon harbiy asirlarining ishtirokida 1945–1948-yillarda Andijon viloyati Jalolquduq tumani, Janubiy Olamushuk shaharchasini bunyod etganlar. Mazkur shaharchada ular 500 nafardan ziyod aholi istiqomat qilishi mo'ljallangan 50 ga yaqin barak tipidagi bir qavatli uylarni qurganlar, shuningdek, avtomobil yo'llari qurilishida ishtirok etib, yo'llarning umumiy narxi 54 ming so'm 54 tiyin bo'lgan [6; C. 109–110.], uzunligi 5 km keladigan Oyim–Qo'rg'ontepa yo'lida 5 ta ko'prik, uzunligi 6,8 km bo'lgan Oyim–Dardoq yo'lida esa 5 ta ko'prik bunyod etganlar.

Shaharchada yaponlar tomonidan bunyod etilgan Madaniyat saroyi, tibbiy shifoxona va maktablar bor. Mazkur aholi istiqomat qilish uylaridan, tibbiy shifoxona va boshqa obyektlardan mahalliy aholi hozirgacha foydalanib kelmoqda. Jalolquduq tumanining markazida, Gurunch-Mozor hududida ham yashash uchun mo'ljallangan bir qavatdan iborat barak tipidagi uylar ham yaponlar tomonidan qurilgan [7; 6-varaq.].

Shu yerda tug'ilib o'sgan, 1966-yilda Jalolquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasi "Birlashgan" mahallasida tug'ilgan Sirojiddinov Hakimjon hojining guvohlik berishicha, uning dadalari Mahsumhoji ota ularga brigadir bo'lib ishlagan. Uzoq yillar Qilich mozor ziyoratgohi masjidida imom muovini vazifasida (vafot etgunicha) ishlagan. Mahsumhoji ota shunday eslaydi: "Bu yerga 700 nafar yapon harbiy asirlari olib kelingan. Biz birgalikda yangi yerlarni o'zlashtirardik, sharoitlar og'ir edi — bu esa o'z-o'zidan shundoq ham holdan toygan yapon harbiy asirlarining sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelar edi. Mahalliy aholi ularga rahmi kelganidan non, turshak, qurt, choyni ular yuradigan yo'llarga qo'yib ketishar edi. Biz "Neftestroy" qurilishida birga ishlaganmiz, hatto yaponlarning ba'zi "kunichiwa", ya'ni salom; "arigato" — rahmat; "sayonara" — ko'rishguncha; "arigato gozaimasita" — minnatdorman kabi so'zlarini eslayman. Yaponlar ham bizning "rahmat", "salom", "ketdik", "xayr" kabi so'zlarimizni bilishgan. Tibbiy yordam ko'rsatilishiga qaramay, bulardan to'rt nafari vafot etdi va shu yerlarda qolib ketishdi" [8].

2002-yilda Yaponiyadan 1945–1949-yillarda, 26-harbiy asirlar jamlog'ida harbiy asir bo'lgan fuqarolar va ularning yaqin qarindoshlari Andijonda vafot etib shu yerda dafn etilib qolib ketgan vatandoshlarini ziyorat qilish maqsadida Jalolquduq tumaniga kelganlarida, Mahsumhoji ota o'sha vaqtda birga ishlagan yapon do'stlari bilan ko'rishadi. Oradan 50 yildan ziyod vaqt o'tishiga qaramay, yaponlar ham u kishini tanishadi [9].

Tarixchi olim, t.f.d., prof. Rustam Shamsutdinovning eslashicha: "Yapon harbiy asirlari Andijon shahriga O'sh tarafdan kiraverishda, ruslar qabristoni orqasida Andijon shahar suv tozalash hovuzlari ham qurilishida ham mehnat qilganlar. Bu suv tozalash inshooti har biri diametri 60–70 m atrofida bo'lib, oqova suvlar shaharga kirishdan oldin mazkur hovuzlarda tindirilib, tozalanib, ichishga yaroqli holga kelganidan so'ng aholiga taqsimlangan. Ushbu suv inshootlari Andijon suv ombori qurilib, katta quvurlar orqali shahar aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlangunicha xizmat qilgan. 1970–1980-yillarga kelib bu quduqlarga bo'lgan ehtiyoj kamaygani bois hovuzlar ishlatilmay qo'yilgan. Yaponlar tomonidan qurilgan hovuzlar 40 yil mobaynida aholiga beminnat xizmat qilib kelgan. Hovuzlarni borib ko'rganimizda, ular o'z davrining zamonaviy texnologiyalari asosida armatura temirlaridan to'qilgan holda beton

holatiga keltirilib, mustahkam qurilganini olingan suratlardan ham ko'rish mumkin. Hozirgi kunda u yerlarda namunaviy uylar qad rostlagan" [10].

Andijon viloyati Izboskan tumani Chuvama qishlog'idagi 26-harbiy asirlar sog'lomlashtiruv jamlog'ining boshqarmasida saqlangan yapon harbiy asirlari hududni obodonlashtirishda, kuz mavsumidagi dehqonchilik hosillarini yig'ib olishda ham ishtirok etganlar.

Chuvama qishlog'ida yashovchi 80 yoshli Erkinboy hoji Qodirov bilan suhbatlashganimizda u shunday eslaydi: "Biz yosh bola edik, chamasi 5–6 yoshlar atrofida, aqlimizni tanib qolgan edik har holda. Tentaksoy bizga yaqin bo'lganligi uchun biz bolalar soyga borib, urushda asirga tushgan yapon, italyan, nemis asirlarini tomosha qilar edik. Ularni qo'riqchilar doim nazorat qilib, miltiqlar bilan qo'riqlab yurishar edi. Asirlar yelkalarida tosh tashib, soy ustlariga ko'prik qurishar edi. Biz asirlarni qo'riqlayotgan askarlardan qo'rqib, go'yo ko'rib qolsa otib tashlashi mumkin deb o'ylab tomosha qilar edik. Yaponlarning yordami qishloq aholisiga ko'p tekkan. Ular ko'proq qirg'iz yoki qozoqqa o'xshab ketardi, faqat kiyimlari boshqacha — sarg'ish jigarrang, bosh kiyimlari ham kichkinagina edi. Yozda ko'proq o'zlari yasab olgan yog'och shippaklarda yurishardi, tosh yo'lda yurib ketishayotganida yog'och shippaklarining tovushi eshitilardi, shundan yaponlar kelayotganini bilardik. Ular nihoyatda mehnatkash xalq edi" [11].

Shu qishloqda istiqomat qiladigan Otaxonova (Uvaysinova) Sharifaxon ota-onasi Uvaysinov Qamariddin hoji, Ismoilova Salomathonlardan eshitganlari bo'yicha shunday eslaydi: "Ba'zan qishloqda erkaklar deyarli qolmaganidan (borlari yoshi keksa otaxonlar bo'lib, yoshlar barchasini urushga olib ketishgan deyishardi), qishloq oqsoqollari lagerga borib askarlardan yapon asirlaridan berib turishlarini va ular bizga qabr qazib berishda yordamlashishini so'rab borishardi. Lager komandirlari ham vaziyatni to'g'ri tushunishardi va ko'p hollarda 3–4 kishidan iborat yaponlarni yordamga jo'natishardi. Yaponlarni askarlar nazoratida qabristonga olib borilganda, ularga qishloq oqsoqollari qabr qazishni ko'rsatib turishar, ular esa qazishardi. Ularning yordamidan xursand bo'lgan otaxon va onaxonlar yaponlarni ovqatlar bilan mehmon qilishardi, ayniqsa ular guruchli taomlarni juda yoqtirar edi. Ular xursand bo'lganidan ta'zim qilishar va raqsga tushib bergan holatlari ham bo'lgan. Eshimda, ular bo'ylari kichkina bo'lishiga qaramay juda chaqqon edilar. Biz nemislardan qo'rqar edik, biz yosh bola bo'lganimiz uchun bizning ko'zimizga barchasi nemis bo'lib ko'rinardi. Keyinroq bu yerlarga tuzilishi boshqacha, o'zimizning odamlarga qisman o'xshab ketadigan, bo'ylari pastroq asirlarni olib kelishdi. Keyin bilsak, ular uzoq Yaponiyadan kelgan yaponlar ekan. 1945-yilda yaponlar jamlog'iga "Ko'shnareko" (famiyasi shunaqa bo'lsa kerak) degan katta ofitser kelib rahbarlik qilganligini yoshi kattalar aytib yurishardi" [12].

Yapon harbiy asirlari lagerga ajratilgan yordamchi xo'jalik yerlarini o'zlashtirishda, hamda uning atrofidagi aholi yashash uylarini va yo'llar qurilishlarida ishtirok etganlar. Shuningdek, kolxozlarga yollanma ishchilar sifatida olib chiqilib ishlatilgan. Jumladan, uzunligi 4 km bo'lgan Qo'qon qishloq–Chuvama yo'lida 4 ta ko'prik, hamda uzunligi 10 500 metr bo'lgan Baytoq–Lug'umbek avtomobil yo'li qurilishlaridir [12]. 1945-yilning ikkinchi yarmiga qadar 26-sonli sog'lomlashtirish jamlog'ida mehnatga layoqatli harbiy asirlarning soni ko'p bo'lgan, ammo ular ishlashi uchun keng ko'lamli ishlarga jalb qilinmagan. Ularni ishga jalb qilish maqsadida davolanib bo'lgan 1200 kishidan iborat mehnatga layoqatli harbiy asirlar 288-harbiy ishlab chiqarish jamlog'iga jo'natilgan [13; C. 433.].

Mamlakatning barcha harbiy lagerlarida harbiy asirlar olib kelingani bilan ularning mehnatidan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Harbiy asirlar ixtisosligiga qarab ajratilib, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng komissiya nazoratida ularga darajalar berilgan. So'ng guruhlar va rotalar tashkil etilib, hududlar bo'yicha ishlarga taqsimlangan. Asirlarni ishga olib chiqish va ishlash jarayonida ularga askar va zobitlardan, asirlarning tartibni buzmay ishlashi va qochib ketmasligi uchun qo'riqchilar tayinlangan. Lagerda asirlar bo'sh qolishlariga yo'l qo'yilmagan, ishning samarali va unumli bo'lishi uchun ularga doimo ish uchun kerak bo'ladigan qurilish materiallari va asboblari yetkazib turilgan. Bu ishlar natijasida lagerlardagi asirlarning mehnat unumdorligi oshgan.

**Mazkur jadvalda asirlarning mehnatidan foydalanishda erishilgan  
ko'rsatkichlar ko'rsatilgan [14; C. 577.].**

| T/r | Mehnat turlari                                                     | 1946-yil | 1947-yil |
|-----|--------------------------------------------------------------------|----------|----------|
| 11  | Mehnat fondining ulushi foizda                                     | 95       | 96,1     |
| 22  | Mehnat fondining pudratchi ishlarga olib chiqish foizda            | 86,4     | 86,9     |
| 33  | O'rtacha mehnat unumdorligi                                        | 129,3    | 138,5    |
| 44  | Har bir harbiy asirning kuniga o'rtacha mahsulot ishlab chiqarishi | 19–84    | 23–72    |
| 55  | Haqiqiy yalpi mahsulot (rubl'da)                                   | 5267     | 5691,5   |
| 66  | Yalpi miqdorda rejaning bajarilishi foizda                         | 132,9    | 107,1    |
| 77  | Harbiy asirlarga ketadigan xarajatlarni qoplash                    | 123      | 110,9    |

Ba'zi hollarda asirlar tomonidan ishdan bo'yin tovlash yoki zimmasiga yuklatilgan kunlik ish miqdorini bajarmaslik holatlari uchrab turgan. Bunday vaziyatda tartib buzuvchini safdan chiqarib izza qilish, hayfsan berish, gaupvahta (lager ichidagi qamoqxona)ga 20 kungacha qamab qo'yish, uch oygacha muddatga jazo bo'linmalariga o'tkazib qo'yish, yaqinlariga xat yozish huquqidan ikki oygacha mahrum qilish va hatto safdoshlariga o'rnak bo'lishi uchun ular ishtirokida harbiy tribunaldagi sud qilib jazoga tortishgacha borilgan [15; C. 172–173.].

Harbiy asirlarning lagerdagi hayotida yaqinlariga xat yozish muhim rol o'ynagan. Bu harbiy asirlarning kayfiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Asirlarning o'z uylariga xat yozishlari, ularga kelgan javoblar, ularning mehnat faoliyatining ijobiy tomonga o'zgarishiga olib kelgan. Sovet Ittifoqining rahbariyati tomonidan tasdiqlangan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar harbiy asirlar va qarindoshlar o'rtasidagi yozishmalarning me'yorlarini belgilab bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, yaqinlariga xat yozishning harbiy asirlar uchun muhimligini lager rahbarlari yaxshi bilganlar va ushbu jarayonni tashkil etish orqali o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, harbiy asirlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan [16; C. 12–13.].

Bugungi kunda tadqiqotchilar uchun mavjud bo'lgan arxiv materiallari nafaqat harbiy asirlarning qarindoshlari bilan yozishmalarini tashkil qilishning haqiqiy jarayonini kuzatish, balki kutilayotgan, ammo kechiktirilgan vatanga qaytish munosabati bilan ularning kayfiyatidagi o'zgarishlarni ko'rish imkonini beradi. Yozishmalarning ko'tarinki ruhda yozilganlari orqali, SSSRning asirlarga nisbatan ijobiy g'amxo'rlik qilinayotganligini namoyon qilmoqchi bo'lgan qarashlarini aniqlashga imkon beradi. Bunday qilish urushdan keyingi "Sovuqlik urushi" kayfiyatidagi davlatlarga targ'ibot qilish imkonini beradi, aslida asirlarga ijobiy g'amxo'rlik qilinmaganligini nafaqat rahbariyat, balki boshqa davlatlar ham anglab turishgan. Bu ham kommunistik targ'ibotning bir ko'rinishi edi. Harbiy asirlarning

yoʻzishmalarini lager ma'muriyati sinchkovlik bilan nazorat qilib, bu haqda ular muntazam yuqori tuzilmalariga xabar berib turishgan.

Harbiy asirlar tomonidan qishloq xo'jaligi texnikasi mahsulotlari, xususan, 565 ta traktorda urug' ekishga moslashtirilgan moslama, 760 ta g'o'zapoya yig'ishtiradigan texnika, 570 ta kultivator (yerga ekin ekilishi va ekilgandan keyin yumshatib beruvchi moslama), 670 ta otga urug' ekishga moslashtirilgan moslama, 530 ta yerga o'g'it soladigan qurilma, 80 ta SUZ moslamasi tayyorlangan, 1850 ta ketmon, 1000 ta yer kovlaydigan belkurak (lopatka), jami 697 234 rubl miqdordagi mahsulot ishlab chiqarilgan. Bulardan tashqari, 61 ta kompressor, 151 ta ko'chma nasoslar, 89 ta vakuumli nasos, 24 ta gidroturbinalar tayyorlangan, 4 ta turli xil press uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi uchun ehtiyot qismlardan, jami 1 114 050 rubl miqdoridagi 13 350 ta lemexlar tayyorlangan, 2215 ta traktorlar uchun ehtiyot qismlar, 165 ta TP-5 avtomat qurilmalari, 6245 ta disklarni tayyorlash moslamalari, 1320 ta kultivatorlarga shtiflar, 845 ta kombayn pichoqlari, 995 ta xashak o'rish moslamalarining ustalarlari ishlab chiqarilgan. Hammasi bo'lib zavod mahsulotlari qiymati 2 620 578 rubl miqdorda ishlab chiqarilgan [17; 1–7-varaqlar.].

O'zbekiston SSRning Farg'ona vodiysida yana bir 387-ishlab chiqarish mehnat lageri faoliyat yuritgan. Dastlab lager Chirchiqdagi 360-lagerning 4-bo'linmasi sifatida tashkil etilib, keyinchalik 387-lager sifatida faoliyatini davom ettirgan. Ushbu lagerda bir vaqtning o'zida nemis va yapon harbiy asirlari saqlangan.

Lagerdagi harbiy asirlar mehnatidan qurilish va ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilgan. Ular ishlagan asosiy ish joylari:

- Kermika ishlab chiqarish korxonasida – 420 kishi;
- Oziq-ovqat sanoatiga qarashli №10 Yog' zavodida – 52 kishi;
- "O'zbekpromstroy" trestida – 352 kishi;
- G'isht zavodida – 85 kishi ishlagan.

Asirlar mehnati yordamida Gidroliz zavodi va Superfosfat zavodi bunyod etilgan [18].

Lagerning Quvasoy shahridagi bo'linmasida ham asirlar mehnatidan Quvasoy sement zavodida, shahar turarjoy va madaniyat uylarini qurishda hamda qo'shni Qirg'izistonning Qizil-Qiya shaharchasidagi ko'mir konlarida foydalanilgan. 387-lagerdagi asirlar Farg'ona shahrining bir qator binolari, Rus drama teatri, sobiq "Gidroliz shaharchasi", A.S. Pushkin (ayni vaqtda Alisher Navoiy) ko'chasidagi 2–3 qavatli aholi yashash binolarini (bu aholi yashash binolar ayni vaqtda buzib tashlangan) qurilishida qatnashganlar. Lagerning Qo'qon shahridagi yana bir bo'linmasi shaharning shimolida "Naymansoy" soyiga yaqin joyda joylashgan. Mazkur lager 3,9 gektar hududni egallagan. Hozirgi kunda ushbu hududda Farg'ona viloyat bolalar silga qarshi kurash sanatoriysi faoliyat yuritib kelmoqda. Qo'qon shahrida ham yapon asirlari tomonidan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Ular Qo'qon shahridagi superfosfat va qand zavodlarida ishlash bilan bir qatorda, hozirgi "Istiqlol" ko'chasidagi ko'p qavatli turarjoy binolarini qurishda ham ishtirok etganlar. Ularning ayrimlari saqlanib qolgan[19].

**Natijalar.** Lagerlardagi muntazam intizomga rioya qilish sharti qattiq nazorat ostida bo'lgan. Agar harbiy asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobi foizda hisoblansa, asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy mahsulotning 64 foizi nemis asirlari zimmasiga, 20 foizi yaponlarga, 10 foizi vengrlarga, 5 foizi ruminlarga, 1 foizi italyan, fin va ispan asirlari zimmasiga to'g'ri kelgan. Harbiy asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy

qiymati Sovet Ittifoqiga yetkazilgan zarardan 13,5 marta kam bo'lgan qiymatda, bu 679 milliard rublga teng.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, harbiy lagerlar asosan sanoat tarmoqlari yoki qazilma boyliklar ko'p hududlarga joylashtirilgan. Bundan maqsad, albatta, ularning mehnatidan unumli foydalanish bo'lgan. SSSR davridagi 4-besh yillikni tezkor holatda bosib o'tish asosiy maqsadlardan edi. Lagerlardagi va ish joyidagi sharoitlar talab darajasida bo'lmasa-da, asirlar har joyda yashash uchun kurash ma'nosida o'zlariga qo'shimcha shart-sharoit qilishga, chidab ko'nikishga va mehnat qilishga majbur bo'lganlar.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Кузнецов С.И. Проблема военнопленных в Российско-Японских отношениях после Второй мировой войны. – Иркутск: Иркут. гос. ун-т, 1994. – С. 63.
2. Джустин М.Т. Итальянские военнопленные в СССР, 1941–1954. – СПб.: Алетейя, 2010. – С. 80.
3. Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – М.: 2013. – С. 41, 45.
4. Дулатбеков Н.О. Японские военнопленные в Карагандинской области. – Караганда: Болашак, 2011. – С. 515–516.
5. Ким С.П. Японские военнопленные на территории Советского Союза (1945–1956 гг.): дисс. ... канд. ист. наук: 07.00.02. – М., 2016. – С. 112–113.
6. Сидоров С.Г., Шевченко В.В. Использование труда спецконтингента в Сталинградской области в 1942–1945 годах // Вестник Волгоградского Гос. ун-та. – 2018. – №1. – С. 109–110.
7. Andijon viloyati davlat arxivi. 624-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 6-varaq.
8. Дала тадқиқотлари. Андижон вилояти. Жалолқудуқ тумани, Жанубий Оламушук шаҳарчаси. 2013 йил 27 март.
9. Шукуров С., Қодиров А. "Кунчиқар мамлакат делегациялари Андижонда" // Андижоннома. – 2002. – 31 май.
10. Videoyozuv. 2002 yil may. Andijon teleradiokompaniyasi tasmasi. T.f.d., prof. R.T. Shamsutdinov shaxsiy arxivi. Andijon, 2013.
11. Dala tadqiqotlari. Andijon shahri. Suhbat. 2013 yil 1 aprel.
12. Dala tadqiqotlari. Andijon viloyati. Izboskan tumani, Chuvama qishlog'i. Suhbat. 2015 yil 10 aprel.
13. Региональные структуры ГУПВИ НКВД–МВД СССР. 1941–1951: отчётно-информационные документы / под ред. Загорулько М.М. – Волгоград: Издатель, 2006. Т.5. Кн. 2. – С. 433.
14. Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – М.: Логос, 2000. – С. 577.
15. Ходяков М.В. "Я некогда не стану другом Советского Союза": Настроение иностранных военнопленных в лагерях НКВД–МВД во второй половине 1940-х гг. // Петербургский исторический журнал. – 2014. – №1. – С. 172–173.
16. Региональные структуры ГУПВИ НКВД–МВД СССР. 1941–1951: отчётно-информационные документы / под ред. Загорулько М.М. – Волгоград: Издатель, 2006. Т.5. Кн. 2. – С. 12–13.
17. RDHA, 4p-jamg'arma, 21na-ro'yxat, 422-yig'majild, 1–7-varaqlar.
18. Yaxyoxon Dadaboev shaxsiy arxivi materiallari. Suhbat. 2019 yil 15 mart. Qo'qon shahri.
19. Dala tadqiqot materiallari. Qo'qon shahri. 19.03.2018.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **DEVELOPMENT TRENDS OF THE PERIODIC PRINT OF KARAKALPAKSTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (1991-2018)**

**Khujaniyazov Uktam Yeshbaevich**

Senior Lecturer, Department of Social Sciences,

Nukus State pedagogical Institute

Doctor of philosophy in historical sciences (PhD)

E-mail: [uktam.1981@list.ru](mailto:uktam.1981@list.ru)

**Abstract.** This research article talks about the positive changes in the periodical press of Karakalpakstan during the years of independence, that is, from 1991 to 2018.

**Keywords:** independence, decree, newspaper, magazine, press, law, publishing, society, culture.

## **QORAQALPOG'ISTON DAVRIY MATBUOTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991-2018)**

**Xujaniyazov Uktam Eshbaevich,**

Nukus davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada mustaqillik yillarida ya'ni 1991-2018 yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston davriy matbuotidagi ijobiy o'zgarishlar haqida aytiladi.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, farmon, gazeta, jurnal, matbuot, qonun, nashriyot, jamiyat, madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N03>

### **Kirish.**

Matbuot mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan oq milliy g'oyani shakllantirish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek buyuk maqsadlarni har bir inson ongida, uning ma'naviy olamida keng va mustahkam qaror toptirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizning dunyoqarashi tobora o'zgarib, ularning ong-u tafakkuri yuksalib, siyosiy va fuqarolik faolligi, daxldorlik tuyg'usi ortib borayotgan bir jarayonda to'rtinchi hokimiyat maqomiga ega bo'lgan ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

Mustaqillik davrida qoraqalpoq davriy matbuotining umumiy holati, ushbu davrdagi davriy nashrlarning faoliyati, matbuotning bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniyatlar taraqqiyotiga va butun jamiyat madaniy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi va OAV rivojlanishining huquqiy asoslari D. Bekbao'liyev, [1] Q. Qalekeev, [2] H. Atajanov, [3] tadqiqotlarida hamda A. Kojageldiyevning [4] ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan. Ayniqsa, bu

borada tarix fanlari doktori S. Nurjanovning [5] davlat granti asosida matbuot tarixi sohasiga bag'ishlangan tadqiqoti o'zining faktik va ilmiy fikrlari bilan alohida ahamiyatga ega.

### **Muhokama.**

Mazkur davrda mamlakat ommaviy axborot vositalari faoliyatining qonuniy kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan, xalqaro demokratik talab va standartlarga to'la javob beradigan huquqiy zamin yaratildi. OAVni yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga yo'naltirilgan, keng qamrovli tashkiliy – huquqiy chora – tadbirlar amalga oshirildi. Eng avvalo, OAV rivojlanishini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga mos keladigan qonunchilik bazasi yaratildi.

Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar, ularning axborot sohasini demokratlashtirishdagi faol ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Qoraqalpog'iston matbuoti ham mustaqillik yillarida mamlakatda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlarning ijobiy va salbiy taraflarini yoritib beruvchi asosiy vosita va ko'zguga aylandi.

### **Natijalar.**

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida bozor munosabatlari sharoitida tahririyatlar oldida paydo bo'lgan eng muhim muammolardan biri-davriy nashrlar uchun homiylik qiluvchi muassasalarni topish mashaqqati bo'ldi. Iqtisodiy jihatdan kamquvvat korxonalar ko'p bo'lgan Qoraqalpog'iston sharoitida bu masalani hal etish oson kechmadi.

Mablag' yetishmasligi, qog'oz bahosining qimmatlashishi, xarajatlarning ortishi matbuot sohasida qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu esa o'z navbatida respublika miqyosidagi gazeta va jurnallarning chiqishining qiyinlashishiga va tiraj miqdorining kamayishiga olib keldi. 1992-yil 28-aprelda qabul qilingan "Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida respublika ommaviy axborot vositalarini davlat yo'li bilan muhofaza qilishning birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-391-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining ijrosi matbuot iqtisodini ma'lum darajada tartibga keltirdi. Ammo uning moddiy ahvoli talab darajasida to'g'rilanmadi.

Natijada 1992-yili hududdagi chop etilayotgan gazetalar tiraji 1991-yilga solishtirganda 31,2 % ga, 1990-yilga solishtirganda 55, 8 % ga qisqardi. [6; 40-b] Respublika miqyosidagi gazetalaridan bo'lgan "Бесті Капакалпакстана" gazetasining tiraji 1992-yili 1990-yilga solishtirganda 14,3 ming donadan 9,9 mingga, "Yerkin Qaraqalpaqstan" gazetasi 68, 1 mingdan 45 mingga, yoshlar gazetasi bo'lgan "Qaraqalpaqstan jaslari" gazetasi 29,3 mingdan 14,7 mingga, bolalar gazetasi "Jetkenshek" 40 mingdan 27,9 mingga, "Amudaryo" jurnali 28,4 mingdan 14 ming donaga qisqardi. Bundan tashqari davriy matbuot korxonalarida xodimlarni qisqartirishlar ham amalga oshirildi. Mazkur yillari respublika davriy matbuoti sohasidan 167 nafar xodim qisqartirildi.[6;43-b]

Muammoni ma'lum darajada ijobiy hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati Qoraqalpog'istonda chop etilayotgan gazeta va jurnallar uchun 1993-yilning birinchi yarmida ajratgan 20 mln so'm mablag'i ham holatni tubdan yaxshilay olmadi. Mazkur yilni Qoraqalpog'iston gazeta va jurnallari, nashriyotlari 12 mln 891 ming so'm qarz bilan yakunladi. "Yerkin Qaraqalpaqstan" gazetasining 1994-yil 2-iyuldagi soni 994 donaga tushib, haftalik gazetaga aylanib qoldi. "Karaqalpaqstan jaslari" gazetasi mazkur yil 1-iyulda 415 nusxa, bolalar va o'smirlar gazetasi "Jetkinshek" esa bor yo'g'i 155 nusxada chop etildi. [1;12 –13-b]



Qiyinchiliklarga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, Vazirlar kengashining "Yerkin Qaraqalpaqstan", "Вести Каракалпакстана", "Amu tongi" gazetalari, yozuvchilar uyushmasining "Amudaryo" jurnali, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi "Xabarchisi" kabilar muntazam chop etilib turdi.

1994-yili respublikada jami 31 nomda gazeta, jumladan, 6 nomda respublika, 2 nomda shahar, 15 nomda tuman, 8 nomda korxona va muassasalar gazetalari va 8 nomda jurnal chop etildi.[1;12-b] 1996-yilga kelib, 7 nomda respublika, 14 nomda tuman, 2 nomda shahar, 5 nomda tarmoq gazetalari va 4 nomda jurnallar chop etilgan. Shuningdek, bu davrda respublikada 2 ta nashriyot faoliyat yuritdi.[7]

Matbuot xodimlarining moddiy va ijtimoiy sharoitiga ham e'tibor qaratildi. Joylardagi bosmaxonalar tuman hokimliklarining yordamlari tufayli o'z ishchilari oylik maoshlarining o'z vaqtida berib borilishiga erishdi.

Shu bilan birga, davlat matbuoti qo'mitasi o'z ichki imkoniyatlaridan ham keng foydalandi. Har xil qog'oz blankalarga buyurtmalar olib, o'z iqtisodiy holatini yaxshilashga harakat qildi. Natijada, Nukus matbaa ishchi xizmatchilari 1996-yili 32,2 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, 70 million so'mlik sof foyda olishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari 4 million so'mlik kundalik daftar, o'quv kitoblari, devonxona daftarlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqardi va aholiga 220,7 ming so'mlik pullik xizmat ko'rsatdi.[8]

Ommaviy axborot vositalari va matbuot faoliyati hukumat diqqat markazida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 30-avgustda "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi natijada nashriyotlar eski uskunalar o'rniga jahon andazalariga mos keladigan matbuot uskunalari bilan ta'minlandi. 1996-1997-yillarda Nukus poligraf kombinati mahsulotlari sifatini yaxshilash maqsadida Germaniyaning "Geydelberg SNG" firmasi bilan shartnoma tuzib, shu asosda Avstriyadan turli xildagi matbaa dastgohlari olib kelindi. Jumladan, ular orasida xalqaro toifadagi "SFS — 72", "GTO -52", "KVIKMASTER 46-1" rusumli mashinalar [2; 9-b] bo'lib, ular yordamida nashrlarni ofset usulida chop etish, suratlarni zamonaviy usulda tayyorlash, matnlarni kompyuterlarda terish imkoniyati yaratildi. Bunday o'zgarishlar gazeta-jurnallarning tez va sifatli chiqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1997-yil boshidan boshlab, Qoraqalpog'iston Respublikasi matbuot ishlari bo'yicha davlat qo'mitasiga qarashli barcha tashkilotlar, korxonalar davlat tili to'g'risidagi Qonunni amalga oshirish bo'yicha jadallik bilan ish boshlashga, aloqa qog'ozlarini davlat tilida yozishga, lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosini joriy qilishga kirishdi. Har yili bosqichma-bosqich maktab darsliklari lotin yozuviga o'tkazib borildi. Mazkur o'quv yilida "Bilim" nashriyoti 127 nomda 10086 bosma taboq hajmida maktab va o'quv-uslubiy adabiyotlarni 723,5 ming nusxada chop etib, 1,6 million so'm sof daromad oldi. "Qoraqalpog'iston" nashriyoti esa 142 nomda 549,1 bosma toboq hajmida 208,9 ming nus'hada adabiyotlar chop etib 1,2 million sof daromad oldi. [8]

Ommaviy axborot vositalariga hukumat tomonidan moddiy va ma'naviy yordam va e'tiborning ortib borganligi yildan yilga bu sohaning kengayib, rivojlanib borishiga zamin yaratdi. Buni quyidagi faktlardan ham ko'rish mumkin.

2001-yilga kelib, hududdagi ommaviy axborot vositalarining umumiy soni 52 ta bo'lib, shulardan 35 tasi gazeta, 8 tasi jurnal, 1 ta byulleten-axborotnoma, 5 ta televideniye, 2 ta radio, 1 ta axborot agentligi faoliyat yuritdi. [9]

2007-yilda esa, hududda 38 ta gazeta, 7 ta jurnal, 1 ta byulleten, 1 ta axborot agentligi, davlat teleradiokanali, To'rtko'l, Ellikqal'a televideniylari faoliyat yuritgan.[10] 2011-yilga kelib, ular soni yanada oshdi. Ularning umumiy soni 53 ta bo'lib, shulardan 36 tasi gazeta, 9 tasi jurnal, 1 ta byulleten-axborotnoma, 4 ta televideniye, 2 ta radio, 1 ta axborot agentligi va 2 ta "Qoraqalpog'iston" va "Bilim" nashriyoti faoliyat yuritdi. 2018-yilga kelib, respublikadagi OAV umumiy soni 61 ta, bo'lib shundan 44 ta gazeta, 8 ta jurnal, 1 ta axborot agentligi, 1 ta byuten axborotnoma, 5 ta televideniye, 3 ta radio kanal faoliyat ko'rsatgan.[11]

Qoraqalpoq milliy matbuotiga nazar tashlasak, keyingi yillarda turli mavzulardagi ruknlarning ko'payganligini ko'ramiz. Bu davrda Qoraqalpog'iston milliy matbuotida avvallari keskin tanqidga uchrab qatag'on qilingan yoki kam e'tibor berilgan xalq qahramonlari, milliy urf-odat va an'analar, milliy o'zlik va milliy mezonlarga bag'ishlangan maqolalar chop etila boshlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1991-1994-yillarda milliy qahramonlar haqida nashr etilgan maqolalar 1995-2000-yillarga nisbatan ko'proq e'lon qilingan. [2;18-b] 1991-2000-yillar orasida esa din arboblari, din peshvolari bo'lgan tarixiy shaxslar nomlarini tiklash va ularga xolisona baho berishga bag'ishlangan materiallar nashr qilingan va namoyish etilgan.

"Yerkin Qaraqalpaqstan" gazetasi 2004-2005-yillarda 100 dan ortiq, "Jetkenshek" gazetasi 130 dan ortiq, 2010-yilga kelib esa "Yerkin Qaraqalpaqstan" gazetasi 180 dan ortiq, "Jetkenshek" gazetasi esa 200 dan ortiq har-xil ruknlardan foydalangan.[9;54-b]

Mavzular diapozoni yildan yilga kengayib borgan, ayniqsa: "Yerkin Qaraqalpaqstan", "Вести Каракалпакстана", "Qoraqalpog'iston tongi", "Qaraqalpaqstan jaslari", va "Ustaz joli" gazetalarida "Tarix", "XXI asr arxeologiya yangiliklari", "O'tmish va biz", "Manbalar", "Tarixga nazar tashlasak", "Tarixdan manbalar" nomli mavzularda maqolalar berilib, u xalqda katta qiziqish uyg'otgan.

Alohida ta'kidlash joizki, madaniyat sohasi rivoji, yutuqlari, muammolari va ularning yechimlari haqida tizimli ravishda ma'lumot berib borayotgan, Qoraqalpog'iston madaniyatining rivojlanishida alohida mavqega ega bo'lgan "Qoraqalpog'iston madaniyati" gazetasining roli juda muhim bo'ldi. Gazetaning dastlabki soni 1993-yil yanvar oyida chiqarilib, u 2500 nus'hada chop etilgan. 2005-yili gazeta "Madaniyat va sport" deb qayta nomlanib, 4-mart kuni 4 rangda chiroyli dizaynda 2900 nus'hada chop etildi. 2013-yildan boshlab gazetani doimiy ravishda yuqori sifatli oq (ofset) qog'ozda, 2 rangda, ba'zida 4 rangda chiqarish yo'lga qo'yilgan. 2005-2017-yillar oralig'ida "Madaniyat va sport" gazetasining 610 soni chiqarildi. Mazkur gazeta 2017-yil madaniyat va sport vazirligi sohasidagi amalga oshirilgan islohotlardan keyin "Qoraqalpog'iston sporti" nomi bilan chiqa boshlagan. Shundan keyin Madaniyat vazirligi o'zining kasbiy gazetasini tashkil qilishi zaruratga aylandi. Natijada 2017-yil 9-mayda yangi "Qoraqalpog'iston madaniyati" gazetasi tashkil qilinib, 2018-yil yanvar oyidan boshlab chop etila boshlandi. Bugungi kunda gazeta 2 rangda bayram sonlarida esa 4 rangda yuqori sifatli qog'ozda haftasiga 1 marta muntazam ravishda chop etib kelinmoqda.

### **Xulosa.**

Keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda boshqa sohalar kabi OAV sohasi ham rivojlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu haqda: "Butun mamlakatimiz qatori O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ham mustaqillik yillarida katta rivojlanish yo'lini bosib o'tganini barchamiz yaxshi bilamiz va bunday yutuqlar bilan haqli

ravishda faxrlanamiz” deganidek yurtimizda ommaviy axborot vositalari sohasi juda katta yutuqlarga erishdi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Bekbao'liyev D. Davlat mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davriy matbuoti. (1991-1994 yy.). Tarix. fan. nom. diss. .. avtoref. – Toshkent, 1997. – 23 b.
2. Qalekeev Q. Mustaqillik davri Qoraqalpog'iston matbuotida tarixiy shaxslar talqini. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 23 b.
3. Atajanov H. Qoraqalpog'iston matbuotida ma'naviyat masalalarining talqini. (2000-2010-yillar materiallari asosida). Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2012.– 24b.
4. Кожагелдиев А.У. Роль средства массовой информации в демократизации общества. // Вестник КГУ им Бердаха. – 2012. – №3-4. – С. 61-65.
5. Нуржанов С. Аксиологические аспекты публикаций газеты –Еркин Каракалпакстан|| в 1998-2002 гг. //Вестник ККО АН РУз. –2014. – №1. – С. 104-106.; Периодическая печать Каракалпакстана в системе общественных отношений. – Нукус: Илим, 2015. – 95 с.; Правовые основы функционирования периодической печати Узбекистана в период независимости. // Вестник ККО АН РУз. –2016. – №2. – С.104-106.
6. QR MDA. P –423 - jamg'arma, 1 – ro'yxat, 27 – yig'ma jild.
7. Yesemuratov A. Jumis mashqalasiz bolmaydi. // Yerkin Qaraqalpaqstan. – 1997. – 24-iyun.
8. Boltaboyev Y. Qoraqalpog'iston matbaasi: kecha, bugun, ertaga. // Qoraqalpog'iston tongi. –1997.– 27-iyun.
9. Bekbao'liyev D. Gazeta qalay shig'adi. – Nøkis: Bilim, 2011. – B. 89.
10. QR MDA. M – 576-jamg'arma, 1 –ro'yxat, 2322-yig'ma jild, 21- varaq.
11. Bekmuratov A. Jurnalistler – jaqaliq jarshilari. // Yerkin Qaraqalpaqstan. – 2018. – 28-iyun.
12. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 497.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE FATE OF WAQF PROPERTIES AND ATTITUDES TOWARDS RELIGIOUS INSTITUTIONS DURING THE SOVIET ERA**

**Toirjonova Rukhsora Shakhobiddinovna**

Lecturer at Fergana State University

**Abstract.** This article highlights how, by the late 1920s and during the 1930s, the Soviet central government became the main propagator of atheistic policy. It provides a detailed account of how the journal Militant Atheism (Kurashchan Ateizm) became one of the central media platforms for exposing religion.

**Keywords:** October Revolution, madrasa, waqf properties, places of worship, decree, “national liberation” (“basmachi” movement), newspaper, Bezbozhnik (“Godless”), Yuny Bezbozhnik (“Young Godless”), Eid al-Adha.

## **SOVET DAVRIDA VAQF MULKLARI TAQDIRI VA DINIY MUASSASALARGA BO'LGAN MUNOSABAT**

**Toirjonova Ruxsora Shaxobiddinovna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: [alfargoniy.uz@gmail.com](mailto:alfargoniy.uz@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarda Markaz dahriylik siyosatining asosiy fikr tarqatuvchisi bo'lganligi yoritilgan bo'lib, “Kurashchan ateizm” jurnali dinni “fosh etish” matbuot markazlaridan biriga aylanganligi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Oktyabr to'ntarilishi, madrasa, vaqf mulklari, butxonalar, dekret, “istiqlolchilik” (“bosmachilik”), gazeta, “Bezbojnik” (“Xudosiz”), “Yuniy bezbojnik” (“Yosh xudosizlar”), Qurbon hayiti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N04>

### **KIRISH**

Musulmon muassasa va tashkilotlarining iqtisodiy ta'minoti asosan vaqf mulklari bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun sovetlarning vaqf mulklariga nisbatan bo'lgan siyosatiga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Bizga tarixdan ma'lumki, vaqf mulklari mulkdorlar tomonidan o'quv muassasalari, diniy yoki xayriya mahkamalariga ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar yo'lida daromadidan foydalanish uchun, ammo sotmaslik sharti bilan xayr-ehson qilingan mulk bo'lib, bu mulklar daxlsiz hisoblangan.

Oktyabr to'ntarilishidan keyingi dastlabki yillarda Turkiston maktablari, madrasalarining vaqf mulklarini tartibga solish uchun hech qanday amaliy qadam qo'yilmadi. Aksincha Sho'ro hukumatining markazda qabul qilingan, Turkistonning o'ziga xos, milliy mahalliy sharoitiga muvofiq kelmaydigan qonun-qoidalarini to'g'ridan-to'g'ri joriy etishga harakat qilindi. 1918-yilning 23-yanvarida RSFSR XKC tomonidan qabul qilingan “cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish haqida”gi dekreti Turkistonda “Masjid butxonalarning davlatdan, maktablarning masjid butxonalardan ajratilish haqida dekret” nomi bilan e'lon qilindi.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Dekretga ko'ra asosan masjid, butxonalar (din) davlatdan, maktab masjid, butxonalardan ajratildi. Masjidlar va boshqa diniy jamiyatlar xususida:

“Har bir diniy jamiyatlar diniy bo'lmagan xususiy jamiyatlar va soyuzlar to'g'risidagi qonunlarga itoat etadurlar. Diniy jamiyatlar davlat avtonomiya yoki shu yerning idoralari tarafidan beriladigan imtiyozlardan foydalanmaydilar. Masjidlar, diniy jamiyatlar o'z foydalari uchun xalqqa majburiy bo'lgan hech qanday soliq sola olmaydi. O'shandoq, bu jamiyatlar o'zlarining a'zolarini qo'llab, qanday bo'lsa ham bir ishga majbur qilolmaydi va jazolay olmaydi” –deb ko'rsatib o'tilgan edi. Ma'lumki, Turkistondagi Sho'ro hokimiyati faqat markazda qabul qilingan qaror va dekretlarga amal qiladi. Oktyabr to'ntarilishidan keyin diniy masalalar bilan Turkiston MCCR ishlari xalq komissarligi shug'ullandi.

1918-yilning dekabr oyida Turkiston respublikasi Millatlar ishlari komissarligida vaqf mulklarini boshqarish bo'limi ta'sis qilindi. Mazkur bo'lim rahbarlari faoliyatining dastlabki kunlaridanoq vaqf mulklarini davlat tasarrufiga o'tkazish siyosati tarafdori bo'ldilar. Sho'ro hokimiyatining rahbar organlari tomonidan qabul qilingan barcha qarorlarni hayotga tatbiq qilish vazifasi yuklatilgan komissarlik vaqf masalasida yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni bekor qilgan yer haqidagi dekretga asosan o'lkadagi barcha vaqf mulklarini hisobga olib [1;39] ularni davlat mulkiga aylantirish ishini olib bordi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dekretdagi bu holatlar Sovetlarning 1917-yil 26-oktyabrdagi II-Butunrossiya syezdi qabul qilgan “Yer to'g'risida” gi dekretiga asoslangan edi. Chunki, unga ko'ra, barcha yerlar, jumladan masjidlarning ham yerlari umumxalq mulki deb e'lon qilindi, yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bekor qilingan edi.[2;72]

Bolshevistik partiya va sho'ro hokimiyatining masjidlar, musulmon maktab va madrasalarning vaqf mulklariga nisbatan salbiy munosabati o'lkada milliy-ozodlik kurashi, “istiqlolchilik” (“bosmachilik”) harakatining kuchayishiga sabab bo'ldi. 1922-yilning bahorida Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy ozodlik harakatining keng quloch yoyishi natijasida siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashdi. Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlar Sovetining 1920-yil 17-noyabrdagi Turkiston Respublikasida yerdan foydalanish va Yer tuzilishi haqidagi Nizomiga asosan Turkiston hududidagi barcha yer va suv, kim tomonidan foydalanilishidan qat'iy nazar, yagona davlatning, xalqning mulkiga aylantirildi. Vaqf yerlari esa Xalq Maorifi Komissarligi ixtiyoriga o'tkazildi. Shu tariqa 1920-yilning noyabrida Turkiston MSSR hokimiyati asrlar davomida maktab va madrasalarning iqtisodiy asosini tashkil etgan vaqf yerlari davlat tasarrufiga o'tkazilganligini e'lon qildi.[3;37]

1922-yil 13-maydagi Plenumi “Turkiston-Buxoro” ishlari bo'yicha qaror qabul qildi. Unda boshqa masalalar bilan birga vaqf yerlarini egalariga qaytarish, barham berilgan shariat qozilarini tiklash va musulmon maktab va madrasalariga erkinlik berish ko'rsatib o'tildi RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining 1922-yil 19-maydagi Plenumi Markaziy Qo'mning ushbu qarorini amalga oshirish tadbirlarini belgilaydi. Plenum Turkiston, Buxoro, Xorazmdagi sho'ro va partiya rahbarlariga vaqflarni qaytarish qozilik va boylik sudlariga yo'l berish vazifasini yukladi.[3;37]

1922-yilning 29-oktyabrda Turkiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining Respublika Ichki ishlar, yer-suv ishlari va adliya xalq Komissarliklari vakillar hay'atlari vakillari bilan birgalikdagi yig'ilishida vakillar haqida mukammal Nizom ishlab chiqish uchun Eshonxo'jayev,

Xomutxonov, I.Xidraliyev, Soloyev va adliya Komissarligi vakilidan iborat tarkibda komissiya tuzildi. Komissiya o'z ishida vaqfdan tushadigan daromadning asosiy qismi maktablarga sarflanishini ta'minlash, vaqf mulklarining amal qilish muddatlari va keyinchalik davlat ixtiyoriga o'tishini belgilash kerak edi.[4;22]

Bosh vaqf idorasi va uning joylardagi bo'limlari faoliyatining muhim yo'nalishi xalq maorifini rivojlantirishga sarflanishi lozim bo'lgan vaqf mulklari va ulardan tushadigan daromatlarni hisobga olish edi. 1923-yil sobiq uchta O'rta Osiyo Respublikalari hududidagi vaqf mulki hisobidagi karvonsaroylar, savdo rastalari, hammomlar, suv tegirmonlari, objuozlar, g'isht zavodlari qushxona, bozor maydonlari va mevali bog'larni ro'yxatga olinib boshlandi. Bulardan tashqari Xorazmda 6 ta o'rmon maydoni va 55 ta ko'l bosh vaqf idorasi qaramog'iga kiritildi.[5;71]

Respublikada yer suv islohoti o'tkazilishi munosabati bilan 1925-yil 19-dekabrda O'zbekiston sho'rolari markaziy ijroiya qo'mitasi "Vaqflar haqida" qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra, vaqf mulki deb mazkur qaror chiqquniga qadar xususiy shaxslar yoki birlashmalarni madaniy-ma'rifiy yoki ijtimoiy foydali masalalar foydasiga xayr-ehson yoki vasiyat qilish orqali voz kechilgan mulklar yoki olinadigan daromaddan foydalanib ushbu muassasalar ehtiyojini qondirish huquqini beruvchi mulklar tan olindi. Madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy foydali maqsadlarda ta'sis etilgan vaqflar davlat mulki deb e'lon qilindi. Diniy jamoalar masjid va madrasalarning vaqflari daxlsiz qoldirildi.

Shunday qilib O'z.SSR MiQ o'zining 1925-yil 19-dekabrda "Vaqflar haqida" gi qarori bilan madaniy-ma'rifiy xarakterdagi vaqf yerlarini davlat mulki deb e'lon qilish orqali musulmon maktab va madrasalarning iqtisodiy asosidan mahrum qildi. Partiya organlarning tazyiqi ochishda O'zbekiston hukumati respublikadagi o'ziga xos mahalliy sharoiti hisobga olmasdan nafaqat madaniy-ma'rifiy balki diniy vaqflarni ham tugatish ishini tezlashtirib yubordilar.

1927-yil 27-sentyabrda O'z SSR XKS vaqf mulklari Bosh vaqf idorasidan, mahalliy xo'jalik idoralariga berishga qaror qildi. Qarorda, vaqf mulklari mahalliy xo'jalik mulklari bilan bir xil bo'lgan holda, ulardan foydalanish usullari bir-biriga to'g'ri kelmaganligi hamda bir ish tepasida ikki idoralar | IIXK (NKVD) qoshidagi mahalliy xo'jaliklar bosh idorasi va XMK qoshidagi Bosh vaqf idorasining nazorat etish iqtisodiy jihatdan zararli ekanligi qayd etilib, vaqf mulklaridan tushadigan daromad hisobidan ta'minlanadigan madaniy-ma'rifiy muassasalar mahalliy xo'jalik idoralarining ta'minlanishiga o'tkazish sharti bilan vaqf mulklarini mahalliy xo'jalik mulklari bilan birlashtirishni maqsadga muvofiq deb topildi.

1929-yil 10-11-iyun kunlari Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasining II syezdi Markaz va uning Ittifoqdagi barcha respublika bo'limlarini "kurashchan xudosizlar" deb nomlashga qaror qiladi.[6;63]

XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarda Markaz dahriylik siyosatining asosiy fikr tarqatuvchisi bo'ldi. Butunittifoq xudosizlar uyushmasi XX asrning 20-yillari oxirida 14 ta tilda, 18 ta nashrlariga ega bo'ldi. Uyushma haftalik gazetasi "Bezbojnik" ("Xudosiz"), shuningdek "Antirelegioznik", "Bezbojnik", "Derevenskiy bezbojnik" ("Qishloqlik xudosiz"), "Yuniy bezbojnik" ("Yosh xudosizlar") singari markaziy jurnallarni chop ettirdi. "Kurashchan ateizm" jurnali ham dinni "fosh etish" matbuot markazlaridan biriga aylandi.[6;63]

Yuqorida qayd etilgan markaziy jurnallar bilan bir qatorda boshqa millatlarning tilida ham gazeta va jurnallar chop etildi, maxsus byulletenlar chiqarildi. Jumladan, ukrain tilida

“Bezverniki” (“Dinsiz”) bir xil nomdagi gazeta va jurnal, tatar tilida esa “Sgushchan allasizlar” (“Kurashchan xudosizlar”), yahudiy tilida “Anikuyres” (“Xudosiz”), arman tilida “Anastvast” (“Xudosiz”) kabi jurnallar oyda bir marta, yil davomida 12 ta soni muntazam nashrdan chiqib turdi.

Bu davrda sovet armiyasi jangchi va zobitlari orasida ham xudosizlikka da’vat etuvchi tashviqot va targ’ibot ishlari yuritilib, 1929-yil qizil armiya harbiy texnikalaridan “Xudosizlar samolyoti”, 1931-yil iyundan esa “Kurashchan xudosiz” tanki, Baltika flotida “Kurashchan xudosiz” suv osti kemasi, bundan tashqari “Ukrainalik xudosiz”, “Gruziyalik xudosiz”, “Birobidjon xudosizlari” nomidagi samolyotlar, “Urallik xudosiz” tank kolonnasi mavjud bo’lib, ular dinga qarshi kurash olib borish ramzlariga aylangan edi.[6;63]

“Xudosizlar uyushmasi” a’zolarining arifmetik raqamlar bilan ortib borishi, bu sohada ommaviy tarzda ish olib borilganligidan dalolat berib turibdi. “Xudosizlar” jurnalida qishloq xo’jalik jamoalariga birlashgan dehqonlar ushbu marosimlarda deyarli ishtirok qilmayotganligi bir necha bor ta’kidlanadi. Maqolalardan birida, “Ittifoqimizda bo’lgan musulmonlar 28-apreldan 3-maygacha Qurbon hayitini o’tkazdilar. O’zbekistondagi dehqon xo’jaliklarini 56% kollektivlashdi, eskilik sarqitlaridan biri dindir, Qurbon bayrami ichida bir million mol-qo’y so’yilar ekan, bundan sinfiy dushmanlar nega manfaatdor bo’lmasinlar”,[7;5] – deb yozilgan edi.

### XULOSA

“Xudosizlar” uyushmasi tomonidan o’tkazilgan tadbirlarda “Tezda dinni tugatamiz!” shiori ostida ish ko’rilgan. XX asr 30-yillarining oxirlarida garchi xayolparastlik bo’lsada dindorlarni “jamiyatdan supurib tashlash” uchun sovet hukumati barcha imkoniyatlarini ishga soldi. Moddiy xarajatlar, ommaviy axborot vositalari hamda bu yo’nalishdagi madaniy-oqartuv muassasalari faoliyat olib borayotgan xodimlarga katta miqdorda mablag’ ajratildi. Maqsad xalqning ongidan va qalbidan diniy tushunchalarni chiqarib tashlash, diniy marosimlarga butunlay chek qo’yish, dahriylik siyosatini qaror toptirishdan iborat edi.

O’zbekiston SSR Maorif xalq komissariati zimmasiga “Xudosizlar” uyushmasi Respublika viloyat, tuman bo’limlarida faoliyat ko’rsatadigan, ya’ni shtat asosida ishlaydigan xodimlarni respublika budjeti va mahalliy budjet hisobidan maosh bilan ta’minlash vazifasi yuklatilgan. Ularga to’lanadigan oylik maoshlarining miqdori oldindan belgilab qo’yilgan.[6;70]

Xulosa qiladigan bo’lsak, “Xudosizlar” uyushmasi tomonidan olib borilgan shafqatsiz dahriylik siyosati natijasida Ittifoq hududidagi barcha diniy muassasa va tashkilotlar hamda ularning faoliyati, islom dini ulamolari va dindorlari o’zini o’nglay olmas darajada og’ir ahvolga tushib qoldi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.Adhamov. Din ham sho’rolar xukumi. T., 1967. – B. 39.
2. Alimov I.A. O’zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929 yillar). Toshkent. “Fan”, 2009.
3. Jo’rayeva G. Vaqf nima? // Sharqshunoslik. 2-to’plam. 1991. – B. 37.
4. Komilov O. XX asrning 20 yillarida O’zbekiston milliy maorifidagi o’zgarishlar. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: 2009.
5. Boltaboyev S.T. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. Namangan nashriyoti, 2005.
6. A.Salmonov. O’zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydurma va tarix haqiqati (1917-1960 yillar). Toshkent: Tafakkur, 2015. – B. 63.
7. Xudosizlar. 1931 aprel. №4. – B. 5.

Received: 16 June 2025  
Accepted: 5 July 2025  
Published: 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL PUBLIC EDUCATION, LITERATURE, AND ART**

**Aytmuratova Janilsin Jalgasovna**

Associate Professor, Department of the  
History of Uzbekistan and Karakalpakstan, Karakalpak State University  
E-mail: [aytmuratova88.88@mail.ru](mailto:aytmuratova88.88@mail.ru)

**Quvatbayeva Charos**

3rd-Year Student, Karakalpak State University

**Abstract.** The article extensively covers the spiritual and educational foundations of the Jadid movement and their relevance in modern society. The activities of the Jadids were considered as a change in the people's attitude towards science, enlightenment, justice, social behavior, their ideas were considered as the main factor of national revival and spiritual upliftment. emphasizes that attention to such issues as strengthening the development of public education, literature and art is important today.

**Keywords:** Jadids, spirituality, enlightenment, youth, reforms, education, science.

## **MILLIY XALQ TA'LIMI, ADABIYOT VA SAN'AT RIVOJIDA JADIDLARNING TUTGAN O'RNI**

**Aytmuratova Janilsin Jalgasovna**

kafedrasi dotsenti  
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi, Qoraqalpoq davlat universiteti

**Quvatbayeva Charos**

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada jadidlar harakatining ma'naviy-ma'rifiy asoslari va ularning bugungi kun jamiyatidagi dolzarbligi keng yoritilgan. Jadidlar faoliyati xalqning ilmga, ma'rifatga, adolatga, ijtimoiy xulqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularning g'oyalari milliy tiklanish va ma'naviy yuksalishda asosiy omil sifatida qaralgan. xalq ta'limi, adabiyot va san'at rivojini mustahkamlash kabi masalalarga bo'lgan e'tibor bugungi kun uchun ham muhim ekani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Jadidlar, ma'naviyat, ma'rifat, yoshlar, islohotlar, tarbiya, ilm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N05>

### **INTRODUCTION AND RELEVANCE**

After the conquest of the Turkestan region by Tsarist Russia in the 60s and 80s of the 19th century, the crisis in the field of education deepened. All mosques and madrasahs in the Turkestan region were under the control of specially trained people. Many mosques and madrasahs were deprived of their operational capabilities and closed. The Tsarist government began to skillfully use various methods of struggle against the old schools and madrasahs in our region. From the 1890s, the positions of special inspectors were introduced to supervise



mosques and madrasas, and from 1896, the educational work in schools and madrasas was controlled by the khokims of the city. On December 19, 1884, the first Russo-native school for children of representatives of the local population was opened in the house of the Tashkent merchant Saydazimbay, who was known for his views. If by 1886 the number of such Russian-native schools in the Turkestan Krai reached 14, then by [1;27-28] 1891 the number of such Russian-native schools in the Turkestan Krai reached 89. The duration of study in Russian-native schools was 4 years, and local children received instruction in Russian language, mathematics, and Russian law. However, the attempts of Tsarist Russia to open Russian-native schools in the region and teach the children of the local population the Russian language did not yield the expected results. "Opening Russian-native schools in Turkestan did not achieve its intended goals. The emergence of other non-state schools prevented the indigenous peoples from conducting large-scale activities."

### **METHODS AND LEVEL OF EXPLORATION**

The Jadids trace their political traditions to the famous Crimean Tatar political figure Ismail Gasprinski. Ismailbek came from a noble family (1851-1914) and studied at a Muslim religious school in Crimea and a military school in Moscow. Under his leadership, the journal "Tarjimon" was published for 20 years. The first Jadid school in Turkestan was opened in 1886 in Turakurgan (present-day Namangan region) under the leadership of Ishoqonto'ra Ibrat, who lived between 1862-1937. The Jadid tradition was aimed at reforming schools. In 1892, I. Gasprinski sent a project for the reform of Muslim schools to the Governor-General of Turkestan, Rosenbach, and received an unsatisfactory response.

In 1893, I. Gasprali came to Bukhara, met with the Emir of Bukhara Abdulla, and proposed to open a new method school. As a result of I. Gasprali's efforts, the Emir of Bukhara authorized the opening of Jadid schools. In 1898, a second Jadid school was opened in Kokand under the leadership of Salahuddin. Until 1899, a Jadid school was opened in Andijan under the leadership of Shamsiddin domla, and in 1901, under the leadership of Munovvarqori in Tashkent, and in the same year, Abduqodir Shakuriy, who lived between 1875-1943, opened Jadid schools in Samarkand.[2;10.]

Just as al-Khwarizmi's work "Al-Jabr" was a great discovery in the history of science, Jadid schools were a huge innovation in the education of the Muslim world. This gave a great impetus to the development of education, schooling, enlightenment and culture. If in old schools children became literate in 5-6 years, then in Jadid schools they had the opportunity to read and write literately on average in one year. Three-stage Jadid schools appeared. A three-tiered education system emerged, consisting of primary education (four years), secondary education (seven years), and higher education. By 1903, about 100 different Jadid schools were opened in various parts of Turkestan. Although Jadid schools pay from one to one and a half soums per month, 30-35 percent of students in these schools are children from low-income families, and they are taught free of charge. **RESEARCH RESULTS.** Jadid schools developed significantly in Turkestan within 15-20 years. In the New Method Jadid schools, along with religious teachings, mathematics, geography, natural science, and other secular sciences were taught. However, with religious people who fiercely opposed any new movement and innovations, the emirate opposed the movement of New Method schools. In 1914, the muezzin announced to 5-6 thousand Muslims gathered at the Grand Mosque within the Ulugbek Madrasah that those who called on the Jadids and to study in Russian were considered disbelievers, and whoever gave

their child to a Jadid school would be considered a disbeliever, and their wife would be divorced. Nevertheless, the number of Jadid schools in Turkestan increased and attracted public attention. In the period from May 9 to 14, 1914, the first congress of teachers of the region was held in Tashkent, at which the most important issue for the peoples of the Turkestan region - the issue of Russian-native schools - was included on the agenda. At the congress, the head of the Turkestan region delegation, Munavvarqori Abdurashidkhanov, delivered a report on the reform of school affairs in Turkestan. After heated discussions, a decision was made to establish national schools in Turkestan. According to this decree, the existing Russian-native schools were to be transformed into national schools; In schools divided into primary, secondary, and higher education, education should be conducted in the native language; primary education should be general, compulsory, free from the age of 6, and funds from the state treasury, local organizations, and city administrations should be allocated for "new method" schools. The writing of textbooks for Jadid schools was well established. A. Avloni (1878-1934) made a great contribution to providing Jadid schools with textbooks. A. Avloniy was born on July 12, 1878, in Tashkent. Avloniy was one of the activists of the Jadid movement that flourished in our region at the beginning of our century. In 1907, he opened a Jadid school in his neighborhood. That same year, he published a newspaper called "Shuhrat" at his home. A. Avloniy wrote textbooks for Jadid schools consisting of four sections, such as "Literature or National Poems," "First Teacher," "Second Teacher," "School Gulistan," "Turkic Gulistan or Ethics." Munavvarqori Abdurashidkhanov made a great contribution to the promotion and development of science and education in Turkestan. Munavvarqori lived between 1878 and 1931. In 1901, he opened a Jadid school in his courtyard. For these Jadid schools, he wrote alphabets and anthologies such as "Adibi avval," "Adibi soniy," and textbooks titled "Yer yuzi." M. Behbudi (1875-1919) is considered the author of textbooks for Jadid schools. The contribution of I. Gasprinsky, the founder of the Jadid movement, to the development of Behbudi's worldview is immense. Behbudi was on a pilgrimage in 1900, and this pilgrimage strengthened his views on New Method schools. On his initiative, Jadid schools were opened in the villages around Samarkand. For Jadid schools, Behbudi wrote textbooks such as "Risolayi asbobi savod," "Risolayi jug'rofiya umoniy," "Risolayi Rusiy," "Kitobat ul atfol," "Tarixi islom."

Textbooks for Jadid schools In 1901, the work "Lug'ati sitta-ol-sina" was published by Ishoqxon Ibrat. This dictionary was considered the only guide for studying Eastern and Russian languages in Jadid schools. Abdikadir Shakuri's "Ruhnomoiy savod" (Literacy Manual) was widely used as a textbook in Jadid schools. One of the major achievements of the Jadids during the Soviet era was the establishment of the current Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan. This university was founded on May 12, 1918, at the initiative of Munavvarqori Abdurashidkhanov, the father of the Jadid movement. The Jadids, first of all, tried to educate the population and become enlightened at the level of world requirements. The Jadids tried to open the eyes of the people by developing the press and education. At the end of 1905, the Jadids published the newspaper "Garden of Life of Central Asia," in which articles on school reforms and other everyday issues were published. However, two months later, this newspaper was forced to cease its activities by Tsarist Russia. In 1906, under the leadership of Ismail Abidov, the Jadid newspaper "Taraqqiy" was published. This newspaper published articles containing views on educational reforms, criticism of the country's political-administrative system, and ensuring Muslim unity. Therefore, the newspaper was soon banned from

publication by the government. In September 1906, the newspaper "Xurshid" (Sun) began to be published, in which the Tsarist government's system of political governance was carefully criticized, and articles awakening the political consciousness of the people began to be published. In 1908, the Jadid newspaper "Shuhrat" was published. In one of M. Behbudi's articles published there, it was indicated that it was necessary to send young people abroad to train engineers, lawyers, doctors, and economists from among the representatives of the local population. At the same time, articles on political life were also published in the newspaper.

### CONCLUSION

The Soviet government began to block the Jadid enlightenment movement by closing newspapers one after another. However, not stopping by the Jadids, he published the newspapers "Samarkand," "Sadoi Turkiston," "Sadoi Farg'ona," "Jonli til," "Buxoroi Sharif," and "Turon," as well as the magazines "Al-isloh" and "Oyna" between 1913 and 1915. As for the history of the Jadid press, on October 17, 1905, due to the revolution in Russia, the Tsarist government was forced to issue a Manifesto, in which it granted the people certain constitutional freedoms. The Jadids skillfully used this opportunity. A number of cultural organizations were created. Newspapers and magazines were published. One of them was the newspaper "Taraqqiy," published on June 27, 1906. Today, this date is declared as Press Day in the Republic of Uzbekistan. A. Avloniy writes that this newspaper gained great prestige in its time, and even Ismail Obidov, who published the newspaper, was given the name "Taraqqiy." In September 1906, under the leadership of Munnavvarqari, the newspaper "Khurshid," the second newspaper of the Jadids, was published. From December 1, 1907, Abdulla Avloni, a prominent representative of the Jadid movement, began publishing the newspaper "Khurshid" in his house.

These three newspapers were considered among the most prestigious in Turkestan at the time. Also in Tashkent, in 1907, the newspaper "Tujor" was published under the leadership of Saidazimbay, and in 1908, the newspaper "Osiyo" was published under the leadership of Ahmadjon Bektemirov. In Samarkand, M. Behbudi actively participated in the publication of the newspaper "Samarkand" in 1913 and the magazine "Oyna" between 1913 and 1915. In Tashkent in the 1910s, the newspaper "Sadoi Turkiston" (under the leadership of Ubaydullahodzhaev in 1914), in Fergana "Sadoi Farg'ona" (under the leadership of Obidjon Makhmudov in 1914), in Bukhara "Turon" (1913), and the magazine "Al-isloh" (in Tashkent in 1915-1918) were published under the leadership of Abdurahmon Sayyoh. In Tashkent, Munovvarqori (1908-1931), A. Avloniy (1878-1934), Tavvallo (1882-1939), Mirmulla (1886-1923), and A. Qodiriy (1894-1938) contributed their articles to the "Sadoi Turkiston" newspaper. The publication of Munavvarqori's "Adibi avval" and "Adibi Soniy," Saidrasul Aziziy's "Ustozi avval," and Abdulla Avloniy's "First Teacher" and "Second Teacher" played a significant role in the development of educational work. In Tashkent, there were many newspapers and magazines, such as Munovvarqori "Najot," A. Battol "Shuroi Islam," A. Avloniy "Turon," Ahmad Zaki Validi "Kengash," Kabir Bakir "Ulug' Turkiston," T. Khudoyorkhanov "Turk so'zi," Mukhtar Bakir "Xalq dorilfununi," in Samarkand "Hurriyat" (Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shohmansur, Abdurauf Fitrat), in Kokand, "El bayrog'i," Pulat Soliyev, in Namangan, "Farg'ona nidosi" (Husain Makaev), Ashurali Zohiriy ("Yurt"), Mahmudkhoja Rizo'iy ("Hurriyat"), "Chayon" (H. Tulakov, I. Tohiriy), "Ishchilar dunyosi," "Izhoril haq" (Sadridinkhoja ibn Shorifkhoja Eshon). From 1918, a socialist printing house began

operating, its first newspaper "Ishtirokiyun" (Socialist) was published from June 20, under the leadership of O. Klebleev, A. Avloniy, N. Turakulov, A. Donsky. This newspaper continued to be published from December 19, 1920, under the names "Qizil Bayroq," and from September 13, 1922, under the name "Turkiston." Short-lived magazines such as "Maorif" (Tashkent, 1918), "Bolalar yo'ldoshi" (Samarkand, 1919), "Tong" (Bukhara, 1920), "Qizil tikon" (Namangan, 1920), and "Qizil yo'l" (Tashkent, 1920) were published. In 1918, at the initiative of A. Fitrat, a literary and cultural organization called "Chagatai Circle" appeared in Tashkent, which gathered representatives of our science and culture, such as Cholpon, Botu, Elbek, and Gulyam Zafari. This organization, which operated for only a year and a half, implemented major measures in the development of society, language rules, the study of literary history, and the development of theater. Cultural and educational life gradually entered the political system. The Jadids widely disseminated their educational, enlightenment, and political movements through the press. For the first time in history, the Jadids laid the foundation for a modern national press and printing house. The contribution of printing houses to national self-awareness, the emergence of national spirit and consciousness, and the formation of the national liberation struggle and the idea of independence was exceptionally high.

#### **References/Литература/Adabiyotlar:**

1. Alimova. N. Chorus's policy in Turkestan. (1867-1917). Candidate of Historical Sciences dissertation. - T., 2004. - B. 27-28.
2. Ulug'bek Dolimov Jadid Schools in Turkistan, Tashkent "Universitet" 2006. 7. Jadidism: Reform, Renewal, Struggle for Independence and Progress (Periodical Collection) T. Sharq. 1999
3. Kasimov. B. National Awakening. - T., 2002.
4. Sharipov R. From the history of the Turkestan Jadid movement. - Тошкент, 2022. - P. 9-10.
5. Alimova D.A. History as History, History as Science - Tashkent "Uzbekistan," 2009.
6. Munavvar Qori Abdurashidxonov. From My Memories. -T.: 2001. - P. 8-9.
7. Dominov.U. Ishoqxon Ibrat. T: Sharq, 1994.
8. Jalolov.A. Uzganboev.Kh. The role of the periodical press in the development of Uzbek enlightenment literature. T.: Fan, 1993.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF 3D MODELING TECHNOLOGY IN THE RECONSTRUCTION OF HISTORICAL FORTRESSES IN THE KHOREZM AREA**

**Rakhimova Zebo.**

3rd year student of the History department, Urgench State University

Email: [rahimovazeboxon04@gmail.com](mailto:rahimovazeboxon04@gmail.com)

scientific leader: Yusupov Akhmedjon Shonazarovich

Urgench State University Associate Professor of the Department of History (PhD)

**Abstract.** Currently, the importance of 3D modeling technology is growing in the process of digitally reconstructing ancient and historical fortresses in the Khorezm area. The 3D modeling method allows you to accurately and visually restore historical monuments, reanimate their original appearance. This technology is not only important for archaeological research and scientific research, but also has an urgent importance in the development of the tourism industry. This article will give some conclusions on the importance of 3D technologies in the reconstruction of historical fortresses on the example of scientific research, practical work, experiments and projects carried out in Khorezm.

**Keywords:** "3D technology", "virtual", "historical reconstruction", "neolithic age", "3ds Max", "Lumion", "graphics", "3D modeling".

## **XORAZM HUDUDIDAGI TARIXIY QAL'ALAR REKONSTRUKSIYASIDA 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Rahimova Zeboxon O'ktam qizi**

Urganch davlat universiteti Tarix ta'lim

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ilmiy rahbar: Yusupov Axmedjon Shonazarovich

Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrası dotsenti., PhD

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda Xorazm hududidagi qadimiy va tarixiy qal'alarni raqamli tarzda qayta tiklash jarayonida 3D modellash tirish texnologiyasining ahamiyati ortib bormoqda. 3D modellash tirish usuli tarixiy obidalarni aniq va vizual tarzda tiklash, ularning asl ko'rinishini qayta jonlantirish imkonini beradi. Bu texnologiya nafaqat arxeologik izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim, balki turizm sohasini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu maqolada Xorazmda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, amaliy ishlar, tajribalar va loyihalar misolida 3D texnologiyalarning tarixiy qal'alar rekonstruksiyasidagi ahamiyati yuzasidan ba'zi xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** "3D texnologiyasi", "virtual", "tarixiy rekonstruksiya", "neolit davri", "3Ds Max", "Lumion", "grafika", "3D modellash tirish".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N06>

### **KIRISH**

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda mavjud tarixiy manzillarni raqamlashtirish orqali ularni kelajak avlodlarga yetkazish, virtual sayohatlar yaratish va madaniy merosni keng

ommaga tanitish kabi masalalar tobora muhim vazifaga aylanib, tarixchi va arxeologlarga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada Xorazm hududida qadimdan mavjud bo'lgan va bugungi kunda dastlabki ko'rinishini tiklash muhim bo'lgan qal'alar bilan tanishib chiqish hamda qayta rekonstruksiya qilishda zamonaviy 3D texnologiyasidan foydalanish muhimligini tan olish kerak.

Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo'lgan. Beruniy ma'lumotiga ko'ra, shu davrda Xorazm hududida 300 dan ortiq shaharlar bo'lgan[1; B-231]. Ularning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu ma'lumotni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. O'tgan asrning 70-yillar oxiriga kelib 300 dan ortiq yodgorliklar topilgan bo'lsa[2; B-40], XX asrning 90-yillar oxirida ularning soni 400 ga yetgan[3; B-31-32] Xiva, Xazorasp, Ko'na-Uaz, Qandumqal'a, Guldursun, Akchaxon qal'a, Katta Aybuyirqal'a, Voyangan... Kanallarning uzunligi 40-50 km va undan ham ortiq bo'lgan. Qal'alarining fortifikatsiyasi, ya'ni mudofaa tizimi nihoyatda mustahkam bo'lgan. Barcha qal'alarda nayzasimon shinaklari bo'lgan ikki yarusli o'q otadigan yo'laklar, darvoza oldida labirint, mustahkam burjlari bo'lgan. Qadimgi Xorazm davlati chegaralari bo'ylab chegara qal'alari bunyod etilgan. O'ng qirg'oq Xorazmda Burli qal'a, Ayazqal'a, kichik Qirqqizqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Jonbosqal'a, chap qirg'oqda –Akcha gelin, Gaurqal'a, Kangaqirqal'a... Har bir bunday qal'alar atrofida ochiq shaklidagi manzilgohlar topilgan. Ularda orasida bir bino alohida ajralib turgan. Uning atrofi uzumzorlar va dalalar bilan o'ralgan. Bu shu hududning hokimining yashashgan joyi bo'lsa kerak. Bu esa, qishloq joylarida tabaqalanish jarayoni bo'lganligidan darak beradi. Qo'rg'oshinqal'adan ko'p miqdorda yirik xumlar va chuqurchalar topilgan. Bu uning o'sha hududning, qishloq jamoasining omborxonasi vazifasini o'tganligi aniqlangan [4, B-68-69.].

Qadimgi Xorazm bosib olgan hududda jami mingga yaqin qadimiy qal'alar mavjud. Ularning aksariyati hali ham kam o'rganilgan, chunki ular yo'llardan uzoqda, o'tib bo'lmaydigan qumtepalar va sho'r botqoqlar orasida, uzoq vaqt qurigan daryolar tubida joylashgan. Ularning keyingi tadqiqotlari Markaziy Osiyo va Yevrosiyo qit'asi tarixiga oid ko'plab zamonaviy qarashlarni o'zgartirishi mumkin. O'tgan asrning o'rtalarida "Ahnenerbo" ajdodlar merosini o'rganish bo'yicha natsistlar jamiyati josuslari arilarning mifologik ajdodlari uyi Asgardni qidirib topishganda, mintaqa alohida e'tiborni jalb qilgani bejiz emas. Shu bilan birga, sovet arxeologlariga qal'a devorlari va qum ostida ko'milgan qadimiy sug'orish kanallarini qidirish uchun hatto harbiy samolyotlar taqdim etildi, buning natijasida Qizilqumda o'zaro bog'langan mustahkam inshootlarning butun "mamlakatlari" topildi[5; B-292].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati tarixiy va madaniy yodgorliklarining ma'naviyatni yuksaltirishdagi ahamiyatini o'rganishga oid adabiyotlar moddiy hamda nomoddiy meros nuqtai nazaridan kelib chiqib, ma'naviyat, tarix, arxeologiya, arxitektura, etnografiya, folklorshunoslik sohalaridagi asarlar va xorijiy tadqiqotchilarning tadqiqotlari tahlil qilindi: Arxeologlarning ilmiy tadqiqot ishlari mavzu uchun katta ahamiyat kasb etsa-da, ularda asosan yodgorlik tuzilishi, topilmalar va ularning xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, S. R. Baratov, SH. Matrasulov, B. Sadullaev Hazorasp, Xumbuztepa, Meshekli, Uch o'choq, Toshqal'a-2 yodgorliklarida, M. Mambetullaev, G'. Xo'janiyazov, N. Yusupov, R. Abdirimov, SH. Matrasulov, Q. Sobirovlar Xiva, Hazorasp, Zorliq eshon kabi yodgorliklarda arxeologik qazish ishlarini olib borib, tadqiqot natijalarini ilmiy maqola va tezislar shaklida

e'lon qilgan. O'zbekistonda arxitektura va ta'mirlash bilan bog'liq ayrim masalalar soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Me'morchilik sohasi mutaxassisi M. Ahmedov me'moriy obidalariga bo'lgan munosabat hamda ta'mirlash ishlarini yoritgan [6; B-79].

### MUHOKAMA

Xorazmning tarixini yoritishda katta hissa qo'shgan arxeolog olim S.P. Tolstov 1937-yildan Xorazm hududida arxeologik izlanishlarni yo'lga qo'ygan. Uning boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi qum barxanlari ostida yotgan Xorazmning ibtidoiy davri tarixini yoritishda ko'plab asosli manbalarni amaliyotga tortiq etgan. U izlanishlari davomida ko'plab ashyolar, manzilgohlar, qal'alarni ochib o'rgangan. Shu davrgacha noma'lum bo'lgan 200 ta qal'a, o'n bir ming kvadrat metr maydonda, yer qarida bir necha ming yillardan buyon yotgan antropologik, arxeologik ashyoviy dalillar, ibtidoiy jamoa, quldorlik davri, qadimiy Xorazm davlatining paydo bo'lishi, yuksalishi va yemirilishiga doir ashyoviy topilmalar tarix fanida yangilik bo'ldi [7, C. 7]. 20-asrning 30-yillarigacha, ya'ni qazishmalar boshlanganda, S.P. Tolstov, bu qadimiy mamlakat haqida juda kam narsa ma'lum edi. Ammo qazishmalar natijalari barcha kutilganidan ham oshib ketdi. Xorazmda olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, mavjud yozma manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu hududda shaharlar deb ataladigan 64 ta arxeologik yodgorlik mavjud. Bugungi kunda ular asosan vayronaga aylangan [8; B-415].

Xorazm vohasi — Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri sanaladi. Ushbu hududda qadimda shakllangan qal'alar — Topraqqal'a, Ayazqal'a, Qiyotqal'a, Jonboshqal'a va boshqa yodgorliklar — bugungi kunda faqat tarixiy va arxeologik obyekt sifatida emas, balki xalq xotirasining, madaniy o'zlikning timsoli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Biroq, ularning aksariyati asrlar davomida tabiiy omillar (shamol eroziyasi, iqlim o'zgarishlari) va antropogen ta'sir (inson faoliyati, ekspluatatsiya, e'tiborsizlik) natijasida jiddiy yemirilgan. Ko'plab qal'alar va arxitektura obidalari hozirda faqat xarobalar holida bo'lib, ularni tiklash yoki tiklamaslik masalasi doimo murakkab muhokamalarga sabab bo'lib keladi. Klassik restavratsiya usullari ko'p holatda asl holatni tiklashda yetarli aniqlik bera olmaydi yoki tarixiy haqiqatdan uzoqlashish xavfini tug'diradi. Shunday sharoitda, zamonaviy texnologiyalar — xususan, 3D modellash tirish texnologiyasi tarixiy yodgorliklarni virtual tarzda tiklash, tahlil qilish va saqlab qolish yo'lida innovatsion yechim sifatida ilgari surilmoqda.

O'rta Osiyoda tarixni rekonstruksiya qilish jarayonlari XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Bu o'lkada olib borilayotgan arxeologik tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan. Arxeologik tadqiqot ishlari va yozma manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash orqali tarixiy rekonstruksiya ishlarini olib borishgan. Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P. Tolstov tarixni rekonstruksiya qilishda arxeologik ma'lumotlar bilan bir qatorda etnografik ma'lumotlar ham muhim rol o'ynashini ta'kidlangan. V.M. Masson arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya masalalarini metodologik uslublarini ko'rsatib beradi [9; B-324]. U arxeologik materiallar asosida tarixiy jarayonlarni yoritish masalalariga e'tiborni qaratadi. Arxeologik manbalar asosida madaniy taraqqiyot va ijtimoiy turmush tarzini ochib beradi. A.V. Vinogradov tabiiy sharoit, landshaft, hayvonot va o'simlik qoldiqlarini o'rganish orqali neolit davri odamlarining turmush tarzini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Bunda paleozoologiya, paleobotanika fanlari tadqiqotlaridan foydalanish muhimligini ko'rsatadi. XX asrning 50-yillarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi Janubiy

Orolbo'yi hududlarining o'zlashtirilishi o'rganish orqali hududning paleogidrografiya va paleoekologiya rekonstruksiya mavzulariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar fanga tatbiq etildi. Ya. G.G'ulomov va B.V.Andrianovning ilmiy tadqiqotlarida qadimgi Xorazmning sug'orish tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalarini o'rganish orqali ular nazariy jihatdan qayta tiklangan [10; B-2]. M.G.Vorob'eva Xorazmning antik davrga oid terrakotalari, ostadonlari va suvdonlardagi bo'rtma tasvirlarni tadqiq qilish orqali qadimgi xorazmliklarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni rekonstruksiya qilishga muvaffaq bo'lgan [11; B-45-220].

### **NATIJALAR**

Izlanishlar natijasida S.P.Tolstov O'zbekiston hududidagi neolit davriga oid noyob topilmani ochib o'rgangan. O'rganilgan manzilgoh O'zbekiston tarixining neolit davri ma'lumotlarini yanada boyitgan. 1939-yilda Yonbosh qal'adan 1.5 km janubda Xorazm hududidan neolit davriga oid ilk manzilgoh topib o'rganildi. Yonbosh-4 deb nom olgan ushbu manzilgoh Moskva Davlat Universiteti talabalari A.Ya.Abramovich va N.N.Vakturskayalar tomonidan aniqlangan [12, B-59]. Yonbosh-4 manzilgohining rekonstruksiya tadqiqotchilar S.P.Tolstov ilgari surgan xulosaga tayanishgan. [13, B-37] Turarjoyning rekonstruksiya ishida kompyuter dasturlari orasidan grafika, dizayn, vizual yo'nalishda ishlovchi 3Ds Max va Lumion dasturlaridan foydalanildi. Ushbu dasturlar obyektini konstruktiv holatini yaratishga va uni vizual ko'rinishga keltirishga yordam beradi. Buning uchun S.P.Tolstov keltirib o'tgan rekonstruksiya ishi 3Ds Max dasturiga o'tkaziladi [14; -C. 74.].

O'zbekistonda ham so'ngi yillarda arxeologik yodgorliklarni 3D modellarini kompyuter texnologiyasi asosida yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Kampirtepa antik davri yodgorligi E.V.Rtveladzening tadqiqotlari asosida qayta tiklandi hamda 2019-yil avgust oyida "O'zbekiston – yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat" madaniy meros haftaligi doirasida keng jamoatchilikka namoyish etildi. Shuningdek, Timur Nurulin tomonidan miloddan avvalgi IX-VIII asrlar-milodiy VI asrlarga oid qadimiy shahar xarobasi hisoblangan Yerqo'rg'on qadimiy manzilgohi (15; B-27-38.) va V-XIII asrlarga oid yodgorlik Sug'd me'morchiligiga oid Oqtepa Yunusobod qal'asining (16; B-24-31) virtual 3D modeli tayyorlangan. Xorazm tarixini yoritishda 3D dasturlar yordamida 3D modellashtirish ishi ayrim yodgorliklar misolida amalga oshirilgan. Chunonchi, Do'schanov Sherzod tomonidan Shovot tumanidagi Kat qal'a yodgorligi 3D modeli yaratilgan (17; B. 255). Qoraqalpog'iston hududida joylashgan miloddan avvalgi IV-III asrlarda barpo etilgan qadimiy Aqchaxon qal'a (Aqcha-xon qal'a)ni o'rgangan arxeologlardan biri Michele Minardi "Qadimgi Xorazm bo'yicha Qoraqalpoq-Avstraliya Ekspeditsiyasi"da (KAE, 2010-yildan) olib borgan tadqiqotlari davomida qal'aning virtual ko'rinishdagi 3D modelini yaratgan [18; B-82-83-b]. Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi X.O.Matkarimov "Xorazm vohasida arxeologik tadqiqotlar tarixi (qadimgi davrga oid tarixiy rekonstruksiya muammolari)" mavzusida tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) [19] dissertatsiyasini himoya qilganlar.

### **XULOSA**

Xorazm hududidagi qadimiy qal'alarni 3D modellashtirish orqali qayta yaratish va raqamli formatda saqlab qolish — nafaqat madaniy yodgorliklarni asrashning innovatsion yo'li, balki ularni global miqyosda tanitish, ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish hamda yosh avlodga tarixni sezgirlik bilan anglatishning ham samarali vositasidir. 3D modellashtirish — bu oddiy chizmalar yoki tasvirlar emas, balki vaqt o'qida yo'qolib ketgan bir butun tarixiy manzaraning ilmiy asoslangan qayta qurilishidir. Bu jarayon orqali biz nafaqat inshootlarning



tashqi ko‘rinishini, balki ularning ichki tuzilmasi, funksional vazifalari va tarixiy davrlar bo‘yicha o‘zgarishlarini ham virtual muhitda aks ettira olamiz. Bu esa, tarixiy tahlilni chuqurlashtiradi, madaniyatlararo solishtirma tadqiqotlar olib borish imkonini beradi va turistik infratuzilmani ham rivojlantiradi. Xorazm qal’alari — bu shunchaki devorlar yoki g‘ishtdan iborat obyektlar emas. Ular ming yillik tajriba, siyosiy kuch, madaniy qadriyat va inson tafakkurining mahsulidir. Ularni saqlab qolish — bu tarixni saqlab qolishdir. Zamonaviy texnologiyalar esa bu tarixni nafaqat saqlash, balki uni har tomonlama anglashga, jonlantirishga va kelajak avlodga chuqurroq yetkazishga xizmat qiluvchi vositadir. Shunday ekan, Xorazm hududidagi tarixiy qal’alarni 3D modellashtirish orqali rekonstruksiya qilish — bu shunchaki texnik loyiha emas, bu tarix bilan muloqotga kirishish, milliy o‘zlikni anglash va uni XXI asr tamadduni bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan muhim ahamiyatga ega madaniy-ma’naviy harakatdir.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Беруний Абу Райхон, Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968. 231-бет.
2. Воробьева М.Г. Проблема “Большого Хорезма” и археология // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979.– С. 40.
3. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности // Приаралье в Древности И Средневековье. – М.: Наука, 1998. – С. 31–32.
4. Xajiyeva O. “Xorazm vohasi aholisining qadimiy diniy e’tiqodlari va an’analari tarixi”/International Journal Of Recently Scientific Researcher's Theory/ – С. 68-69.
5. Sulaymanov S. Allamuratov A. “Xorazm-minglab qal’alarning qadimiy sivilizatsiyasi” Science Shine International Scientific Journal Issue 8(43), Volume 1 | ISSN 3030-377X | 30.04.2025. – С.294
6. Mirzayeva M “Xorazm viloyatidagi tarixiy - arxeologik yodgorliklar holati” Results of National Scientific Research Volume 1| Issue 6 2022 SJIF- 4.431 ISSN: 2181-3639 – С. 79.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948. -С.7.
8. Rahimov F. Jumanazarova G. “Xorazmning qadimiy Qal’alari Tuproq-Qa’la, Qizil-Qal’a, Ayazqal’a Va Chalpiq-Qal’alar Tarixi”, Лучшие Интеллектуальные Исследования/ Часть-29\_ Том-1\_ Сентябрь -2024.-С.415
9. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – 324.
10. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959 2.
11. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. // Керамика Хорезма. Труды ХАЭЭ. Вып. IV. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 45–220.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948. -С. 59.
13. Жабборов И. Кўҳна харобалар сири. – Тошкент,: УзДавнашр, 1961.-С.37
14. Matqurbanov F. R. “Xorazm vohasi neolit davri nodir yodgorligining zamonaviy texnologiyalar yordamida tarixiy ko‘rinishi (Yonbosh-4 misolida)” Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi –6/3-2023 –С. 74.
15. Nurulin T.S. 3D -Yerqo‘rg‘on qadimiy manzilgohini rekonstruksiya qilish // O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi. – Toshkent, 2022. - No 2-3. <http://civiltashkent.blogspot.com> B-27-38.
16. Nurulin T.S. Oqtepa Yunusobod qal’asini virtual rekonstruksiya qilish//. O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi. Toshkent,2021.N2-3.-S.24-31. <http://civiltashkent.blogspot.com> B-24-31

17. Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. – Урганч. 2023. – Б. 255.
18. Matqurbonov F. “Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari” [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org) 31-to‘plam 1-qism May 2024 82-83.
19. Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Нукус, 2021.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **SOURCES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF FINE ARTS IN THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK ART**

**Aytmuratov Jalgas**

Professor of "Archaeology" at KSU

**Doshniyazov Raxat Karlibaevich**

Stage teacher of the Department of "Archaeology" at KSU

E-mail: [raxatdoshniyazov72@gmail.com](mailto:raxatdoshniyazov72@gmail.com)

**Abstract.** This article discusses Vladimir Karakalpakov, who made a significant contribution to the formation of fine arts in Karakalpakstan. Emphasis is placed on historical events related to the artist's homeland and his childhood years. The care of Savichev Ivan Savelyevich for the orphan plays a central role, whose talent in the orphanage laid the foundation for the development of Karakalpak fine art. The artist's renowned creative works at the Academy of Arts are mentioned, as well as his feelings of longing for his homeland, experienced with such talent.

The article presents important scientific information related to the history of Russian fine art, based on historical documents, archival materials, and written sources. It describes the artist's life path, his achievements, awards with medals at the Academy of Arts, and his experiences of longing for his homeland. In addition, relying on historical documents, archival materials, and classical literary works, the article identifies promising areas for future research in fine arts.

**Keywords:** Karakalpak fine art, Vladimir Karakalpakov, Imperial Academy of Arts, theater decoration, P. Mochalov painting, Russian fine art.

## **QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI**

**Aytmuratov Jalgas**

QDU "Arxeologiya" kafedrasi professori v.b.

**Doshniyazov Raxat Qarlibaevich**

QDU "Arxeologiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston tasviriy san'atining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan Vladimir Karakalpakov haqida so'z yuritiladi. Rassomning tug'ilgan yurti hamda bolalik yillaridagi tarixiy voqealarga e'tibor qaratilgan. Savichev Ivan Savelevichning yetim bolaga g'amxo'rligi asosiy o'rin egallaydi, uning bolalar uyidagi iste'dodi qoraqalpoq tasviriy san'atining shakllanishiga asos soladi. Rassomning Rassomlik akademiyasidagi mashhur ijodiy kartinalari, rassomning shunday iste'dodi bilan vatan sog'inchini boshidan kechirgan tuyg'ulari haqida so'z yuritildi.

Maqolada tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va yozma manbalarga tayanib, rus tasviriy san'ati tarixiga oid muhim ilmiy ma'lumotlar ko'rsatilgan. Rassomning hayot yo'li, yutuqlari, rassomlik akademiyasidagi medallar bilan taqdirlanishi, vatan sog'inchini boshdan kechirganligi haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda, maqolada tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va mumtoz adabiy asarlarga tayanib, tasviriy san'atning kelajakda o'rganilishi lozim bo'lgan sohalarini ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpoq tasviriy san'ati, Vladimir Karakalpakov, imperatorlik tasviriy san'at akademiyasi, teatr dekoratsiyasi, P. Mochalov surati, rus tasviriy san'ati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N07>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 15-apreldagi O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi xodimlariga tabrigida "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan bitiruvchilar hamda mustaqil ijod bilan shug'ullanayotgan rassomlar faoliyatiga ko'maklashish, xususan ijodiy ustaxonalar bilan ta'minlash, ustoz-shogird an'anasini kuchaytirish masalasida ham qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilganini" ta'kidlagan edi. Qoraqalpog'iston tasviriy san'atining shakllanish tarixi bo'yicha ko'plab tarixiy manbalarni uchratish mumkin. XIX asrdagi mashhur rus rassomlaridan biri bo'lgan Vladimir (Gavril) Karakalpakov haqida 1961-yil 12-iyulda "Sovetskaya Karakalpakskaya" gazetasida birinchi qoraqalpoq rassomi degan maqola bosilib, unda rassom Karakalpakovning qoraqalpoq ekanligi va u ota-onadan yetim qolganligi sababli Qoraqalpoqdan Rossiyaga olib borilganligi, dastlab Vladimir degan ism qo'yilgan, keyin esa Gavril ismi qo'yilganligi, 1913-yilning 1-sentyabrida imperiyaning Badiiy Akademiyasiga kirgani haqida yozadi. Shu bilan birga, bu maqolada Karakalpakovning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Yozuvchi O. Bekbauliyevning "Vladimir Karakalpakov" romanida uning hayoti, Karakalpakov familiyasining berilishi va qoraqalpoq san'ati rivojiga qo'shgan hissasi bayon etilgan:

"Qoraqalpoqlar, Ulug' tog', Qoratog' yonbag'irlariga yoyilgan 20 ming uylik qozoqlar va 12 ming uylik qoraqalpoqlar shu yerdan Sirning Orolga quyar yeriga joylashdi, lekin qozoqlarning kichik juz xoni Abulxayr yaylovga yer tor bo'ldi deb o'yladimmi yoki Buxoro Qo'qon xonligi chegarasida qoraqalpoqlarning o'tirishini xohlamay bu yerdagi 12 ming uyli qoraqalpoqlarni ikkiga bo'lib, Ulkyak daryosi bo'yiga Abulxayr Sulton boshchiligida ko'ch tortdi. Ammo Sirning Orolga quyiladigan joyida "to'rtqora" va "shekti"larni qoldirib ketdi. Shu qishloqdagi o'rtahol xo'jaliklardan bo'lgan Alpisboy tirishish kasalligidan vafot etadi, ortida xotini Qirmizi va 6 yoshli bolasi bilan qoladi. Abulxayr boshchiligida ko'chgan 6 ming qoraqalpoq xo'jaliklari Ulkyakdan Besqal'aga ko'chgandan so'ng Sirdaryoning Orolga quyiladigan joyidagi qoraqalpoqlar ham qadimgi ota-bobolari makon tutgan yerga ko'chishga bel bog'ladi. Ammo yetim-yesir bolalar o'lib qolishiga ko'zi yetib, boyagi Ulug' tog' etagidagi kabi bu yerda qoladi. Qirmizi ham ko'chgan yurtda qolganlarning biri. Bolasi yosh, o'zi kasal, o'zi kundoshlikka, bolasi-ishga yaramasa kimga keragi bor. Barcha og'irlik yuragiga tushgan Qirmizi bir kuni o'tovning oldida holdan ketib joni uzildi. Ammo endigina 7 yoshga to'lgan bolasi jim-jit qolgan onasini quchoqlab zor yig'lab qoldi. O'sha vaqtda buning guvohi bo'lgan Moskvadan kelgan harbiy taftish komissiyasining boshlig'i Savichev Ivan Savelevich bolani yupatib, uni ovqatlantirib keyin uxlatdi, onasini esa shu tomonga ko'mdi.

So'ng bolani uyg'otib o'zi bilan birga olib ketdi. Buning ham sababi bor edi. Harbiy reviziyaning boshlig'i bo'lgan Savichev Ivan Savelevich Moskvadan Sirning Orolga quyar qismiga kelmasdan oldin Savichev Ivan Savelevichning eski do'sti Gavril Mixaylovich, Savichev Ivan Savelevichning qirga, Orol dengizi tomonga borishini gazetadan o'qib, davlat departamentining oldiga kelgani shu edi. Uchrashuv vaqtida o'z xotini bo'lgan Afrosina Petrovna bilan bolali bo'la olmaganini aytadi va Savichev Ivan Savelevichdan boradigan tomondan farzand olib berishini iltimos qiladi.[1;8] Bu Gavrilning Savichev Ivan Savelevichga qilgan iltimosi edi. Savichev Ivan Savelevich Orol dengizi tomonidagi ishini qilib o'z yurtiga

qaytadi va bolani o'z uyiga olib boradi. Bu dashtda qolgan qarovsiz bolaning hayotda o'z o'rnini topishiga sabab bo'ladi.

Savichev Ivan Savelevichning xotini Praskoviya Lukyanovna cholini sog'ingani uchun uni yaxshi kutib oladi va bolani ikki uch kun uyida saqlaydi. Savichev Ivan Savelevich bolani Gavrilga bergandan ko'ra "Tarbiya uyi"ga berishni ma'qul ko'radi, Savichev Ivan Savelevichning xotini ham buni ma'qulladi. Gavril Mixaylovichga bir bahona aytamiz deb Solyankadagi "Tarbiya uyi"ga qarab ketdi. Yo'lda Ivan Savelevich "Tarbiya uyi"ning qabul tartibi to'g'risida o'ylab kelyapti. Bolani xristian diniga kiritmaguncha va rus familiyasini bermaguncha bunday bolalarni qabul qilishmaydi. Familiya esa qo'ldan keladigan ish. Shuning uchun "Tarbiya uyi"da hozircha metrik kitobdan o'tkazib qo'yish ma'qul. Ammo qabul qilish, qabul qilmaslik haqida ko'rarmiz. Har qanday holatda ham yuqori darajali ofitserdan qabul qilish kerak-ku. Vladimir bo'lsa o'z millatining kelib chiqishini qachon bo'lsa ham topib olar, "Karakalpakov" deb yozdiramanda qo'yaman. Ivan Savilevich shularni o'ylar ekan, Solyankidagi "Tarbiya uyi"ga kelib qoldi. Savichev Ivan Savelevich Tarbiya uyining qabulxonasiga kirdi. Direktorning yordamchilari yuqori darajali ofitser Savichev Ivan Savelevichni yaxshi kutib oldi.

"Ismi nima? Otasining ismi nima? Ota-onasi kim? Direktorning qabulxonasidagi Ivan Savelevichga to'ldirish uchun taqdim etilgan kartochkasi shunday savollardan iborat edi.

Bolaning ismi- Vladimir, otasining ismi Karakalpak (o'lgan), tug'ilgan yili-1802-yil, Tug'ilgan joyi-Sirdaryo, "Besh qal'a" mozorining yonida, kalta ariq bo'yi. Vasiysi kim-Vaqtincha Savichev Ivan Savelevich, onasining ismi-?: -ota-onasi vafot etgan, Vasiysining doimiy manzili-Peterburg.

Vasiysining ish joyi, darajasi — Orenburg general-gubernatorining revizorlar guruhining boshlig'i, Gvardiya polkovnigi. Qabulxonaga qabul qilingan kuni -1808 yil 12-avgust" deb ko'rsatilgan.

Vladimir Karakalpakovning yoshlik vaqtlari haqida uning qoraqalpoq ekanligi va qoraqalpoqdan chiqqan birinchi rassom ekanligi ta'kidlab ko'rsatiladi. Ushbu materiallarni to'ldirish masalasida san'atshunoslik fanlari nomzodi Ag'inbayev Allamuratov tomonidan 1961-yil "Amudaryo" jurnalining 12-sonida Vladimir Karakalpakov haqida yangi ma'lumotlar maqolasi e'lon qilinadi.

Rassom Karakalpakovning hayoti va ijodiy mehnati bilan tanishish, dastlab sobiq ittifoq badiiy-san'at akademiyasi kutubxonasining "Юбилейный Справочник имперской Академий художеств (1764-1914) составилъ С.Н. Конлаков" (Sib,1914) nomli kitobning II tomini olib, "Rus rassomlarining ro'uxati" bo'limining 86-betidan "Художествов Владимир (он же Гаврил ) Киргизес, Креченный воспитаник А.К. Художествов С 1813 по 1823 г Получил 1822 год две серебр медалы" ya'ni Karakalpakov Vladimir N. Gavril deb ham atalgan cho'qingan qirg'iz 1813-yildan 1823-yilgacha Badiiy Akademiyaning tarbiyachisi, 1829-yili ikki kumush medal oldi degan yozuvni topdim. «Сборник материалов для историй сибиратовской Санк-Петербург академии Художество за сто лет эго существования, из данный под редакции Н.П. Петрова и с его примечавшими» degan 1864-1866-yillari bosilgan kitobdan V. Karakalpakovning qaysi yillari Akademiyada o'qigani va medallar olgani topildi. Kitobning 11-bo'limining 51-sahifasida: 29-sentyabr Sovetining (Akademiyaning soveti-A.A.) yig'ilishida quyidagilar bo'ldi:

O'tgan 1813-yil 1-sentyabrda ochilgan kursni bitirgan quyidagi ismi ko'rsatilgan bolalarni akademiyaning Ustaviga muvofiq, Akademiyaning tarbiyachilarining yoshiga

(kursga.A.A) olinsin: (qabul qilingan 54 bolaning ro'yxatida 47-bola Gavril Karakalpakov) O'sha kitobning 132-betida:

2 yoshdagi bolalarni uchinchi yoshga o'tkazishda ularni rassomlik sinflariga bo'lish kerak bo'lganligi sababli, 44 o'quvchining 18 bolasi rasm sinfiga belgilansin, xususan: (1819-yil 29-mart kuni Akademiya sovetining qarorida 18 bolaning ro'yxatida yettinchisi Vladimir Karakalpakov deyilgan. 1822-yili 23-avgustda sovetning qarori bo'yicha Vladimir Karakalpakov 1822-yili 29-aprelda olingan imtihon uchun 2 bolaning biri bo'lib, Ikkinchi darajali kumush medalini olgan. [2;132]

1822-yil 13-sentyabr kuni kengashning qarori bo'yicha 4 oylik yakuni bo'yicha 1822-yil 26-avgustda olingan imtihonlarda Birinchi darajali kumush medalga hech kim taqdim etilmay, ikkinchi darajali kumush medal olganlarning ro'yxatiga 3 o'quvchi yozildi. Ular to'rt xil yoshdagi o'quvchilari: I.Stepanov, V.Karakalpakov va N.Golavachevskiy.[3;168]

Vladimir Karakalpakov Peterburgdagi imperator rassomchilik akademiyasiga yuborilishi va u yerdagi yutuqlari haqida yozuvchi O'.Bekbauliyev ham o'z asarida bunday keltiradi: «Rassomchilik Akademiyasida birinchi darsni “Западноевропейское художественное искусство” degan kitobni o'rganishdan boshladi. Bu darsni olib borgan o'qituvchi Aleksey Yegorovich “G'arbiy Yevropa tasviriy san'ati”ni o'tmasdan oldin, tasviriy san'at va uning kelib chiqishi haqida tushuntirib o'tdi. Vladimir Karakalpakov o'quvchilar orasida tilga olinib, darslaridan ham, rasm chizishdan ham muvaffaqiyatga erishib ulgurdi. Uning “Peterburg atrofining tong otishi” deb nomlangan manzarasi hammaning e'tiborini tortdi. Vladimir darsdan va ustaxona ishlaridan bo'sh vaqtlarining hammasini bekor o'tkazmasdi. Rossiya rassomlik ustalarining ko'rgazmasida, ikkinchi kun rasm galereyasida, shuningdek V.A. Toropinning ustaxonasida, har qalay o'zining mutaxassisligiga foydasi tegadigan joyda vaqt o'tkazdi.

Bir kuni qalmoq qizi bo'lgan Sasha ismli qizga Ermitajni birga tomosha qilishni iltimos qiladi. Uchrashgan joyida uchrashganda Vladimir do'sti Sasha bilan Neva daryosining bo'yida turib o'zlarini Sirdaryo bo'yida turgandek his qildi. Albatta Neva daryosi Peterburgning go'zalligiga qo'shimcha baho bergani bilan Sirning suvidek sariq emas, ba'zida jo'shib tashqariga chiqqani bo'lmasa, to'lqinlari yuvosh, suvi ko'zning yoshiday tiniq degan bilan Sasha-biz tug'ilgan Sir bo'ylarining manzarasi bundan ham ajoyib deb Sasha va Vladimirning vatan sog'inchi yuziga urib turar edi. Albatta, ularda — vatanni, elni, ota-onani sog'inishning zaharli achchiq o'kinchi, qayg'ulari sezilib turar edi.

1823-yilning bahorida Rassomlik akademiyasining zalida konferensiya bo'lib o'tadi. Bu konferensiya odatdagidan boshqacha bo'lib o'tgan edi. Unda ta'lim vazirining uch inspektori, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etdi, yig'ilishni odatdagi prezident o'rinbosari ochdi va u o'z so'zida “Joriy o'quv yilining birinchi choragini muvaffaqiyatli tamomlaganlarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlashga bag'ishlangan yig'ilishni ochiq” deb e'lon qilib, ta'lim vaziri bilan akademiya prezidentining qo'shma buyrug'ini o'qib eshittirish uchun so'zni tasviriy san'at akademiyasi prezidenti A.N. Oleninga berdi. U o'z nutqida Maorif vaziri va hurmatli knyaz A. N. Golitsin nomidan akademiyaning tarbiyalanuvchilari va o'qituvchilari manziliga juda iliq so'zlar aytdi. Bu so'zlar Vladimirning nomidan ham yetib keldi. Hatto akademiya prezidenti Vladimirni kumush medalga tavsiya qilishda o'qituvchi va guruh rahbarining adashmaganini aytib maqtadi.

“Tarixiy rangtasvir” sinfidan Vladimir (Gavrilla) Karakalpakov!-dedi akademiya prezidenti alohida to‘xtalib — o‘quv yilining birinchi choragini yuqori baholar bilan tugatgani va akademiya hayotida faol qatnashgani uchun kumush medal bilan taqdirlanganligi”[4;66] aytiladi.

Bu ma’lumotlardan bilsak bo‘ladiki, rassomning yoshligidan iste’dodli bo‘lganligini, vatan sog‘inchini yozuvchi yuksak darajada ko‘rsata olgan.

V.Karakalpakovning akademiya dan haydali sh sabablari bu kitobda aytilmaydi. Uning rassom Pavel Fedodov va artist P.S. Mochalov bilan munosabatlari biroz vaqtgacha noma’lum bo‘lib kelgan bo‘lsa kerak.

Bularning hayoti va ijodini o‘rganuvchilar ko‘p vaqtgacha Karakalpakovni tilga olmaydi. 1898-yili Moskvada 26-27-aprelda P.S. Mochalov xotirasiga bag‘ishlab tashkil etilgan vstavkaning katalogi chiqarilgan. Albom V. Karakalpakov ishlagan P.S.Mochalovning portreti bilan ochiladi. 15-iyuldagi “Советская каракалпакия”da vitografiya V.Karakalpakov tomonidan ishlangan rasm (Moskva, 1897) ostiga Mochalov “Посебудим ненавист к Людям и раскашие” dramasida Meynal rovida, deb yozilgan. Mochalovning roli bo‘yicha aytgan so‘zlarining ikki qatori keltirilgan. Rassom haqida boshqa ma’lumot keltirilmagan. 1914-yilda S.Peterburgda V.G.Galikovning tahririda chiqqan V.G.Bilinskiyning asarlarida o‘sha rasm berilib, muallif ko‘rsatilmagan. Bu rasmni Yu.Sobolev 1935-yili chiqargan Mochalov haqida kitobida ham keltirib, Karakalpakov haqida hech qanday so‘z etmaydi. faqat 1953-yili SSSR fanlar akademiyasining san’at tarixi instituti chiqargan P.S. Mochalovning teatr haqida xatlari, she’rlari, pyesalari to‘plamida kitobni ochishdanoq Mochalovning o‘sha mashhur portreti ko‘zga tashlanadi. P.S. Mochalov Meynal rovida. Karakalpakovning chizgan rasmi degan, rasmda esa S.Paturiy, V.Karakalpakov degan oldindan yozilgan so‘zlar aniq o‘qiladi.[5;142]

Y.Dimitriev “Mochalov Aktyor – romantik” nomli degan kitobida aktyorni V. Karakalpakov ishlagan Meynal rolidagi portretini keltirib, uni P.S.Mochalovning haqiqatga mos keladigan o‘z portretlarining biri deb ko‘rsatib ketadi.

Shunday qilib Vladimir Karakalpakov ishlagan P.S Mochalovning «Косия будем» dramasi dagi Meynal rolidagi portreti aktyorning eng yaxshi portretlaridan biri hisoblanadi [6;81]. So‘nggi vaqtlardagi Mochalov haqidagi kitoblarda faqat shu tasvir beriladi, bu narsa Karakalpakovning rus san’atiga qilgan xizmatlarining bir qancha yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Hozirgi mavjud ma’lumotlarga ko‘ra Vladimir Karakalpakov haqida birinchi bo‘lib va to‘liq ma’lumot keltirgan inson Nikalay Xardjievdir, deb keltiradi 1954-yili chiqargan “Rassomning taqdiri” degan Pavel Fedotovga bag‘ishlangan kitobida.

1827-yildan 1830-yilgacha kadetlar kursining rasm darsidan o‘qituvchisi, kollejiskoy registrator, chuqurlashtirilgan qoraqalpoq, ot yoqali, qiyiq ko‘zli Vladimir Gregorevich Karakalpakov bo‘ldi deb to‘q etishini aytgan. Xardjievning aytishicha Vladimir Karakalpakov korpusga o‘qituvchi bo‘lib joylashganda eng past cho‘qqi edi — kollej registratori degan cho‘qqi olgan. Karakalpakov Karl Bryullodan 3 yosh kichik bo‘lgan[7;21]. 1799-yili tug‘ilgani ma’lum, demak Vladimir Grigorevich Karakalpakov 1802-yilda tug‘ilgan. 11 yoshida badiiy akademiya ga qabul qilingan, 21 yoshida uni bitirmay haydab yuborgan. 28 yoshida o‘qituvchilikni tashlab Moskva teatriga o‘rgatuvchi (Smotritele lamp) bo‘lib ishga kirgan. Iste’dodi oldida bosh ekkan mashhur artist P. S. Mochalovdan atigi 2 yosh kichik bo‘lgan. V. Karakalpakov bo‘sh vaqtlarida aktyorlarning suratini chizgan, ba’zida K.P. Mochalovdan uning oldida suratga olib o‘tirgan. «Советская Каракалпакия» gazetasida[8] Karakalpakovning Karl

Bryullov bilan 1835-yili Moskvada teatrdagi uchrashganligi haqida I.V.Nasyukinning A.S.Pushkinga yozgan xati keltirilgan edi.

Yozuvchi Nikolay Xadjiev o'sha uchrashuvni bunday yakunlaydi: Karl Bryullovning eski tanishidek ko'rganligidan ko'ngli ko'tarilganini Karakalpakov teatr direktori, yozuvchi Zagotskiyga borib — Bryullov keldi u stulda o'tiribdi — deb ovozinig boricha baqirdi. O'sha kuni o'rtoqlari bechora Karaqalpakovni traktorda ovqatlantiradi, uni mashhur rassomning tanishi sifatida hurmat qiladi. Viktor Shkolovskiy rassom Fedetov haqida povesta degan kitobini 1960-yili yangi nashrida Karl Bryullovning og'zini Karakalpakov boshining bahosi bilan sotib oldi (saqlab qoldi) degan so'zlarni yozadi.

XIX asrning 50-yillarida Moskvadagi I. Mali teatrida ishlagan artistlar orasida Karaqalpakov degan familiyani uchramiz. N.G. Zografning "Малий театре второй половине XIX века" nomli kitobida 50-yillari Mali teatrida ishlagan artistlar M.C. Shepkin, F.N. Usachev, D.T. Lenskiy, V.C.Y. Jivokin, P.K. Sadovskiy va boshqalarning qatorida 1853-yili, 1862-yillari P.V. Vostokov (Karakalpakov) degan artist keltiriladi.[9;24] Buning Vladimir Grigorevichning o'g'li Prov yoki Pavel Vladimirovich Karakalpakov ekanligi so'zsiz. Qoraqalpoqlarning yaqin odamlarini rassom Fedotovning ham, artist P. S. Mochalovning ham ismi Pavel. Ularning hurmatiga Vladimir Karaqalpakov bolasining ismini Pavel qo'yishi mumkin, Vostokov degan taxallusini o'ylab topgan.

1872-1873-yillardagi mavsumida Mali teatrida qo'yilgan «бойства на улица мира» degan dramani Fransuz tiliga Vostokova (E. E. Nazarova) tarjima qilgan. Bu Vladimir Qoraqalpoqovning kelini bo'lishi mumkin.

I.V. Vostokov (qoraqalpoq) faqat aktyor emas, shu bilan birga bir necha vodevillarning muallifi va Fransuz tilidan ruschaga ko'p drama asarlarining tarjimoni bo'lgan.[10;566-569]

I.V. Vostokov (Karakalpakov) 1857-yili 31-iyulda bo'lgan spektaklda Gogelning revizorida Xlestakovning rolini o'ynagan[11;61].

Shunday qilib Karakalpakovlar Qoraqalpoqdan chiqqan birinchi rassomlar, birinchi professional artistlar va dramaturglar bo'lgan. Qoraqalpog'istonda tasviriy san'at rivojida V. Karaqalpakovning o'rni o'ziga xos darajada yuqori. Uning xorijda olgan bilimlari, rassomlik mahorati qoraqalpoq xalqining tasviriy san'ati tarixida katta iz qoldirgan. Maqolada keltirilgan arxiv materiallari va adabiy manbalar orqali tasviriy san'atni tadqiq etish va kelgusida keng ko'lamli ilmiy ishlarni davom ettirish kerak. Demak, V. Karakalpakovning san'at merosi va uning yo'lini davom ettiruvchilar haqida ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохатлар қатий давом еттирамиз 6-жилд –Тошкент “Ўзбекистон нашриёти”, 2022
2. Ө.Бекбаулиев. Владимир Қарақалпақов. Роман. Нөкис. қарақалпақстан 1987 жыл 23 б.
3. Эмиўдэрья журналы 1961-жыл, №12, 108 -110 б.
4. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 51 б.
5. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 132 б.



6. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 168 б.
7. Ө.Бекбаулиев. Владимир Қарақалпақов. Роман. Нөкис. 1987 жыл 55 б.
8. П.С. Мочалов Заметки театре, письма стихи пьесы, Современники о Мочалове изд.АН СССР, Москва. 1953.
9. Ю. Динтрор «Мочалов –актёр- романтик» М 1961. стр 81.
10. Николай Харджиев «Судьба художника» СП 1954 Москва. Стр.19
11. Николай Харджиев «Судьба художника» СП 1954 Москва. Стр 21
12. Газета «Советская Каракалпакия», 15-июль, 1961 г.
13. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 24.
14. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 588.
15. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 566-569.
16. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 61.

**08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES****Received:** 16 June 2025**Accepted:** 5 July 2025**Published:** 15 July 2025*Article / Original Paper***PROCESSES OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT AND AGGLOMERATION  
FORMATION IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN****Rakhimbaev Akmal**

Doctor of Philosophy in Economics, PhD.

Associate Professor of the Department of Tourism, UrSU

E-mail: [rakhimbaevakmal@gmail.com](mailto:rakhimbaevakmal@gmail.com)

**Abstract.** Countries around the world are conducting scientific research on the use of modern approaches to the formation of industrial agglomerations in their regions. In conducting regional industrial policy, the main attention is paid to the effective use of mechanisms that provide for the organization of industrial zones, the formation of clusters, and the creation of green innovations in industry. This article presents research on the organizational mechanisms of industrial development and the formation of agglomerations in the regions of Uzbekistan.

**Keywords:** industry, agglomeration, regional industry, industrial agglomeration, foreign investments.

**O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANISHI VA  
AGLOMERATSIYALARNI SHAKLLANISH JARAYONLARI****Raximbayev Akmal Azatboyevich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

UrDU "Turizm" kafedrası dotsent v.v.b.

**Annotatsiya.** Jahon mamlakatlari o'z mintaqalarida sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hududiy sanoat siyosatini olib borishda asosiy e'tiborni sanoat zonalarini tashkil etish, klasterlarni shakllantirish, sanoatda yashil innovatsiyalarni yaratish asosida qo'shilgan qiymatni ta'minlashni nazarda tutuvchi mexanizmlardan samarali foydalanishga qaratilmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarida sanoatni rivojlanishi va aglomeratsiyalarni shakllanish jarayonlarining tashkiliy mexanizmlarini haqida izlanishlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, aglomeratsiya, hududiy sanoat, sanoat aglomeratsiyasi, xorijiy investitsiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N08>

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish hukumatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, sohani rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi [1; 10-12 b.].

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, an'anaviy tarmoqlarga qaramlikni kamaytirish, modernizatsiya qilish bo'yicha yuqori darajadagi ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda sanoat sohalarga ham mahalliy, ham xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi siyosatni amalga oshirish orqali erkin investitsiya muhitini yaxshilashga intilgan. Investorlarni jalb etish

maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat klasterlari tashkil etish kabi ko'plab innovatsion loyihalar amalga oshirilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Sanoatda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, transport, energetika va logistika sohalariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, sanoatni barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash va raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro savdoni rivojlantirish va eksportni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilgan [2; 291-311 b.].

O'zbekistonda sanoatni hududlararo mutanosib rivojlantirish bo'yicha xam salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, chekka hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, yo'l, transport va kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli investitsion dasturlar amalga oshirib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadi sifatida "Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoitni og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish" vazifalari belgilab berilgan.

**Metodologiya.** Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida hududlarda sanoatni rivojlantirish darajasini yangi pog'onaga olib chiqish, ishlab chiqarishni zamonaviy infratuzilma talablari asosida tashkil qilish, hududlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda sanoat korxonalarini joylashtirish va eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirib borish kabilarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat hududlarida sanoatni rivojlantirish va sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha ham samarali siyosat amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasida EIZlar faoliyati uchun normativ-huquqiy baza yaratilgan va bunday hududlarni rivojlantirish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy choralar ko'rilmogda. Mamlakatda 2009-yildan boshlab, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarining soni 22 taga yetgan[3; 61-78 b.].


Sanoat sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, davlat soliq byudjeti siyosatini isloh qilish, pul-kredit siyosati, umumiy menejment, innovatsion iqtisodiyotni yaratish, bozor tamoyillari asosida boshqaruvni shakllantirish bilan so'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar yuqori ijobiy natijalarga erishdi.

Jismoniy hajm indeksi sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sishi yoki pasayishini aks ettiradi. Umuman olganda, yillar davomida o'sish sur'atlarida o'zgaruvchanlik mavjud. O'zbekistonda EIZ soni va faoliyat ko'lamini kengayib borayotgan sharoitda ularning faoliyatini samarali tashkil etish va o'ziga xos strategik yo'nalishlar belgilash maqsadga muvofiq.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning jismoniy hajm indeksi 2013-yil 7,5 foizlik sezilarli o'sish sur'ati bilan ajralib turadi, bu sanoat ishlab chiqarishining sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Mamlakatda 2016-yildan boshlab, barcha sohalar jumladan sanoatning o'sish darajasini o'sishini kuzatish mumkin, jumladan 2018-yilda sanoatning fizik hajm indeksi 10,8%ni tashkil etib, 2010-2022-yillardagi eng yuqori surat ta'minlangan. Biroq, COVID-19 pandemiyasi ta'siri

sabab, 2020-yilda 0,9% minimal o'sish sur'ati kuzatilgan. So'ngi ikki yilda esa, o'sish sur'atlari mos ravishda 8,8% va 5,3% ijobiy bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining tiklanishi yoki o'sishning davom etayotganidan dalolat beradi.

YaIM tarkibida sanoatning ulushi yillar davomida izchil ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotning umumiy tarkibida sanoat mahsulotlarning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. YaIM tarkibida sanoatning ulushi 2011-yildagi 18,7% dan 2023-yilda 27,0% gacha ko'tariladi. Mazkur holat mamlakat iqtisodiy rivojlanishida ishlab chiqarish sektorining tobora ko'proq hissa qo'shayotganidan dalolat beradi.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (milliard so'm) yillar davomida izchil ortib bormoqda. 2011-yil 38119,0 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 553265,0 mlrd.so'mni tashkil etib, sezilarli o'sish kuzatilgan. O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi, ayniqsa, so'nggi yillarda barqarorlik va ijobiy o'sishni ko'rsatdi (2018-2023-yillar). Umumiy tarkibda mahalliy mahsulotlar ulushining o'sishi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va o'zini o'zi ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarning ko'rsatkichidir. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning sezilarli o'sishi, ayniqsa, keyingi yillarda ishlab chiqarish sohasiga investitsiyalar, modernizatsiya va innovatsiyalarning har tomonlama joriy etilishidan dalolat beradi [4; 122-126 b.].

2022-2023-yillardagi ijobiy o'sish sur'atlari ijobiy trayektoriyadan dalolat beradi va bu mamlakat iqtisodiy strategiyasining bir qismi sifatida sanoatni rivojlantirishga e'tibor qaratayotganligidan dalolatdir.

O'zbekistonda sanoatining hududiy rivojlanishida yuqori farqlarga qaramasdan, barcha viloyatlarning o'ziga xos ixtisoslashuvchi va rivojlanish xususiyatlari mavjud. Toshkent shahri turli sanoat tarmoqlariga, jumladan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va texnologiyaga ega yirik iqtisodiy markazlardan biri hisoblanadi. Mintaqada yuqori texnologiyali sanoat konsentratsiyasi mavjud bo'lib, bunga hududiy savdo va infratuzilmaning nisbatan qulayligi bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysi tarixan sanoat va qishloq xo'jaligi markazi bo'lgan. U to'qimachilik, mashinasozlik va kimyoviy ishlab chiqarish sanoati keng rivojlangan mintaqalar hisoblanadi.

Samarqand va Buxoro viloyatlari esa boy tarixiy va madaniy merosga ega. Sanoat faoliyati oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, an'anaviy hunarmandchilik va turizm bilan bog'liq sanoatga ixtisoslashgan mintaqalardir. Navoiy viloyati esa xorijiy sarmoyalarni jalb etuvchi "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hisoblanadi. U konchilik, metallurgiya va kimyo sanoati bilan mashhur. "Navoiy" erkin zonasi muhim sanoat va logistika markazi bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va tabiiy resurslarni qazib olish bilan bog'liq sanoat faoliyat keng rivojlangan. Boy tabiiy resurslari, transport infratuzilmasi va malakali ishchi kuchiga ega bo'lganligi O'zbekiston sanoatini rivojlanishiga asosiy omillardir [11; 122-126 b.].

Ma'lumki, hududiy aglomeratsiyalarning shakllanishi iqtisodiy faoliyat va aholining aniq geografik hududlarda to'planishini, sanoatning ixtisoslashuvchi va lokalizatsiyalashuvi, klasterlar hamda innovatsion markazlar shaklida to'plamlarni asosida yuzaga keladi. Hududiy aglomeratsiyalarning shakllanishiga yordam beradigan asosiy omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: iqtisodiy omillar, ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti, bozorga kirish imkoniyatlarining kengligi, innovatsiyalar va bilimlarning tarqalishi, tadqiqot va ishlanmalar uchun qulay muhit, inson kapitali va mehnat bozorining mavjud holati, malakali ishchi kuchining mavjudligi, mehnat bozorining moslashuvchanligi, infratuzilma va undan foydalanishning yuqori imkoniyatlari, hukumat siyosati, madaniy va ijtimoiy omillar shular jumlasidandir.

Ushbu omillarning o'zaro ta'sirini tushunish siyosatchilar shaharsozlik va aglomeratsiyaning afzalliklarini ilgari surish yoki undan foydalanishga intilayotgan korxonalar uchun juda muhimdir. Muvaffaqiyatli aglomeratsiya odatda strategik rejalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy faoliyat va innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratadigan siyosatning kombinatsiyasi natijasidir.

Hududlarda sanoat aglomeratsiyaning shakllanish jarayonlarini aniqlash uchun yuqoridagi boblarda ilgari surilgan mahalliylik darajasiga ham ahamiyat qaratish talab etiladi. Umuman olganda O'zbekiston respublikasida sanoatni rivojlanishi bo'yicha hududiy farqlarni aniqlash va ixtisoslashuv darajasini aniqlash ham qo'yilgan muammolarni yechish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilashi zarur. Shunga muvofiq, quyidagi indikatorlar asosida O'zbekistonda sanoatini rivojlanish tendensiyalarini baholash imkoni mavjud.


Respublika sanoatida hududlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi va jami mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini o'zgarishlari asosida hududiy sanoat rivojlanishini baholash imkoniyati mavjud [5; 122-126 b.].

Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining so'ngi 5 yil davomidagi o'zgarishlari asosida baholanadi (2018-2022-yillar). Respublika bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida Toshkent shahrining ulushi eng yuqori hisoblanib, 2018-yilda 18,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda mazkur ko'rsatkich 19,7 foizni tashkil etgan. 2018-yilga nisbatan taqqoslanganda nisbatan barqaror bo'lib borayotgan hududlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Toshkent hamda Xorazm viloyatlari. Nisbatan o'zgarishsiz qolayotgan viloyatlar Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari bo'lib, qolgan viloyatlarning respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi pasayib borgan.

Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sishiga nazar tashlanganda barcha hududlarda 2018-2022-yillarda o'rtacha o'sishning ijobiy tendensiyalarini kuzatish mumkin. Agar respublika bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab

chiqarishning o'rtacha o'sish tendensiyasiga nisbatan taqqoslanganda, Andijon, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm hamda Toshkent shahrida o'sish yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

Quyidagi jadvallar ma'lumotlari asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha o'sish ko'rsatkichlari hamda 2018-2022-yillardagi ulushini o'zgarishlarini hisoblash asosida viloyatlarda sanoatni rivojlanish darasida bo'yicha guruhlash imkoniyati mavjud. 2-rasmda O'zbekiston hududlarini sanoatini rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash natijalari aks etgan.



**2-rasm. O'zbekiston hududlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash**

O'zbekiston hududlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlangan:

A1-yuqori o'sish va ulushga ega bo'lgan hududlar: Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent viloyatlari;

B1-yuqori o'sish va kam ulushga ega bo'lgan hududlar: Andijon va Samarqand viloyatlari hisoblanadi.


S1-past o'sish va yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar: Toshkent shahri, Buxoro va Navoiy viloyatlaridir.

D1-past o'sish va past ulushga ega bo'lgan hududlar esa quyidagilar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridir.

Guruhlash natijalaridan ma'lum bo'lmoqdaki, barcha viloyatlarda sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar turlicha belgilanishi lozim. Ayniqsa past o'sish va past ulushga ega bo'lgan viloyatlar aniq maqsadli strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Biroq sanoatni rivojlanishining hududiy xususiyatlarini aniqlash uchun demografik omillar ham hisobga olishini lozim. Shu sababli, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning aholi jon boshiga nisbatan tahlil etish yanada aniqroq natijalarni olish imkonini beradi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning respublika darajasida olingan miqdorlar umumiy o'rtacha miqdorlar hisoblanib, hududiy notekis taqsimlanishni aniqlash uchun viloyatlarning respublika bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmiga nisbatan viloyatlar farqi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, O'zbekiston respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2022-yilda 15520,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 8981,4 ming so'mni tashkil etgan.



**3-rasm. Hududlarni aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha guruhlash**

3-rasmda hududlarni aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha guruhlash amalga oshirilgan. Mazkur ko'rsatkich asosida guruhlash natijasida quyidagilar aniqlangan:

A2-yuqori o'sish va ijobiy farq mavjud bo'lgan hududlar; Toshkent va Andijon viloyatlari;

B2-yuqori o'sish va salbiy farq mavjud bo'lgan hududlar: Namangan, Xorazm, Jizzax va Samarqand viloyatlari;

S2-past o'sish va ijobiy farq mavjud bo'lgan hududlar: Toshkent shahri va Navoiy viloyati

D2-past o'sish va salbiy farq mavjud bo'lgan hududlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona hamda Buxoro viloyatlari.

Mazkur guruhlash natijalaridan ma'lum bo'ladiki past o'sish va salbiy farq mavjud bo'lgan hududlarda sanoatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi talab etiladi.

Hududlarda sanoat aglomeratsiyalarning rivojlanishi sanoat korxonalari soni va ularning sohaviy ixtisoslashuvi hamda sanoatda bandlikning umumiy bandlikdagi holatini

taqqoslash asosida aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasida 2022-yil yakuniga ko'ra jami sanoat korxonalari soni 98 805 birlikni tashkil etib, ularda qariyb 1,9 mln. kishi ish bilan band. 2018-2022-yillarda qariyb 50 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jizzax, Namangan, Samarqand hamda Surxondaryo viloyatlarini bu borada yetakchilar sifatida qarash mumkin.

Ma'lumki, sanoat korxonalarining ma'lum bir mintaqada joylashishiga ko'plab omillarning kombinatsiyasi ta'sir qiladi va farmonlar odatda turli xil iqtisodiy, ijtimoiy, moddiy va texnologik jihatlarni hisobga olgan holda qabul qilinadi.

Eng ko'p ta'sirga ega bo'lgan omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: xom ashyoning mavjudligi, transport infratuzilmasining rivojlanganligi, bozorga kirishda to'siqlarning kamligi va iste'molchilarga yaqinlik, ishchi kuchining mavjudligi va ularga to'lanadigan ish haqining nisbatan pastligi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, hukumat siyosati va imtiyozlarining mavjudligi, energiya mavjudligi adekvat infratuzilma, jumladan elektr ta'minoti, suv resurslari va chiqindilarni boshqarish xizmatlari sanoat operatsiyalari uchun juda muhimdir.

Mintaqadagi hayot sifati, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy obodonlashtirish kabi omillar sanoat korxonalarini joylashtirish qaroriga ta'sir qilishi mumkin. Yuqori hayot sifati malakali ishchilarni jalb qilishi va ushlab turishi mumkin.

Har bir omilning o'ziga xos ahamiyati sanoatning tabiati, uning talablari va biznes maqsadlariga bog'liq. Sanoat korxonalari ko'pincha o'zlarining noyob ehtiyojlari va sharoitlaridan kelib chiqib, ushbu omillarni baholash va joylashish uchun qulay geografik hududlarni tanlashda keng qamrovli tahlillarini o'tkazadilar.

O'zbekiston sanoati uchun yana bir eng muhim manba ishchi kuchining, ayniqsa malakali va tejamkor ishchi kuchining mavjudligidir. Bu sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Sanoat ko'pincha zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarda joylashishga intiladi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Hududiy sanoatni rivojlanishida ishchi kuchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Muayyan hududda mehnat resurslarining mavjudligi, ularning malakasi va ish haqi darajasi sanoatda ishlab chiqarishning nafaqat samaradorligi, balki raqobatbardoshligining ham asosiy omilidir. Har bir sanoat tarmog'i uchun malakali va ixtisoslashgan ishchi kuchining mavjudligi, ilg'or ishlab chiqarish jarayonlari yoki texnologiyani talab qiladigan ishlab chiqarishga ega bo'lgan sanoat korxonalari uchun ayniqsa juda muhimdir. Sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish va bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun raqobatbardosh ish haqi stavkalari bo'lgan joylarni tanlaydilar. Hududlarda fan va ta'lim muassasalarining mavjudligi esa malakali ishchi kuchini sanoat korxonalari uchun yetkazib beruvchi vazifani o'taydi. Shunga ko'ra, hududlarda ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalarining mavjudligi ish beruvchilari uchun foydali bo'lishi mumkin. Hududlar sanoatini rivojlanish darajasi va O'zbekiston Respublikasi sanoatiga qo'shayotgan hissalarini inobatga olgan holda 4 ta yo'nalish bo'yicha hududlarni guruhlash natijalariga ko'ra, O'zbekiston mintaqalarida sanoatning hududiy rivojlanish darajasi bir-biridan kuchli farqlari mavjudligi va drayver sohalarni aniqlash lozim degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Shuningdek, sanoatga ixtisoslashgan hududlar hisoblangan Navoiy va Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri ham tahlil uchun tanlangan omillar asosida baholanganda taklif etilgan matritsaning turli joylarida uchratish mumkin. Ushbu holatlar O'zbekiston hududlarida



sanoatni rivojlanishning o'ziga xos bo'lgan yondashuvlar asosida aniqlash bo'yicha yanada kengroq tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

### Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация // Монография. Ташкент, Узбекистан, 2019. –511 с.
3. Tursunov K.B. Investitsiyaviy salohiyatni oshirishda marketing strategiyalarini qo'llash (Navoiy viloyati misolida). 08.00.11 -“Marketing” ixtisosligi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TDIU, Toshkent – 2023-yil. 92-bet
4. Абдусаламов М.А. О селях и методологических основах региональной политики//Современные проблемы региональной экономики, материалы научно-методологического семинара. ТГЕУ.-Т.: 2015.-С.21-25.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Jahon amaliyotida innovatsion rivojlanish tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llashning ayrim jihatlarini // Iqtisod va moliya. №11, 2016. –B.2-10.
6. Fan C. C., Scott A. J. Industrial agglomeration and development: a survey of spatial economic issues in East Asia and a statistical analysis of Chinese regions //Economic geography. – Т.: 2003. №. 3. – С. 295-319.
7. Қаямов А.А., Усманов З.К. Янги ипак йўли иқтисодий коридорини шакллантиришда Ўзбекистон ва Хитой ҳамкорлиги// Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 40-жилд. –Т., 2017. –Б. 69-72
8. [https://socialsci.libretexts.org/Bookshelves/Geography\\_\(Human\)/World\\_Regional\\_Geography\\_\(Finlayson\)/04%3A\\_North\\_America/4.03%3A\\_Industrial\\_Development\\_in\\_North\\_America](https://socialsci.libretexts.org/Bookshelves/Geography_(Human)/World_Regional_Geography_(Finlayson)/04%3A_North_America/4.03%3A_Industrial_Development_in_North_America).
9. Пулатова И.Р. Теоретико-методологические аспекты формирования промышленных агломерационных зон // Региональная экономика: теория и практика. 2011. №41. УРЛ: <http://сйберленинка.ру/артислс/н/теоретико-методологические-аспекты-формирования-промышленныхагломерационных-зон>
10. Behrens, K., Duranton, G., & Robert-Nicoud, F. (2014). Productive cities: Sorting, selection, and agglomeration. *Journal of Political Economy*, 122(3), –507-553.
11. Soliev A.S. Qurbonov Sh.B. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ba'zi bir masalalari// O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 47-jild. –Т.: 2016. –Б. 24-25.
12. Buckley P. J., Casson M. The internalization theory of the multinational enterprise: Past, present and future //British Journal of Management. – 2020. – Т. 31. – №. 2. – S. 239-252.
13. Яшин С.Н. Отсценка уровня устойчивости инновационного развития регионального промышленного сектора. *Инноватсии* №12 (242), 2018.
14. Bolter K., Robey J. Agglomeration Economies: A literature review. – 2020.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari [stat.uz](http://stat.uz)

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **LEADERSHIP STYLES IN ENTREPRENEURIAL MANAGEMENT**

**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

Doctor of philosophy in economics (PhD)

Termez University of Economics and Service

E-mail: [mexriddin\\_amonov@tues.uz](mailto:mexriddin_amonov@tues.uz)

**Abstract.** The article examines the autocratic, democratic and liberal leadership styles used in business management. The positive and negative sides of the presented leadership styles are analyzed and the main winning qualities are theoretically listed. At the same time, suggestions are given on the effective use of leadership styles in business activities.

**Keywords:** entrepreneurship, initiative, autocratic leaders, liberal leaders, democratic leaders, collective opinion, responsibility.

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI RAHBARLIK USLUBLARI**

**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**

Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada tadbirkorlik faoliyati boshqarishda qo'llaniladigan avtokratik, demokratik va liberal rahbarlik uslublari haqida to'htalib o'tilgan. Keltirilgan rahbarlik uslublarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil etilib, nazariy jihatdan asosiy yutuqli sifatleri keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatida rahbarlik uslublari samarali foydalanish yuzasidan takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik faoliyati, tashabbuskorlik, avtokratik rahbarlar, liberal rahbarlar, demokratik rahbarlar, jamoa fikri, mas'uliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N09>

**Kirish.** Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi bo'lgani kabi, tadbirkorlik faoliyatida ham, tadbirkor o'zi shug'ullanayotgan sohasi, olgan nazariy bilimlar va faoliyati davomida orttirgan tajribasi, moliyaviy imkoniyatlari, faoliyat hududidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holat hamda kutilayotgan vaziyat, shuningdek o'z xarakteridan kelib chiqqan holda rahbar sifatida qo'l ostida ishlaydigan xodimlarni u yoki bu rahbarlik uslubida ba'zi hollarda esa ushbu uslublarning aralashmasidan foydalangan holda boshqaruvni amalga oshiradi.

O'z tadbirkorlik faoliyatini puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan biznes reja asosida samarali tashkil etish hamda ushbu biznes rejasining har bir bosqichini belgilangan vaqtda amalga oshirilishiga rahbarlik uslubining o'rni beqiyosdir. Har bir rahbar o'z dunyoqarashi, ilmi va shaxsiy temperamentidan kelib chiqib, o'z boshqaruv uslubini shakllantiradi va takomillashtirib boradi, uning ushbu rahbarlik uslubi mazkur korxonaning faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rahbarlik uslubi haqida to'htaladigan bo'lsak — bu rahbarning qo'l ostidagilariga nisbatan ta'sir o'tkazish va ularni tashkilot maqsadlariga erishishga undash uchun amalga

oshiradigan xatti -harakatlar majmuidir. Rahbar(menejer) o'z vakolatlaridan foydalanish darajasi, u foydalanadigan boshqaruv shakllari, uning xodimlarga nisbatan g'amxo'rliqi, birinchi navbatda, insoniy munosabatlari, yoki belgilangan vazifalarni bajarishi - bularning barchasi ma'lum bir rahbarlik uslubini tavsiflaydi [1, 348-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, xususan, ushbu Farmon 1-ilova, 5-maqsadida ko'rsatilgan "Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 13-martdagi PF-49-son Farmonlari davlatimiz tomonidan milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun yuqori ahamiyat kasb etuvchi zamonaviy menejerlar sinfining shakllanishiga berilayotgan e'tiborga misol bo'ladi.

Rahbarlik uslubi deyilganda boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan barcha masalalarni hal qilish yo'llari, usullari majmuasi tushunilib, har bir rahbar bunday holatlarda o'ziga xos va mos yondashuvni amalga oshiradi. U o'ziga berilgan vakolatlardan kelib chiqib qaror qabul qilganda hamda qarorlarning ijrosini nazorat qilganida shaxsiy xarakteri orqali shakllangan rahbarlik uslubidan kelib chiqqan holda ish tutadi. Rahbarlik uslublari K.Levin[2] nazariyasiga asosan uch turga bo'lingan bo'lib, ushbu maqolamizda avtokratik, demokratik va liberal rahbarlik uslublari, bir-biridan farqli jihatlari, afzalliklari hamda kamchiliklari haqida to'htalib o'tganmiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshqaruvdagi rahbarlik uslublari haqida xorijiy olimlardan M.Melson, M.Albert, F.Hkedouri [1], K.Levin [2], P.Druker [3], MDH mamlakatlari olimlaridan V.Korolev, N.Arefeva, A.Belorusov, E.Ryazanova [4], Yu.Kuznetsova, B.Sokolov, Yu.Malenkov [5] va mahalliy olimlarimizdan M.Sharifjo'jayev, Yo.Abdullayev [6], Sh.Zaynutdinov, N.Rasulov [7], R.Nurimbetov, A.Ismoilov [8] kabi bir qator iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tadbirkorlik faoliyatini boshqarishga qo'llaniladigan rahbarlik uslublariga oid yetakchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalarini o'rganish va ma'lumotlarini taqqoslash, guruhlash, qiyosiy, iqtisodiy, mantiqiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Rahbarlik uslublari bo'yicha dastlabki tadqiqotlar Kurt Levin va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan bo'lib, bunda asosan ushbu uslublar uch guruhga bo'lingan:


- markazlashgan boshqaruv, guruhdagi barcha strategiyalarni yakka o'zi belgilaydigan, boshqa a'zolariga vakolat bermaydigan avtokratik rahbarlik uslubiy;

- hokimiyatning va vakolatlarning bo'linishini, boshqaruvda ishchilarning ishtiroki, tashabbusi va shunga yarasha javobgarlikni ham taqsimlanishini nazarda tutuvchi demokratik rahbarlik uslubiy;

- boshqaruvda rahbarning minimal ishtirokini tavsiflanadigan, qabul qilish uchun to'liq erkinlikni guruh a'zolariga taqdim etuvchi, mas'uliyatni zimmasiga olishdan hayiqadigan liberal rahbarlik uslubiy.

Quyida keltirilgan 1-rasmda rahbarlik uslublari nazariy jihatdan uch guruhga, avtokratik, liberal va demokratik rahbarlik uslublari ajratib ko'rsatilganini ko'rishimiz mumkin. Quyida har bir boshqaruv uslubini ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib o'tamiz.

**1-rasm.**



Avtokratik rahbarlik uslubi – bu rahbar tomonidan barcha muhim qarorlarning markazlashtirilgan holda qabul qilinishi va xodimlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi bilan tavsiflanadigan boshqaruv uslubidir. Ushbu uslubda rahbar xodimlardan buyruqlarni aniq bajarishni talab qiladi va jamoa muhokamalariga kam e'tibor qaratadi. Avtokratik rahbarlik uslubi odatda an'anaviy sanoat tarmoqlarida, harbiy boshqaruv tizimlarida va tezkor qaror qabul qilish zarur bo'lgan tashkilotlarda qo'llaniladi.

Demokratik rahbarlik uslubi – bu rahbar tomonidan barcha muhim qarorlarning o'z jamoasi bilan fikr almashgan holda qabul qilinishi va xodimlarning shaxsiy tashabbuslarini hisobga olish bilan tavsiflanadigan boshqaruv uslubidir. Ushbu uslubda rahbar xodimlardan buyruqlarni belgilangan tartib asosida bajarishni talab qiladi (o'z xohishiga ko'ra emas) va jamoa muhokamalariga katta e'tibor qaratadi. Demokratik rahbarlik uslubi odatda rivojlangan sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy boshqaruv tizimlarida va jamoat tashkilotlarda qo'llaniladi.

Liberal rahbarlik uslubi – bu rahbar tomonidan mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z zimmasiga olmaslik, imkon qadar boshqa shaxslar bu mas'uliyatni o'zlariga olishlarini, o'zini imkon qadar ehtiyot qilib qo'l ostidagilarning barchasi bilan munosabatlarni buzmagani (ijobiy saqlagan) holda, ba'zi hollarda nazoratni sust amalga oshirish bilan ifodalanadigan boshqaruv uslubidir. Ushbu rahbarlik uslubida rahbar mas'uliyatli qarorlarni shaxsan o'zi emas boshqalar qabul qilishlariga intiladi, qo'l ostidagilari faoliyatini to'liq nazorat qilishni istamaydi, shu sababli xodimlar faoliyati nazorati sust bo'ladi. Ba'zi holatlarda o'zi suiiste'mollikka qo'l urmasa-da, ziddiyatlar kelib chiqmasligi, munosabatlar buzilmasligi uchun hatto xodimlarining kamchiliklari, ishdagi suiiste'molliklarini ko'rmaslikka olishi, ya'ni xodimlarning xato va kamchiliklarini bartaraf etish uchun mas'uliyat bilan ularga o'rnatilgan tartib, intizom qoidalariga asosan chora ko'rinishi lozimligini tushunsa-da, muammoli vaziyatlardan o'zini chekkada saqlashi, munosabatdagi ziddiyatlarni yuzaga keltirmaslikka intilish kabilar bilan xarakterlanadi.

## 1-jadval.

## Rahbarlik uslublari va ularning xususiyatlari

| Uslublar                                      | Avtoritar                                 | Demokratik                                             | Liberal                           |
|-----------------------------------------------|-------------------------------------------|--------------------------------------------------------|-----------------------------------|
| <b>Qaror qabul qilish usuli</b>               | Qo'l ostidagilari bilan yakka o'zi        | Guruh maslahatlari asosida                             | Boshqalar ko'rsatmalari asosida   |
| <b>Qarorlarni xodim-ga etkazish usuli</b>     | Buyruq, farmoyish                         | Taklif, tartib                                         | Iltilmos                          |
| <b>Majburiyatlarni taqsimlash</b>             | Butunlay rahbar qo'lida                   | Vakolatlarga muvofiq                                   | To'liq bajaruvchilar qo'lida      |
| <b>Xodimlar tashabbuskorligiga munosabati</b> | Ba'zida yo'l qo'yadi                      | Rag'batlantiradi va foydalaniladi                      | Butunlay bajaruvchilarga beriladi |
| <b>Xodimlarni saralash tamoyillari</b>        | Raqobatchilardan qutilish                 | Bilimli kadrlarni tanlash va karyerasiga ko'maklashish | Befarq                            |
| <b>Bilimga munosabati</b>                     | Barcha narsani o'zi biladi deb hisoblaydi | Doimo izlanadi va izlanishni talab qiladi              | Befarq                            |
| <b>Muloqotga munosabati</b>                   | Salbiy, masofa saqlaydi                   | Ijobiy, muloqotga faol kirishadi                       | Tashabbus ko'rsatmaydi            |
| <b>Xodimlarga munosabati</b>                  | Kayfiyatiga qarab, teng emas              | Teng, samimiy, talabchan                               | Yumshoq, talabchan emas           |
| <b>Intizomga munosabati</b>                   | Qattiq, rasmiy                            | O'rinli, tartib doirasida                              | Yumshoq rasmiy                    |
| <b>Ishga undashga munosabati</b>              | Jazolash, kamdan-kam rag'batlantirish     | Rag'batlantirish, kamdan-kam jazolash                  | Aniq yo'nalish yo'q               |
| <b>Vakolatga munosabati</b>                   | Barcha vakolatni o'z qo'lida ushlaydi     | Lavozimlar bo'yicha taqsimlanadi                       | Aniq yo'nalish yo'q               |

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, avtokratik rahbarlar barcha vakolatlarni o'z qo'lida ushlashga harakat qiladi, o'zidan boshqa shaxslarning fikri, jumladan xodimlarining takliflari u uchun ahamiyatsiz, uni qiziqitirmaydi, odatda o'zini eng bilimli shaxs sifatida ko'radi va boshqaruvga boshqalarning aralashishiga, ayniqsa qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga yo'l qo'ymaydi. O'zidan bilimlroq, salohiyatliroq kadrlarning ishga kelishiga to'sqinlik qiladi va ularning karyerasini rivojlantirmaslikka harakat qiladi, bir so'z bilan aytganda raqobatchi shakllanishiga yo'l bermaydi. Intizomga juda qat'iy e'tibor beradi, xodimlar bilan deyarli muloqotga kirishmaydi, temir intizomga asoslangan holda boshqaruvni amalga oshiradi. Qayd etib o'tish kerakki, ijobiy xislat sifatida ishdagi, berilgan vazifalardagi barcha javobgarlikni rahbar sifatida o'z zimmasiga ola biladi. Bu uslubdagi boshqaruv asosan xodimlarga emas natijaga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, tashkilotda xodimlar orasidagi o'zaro munosabatlar salbiy tomonga o'zgarishi, ishga nisbatan ishtiyoqning va tashabbuskorlikning sustlashuvi kuzatilsa-da, yuqori natijaga etishish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu kabi boshqaruv uslubi harbiy sohada, sanoatda ko'proq uchrashi bilan xarakterlanadi.


Demokratik boshqaruv uslubi asosan vakolatlar va javobgarlikning jamoa o'rtasida, bajariladigan vazifalari, egallab turilgan mansablar doirasida taqsimlanishi, hamda, umumiy qarorlar qabul qilishda jamoa fikrlarining hisobga olinishi bilan xarakterlanadi. Bunda xodimlar ko'rsatadigan tashabbuslari rag'batlantiriladi, ularning fikr-mulohazalari rahbar tomonidan eshitiladi va o'rinli hisoblanganlari amaliyotga joriy etiladi. Tashkilot Nozomi va ichki tartib qoidalarga asosan xodimlar faoliyati nazorat qilinadi. Tashkilotga ishga qabul qilishda xodimlar bilimiga e'tibor berilgan holda ishga olinib, ularning malakalarini rivojlantirib borish rag'batlantiriladi. Demokratik boshqaruv uslubida asosiy e'tibor jamoaga, ularning manfaatlariga qaratiladi. Shu sababli jamoada o'zaro ishonch, o'zaro hurmat, jamoaviy birlik yuqori darajada bo'ladi. Shuni ham qayd etib o'tish kerakki, ba'zi vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilinishi lozim bo'lgan vaziyatda ushbu uslubga asoslangan boshqaruvga ega korxonalarda qarorlar qabul qilinishi barcha(mas'ul shaxslar)ning ishtiroki nazarda tutilganligi, ularni tez fursatda bir joyga yig'ilishi imkoni chegaralanganligi sababli ham qarorlar qabul qilinishi avtokratik boshqaruv uslubiga nisbatan kech bo'lishi bilan izohlanadi, bu esa albatta korxonaning natijadorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

So'ngi boshqaruvdagi rahbarlik uslubi liberal rahbarlik uslubi bo'lib, bunda asosan rahbar barcha vakolatlarni hamda javobgarlikni jamoa a'zolari ixtiyoriga berib, rahbarning o'zi esa bajarilgan ishlar bo'yicha baho beruvchi, erishilgan natijalarni baholovchi vazifasini amalga oshirishi bilan xarakterlanadi. Liberal rahbarlik uslubining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, bu uslubda ish olib boruvchi rahbarlar jamoaning barcha a'zolari bilan yaxshi munosabatda bo'lishga, biror kishi bilan munosabatlarni buzmaslikka harakat qilishi natijasida xodimlarning xatò va kamchiliklarini ko'rsa-da ba'zida o'zini ko'rmaslikka olishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli, qisqa muddatda xodimlarda ushbu rahbar biror mas'uliyat va javobgarlikni bo'yniga olmaganligi uchun o'zlari tashabbus ko'rsatishlari lozimligi tushunchasi paydo bo'ladi, bu esa rahbarning jamoa orasida obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy tashabbuslar xilma-xilligi yuzaga keladi.

Shu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, liberal rahbarlar, javobgarlikni o'z zimmlariga olmaganliklari sababli ham kamdan-kam holatlarda xatò va kamchilikka yo'l qo'yadi hamda jamoa bilan munosabatda ziddiyat kuzatilmaydi. Shu sababli ham ular mansablarida uzoq vaqt qola biladilar.

**2-rasm.**

### **Rahbarlik uslublarining davomiyligi[1]**



2-rasmda berilgan ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, faqat natijaga asoslangan boshqaruv bu avtokratik boshqaruv uslubidir, bunda xodimlarga e'tibor minimal darajada bo'ladi va

aksincha faqat xodimlar erkinligini, ular tashabbuslari-yu vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan uslub bu liberal boshqaruv uslubidir. Ikkalasini ham nisbatan o'zida aks ettirgan boshqaruv uslubi esa demokratik boshqaruv uslubidir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha rahbarlik uslublari tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ular tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, jamoa uchun mos qarorlar qabul qilish va xodimlar tashabbuslarini rag'batlantirish, yuqori natijalarga erishish kabi bir qator vazifalarni bajaradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, keltirilgan boshqaruv uslublarini birini ikkinchisidan yuqori qo'yish bizning nazarimizda noo'rin bo'lib, ko'pchilik hollarda ushbu boshqaruv uslublari faoliyat turi, mavjud vaziyat, iqtisodiy imkoniyat, siyosiy-ijtimoiy holat, mentalitet va shu kabi boshqa omillar ta'siriga qarab almashishi yoki kombinatsion holda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni qarorlar qabul qilishda va ularni amalga oshirishda, shuningdek vazifalarning bajarilishini nazorat qilinishda barcha uslublarning afzal tomonlaridan keng foydalangan, jamoa a'zolarini yuqori natijaga erishishlarini rag'batlantirgan holda boshqaruvni tashkil etish hamda amalga oshirish tadbirkor uchun o'z faoliyatini bozor iqtisodiyoti talablariga mos, iste'molchiga yo'naltirilgan, raqobatbardosh, barqaror davom ettirishiga zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Основы менеджмента М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури / пер. с англ./ Москва. Издательство «ДЕЛО» 1997 492 с.
2. Левин К. Разрешение социальных конфликтов / пер. с англ./ Санкт-Петербург, Изд-во «Техника», 2000, 408 с.
3. П.Друкер Менеджмент. Вызовы XXI века. Вилямс, 2001 г. 280 с.
4. Основы менеджмента : учебное пособие / под ред. д-ра экон. наук, проф. В.И. Королева. — Москва : Магистр : ИНФРА-М, 2024. — 624 с.
5. Менеджмент : учебник для вузов / под редакцией Ю.В.Кузнецова. - 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 595 с.
6. Sharifxodjaev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. T.: O'qituvchi, 2002 y.- 464 b.
7. N.Rasulov, Sh.Zaynutdinov Innovatsion menejment Darslik Innovatsion rivojlanish nashyoti 2020. 421 b.
8. Зайнутдинов Ш. Н., Нуримбетов Р. И., Исмаилов А. М. Эффективность качества работы руководителя в условиях рыночных отношений //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2. – С. 237-244.
9. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya i.f.f.d., - T., 2024. – 142 b.
10. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 2025-yil №4-son 1508-1512 betlar.
11. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: avtokratik rahbarlar "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnali 2025-yil №5-son 112-117 betlar



Received: 16 June 2025

Accepted: 5 July 2025

Published: 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF THE IMPACT OF TOURIST VOUCHERS SOLD BY TOURISM COMPANIES AND ORGANIZATIONS ON THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR**

**Shukurov Ikrom Abdurashitovich,**

Independent Researcher at Qarshi State Technical University

E-mail: [ikrom.shukurov@mail.ru](mailto:ikrom.shukurov@mail.ru)

**Abstract.** The aim of this study is to analyze the impact of travel packages sold by travel companies and organizations on tourism development prospects. Growing competition in the tourism industry, changing consumer demand, and the introduction of innovative services make destination marketing strategies even more important. Through data collection and statistical analysis, we examine how travel companies and organizations' routes, prices, service quality, and brand awareness influence tourists. The study shows the contribution of travel vouchers to the development of local and international tourism, as well as their importance in economic and social development.

**Keywords:** tourism, travel agency, tourist, guide, absolute incremental growth, growth rates, growth rates, absolute growth chain, dynamic series, forecast.

## **TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKILOTLAR TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO'LLANMALARINING TA'SIRINI TAHLIL ETISH**

**Shukurov Ikrom Abdurashitovich,**

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot, turizm rivojlanishining istiqbollarida turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining ta'sirini tahlil etishga qaratilgan. Turizm sohasidagi raqobatning oshishi, mijozlar talabining o'zgarishi va innovatsion xizmatlarning joriy etilishi, sayyohlik yo'llanmalarining marketing strategiyalarini yanada muhim qilmoqda. Ma'lumotlar to'plami va statistik tahlillar orqali, turistik firma va tashkilotlar tomonidan taklif etilgan yo'llanmalar, ularning narxlari, xizmat sifati va brendning tanilishi sayyohlar orasida qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganamiz. Tadqiqotda sayyohlik yo'llanmalarining mahalliy va xalqaro turizm rivojiga qo'shgan hissi, shuningdek, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyati ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** turizm, turistik firma, sayyoh, sayyohlik yo'llanmasi, mutlaq qo'shimcha o'sish, o'sish sur'ati, qo'shimcha o'sish sur'ati, zanjirli mutlaq qo'shimcha o'sish, dinamik qator, bashorat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N10>

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi dunyoda eng tez rivojlanayotgan va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turizm nafaqat odamlarning dam olish va sayohat qilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, balki u keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ham yuzaga keltiradi. Xalqaro ma'lumotlarga qaraganda, turizm sanoati nafaqat avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash kabi an'anaviy sanoat tarmoqlaridan keyingi o'rinda turadigan, balki eng daromadli va barqaror



rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ko'plab mamlakatlar turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda[1].

Turizmni rivojlantirish jarayoni nafaqat o'zining bevosita xizmat sohaslarini, balki unga yaqin turadigan boshqa xizmat tarmoqlarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Misol uchun, transport sohasining yaxshilanishi, oziq-ovqat sanoatining yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlanishi, kommunikatsiya vositalarining zamonaviylashtirilishi, mehmonxona va turar joylarning sifatini oshirish hamda qurilish sohasidagi innovatsiyalar bu jarayonning ajralmas qismiga aylanishi mumkin. Bularning barchasi birgalikda xalqaro sayyohlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni uzoqroq vaqt qolishga, yanada ko'proq sarflashga undaydi[2].

Shuningdek, turizm sohasining yana bir muhim jihati — u keng ko'lamli ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega ekanligidir. Butunjahon Turizm Tashkilotining (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, har 10 ta sayyoh dunyo bo'ylab bitta ish o'rnini ta'minlaydi. Bu esa turizm sanoati iqtisodiyotga nafaqat to'g'ridan-to'g'ri daromad keltirishi, balki bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham katta rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar va kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun turizm sohasida ishlash imkoniyatlari ijtimoiy muammolarni kamaytirishga yordam beradi[3].

O'zbekistonda ham turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Turizm nafaqat xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytiradi, balki mamlakatning jahon hamjamiyatidagi obro'sini oshiradi. Turizm orqali O'zbekiston boy madaniy merosi, tarixiy obidalar, tabiiy go'zalliklari bilan dunyoga tanitilishi, shu bilan birga mamlakatga investitsiyalar oqimi kuchayishi mumkin. Bu esa iqtisodiyotning boshqa sohaslariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va umumiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Jahon turizmining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va o'rganish O'zbekistonda zamonaviy turizm konsepsiyasini yaratish, mavjud muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar topish imkonini beradi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar, ekologik turizm, madaniy va tarixiy merosni saqlashga qaratilgan strategiyalar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida turizm infratuzilmasini yaxshilash, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak[4].

Natijada, turizm sohasi nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida, balki mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda ham asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, turizm orqali milliy madaniyat va qadriyatlar saqlanib qoladi, xalqaro hamkorlik kuchayadi va barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadamlar qo'yiladi.

**Metodologiya.** Globallashuv jarayonida mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad olib keluvchi tarmoq sifatida juda ahamiyatlidir. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, ishchi o'rinlari yaratish, mahalliy xalq madaniyati va an'analarini saqlab qolishda turizmning o'рни beqiyos. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilganligi yurtimiz turizm sohasida yetarli salohiyatga ega ekanligidan darak beradi[5]. Shu sababdan, O'zbekistonda bu sektorning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlash uchun bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini

samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida bir qator ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.[6]

- turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish[7];

- turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda qoplab berish[8];

- 2025-yil 1-yanvarga qadar toifasi (yulduz) bo'lmagan joylashtirish vositalari uch va undan yuqori toifa (yulduz) olganda, ularning muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berish[9];

- malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro darajada tan olingan ta'lim dasturlarini "franshiza" asosida jalb qilishni yo'lga qo'yish kabi rejalar shular jumlasidandir.

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rilmogda. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi. 2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. doll.ni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo'nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir. Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo'lga kiritdi.

2023-yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024-yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi munosabati bilan O'zbekistonga maxsus sertifikat topshirildi. O'zbekistonning 2024-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro'yxatiga kiritilishi va "World of Statistics" tomonidan bu haqda e'lon qilinishi, xorijiy turistlar soni ortishi va turizm eksporti hajmining oshishiga xizmat qiladi. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydonda yanada tanilishiga yordam beradi.

**Natijalar.** Ushbu tadqiqotda iqtisodiy jarayonlar dinamikasini miqdoriy baholashda mutlaq qo'shimcha o'sish (kamayish) statistik ko'rsatkichidan foydalaniladi. U o'rtacha ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, hisoblash formulalari quyidagicha:

$$\Delta \bar{Y} = \frac{Y_n - Y_1}{n-1} \quad (1)$$

formulada  $Y_1, Y_2, \dots, Y_n$  dinamik qatorlar darajalari;  $n$ -qator uzunligi,  $\Delta\bar{Y}$  o'rtacha mutlaq qo'shimcha o'sish ko'rsatkichi[10].

Bir qadam oldinga prognozlash uchun dinamik qatorning oxirgi darajasiga o'rtacha mutlaq qiymatni qo'shimcha o'sishini qo'shish kifoya:

$$\hat{Y}_{n+1} = Y_n + \Delta\bar{Y} \quad (2)$$

bu erda  $Y_n$ - dinamik qator ko'rsatkichining  $n$ -nuqtasidagi qiymati;  $Y_{n+1}$ -ko'rsatkichning  $n+1$  -nuqtadagi prognozlangan qiymati;  $\Delta\bar{Y}$ -dinamik qatorning o'rtacha qo'shimcha o'sish qiymati.[11]

Ushbu mutlaq qo'shimcha o'sish (kamayish) statistik ko'rsatkichidan foydalanib turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalar sonining (yillik, ming birlik) 2024 yildagi prognoz ko'rsatkichlarini tahlil etamiz.

Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy saytidan quyidagi statistik ma'lumotlar olindi.

| Klassifikator            | 2010  | 2011  | 2012  | 2013  | 2014  | 2015  | 2016  | 2017 | 2018  | 2019  | 2020 | 2021  | 2022 | 2023  |
|--------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|------|-------|-------|------|-------|------|-------|
| O'zbekiston Respublikasi | 129,5 | 151,4 | 145,9 | 130,7 | 111,7 | 118,4 | 103,1 | 65,7 | 102,9 | 289,8 | 78,2 | 147,7 | 95,3 | 262,3 |

1-jadval: Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalar soni  
(yillik, ming birlik)

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalar sonining prognoz ko'rsatkichini aniqlash uchun quyidagi qator dinamikasini o'rtacha qo'shimcha o'sish orqali tasvirlaymiz.

$$\Delta\bar{Y} = \frac{Y_{2023} - Y_{2010}}{14 - 1} = \frac{262,3 - 129,5}{13} = \frac{132,8}{13} = 10,215$$

$$Y_{2024} = Y_{2023} + \Delta\bar{Y} = 262,3 + 10,215 = 272,515 \text{ ming dona.}$$

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalar sonining prognoz ko'rsatkichi, ya'ni 2024-yil uchun aniqlandi, natija 272,515 ming donani tashkil etmoqda[12].

**Muhokama.** Turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi ko'p jihatdan turistik firmalar va tashkilotlarning faoliyatiga bog'liqdir. Xususan, sayyohlik yo'llanmalari — ya'ni sayyohlar uchun tayyorlangan xizmat paketlari yoki yo'nalishlar — sotilishi turizm sohasining barqarorligini va o'sishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Sayyohlar oqimini ko'paytirish, turistik firmalar tomonidan ko'p sayyohlik yo'llanmalari sotilishi sayyohlar oqimini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida mehmonxonalar, transport, ovqatlanish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga talabni kuchaytiradi.

Iqtisodiy foyda va ish o'rinlari yaratish, yo'llanmalar sonining ortishi turizm sohasida iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu sohaga bog'liq kichik va yirik bizneslarning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

Mahalliy madaniyat va tabiiy resurslarni targ'ib qilish, sayyohlik yo'llanmalari orqali mahalliy diqqatga sazovor joylar, an'anaviy madaniyat va tabiat ko'rsatkichlari keng targ'ib qilinadi. Bu esa milliy merosni asrash va xalqaro miqyosda tanitishga yordam beradi.

Sayyohlar uchun qulaylik va ishonch yaratish, turistik firmalar tomonidan tayyorlangan paketlar sayyohlarga xizmatlarning sifatini kafolatlaydi, sayohat rejasini aniq va oson amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa sayyohlarning qoniqish darajasini oshiradi.

**Xulosa.** Turizm rivojlanishining istiqbollarida turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining ta'siri muhim rol o'ynaydi. Sayyohlik yo'llanmalari nafaqat sayyohlarni jalb qilishda, balki ularning tajribasini ham shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Birinchidan, turistik firmalar va tashkilotlar, ularning marketing strategiyalari va xizmatlari orqali, sayyohlik yo'llanmalarining sifatini oshirishda muhim vazifani bajaradi. Yaxshi tashkil etilgan yo'llanmalar sayyohlar uchun qulayliklar yaratadi va mahalliy madaniyatni tanitishga yordam beradi.

Ikkinchidan, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari turizm sohasidagi iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi. Ular mahalliy iqtisodiyotni rivojlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va mahalliy sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, turizmning barqarorligini ta'minlashda ham sayyohlik yo'llanmalarining roli muhim. Ekoturizm va madaniy turizm kabi yo'nalishlar, mahalliy resurslarni saqlab qolish va sayyohlarni mas'uliyatli sayohat qilishga undaydi.

Shunday qilib, turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo'llanmalari turizm rivojlanishining istiqbollariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatdan barqaror turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida, ushbu yo'nalishlarda yanada ko'proq e'tibor qaratish, mahalliy va global darajadagi turizmni rivojlantirishda zaruriy bo'ladi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. I.Habibullayev. Ekonometrika. Darslik. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2020.
2. Кремер Н.Ш. Эконометрика: Учебник.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-562с.
3. Шодиев Т.Ш. ва бошқалар. Эконометрика. –Т.: ТДИУ, 2007. –270 б.
4. Dougherty, Christopher. Introduction to Econometrics. Oxford University Press, 2011, 2006 (4 th or 3 rd edition)
5. Dougherty, Christopher. Elements of econometrics. Study Guide. University of London. 2011. 259
6. G.A.Madaminova. O'zbekistonda zamonaviy turizm tendensiyalari va muammolarini o'rganish. International scientific and practical conference cultural echoes on the silk road: bridging historical legacies with modern tourism. May 16-18, 2024
7. Jumaev A.M. 08.00.06 – Ekonometrika va statistika (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda turizmning innovatsion rivojlanishini statistic baholashni takomillashtirish" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy tadqiqot ishi.
8. Mamadjanov A.A. 08.00.06 - Ekonometrika va statistika (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston milliy hisoblar tizimida turizm yordamchi hisobini takomillashtirish" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy tadqiqot ishi.
9. Ш.Б.Ўразалиев. Иқтисодий масалаларни дифференциал тенгламалар кўринишида моделлаштириш. СамИСи. "Иқтисодий тараққийёт ва самарали бошқарув: халқаро тажриба, тенденциялар ва долзарб масалалар" халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. 2023 йил 10-11 ноябр.

10. Кремер Н.Ш. Эконометрика: Учебник. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 562 с.
11. Gujarati D.N. Basic Econometrics. McGraw-Hill, 4 th edition, 2003 (Gu); 5 th edition (2009, Gujarati D.N., and D.C.Porter).
12. Абдуллаев О.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. Учебник. –Т.: Fan va texnologiya. 2007. – 612 с.
13. Абдуллаев О.М., Жамалов М.С. Эконометрическое моделирование. Учебник. –Т.: Fan va texnologiya. 2010. – 612 с.
14. Шукуров И.А. Парная регрессия и корреляция, Universum: Технические науки, научный журнал, Выпуск:5(86), май 2021 г. Часть 1.
15. Елисеева И.И., Курышева С.В. и др.Эконометрика: Учебник.–М.: Финансы и статистика, 2007. –260 с.
16. stat.uz

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 16 June 2025  
**Accepted:** 5 July 2025  
**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

**TOWARDS THE INTERPRETATION OF SOCIAL TOLERANCE**

**Karimbayeva Salomatkhon Isabayevna**

Associate Professor of Namangan State Technical University,  
Candidate of Historical Sciences.

**Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidikovich**

Professor of Namangan State Technical University,  
Doctor of Philosophy.

**Abstract.** The article examines the social aspects and characteristics of tolerance in the development of society based on legal, religious and political analysis. Therefore, on the basis of European values, such as indifference, neutrality and legal recognition of differences, tolerance is substantiated as a social tradition and value in the socio-cultural life of the Uzbek people. Indeed, the national and religious life experience of the Uzbek people has normalized tolerance as a social category regulating social relations.

**Keywords:** national and religious diversity of society, tolerance, indifference and apathy, patience, endurance and moderation in society.

**IJTIMOYIY TOLERANTLIKKA TA'RIF**

**Karimbayeva Salomatxon Isabayevna**

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi.

E-mail: [Sotsial.nauki@gmail.com](mailto:Sotsial.nauki@gmail.com)

**Mirzaxmedov Abdurashid Mamasidikovich**

Namangan davlat texnika universiteti professori,  
falsafa fanlari doktori.

E-mail: [Mirzahmedov@mail.ru](mailto:Mirzahmedov@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada tolerantlikning huquqiy, diniy, siyosiy tahlillari asosida jamiyatning taraqqiyotida ijtimoiy jihat va xususiyatlari ta'riflangan. Shu bois tolerantlikning befarqlik, neytrallik, o'zgachalikni huquqiy tan olish kabi Yevropa qadriyatlariga tayangan holda o'zbek xalq ijtimoiy madaniy hayotida tolerantlik ijtimoiy an'ana va qadriyat ekanligi asoslangan. Darhaqiqat, o'zbek xalqi milliy-diniy turmush tajribalari tolerantlikni ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy kategoriya sifatida me'yorlashtirgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyatda milliy-diniy xilma-xillik, tolerantlik, befarqlik va loqaydlik, sabr toqat, chidam va mo'tadillik

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N10.1>

**Kirish**

O'zbekistonda konstitutsion islohotlar asosida ijtimoiy, dunyoviy, huquqiy demokratik davlat rivoji jamiyatning milliy-diniy rang-baranglik, ijtimoiy turli-tumanlikning o'zaro

hamjihatligi va totuvlik munosabatlariga quriladi. Mustaqillik yillari tajribasi milliy-diniy nizo va mojarolarning oldini olishda tarixan shakllangan etnokonfessional bag'rikenglik va sabr-toqat falsafasini milliy an'ana va qadriyatlarini tiklashni ijtimoiy zaruriyatga aylantirishi tolerantlikning ijtimoiy jihatini ilmiy tadqiqini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Tolerantlikning diniy omil, sotsiologik munosabatlarda o'ziga xos siyosiy jihatlari xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlarda tadqiq etilgan [2; 3; 7; 9]. O'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos va mosligi mazkur kategoriyani ijtimoiy jihat va xususiyatlarini fanlararo o'rganilmaganligini tasdiqladi. Shu boisdan maqolaning maqsadi jamiyatning global axborotlashuvi sharoitida respublikamizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy tolerantlikni ma'rifatining tahlilini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bilaks, davlatlar, xalqlarning xalqaro va mintaqaviy munosabatlarini tartibga solish, o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish bilan alohida olingan bir davlatda aholining ijtimoiy tinchlik va xotirjamligi asosida milliy taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishga imkon yaratilmoqda. Shu ma'noda ijtimoiy fanlarda tolerantlikning dolzarbligi oila va nikoh, ishlab chiqarish sohalarida boshqarishning ijtimoiy jhati bilan izohlanadi

### **Metodlar**

Ijtimoiy fanlarda tolerantlikning tarixiy, ijtimoiy iqtisodiy tadqiqi ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan umumnazariy metodlar asosida tahlil va talqinlari amalga oshiriladi. Shu bois analiz va sintez induktiv va deduktiv metodlar bilan birga mazmun va shakl, umumiylik, alohidalik va xususiylik kabi usullardan foydalanish muammoni yechimida eng maqbul yo'nalishdir.

### **Natija va muhokamalar**

Tolerantlikning mohiyati yangi davr Yevropa ma'rifatparvarlarining ilmiy ijtimoiy qarashlarida turli tuman madaniyatlarining o'zaro bir makonda mavjud bo'lishi, fuqarolarning uni tan olishi va har bir madaniyatning o'ziga xos va mos turmush tarzini qabul qilish va hamkorligini ta'minlash uchun loqaydlik, betaraflik, uning o'zgachaligiga chidashda namoyon bo'ladi. Shu boisdan G'arb falsafasida tolerantlikning o'zgachalik sharoitida dialog bilan yashash uchun sabrli bo'lish, nizo va mojarodan tiyilish va kuch va zo'rlik bilan muammolarni hal etishdan ko'ra o'zaro hurmat va e'tibor bilan hamjihatlilikni ta'minlashni ko'zda tutgan ijtimoiy talabdir [4].

Tolerantlik muammosi milliy-diniy, hududiy, demografik jihatlariga ega murakkab inson hayotini barcha munosabatlarini falsafiy yig'indisidir. Ilmiy adabiyotlarda tolerantlikning liberal va konservativ jihatlari o'rganilgan, lekin umuminsoniy va milliy paradigmalar: mohiyat va mazmun, ijtimoiy-qiyosiy chegaralarini aniqlash amaliy dolzarb vazifa ekanligi e'tirof etilgan [1, c.656]. Biz islom dinida "Vassatiya" shaxsning ijtimoiy o'rta hol hayot yo'li, mo'tadillik, muammolarni hal etishda barchani qoniqtiradigan yechimlarga intilishni anglatuvchi ijtimoiy kategoriya deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy tajriba ma'nosida tolerantlikning tahlillarida an'anaviylik va zamonaviylik ziddiyatiga e'tibor berish uslubiy muammodir. Chunki globallashuv va axborot texnologiyalari taraqqiyoti jamiyatimizga dunyo madaniyati yutuqlarini kirib kelishiga imkon yaratmoqda. Bu hol milliy madaniyat va qadriyatlarni ijtimoiy an'anaviyligini ta'minlashda tolerantlikni milliy manfaatlar daxlsizligiga ta'sirini aniqlashni talab etadi [10, c.113]. Tajriba ommaviy qadriyatlarni milliy mentalitetga salbiy g'oyaviy ta'sirini tasdiqladi. Chunki, tolerantlik umumbashariy deklarativ xalqaro huquqiy me'yor bo'lib, har bir davlatda o'ziga xos fuqarolik

munosabatlarida milliy-diniy, demografik-ijtimoiy harakat va harakatsizlikning me'yoriy tizimidir. Boz ustiga bu masala BMT Nizomi va o'zga xalqaro aktlardagi eng ilg'or gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan huquqiy munosabatning oliy shaklidir. Tolerantlik demokratik madaniyat ko'rsatkichi bo'lib, qonun ustuvorligiga tayanuvchi "industrial" taraqqiyot bosqichida shakllangan inson huquq va erkinligi tamoyilidir [1, c.48; 8, c. 93].

Biz Markaziy Osiyo xalqlarining jannatmakon serhosil qishloq xo'jaligi, sersuv daryolarning dala va bog'larga yaqinligi, islomning insonparvarlik g'oyalarida uyg'unlashuvi mintqa ijtimoiy hayoti shaxsning ruhiyatida axloqiy bag'rikenglikni muqaddaslashtirganligi haqidagi qarashlarni qo'llab quvvatlaymiz. Ayni vaqtda odamlarning bir makonda jamoaviylik ma'naviyatini shakllantirishda o'ziga xos va mos milliy hamjihatlikni murosayu-madorasi, sabr-toqat fe'l-atvorini ijtimoiy balog'at, huquqiy barkamollik fazilati deb hisoblaymiz. Shu boisdan biz M. Fukon jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti yuzasidan qarashlarini o'zbek xalqining boy milliy-diniy mehr-oqibat, odamiylik merosiga ta'rifi ijtimoiy mazmunga egaligi bilan dalillaymiz [12]. Ko'pmillatli va dinli o'zbek jamiyatida ijtimoiy hayotni tashkili va boshqaruvida noyob milliy axloq siyosiy va huquqiylikka uyg'unlashib ketgan.

O'zbek xalqining sabr-toqat, murosa falsafasi musulmon hayotiy fe'l-atvori demografik turmush tarzida me'yor bo'lib shakllangan. Chunki asrlar davomida bir necha avlodlarning oilaviy turmushida keksalarga mehr-muruvvat, yoshlarga g'amxo'rlik, bolajonlik ta'limi va tarbiyasi ijtimoiy xarakter kasb etgan. Oilaviy-milliy turmush tarzi shaxsning ijtimoiylashuvida islomiy siylai-raxim tarbiyasi ham mahalla instituti sabr-toqatni milliy mentalitetning ijtimoiy nazorati va mas'uliyatini amalga oshirgan. Ota-onalar farzandda kelishuvchanlik va o'zgalar bilan hamkorlik fazilatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratganligi e'tirof etilgan [6; 9]. Natijada farzandlarning teng va erkinligi oilaviy yumushlarni bajarishda hamkorligi bilan yoshlarda faol axloqiy fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalagan. Zero kishilarning o'zaro kelishuv, o'zingda fikr bo'lmasa o'zganing, ayniqsa kattalar fikriga quloq solish odob hisoblangan. Bu ommaviy liberal va konservativ tolerantlikda tashqi ta'sirga nisbatan shaxsning o'zini tiyish, ziddiyatda esa chidamlilik yoki befarqlikdan farqlanishini ko'rsatadi [3, c.11]. Chunki tolerantlik slavyan xalqlarida "loyalnost", "terpimost", "neytralitet" kabi yondashuvlarda yakdillik yetishmayotganligini ko'rsatadi. Chunki befarqlik va neytrallik ila murosa ikki xil ma'noga ega bo'lib, birinchisida harakatsizlik bo'lsa, ikkinchisida aloqa qilishga intilish bilan farqlanadi. Sabr-toqat kutish holatini ifodalasa, chidamlilik inson tanasi og'riq va o'zga bemorlikka qarshi ta'sir moslashuvdir.

O'zbek falsafasida tolerantlikni bag'rikenglik milliy g'oya tamoyili nuqtai nazaridan bir makondagi turli fuqarolarning millatlararo, dinlararo murosa-yu madora mazmunida qabul qilingan. Bu tushunchada o'zga millat va dinga, dindorlarga hurmat asosida milliy hamjihatlikka erishish nazarda tutilgan [6; 8; 9]. O'zbek olimlari tolerantlikning tarjimasida milliy qiyofada mujassam bo'lgan axloqiy mehr-oqibat, aslida insonga ilohiy muhabbatni nazarda tutgan deb hisoblaymiz. Chunki, atamada inson quchog'i, ya'ni ko'krak qismi — bag'rini ruhiy ifodalaydi.

Tolerantlikda fuqarolarning o'rtoqligi bo'lsa, bag'rikenglikda o'zbekning o'zga millatlarga beg'araz do'stlik fazilatlarini anglashiladi. Fransuz uyiga kelgan tili va tanasi, millati va dini o'zgacha bo'lgan hamkasb mehmon bilan tenglik va erkinlik asosida korxona manfaati uchun quchoq ochib kutib ololmaydi. Shu ma'noda etnograf B. Isoqovning tadqiqotlaridagi "...Huquq falsafasi tamoyillari asosida ta'lim va tarbiya olgan G'arb davlatlari kishisini...



rosayam ko'klarga ko'tarib, yaltoqlanib maqtamasligingiz, yetti bukilib,... mehmondo'stlik ko'rsatmasligingiz mumkin, lekin inson sifatidagi haq-huquqlarini judayam hurmat qilishingiz shart!"-deb yozganida yuz bora haq edi [5, 172 b]. Bilaks, tolerantlik "o'zbekcha bag'rikenglik" deganimizda ham masalaning mohiyat mazmunini to'la ifodalay olmaydi.

Bag'rikenglik milliy mehr-oqibat ma'nolarida ochiq qo'llik, keng fe'llik asosida o'zini qurshab olgan muhitdagi yordamga muhtojlarga madad berish, imkon doirasidagi saxovatpeshalik hisoblanadi. O'zbek mentalitetida bag'rikenglik ma'naviy-hududiy mazmunda qo'llash, ya'ni uy-joyiga ko'proq qiyoslanadi. O'zbek xalqi urush yillarida yurtimizga keltirilgan bolalarga bag'rikenglik qilgan. Boz ustiga u millatimizda gender (erkak va ayol), kattaning kichikka, boyning yo'qsilga, ota-onaning farzandlariga nisbat ma'nosida qo'llaniladi. Biz mazkur atamani ilmiy muomalaga kiritgan venger tibbiyoti vakillarining inson tanasiga o'zga odamning biror organini ko'chirilganda begona muhitda immunologik moslashuv, organizm funksionalligida biohamkorlikni ko'zda tutganlar. Inson tanasida "begona"ning moslashuvidan tirik odamlarning ijtimoiy farovonlik yo'lidagi hamkorligini ta'minlash tubdan farqlanadi, hatto ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo'llash mushkulroq degan fikrdamiz.

Shu boisdan tolerantlik dunyoqarashi bo'yicha prof. I. Saifnazarovning "...jamiyatning global axborotlashuvi sharoitida madaniyatlararo munosabatlarning virtuallashuvi, yoshlarning madaniyatiga yangi qadriyatlar bilan birga ijtimoiy tobelik holati patologiya sifatida shakllantirib, sabr-toqat falsafasini realligiga ehtiyoj xususida"gi fikrlariga qo'shilamiz [11]. Masalaning ijtimoiy falsafiy nozikligi xalqaro huquqiy norma va qadriyatlarni milliy hayotimizga qo'llash jarayonida yanada aniq namoyon bo'ladi. "Tolerantlik-turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir."-deya belgilangan [4]. Shuning uchun tolerantlik davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida huquqiy harakat ehtiyoji tufayli vujudga keladi.

### **Xulosa**

Tolerantlik shaxs huquqining tasdig'i, bag'rikenglik esa axloqiy qadriyat bo'lib, erkinlik va tanlovga tayanadi. Tolerantlik huquqiy burch va majburiyatni ifodalashi bilan o'zgachadir. O'zbek tilshunosligi milliy tilni boyishida ba'zi-bir atamalarni ilmiy aniqlik uchun tarjimasiz qabul qilishni ham yoqlaydi.

Biz O'zbekiston hukumatining BMT tolerantlik yuzasidan milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan xalqaro normalarga qo'shilmaslik siyosatini qo'llab quvvatlaymiz. Ayni vaqtda milliy telekanallarda yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi ko'rsatuvlar, saviyasi past qo'shiq va kuylar, milliy qadriyatlarga tahdid solishiga sabr-toqat qilib bo'lmaydi. Biz yoshlar sabr-toqat tarbiyasi oila va nikoh, yoshlar jinoyatchiligi masalasini ijobiy hal etishga imkonidir. Tolerantlik atamasini tarjimasiz ilmiy muomalaga kiritish **intolerantlik** munosabatini ham tarbiyalaydi. Shu o'rinda O'zbekiston hukumatining "Tolerantlik va diniy ma'rifat" borasidagi siyosati Harakatlar strategiyasida "Jaholatga qarshi ma'rifat" yo'l xaritasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy tolerantlikning chegarasi masalasida fuqarolik jamiyatidagi qonun ustuvorligi bilan birga milliy ma'naviyatimizning axloqiy normalari ham muhim tartibga solish omilidir. Demak oilaviy diniy-milliy me'yoriy demografik ma'rifat shakllantirish ijobiy natijadorlik omili deb o'ylaymiz. Ijtimoiy tolerantlik aslida "ommaviy madaniyat" bo'lib, o'zining ijobiyligi bilan birga salbiy jihatlarga ega qadriyatdir. Zero, oilaviy sabr-toqatdan yoshlarning nikohga, ota-ona aka-ukaga bag'rikengligi jamiyat tolerantligini hosil bo'ladi.

Islom dinining shaxs hayotidagi ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi o'zaro birga yashash turmush tartibi va qoidalarda sabr-toqat va murosai madora falsafasi ulug'lanadi. Shu bilan birga islom madaniyatida ijtimoiy tolerantlikning muhim jihati kechirimli bo'lish bilan ham me'yorlashtirilgan. Shu ma'noda tolerantlik huquqiy-siyosiylik bilan birga shaxsning mo'tadillik o'rta hollik turmush tarzi, ya'ni ijtimoiy munosabat omiliga aylanadi.

#### Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Анцупов А. Словарь конфликтолога. 3-изд. –М.: Эксмо. 2010.–656 с.
2. Асмолов А.Г. Смыслах понятия толерантности // Век толерантности. -2001. -№ 1-2. -С. 48
3. Днепров Т.П. Национальная толерантность в биполярном отечественном образовании -Екатеринбург. Изд УрГПУ, 2010. -363 с.
4. БМТ "Толерантлик тамойиллари Декларацияси" // Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича ҳалқаро шартномалар. / Мас. муҳ. А.Саидов -Т.: Адолат, 2002. -Б. 261.
5. Исоқов Б.Р. Хурриятнинг ҳуқуқий ҳимоячиси -Наманган; НамДУ, 2016. Б –172.
6. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар -Т.: Ўзбекистон, 2000. Б-59.
7. Мирзахмедов А. Толерантность как норма политики и права// Социальные нормы в условиях современных рисков. 2017. –С.181-183
8. Мирзахмедов А. Феномен ислама// Социологическое исследование. -2003. –№ 3. -С. 93-96
9. Мирзахмедов А. М., Каримбаева С. И. Толерантлик маданиятига доир қарашлар // Перекресток культуры. -2020. -№2(3). -С. 32-36.
10. Садовникова Н. О., Мирзаахмедов А.М. Актуальные смысловые состояния педагогов, переживающих профессиональный кризис личности// Образование и наука. -2019. – 21(2). –С. 113-131
11. Saifnazarov I. Mirzakhmedov A. Virtuality as A Subject In Modern Medicine //Journal of Negative Pharmateucal Result –2023. –№ 14(2). P. –1023-1027.
12. Фуко М. Что такое просвещение? // Интеллектуалы и власть. Избранные политические статьи, выступления и интервью / Пер. С. Ч. Офертаса. -М.: Праксис, 2002, -С.343

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF IBN KHALDUN'S THEORY OF CLIMATES**

**Qayumova Aziza Toshmuradovna**

Associate Professor, Department of Social and Political Sciences

Bukhara State University, PhD in Philosophy

**Abstract.** This article analyzes Ibn Khaldun's theory of climates from socio-philosophical and geopolitical perspectives. It explores the influence of climate on human nature, societal development, labor capacity, and the formation of social character. The study examines how climatic differences affect people's psychological and emotional states, as well as their spiritual and moral levels. Ibn Khaldun's theories are compared with the views of Montesquieu, emphasizing that the natural environment influences the culture and development of society not directly, but indirectly.

**Keywords:** climate, equator, people, consciousness, idea, society, development, geographical environment.

## **IBN XALDUN IQLIMLAR NAZARIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

**Qayumova Aziza Toshmuradovna**

Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası

dotsenti, s.f.f.d. (PhD)

E-mail: [a.t.qayumova@buxdu.uz](mailto:a.t.qayumova@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ibn Xaldunning "iqlimlar nazariyasi" ijtimoiy va geosiyosiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada iqlimning inson tabiati, jamiyat taraqqiyoti, mehnatga layoqatlilik va ijtimoiy xarakter shakllanishiga ta'sirini ochib beriladi. Iqlimlar farqlari asosida insonlarning ruhiy-emotsional holati va ma'naviy-axloqiy darajasi o'rganiladi. Ibn Xaldun nazariyalari Monteskiye qarashlari bilan solishtirilib, tabiiy muhitning jamiyat madaniyati va taraqqiyotiga bevosita emas, balki bilvosita ta'siri asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** iqlim, ekvator, xalq, ong, g'oya, jamiyat, taraqqiyot, geografik muhit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N11>

### **Kirish**

Ijtimoiy muhitning davlat va jamiyatdagi o'rni, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotga ta'siri buyuk mutafakkir Ibn Xaldunning ijtimoiy qarashlarida muhim omil sifatida talqin etilgan. Rus olimi I.Yu.Krachkovskiy qayd etishicha: geografik muhitning jamiyat hayotiga ta'siri to'g'risida Ibn Xaldungacha aniq fikr-qarashlar ilgari surilmagan, mutafakkir esa bu sohaning yangilik yaratuvchisi hisoblanadi" – deya unga yuqori baho bergani e'tiborga molik.

### **Metod va metodologiya**

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-falsafiy, sotsiologik va geosiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ibn Xaldunning "iqlimlar nazariyasi" konsepsiyasi kontekstida iqlim, inson xarakteri va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Metodologik asos sifatida taqqoslash, mantiqiy tahlil, kategoriyalarni tahlil

qilish va kontekstual yondashuvlar qo'llanildi. Ibn Xaldun qo'lyozmalarida zamonaviy geografik determinizm, sivilizatsion nazariya va Monteskye iqlim nazariyasi bilan solishtirildi. Maqolada shuningdek, tarixiy manbalar va zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlar asosida nazariy xulosalar chiqarildi.

### **Muhokama va natijalar**

Ibn Xaldun antik yunon va rim olimlari hamda arab geograflari, yerning sharsimonligi haqidagi nazariy fikrlariga tayangan holda, quruqlik va dunyo okeanini joylashganligi hamda chuqur ilmiy muvozanat negizida taqsimlanganligi, quruqlikdagi jonli va jonsiz hayotning mavjudligi umumiy mantiq qonuniyati asosida izohlagan. Bunda asosan quruqlikda mavjud bo'lgan va bo'laklarga bo'lingan 7 iqlim nazariyasi ilgari surilgan bo'lib, bu qonuniyatga asosan insonlarning hayoti uchun faqatgina quruqlikning to'rtinchi qismi yaroqli hisoblangan. Taxminlarga ko'ra, hayot faqat ekvator dan shimol tomonga 64 S0 — kenglikkacha bo'lib, undan keyin qattiq sovuq va issiq tufayli hayot yo'q, – qat'iy fikrlarga quyidagicha xulosaga kelib uni shunday izohlaydiki, haddan tashqari issiq zona bu –ekvator bo'lib, bu yerda odamlar kam joylashgan, shuningdek, bu hududlar aholisini esa asosan qora tanlilar tashkil etgan [1]. Ibn Xaldun ekvator dan janubda joylashishni quyidagicha izohlaydi, janubiy yarim shar ham xuddi Shimoliy yarim shardek iqlim zonalariga ajralgan, shuning uchun ham u yerda hayot mavjud. Ammo u Janubiy yarim shar maydonini okeanlar egallaganligi sababli aholisi kamchilikni tashkil etadi [2], – deb qayd etgan. Ekvator dan Shimolga tomon kengliklar yetti geografik zonaga – “iqlimlarga” bo'linganini va har bir iqlim zonasi bir-biridan kecha va kunduzining davom etishi, ekvator dan quyosh nurining tushish burchagi bilan farqlanishi hamda har bir iqlim zonasi G'arbdan Sharqqa tomon 10 ta bo'lakka bo'linganligini isbotlab, hayot mantig'iga al-Idrisiy ta'limotini qiyosiy nisbatlagan holda har bir iqlim xususiyatlarini to'liq tavsiflagani xarakterlidir.

Biroq, Ibn Xaldun o'zining asosiy diqqatini iqlim tabiiy sharoitining o'zaro aloqalariga va undagi insonlarning xarakter xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning fikricha, insoniyatning tabiiy va ruhiy qiyofasiga ta'sir etuvchi omillar, bular harorat va iqlim sharoitidir. Bularni geografik sharoitda xarakterlar ekan, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq tarkibi va qazilma boyliklar ham iqlimga bog'liqligini uqtirgan. Ibn Xaldun “Iqlimlar nazariyasi” hozirgi zamon fanida geografik zonalar nazariyasi sifatida keng tarqalgan bo'lib, bir xil iqlim chegarasi katta va kichik kontinentalligi bilan o'zgarib turadi. Masalan, Yaman, Hijoz, Oman shaharlari ekvator dan unchalik uzoqda joylashmagan bo'lsalar ham, ya'ni birinchi va ikkinchi iqlimda joylashgan, ammo harorat bu yerlarda okean va daryo suvlari yaqinligi uchun bir oz yengildir [3]. Shuningdek, 1 va 2-iqlim mintaqasi quyosh nurining tushish burchagi ta'siridan juda issiq bo'lsa-da, 6 va 7-iqlimlar quyosh nurining kam tushishi bois sovuqdir. 4-iqlim mo'tadil bo'lib, 3 va 5-iqlimlar mo'tadil iqlimga yaqindir. “Odamlarga, – deb qayd etgan Ibn Xaldun, – iqlim 3 tomonlama ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, ularning tabiiy xususiyatlarini, ikkinchidan, qabila va xalqlarning xarakter va harakatchanligini, uchinchidan esa, har bir xalqning mehnatga layoqatlilik va intilishini belgilaydi. Avvalo, insonlarning tashqi ko'rinishi, ruhiy holati va urf-odatlariga qarab, ularning etnologik kelib chiqishini faqat iqlim manbasi bilan bog'lash to'g'ri kelmaydi” [4]. Ayni chog'da Ibn Xaldun odamlardagi xarakter xususiyatlariga haroratning ta'siri katta bo'lishini alohida uqtirgan. Masalan, janubda yashovchi aholi bilan shimolda yashovchi aholi xarakter xususiyatlarini farqlab bergan. Tahlil natijalariga ko'ra, ular o'rtasidagi farq bu hududlarda yashovchi aholi rangining oq yoki

qoraligida, bu esa faqat haroratga bog'liq. Bundan tashqari, janubda yashaydigan aholi, shimolda yashaydigan aholidan quvnoqligi, sho'xligi bilan ajralib turadi. Ibn Xaldun bunday holatni Sudanliklarda ko'rish mumkin, deb ishora qilgan. Chunki, bu yerda haroratning balandligi tufayli odamlarda yengiltaklik, o'zini tiya olmaslik, ba'zilarida esa betayinlik holatlarini ham uchratish mumkin. Chunki, ular to'rtinchi iqlimda yashovchilarga qaraganda, xursandchilikka tez berilishadi. O'z davrining taniqli olimi al-Mas'udiy ham sudanliklarda ko'p uchraydigan yengiltaklik, xursandchilikka tez berilishining sababini aniqlashga harakat qilgan. Biroq biror bir xulosaga kelolmagach, Galen hamda Yoqub ibn Ishoq al-Kindining yuqori harorat inson miyasini zaiflashuviga va oxir-oqibatda uning tafakkur tarziga salbiy ta'sir yetkazishi to'g'risidagi taxminiy g'oyalariga tayangan, xolos.

Ibn Xaldun o'z e'tiborini yana bir muhim masalaga qaratgan. Uning fikricha, ba'zi hollardagi bir xil iqlim sharoitida yashovchi insonlar ruhiy holatida ham ayrim bir o'zgarishlarni farqlash mumkin. Buning isboti sifatida Misr hamda Fas shaharlari aholisini keltirgan. Misrda haroratning balandligi tufayli aholisida bemalollik quvnoqlik, fikr-qarashlarning tez o'zgarishi holatlarini ko'rish mumkin. Hattoki ular oziq-ovqatni jamlab iste'mol qilishni ham qat'iy odatlarga aylantirishmagan. Xususan, ular kundalik yegulikni har kuni bozordan olib turishgan. Fas shahrida esa buning aksi bo'lib, mazkur shahar Mag'ribning salqin tog' yon bag'rida joylashgani uchun u yerliklar oziq-ovqatni jamlab, uzoq muddat mobaynida iste'mol qilishgan.

Ibn Xaldun insonning ruhiy hamda tabiiy holatiga ta'sir etuvchi omillar faqatgina iqlim sharoiti emasligini aytib, ular iste'mol qiladigan oziq-ovqatning ham insonga ta'siri borligini isbotlab bergan. Uning fikricha, cho'lda yashovchi xalqlarning iste'mol qiladigan mahsulotlari faqat sut, qattiq mahsulotlari bo'lgan, non va go'shtni ular shahar aholisiga nisbatan kam iste'mol qilishgan, shu bois ham cho'lliklar aholisi o'zining baquvvatligi, chidamliligi, ziyrakligi bilan ajralib turishgan.

“Bilginki, – deb yozgan mutafakkir, – mo'tadil iqlimda tuproq qatlami hamma joyda ham hosildor emas, shuningdek, aholisining hammasi ham boy yashamaydi. Shunday viloyatlar borki, bu yerlarda don va meva mahsulotlari serob, tuprog'i hosildor, aholisi ham ko'p. Ammo ayrim viloyatlar yerlari hosildor emas, bunga misol sifatida Hijoz, Yaman hamda Mag'ribning cho'llarini keltirish mumkin. Bular asosan ko'chmanchi arablar bo'lib, ularning iste'moli sut mahsulotlari ham bo'lgan, ba'zida esa ular Tell shahridan un va boshqa mahsulotlarni olib turishgan. Shunday bo'lsa ham, ularning tashqi ko'rinishi, yuz tuzilishi elliklarnikidan ancha ko'rkam va chiroyli bo'lgan. Ibn Xaldun buning sababi ularning ko'pincha sut mahsulotlarini muntazam iste'mol qilishidan, deb bilgan. Chunki juda ko'p miqdorda va har doim go'shtli mahsulotlarni iste'mol qilish insonning husniga zararlidir hamda ongining zaiflashuviga ham olib keladi”, deb uqtirgan [5].

“Mo'tadil iqlim zonasi, deb yozgan Ibn Xaldun moddiy va ma'naviy tamoyillarga asoslangan ijtimoiy hayotni belgilaydi. Buning isboti sifatida mutafakkir Mag'rib, Suriya, Iroq, Xitoy hamda Andalusiyani misol qilib keltirgan” [6]. Bu yerlarda tabiiy sharoitning mavjudligi tufayli ishlab chiqarishning turli shakllari rivojlangan. Har qanday iqlimning tabiiy sharoiti davlat va jamiyat rivojiga, uning yuksalishiga muayyan iqtisodiy zamin yaratadi, xolos. Bunday yondashuvlar bilan Ibn Xaldunning geografik muhit g'oyasi antik dunyo olimlari qarashlaridan tubdan farq qilgan. Xususan, mutafakkir nomo'tadil iqlimda yashovchi aholiga tabiiy muhit ko'proq ta'sir etishi va bu yerliklar ko'proq tabiat qonunlari asosida yashashini, mo'tadil iqlim

aholisi esa asosan davlat qonunlari va jamiyatdagi ma'lum qoidalar, milliy urf-odatlar an'analar va tartiblarga ko'proq bo'ysunishini isbotlab bergan [7].

Shu nuqtai nazardan, Ibn Xaldunning geografik muhit jamiyat madaniy-ma'naviy hayotiga, urf-odatlariga, ta'sir etishi to'g'risidagi qarashlarini Montes'ye nazariyalari bilan taqqoslash o'rinli. Biroq, Montes'ye bu borada muhim xatoga yo'l qo'ygan, xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy yuksalishi o'sha iqlimning haroratidan, deb bilgan. Ibn Xaldun esa uning bunday qarashlaridan farqli o'laroq, har bir xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti va ularning xarakter xususiyatlari, eng avvalo, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyati va intellektual salohiyati bilan bog'liqligini isbotlab bergan [8].

### **Xulosa**

Buyuk mutafakkirning geografik muhitning jamiyat hayotiga ta'siri to'g'risidagi g'oyalaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, tabiiy geografik muhit ijtimoiy taraqqiyotda muhim bo'lsa-da, insoniyat uchun ijtimoiy hayot mazmuni va farovonlik darajasini to'liq belgilab bermaydi;

ikkinchidan, qulay tabiiy geografik muhit, faqat odamlarning o'zaro kommunikativ birligi hamda birdamlik imkoniyatlarini kengaytirish omil hisoblanadi;

uchinchidan, geografik muhit o'z mohiyatiga ko'ra, yer sharining insonlar yashaydigan qismi, ya'ni mo'tadil hamda nomo'tadil iqlimlarda istiqomat qiluvchi aholining ruhiy-emotsional holati hamda ularning ijtimoiy birlashuvi darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatishi bilan farqlanadi;

To'rtinchidan, geografik muhit insonlarning intellektual-ma'naviy salohiyati va aqliy tafakkur qilish imkoniyatlarini cheklay olmaydi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Бартольд В.В. Ислам и культура мусульманства, –Москва: МГТУ, 1992, –С. 54;
2. Якубовский А.Ю. Проблема социальной истории народов Востока в трудах В.В. Бартольда, –Владимир: ВЛГУ, 1947, № 12. –С. 18-20;
3. Крачковский И.Ю. Арабская литература в XX в., –Санкт-Петербург: “ЛГУ”, 1946, –С. 28;
4. Беляев Е. Историко-социологическая теория Ибн Хальдуна, –Москва: “Историк-марксист”, 1940, № 4-5, –С. 79-80;
5. Иванов Н. А. «Китаб -аль -Ибар» Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV веке // Арабский сборник. –Москва:, 1959. -С 3-45;
6. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна “Мукаддима”, –Москва: Наука, 1965. –С. 223;
7. Игнатенко А.А. Ибн Хальдун. –Москва: Мысль, 1980, –С. 20-65;
8. С. Бородин. Молниеносный баязет, –Москва: «Известия», 1973, –С. 20-40. Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии, – М. Книжный дом “Университет”, 1997, –С. 224.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEAS IN THE “UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY IN THE CONTEXT OF THE UNITY OF SYMMETRY AND ASYMMETRY**

**Bekpulatov Ulugbek Rakhmatulla ugli**

doctoral student at Navoi State University,

PhD in Philosophy,

Associate Professor

E-mail: [bekpulatov.u@mail.ru](mailto:bekpulatov.u@mail.ru)

**Abstract.** This article presents a socio-philosophical analysis of the ideas underlying the “Uzbekistan – 2030” strategy in the context of the unity of symmetry and asymmetry. It substantiates that in the process of social development, symmetry appears as a symbol of justice, stability, equality, and harmony, while asymmetry functions as a means of renewal, differentiation, and reform. The study also reveals that the unity of symmetry and asymmetry serves as an essential philosophical criterion for building a harmonious, stable, and dynamically developing model of society in the context of ongoing reforms in Uzbekistan.

**Keywords:** “Uzbekistan – 2030” strategy, symmetry, asymmetry, dialectical unity of symmetry and asymmetry, stability and instability, balance and imbalance, equality and inequality, justice and injustice, renewal, development.

## **SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGI KONTEKSTIDA “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDAGI G‘OYALARNING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI**

**Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li**

Navoiy davlat universiteti doktoranti,

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosida yotgan g‘oyalar simmetriya va asimmetriya birligi kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Natijada, ijtimoiy taraqqiyotda simmetriya - adolat, barqarorlik, tenglik va uyg‘unlik sifatida, asimmetriya esa yangilanish, tafovutlar va islohotlar vositasi sifatida namoyon bo‘lishi asoslab berilgan. Shuningdek, simmetriya va asimmetriya birlikda jamiyatning uyg‘un, barqaror va dinamik rivojlanish modelini yaratishda muhim falsafiy mezon ekanligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar rakursida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, simmetriya, asimmetriya, simmetriya va asimmetriyaning dialektik birligi, barqarorlik va beqarorlik, muvozanat va nomuvozanat, tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik, yangilanish, taraqqiyot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N12>

### **Kirish**

Hozirgi zamon globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday strategiya faqatgina iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy-falsafiy mezonlar rakursida ham tizimli o‘rganilishi dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda “O‘zbekiston – 2030”

strategiyasi ham mamlakatimiz barqaror taraqqiyotining kompleks yo'l xaritasi bo'lib, uning asosida yotgan g'oyalar mohiyatini jamiyat hayotidagi simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo'lish shakllari bo'lgan barqarorlik va beqarorlik, tartibot va tartibsizlik, muvofiqlik va nomuvofiqlik kabi qarama-qarshi hodisalar, tomonlar, xususiyatlar, jihatlar birligi kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga obyektiv zarurat sezilmoqda. Chunki, simmetriya va asimmetriya birligi tamoyillari murakkab ijtimoiy tizimlardagi o'zaro qarama-qarshi tomonlarni birlikda, uyg'unlikda va aloqadorlikda tizimli o'rganish imkonini beradi.

### **Muammoning o'rganilganlik darajasi**

Jahon ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida jamiyatdagi tartib va tartibsizlik, barqarorlik va beqarorlik, tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik, garmoniya va disgarmoniya kabi juda keng spektrga ega bo'lgan simmetrik va asimmetrik hodisalarning o'zaro munosabati muammolari hamda ularni eng maqbul holatga keltirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy va madaniy omillari Brantly Vomak, Jan-Sebastyan Gay, Steffen Roz, Jarret T. Cravford, Renny Rueda, Arreguin-Toft, M.Fischerkeller, C.Mitchell, T.V.Paul, R.Vorleylar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.Gott, A.Pereturin, N.Depunchik, N.Ovchinnikov, A.Ursul, Yu.Urmansev, Yu.Abdulkadirov, K.Maynser, V.Afanaseva, Yu.Xismatullina, X.Yagafarova, Y.X. Bitsin, O.B. Bergazova, N.Golubevalar materiya tuzilishining turli darajalarida simmetriya va asimmetriya xossalarning o'rni, ularning ontologik va gnoseologik jihatlari, umumilmiy va falsafiy kategoriyalar bilan o'zaro aloqadorligi, fanlar transformatsiya jarayonlaridagi ahamiyati kabi masalalarni, N.E. Shustova, L.T. Podvoiskaya, S.M. Chernikova, I.I. Sanjarevskiy, O.V. Ivanovlar shaxs ijtimoiy moslashuvi, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida ijtimoiy uyg'unlik, murosa va tuzilmaviy mutanosiblikning o'rni va ularga erishish mexanizmlarini tadqiq etganlar.

O'zbek olimlaridan O.Fayzullayev, M.Abdullayeva, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, M.Qirg'izboyev, A.Xolbekov, J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, F.Musayev, X.Salomova, N.Safarova, M.Niyazimbetov, G.G'afforova, B.S.Turdiyevlar jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy omillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish hamda ijtimoiy munosabatlardagi o'zaro muvofiqlik va me'yorni saqlashning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, kabi simmetriya va asimmetriyaning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid tadqiqotlar olib borishgan.

### **Tadqiqot usullari**

Tadqiqotda ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, analiz, sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi usullaridan foydalanildi.

### **Muhokama**

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi simmetriya va asimmetriya birligiga oid konseptual g'oyalar va pragmatik yondashuvlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish unda ko'zlangan maqsadlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. "O'zbekiston — 2030"



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2024-yillarda mamlakatda kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga kamaydi, bu esa ijtimoiy dasturlar va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ijobiy dinamikani ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat byudjetida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar har yili o'rtacha 12-15 foizga oshirib borildi, bu esa ijtimoiy himoya tizimini sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi. Manzilli ijtimoiy yordam oluvchilar soni 1,5 milliondan oshdi, aholini bandlik dasturlari bilan qamrab olish esa rekord ko'rsatkichga yetdi – 2023-yilda 500 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Sog'liqni saqlash sohasida so'nggi besh yilda tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish xarajatlari qariyb 2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarini joriy etish imkonini berdi. Ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda: oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 2016-yilga nisbatan qariyb ikki baravarga oshdi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi esa 27 foizdan 70 foizga yetdi. Shu bilan birga, turli hududlarda ne'matlarning teng taqsimlanishi, byudjet sohasidagi ish haqi darajasi va inklyuziv ijtimoiy dasturlarni yanada rivojlantirish zarurati bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Kelajakda yordam ko'rsatishning shaffofligi va samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy sohani raqamlashtirishni davom ettirish zarur. Ijtimoiy to'lovlarni oluvchilarning yagona raqamli reyestrini joriy etish byurokratiyani minimallashtirish va qo'llab-quvvatlashning manzilliligini oshirish imkonini beradi. Soliq imtiyozlari va moliyalashtirish dasturlari orqali ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham muhim yo'nalish bo'lib, bu biznesga ijtimoiy muammolarni hal qilishda faolroq ishtirok etish imkonini beradi [11; 47-b.]. Ijtimoiy harakatchanlikni kuchaytirish uchun ta'lim islohotlarini kuchaytirish, jumladan, professional ta'limni rivojlantirish, o'quv dasturlariga yangi texnologiyalarni joriy etish, oliy o'quv yurtlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ekologiya muhim jihat bo'lib qolmoqda – «yashil iqtisodiyot» tamoyillari va ekologik barqaror ijtimoiy dasturlarni joriy etish kelajakdagi ijtimoiy siyosatni shakllantirishda asosiy omil bo'ladi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish iqtisodiy islohotlar, texnologik innovatsiyalar va fuqarolik jamiyatini jalb qilishni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi, bu esa O'zbekistonda ijtimoiy davlatning barqaror modelini yaratishga imkon beradi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bakirov N. B. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning raqamli transformatsiyasi. – Toshkent: Axborot texnologiyalari universiteti, 2023. – 283 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 487 b.
3. Nazarov U. K. O'zbekiston ijtimoiy siyosatini shakllantirishda mahallaning o'rni. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019. – 349 b.
4. Nigmatov R. U. Globallashuv va O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish. – T.: Iqtisodiyot va moliya universiteti, 2019.
5. Norboyev J. X. Ijtimoiy adolat va uning «Yangi O'zbekiston» siyosatidagi o'rni. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2021. – 362 b.
6. Rajabov B. A. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning davlat tomonidan tartibga solinishi. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 381 b.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik / I. T. Tulteev tahriri ostida. – T.: TDYUU, 2018. – 286 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish sharoitida ijtimoiy siyosat. – 2022. – 188 b.
9. Абдуллаев Ш. Р. Развитие социальной политики в контексте реформ «Нового Узбекистана» // Экономика и общество. — 2021. — № 4. — С. 114–127.
10. Алимова Д. Ш. Глобализация и социальная политика: опыт Узбекистана и мировая практика // Региональная политика. — 2022. — № 4. — С. 164–187.
11. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Оценка эффективности социальных программ в Узбекистане. — 2023. — С. 47.
12. Каримова З. У. Социальная защита населения Узбекистана: тенденции и вызовы // Философия и социальная мысль. — 2020. — № 2. — С. 71–84.
13. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека. Социальные права и реформы в Узбекистане. — 2022. — 48 с.
14. Нигматова Х. Б. Государственные реформы в сфере социальной защиты: анализ и перспективы // Экономика и прогнозирование. — 2023. — № 5. — С. 134–144.
15. Норбоев Д. Х. Социальное государство и модернизация системы социальной защиты в Узбекистане // Наука и инновации. — 2023. — № 1. — С. 48–53.

16. Оценка системы социальной защиты в Узбекистане на базе основного диагностического инструмента (CODI): совместный отчет МОТ, ЮНИСЕФ и Всемирного банка. — 2020. — 84 с.
17. Раджабова С. А. Инклюзивное развитие и социальное предпринимательство в Узбекистане // Современная экономика. — 2021. — № 6. — С. 76–84.
18. Ташматова Г. И. Государственная политика социальной поддержки малообеспеченных семей в Узбекистане // Экономика Узбекистана. — 2019. — № 5. — С. 97–108.
19. Тейлор-Губи П. New Risks, New Welfare: The Transformation of the European Welfare State. — Oxford: Oxford University Press, 2004. — 264 с.
20. Титов В. И. Социальная политика и социальное государство. — М.: Изд-во МГУ, 2017. — 394 с.
21. Университет мировой экономики и дипломатии. Анализ социальной трансформации Узбекистана. — 2021. — С. 15.
22. Центр экономических исследований и реформ при Президенте Республики Узбекистан. Стратегия социальной политики в Узбекистане. — 2023. — 61 с.
23. ЮНИСЕФ. Ситуационный анализ положения детей в Узбекистане 2019/2020. — Ташкент: ЮНИСЕФ, 2020. — 118 с.
24. Giddens, A. The Third Way: The Renewal of Social Democracy. — Cambridge: Polity Press, 1998. — 176 с.
25. Pierson, P. The New Politics of the Welfare State. — Oxford: Oxford University Press, 2001. — 530 с.



**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI**

**Abdurakhmonov Is'haq**

Teacher, Urgut Branch of Samarkand State University

E-mail: [ishaqabduraxmonov@mail.ru](mailto:ishaqabduraxmonov@mail.ru)

**Jurayeva Raykhona**

Student, Urgut Branch of Samarkand State University

**Abstract.** The article analyzes the philosophical and methodological significance of information culture in the prevention of spiritual threats and information attacks in the context of modern information globalization. The article also presents conclusions about the mechanisms and means of forming information culture among young people.

**Keywords:** information globalization, cyberspace, cyberterrorism, spiritual threats, information attack, young people, information culture, means and methods, education.

## **YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI**

**Abduraxmonov Is'haq**

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali o'qituvchisi

**Jurayeva Rayxona**

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi informatsion globallashuv sharoitida ma'naviy tahdid va axborot xurujlarini oldini olishda axborot madaniyatining ahamiyati falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etiladi. Maqolada shuningdek, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning mexanizm va vositalariga oid mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** informatsion globallashuv, kibermakon, kiberterrorizm, ma'naviy tahdidlar, axborot xuruji, yoshlar, axborot madaniyati, vositalar va usullar, ta'lim-tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N14>

Informatsion globallashuv kishilik jamiyatiga xos tabiiy tarixiy taraqqiyot jarayonining navbatdagi bosqichidir. Informatsion sivilizatsiyaning hosilasi bo'lmish kibermakonda internet tarmoqlari ijtimoiy turmush tarzining barcha sohalariga kirib bormoqda va foydalanuvchilarga katta imkoniyat yaratmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda va masofali ta'lim tizimida, ilmiy tadqiqot bosqichlarida, videokonferensiyalarni tashkil etishda, ayniqsa, jahonning istalgan nufuzli kutubxonalaridagi adabiyotlar bilan tanishishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan uzluksiz ta'lim tizimining masofali tashkil etilishi kibermakonning keng imkoniyatlaridan biri edi.

Axborot asri kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo'lgan tabiiy-tarixiy jarayon bo'lib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlari ham mavjuddir. Bu salbiy xususiyatlar ko'proq axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlarda namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimizning ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotgan ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlari asosan "Ommaviy madaniyat" zahiridagi axloqsizlik hamda diniy ekstremistik va terroristik g'oyalar shaklida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda kibermakondan diniy jarayonlarda foydalanish, xususan, diniy mazmundagi ma'lumotlarni, missionerlik va soxta tariqatchilik g'oyalarini, ayniqsa, diniy mutaassibona terroristik g'oyalarni tarqatishda internetdan foydalanish keng avj olmoqda.

Avvalo ijtimoiy nuqtai nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi [1].

Kibermakonda internet tarmog'idan foydalanishda juda katta imkoniyatlar mavjud. Avvallari noyob bo'lgan, hamma ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan muqaddas matnlar va ularga yozilgan turli sharhlarni endilikda istalgan kishi internet saytlardan yuklab ta'lim olish mumkin. Shu maqsadda diniy ma'lumotlarga kuchli ehtiyoj sezgan kishilar uchun maxsus veb saytlar muqaddas matnlar, diniy manbalar, turli-tuman sekta va yangi diniy harakatlarning g'oyalarini targ'ib etuvchi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Eng tahlikalisi diniy ekstremistik va terroristik g'oyalarini targ'ib etuvchi internet saytlari kundan kunga ko'paymoqda. Bu kiberterrorizmning jiddiy ijtimoiy xavf sifatida namoyon bo'lishidir. Ayniqsa bugungi kunda "o'rgimchak to'rida" diniy ekstremistik g'oyalar targ'iboti hamda diniy mutaassiblik va terrorizmga chaqiriqlar domiga tushib qolayotgan kishilar ko'paymoqda. Butun insoniyatga tahdid solgan ISHID terroristik to'dalari ham o'z g'oyalarini internet to'rlari orqali tarqatdi [2.89]. ISHID tomonidan amalga oshirilgan xunrezliklar kibermakonda kiberterrorizmning yaqqol namoyon bo'lishidir.

Terroristlar bu ishga katta malaka, tajribaga ega bo'lgan yevropalik mutaxassislarni jalb etganlar. Ular yoshlarni o'zlarining aldovlari domiga tortish uchun videolavhalar va chaqiriqlarini yuqori sifat va professional mahorat bilan ishlaganlar. Shuning uchun ham ko'plab fuqarolar, asosan yoshlar ularning manfur tuzog'iga ilindi. Yoshlarning bunday buzg'unchi g'oyalarga aldanmasliklari hamda zalolat botqog'iga botmasliklari uchun biz mutaxassislar zaruriy metodologik tavsiflarimizni o'z vaqtida ishlab chiqishimiz kerak. Yoshlarimizga internetda in qurib, o'zlarining vayronkor g'oyalarini xatarli virus kabi butun dunyoga tarqatayotgan jinoyatchi terrorchi g'alamislarning asl basharasini ochib berishimiz kerak.

Internet tarmog'ida diniy ekstremistik, terrorchilik va buzg'unchiliklarni targ'ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko'paymoqda. Bu holat dunyoqarashi shakllanmagan va g'o'r yoshlarimizning sog'lom e'tiqodini ongi va dunyoqarashini zaharlamokda. G'alamislarning internet orqali hujumlari asosan yoshlarga qaratilgan bo'lib, ular o'smirlar uchun qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko'rinishidan go'yoki o'yin, texnika, sportga doir bo'lsa-da, lekin ichki sahifalarda faqat buzg'unchilikni targ'ib etuvchi veb jurnallarni taqdim etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og’ir kulfatlar olib kelmoqda, g’arazli kuchlar hali ong-u tafakkuri to’la shakllanib ulgurmagan bolalarni o’z ota-onasiga, Vataniga qarshi qo’yib, ularning hayotiga zomin bo’lmoqda. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko’y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog’lom tan, o’tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma’rifat asosida ish olib borishimiz zarur” [3; 400].

Biz shaxsning axboroti madaniyati xususida mulohazalarimizni bayon etamiz. Fuqarolarning diniy qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni ehtiyojini qondirish maqsadida ayni damda internet tarmog’ida O’zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi bir necha o’nlab veb-saytlar faoliyat yuritmoqda. Mazkur saytlarda ajdodlarimiz e’tiqod qilib kelgan sunniylik yo’nalishining hanafiya mazhabiga oid ixtiyoriy savollarga diniy ulamolarimizning mukammal javoblarini topish mumkin. Bugungi kunda o’n minglab fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz “UZ” domenidagi diniy veb saytlarga murojaat qilishmoqda. Mazkur saytlar ishonchli diniy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Yoshlarimizni kibermakonda diniy ekstremistik va terroristik tahdidlardan saqlashimiz uchun avvalo ularda axborot madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Tadqiqotchilar axborot madaniyati tushunchasining tasnifini keltirar ekanlar, jamiyatning axborot madaniyati, shaxsning axborot madaniyati va muayyan guruhlar yoki toifadagi axborot iste’molchilarining axborot madaniyati tushunchalarini keltirib o’tadilar [4;116].

Axborot madaniyati bu har qanday olingan yoki berilgan, eshtilgan, ko’rilgan xabar, ma’lumot yoki axborotni ratsional tarzda, mantiqiy tafakkur asosida obyektiv, tanqidiy tahlil etish qobiliyati tushuniladi. Ma’lumotni tahlil etish hamda baholashda milliy ma’naviy qadriyatlar asosida va milliy mentalitet nuqtai nazaridan ham yondashishi axborot madaniyatining tarkibiy qismidir.

Axborot madaniyatining tarkibiy elementlari quyidagilardan iboratdir: ratsional tafakkur; yetuk nazariy bilim, xususan ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida; hodisa, jarayon yoki voqelikka tanqidiy yondashish va mantiqiy tahlil etish qobiliyati. Yoshlarda tarixiy xotira va milliy g’urur, milliy ma’naviy qadriyatlarimizdan iftixor tuyg’usi axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [5].

Har qanday axborotlarni milliy mentalitetimizga xos tarixiy ong negizida tanqidiy tahlil eta olish qobiliyatini ham axborot madaniyatining zaruriy jihatidir.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning obyektiv va subyektiv asos hamda omillari, usullari, vositalari mavjuddir.

Axborot madaniyati diniy mazmundagi axborot xurujlari va kiber tahdidlardan himoyalaniish, o’z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun eng zaruriy vositadir. Chunki axborot madaniyati orqali yoshlar internetda berilayotgan ma’lumotlarni “filtrlash” qobiliyati shakllanadi. Axborot madaniyati shakllangan yoshlarimiz internetdagi diniy ekstremistik ma’lumotlarni ajrata bilish qobiliyatiga ega bo’ladi.

Axborot madaniyatini shakllanishida muhim vositalar va usullar ham mavjud bo'lib, bularga oila, mahalla ta'lim-tarbiya maskanlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish har bir murabbiy va ustozdan mas'uliyat talab etadi. Zero, axborot madaniyati hozirgi murakkab globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hamda kibermakonda diniy ekstremistik va terroristik tahdidlarni oldini olishning hamda zaruriy axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartidir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Kibermakon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati// <https://hozir.org/din-va-diniy-qadriyatlarning-jamiyatdagi-rol-i-javob.html?page=5>
2. Muhammad Amin Yahyo ISHID fitnasi T., 2015-y.-89 bet
3. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston yoshlari bayram tabrigi/ Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan oliy bahodir.2. T.:“O'zbekiston”2019e. -496 bet.
4. Чумак Е.В. Информационная культура как составляющая инновационной культуры общества. –Городно: ГГУим.Янки Купалы, 2014, 2014.-С. 113-119.
5. A.Azizqulov, I.Abduraxmonov. Talaba yoshlarda axborot va internet bilan ishlash madaniyatini shakllantirish omillari// “Talaba yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning dolzarb malalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Samarqand 2017-y. 47-48-betlar.
6. Азизкулов А. А. ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ //Инновации в технологиях и образовании. – 2015. – С. 194-198.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE INTERPRETATION OF HUMANITY IN ISLAMIC PHILOSOPHY**

**Rakhimova Yulduz Dilmurod kizi**

Doctoral student of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract.** This article discusses the issue of the interpretation of man in Islamic philosophy. Also, the content of the aspects of human solidarity and leadership between peoples, nations and ethnic groups in Islamic philosophy is described.

**Keywords:** Islam, Islamic religion, man, philosophy, nation.

## **ISLOM FALSAFASIDA INSON TALQINI**

**Raximova Yulduz Dilmurod qizi**

Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

E-mail: [yulduz@mail.ru](mailto:yulduz@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom falsafasida inson talqini masalasi muhokama etiladi. Shuningdek, Islom falsafasida xalqlar, millatlar va elatlar orasidagi insoniy birdamlik yetakchilik jihatlari mazmuni bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** islom, islom dini, inson, falsafa, millat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N15>

Islom falsafasida Inson dunyo yaratilishi ichida eng mukammal va ulug' deya ta'riflanadi. Islomiy manbalar, jumladan, "Qur'oni Karimda" ham Alloh subhana va taolo insonni O'z qudrati bilan yaratganligi, unga ko'z, quloq kabi a'zolar berganligi haqidagi oyatlar bilan fikrimiz isbotidir. Shuningdek, Alloh taolo oxiratda jannat ahliga tayyorlab qo'yilgan noz-ne'matlarning hammasiga insonning qilgan amallariga bog'liq deya ta'kidlanadi. Xo'sh, inson shunchalik ulug' ekan, qanday amallari uni jannatga yetaklashi mumkin? Manbalar va hadislar dalillik keltirishicha, bu dunyoda Alloh taolo rizoligi uchun beva-bechora, faqir-u miskinga yordam bergan, mazlumning holini so'ragan, doimo ibodatda bo'lib, fikr-u yodi yaxshilik qilish bilan band bo'lgan bandalarigina bunday baxtga sazovor bo'lgan.

Misollar bilan dalillantiramiz: Qur'oni karimning "Inson" surasida shunday oyatlar mavjud: "Ular nazrga vafo qilurlar va yomonligi keng tarqaladigan Kundan qo'rqlarlar" (7 oyat). Ushbu oyatda insonlar yomonlik qilishdan qo'rqishlari kerakligi, Qiyomat kuni esa qilgan yomonliklari bilan yuzlashishlari bilan ogohlantirilmoqda. "O'zlari taomni yaxshi ko'rib tursalar ham uni miskin, yetim va asirlarga berarlar" (8-oyat). Haqiqiy insoniylik ham ana shunda namoyon bo'ladi, ya'ni biror kishi o'zi sevib yeydigan luqmasini o'zi yemasdan och-faqirga tarqatsagina haqiqiy mo'minligi bilinadi. Shu o'rinda Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asarida ushbu oyatlar ma'nosi ta'siri bilan to'yintirilgan bob mavjud. Navoiy shunday deydi: "...Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibram bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin ochg'a berganni saxiy de; o'zi yemay barin muhtojga berganni

axiy de”. Matnda aytilishicha, insonlarga koʻz-koʻz etib saxiylik qilish yaramaslik; koʻz-koʻz qilib bergandan koʻra bermaslikni afzal bil [1; 2.].

Naqshbandiylik gʻoyalari hamda Islom falsafasi ziyosi bilan sugʻorilgan ushbu fikrlar avloddan -avlodga oʻtib kelayotgan oltin qoida hisoblanadi. Yaʼniki, haqiqiy saxiylik (yoki saxovat) oʻzida bor narsani birov bilan baham koʻrish emas, aksincha uni boricha, butunligicha oʻzimiz sevganlar bilan baham koʻrishdir. Yaratgan esa bunday toifadagi kishilarning rizqlarini avvalgidan-da ziyoda qilishini, axiy kishilarni Alloh taoloning oʻzi taomlantirishini muhrlab qoʻydi. (Inson surasi 8-9 oyatlar).

Naqshbandiya taʼlimotining asosida “dil ba yoru, dast ba kor” shiori yotadi. Naqshbandning fikricha, bandaning Allohga sirtdan turib eʼtiqod qoʻyish, iymon mustahkamligi, Haq taologa sidqidildan itoat etish, ixlos va maʼnaviy kamolot asosiy oʻrin egallaydi. Axloqiy poklik, qanoatli, xalq gʻami bilan yashash, mehnatsevarlik, sabrli boʻlish, oʻzi nazorat qilib borish, olgan bilimlarini dilda mustahkamlash, umrning har bir damini savob ishga, har bir nafsni maʼnaviy kamolot uchun sarflash, hatto ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Bahouddin Naqshband odamning qadrini mansabi, boyligi bilan emas, maʼnaviy komilligi bilan oʻlchaydi. Unda hunar, kasb egallab, oʻz mehnati bilan halol luqma yeb yashash talab qilinadi, tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod sanaladi. Inson hamma yumushni oʻzi qilishligi, uyda xizmatkor saqlash, oʻzganing mehnatidan foydalanish (ekspluatatsiya) ham taqiqlangan.

Alloma tariqat haqida quyidagi soʻzlarni keltirib oʻtadi: banda yo jazba, yoki suluk yoʻli bilan tarbiyalanadi. Bu bandaning ixtiyoridagi tanlov sanaladi. Bu tariqatni tanlaganlar orasida baʼzilarining dillarida muhabbat urugʻi mavjud, ammo dunyoviy aloqalar tufayli rivojlanmay, oʻsmay qolgan. Tariqatning vazifasi ularning dillaridagi oʻsha aloqalarni sindirib tashlash hisoblanadi. Aksincha, baʼzilarning qalblarida esa muhabbat urugʻi yoʻq. Bu qalblarda muhabbat urugʻlarini yuzaga keltirmoqlik ham tariqat ishidir. Naqshbandiya taʼlimoti esa bandani Suyukliga yetkarishga vosita hisoblanib, ushbu yoʻlga kirganlar oxirida bu sulukdan ayrilib, Allohga yetishlikka musharraf boʻladi. Bu yoʻlda insonga faqirlik katta yordamchi boʻladi. Banda nimaga erishsa ham shu sifati bilan erishishi aytiladi. Suluk yoʻliga endigina qadam qoʻygan inson, avvalo, odamlarning soʻziga quloq solishi lozim. Agar ular Allohdan gapirayotgan boʻlsalar, vujudim bilan tinglash kerak, aksincha boʻlsa bunday odamlardan uzoqlashish kerak. Bu yoʻlni tutguvchilar nimaga erishgan boʻlsa, Qurʼoni karim oyatlari va Hazrat Paygʻambar alayhissalom hadislariga amal qilganlik orqaligina boʻladi. Bu amaldan biron natijaga erishmoq uchun taqvo qilib, shariat qoidalariga azimat bilan rioya qilmoq, ahli sunna val jamoa asoslariga amal qilmoq hamda bidʼatlardan qochmoq kerakligi uqtiriladi. Bu suluk egalari tavhid siriga erishmoq mumkin boʻlmasa ham maʼrifat siriga erishmoqligi mumkin. Suluk shiori esa quyidagicha boʻlishi lozim: “Dast ba kuru dil ba Yor, tan dar bozoru dil ba Yor” — qoʻling ishda, koʻngil Allohda boʻlsin, tan bozorda boʻlsa ham koʻngil Yorda boʻlsin”.

Bu yoʻlda inson hoy-u havasga berilmasligi, nafs ahli tutgan ishlar asosining sababchisi zalolat ekanligi va inson qilajak ishlarida niyatni toʻgʻri qilish u uchun eng muhim narsa hisoblanadi. [2,3]. Kishi oʻzining nafsiga tuhmat qilishi kerak,shu orqali oʻz nafsining yomonligini taniydi,uning hiyla-nayrangini anglaydi, bunday qilish insonga bu yoʻlda yurishlik oson boʻladi. Bu ish insonda hatto oʻzgalarning gunohini ham oʻzlaridan deb bilish hollari koʻp boʻladi. Banda uchun musulmonlik — bu iloji boricha hukmlarga boʻysunish, taqvoga rioya

qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoq bo'lib, bularning hammasi nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga yetishish vositasi sanaladi. Agar bu yo'l toliblaridan bir guruhi bir-birovlari bilan hamsuhbat bo'lsalar, bu suhbatda xayr-u baraka ko'p bo'ladi. Solik bu ishga doimo amal qilinsa, oxiri haqiqiy imon bilan yakunlanadi. Xoja Bahouddin Naqshband tariqatida iymonga quyidagicha ta'rif qiladi: "Iymon — qalbni Allohdan boshqa o'ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog'lashdir"

Naqshbandning e'tiroficha, insondan talab qilinadigan asosiy narsa — o'z qalbini dunyo g'uborlaridan tozalash, o'z nafi bilan kurashish, qallda Alloh nomlarini takrorlab yurish shart qilinadi. Ushbu tariqat Yassaviya tariqatidan farqli ravishda inson Allohni zikr qilishda "zikri xufiya" (yashirin zikr tushish) bilan ajralib turadi

Islom falsafasida xalqlar, millatlar va elatlar orasidagi insoniy birdamlik yetakchi g'oyalardan biri hisoblanadi. Bunda jamiyat a'zolarining birligi, birdamligi rivojlanishning birlamchi sababi sifatida ko'rsatiladi. Binobarin, Qur'oni karimda ham barchaga qarata: "Ey, insonlar....Ey, Bani Odam" yoki "Ey imon keltirganlar" kabu lafzlar bilan murojaat qilinishida insoniylik birdamlik targ'ib qilinayotganligini ko'ramiz. Shuningdek, ushbu kalimalar orqali hech qanday inson toifasi ajratib ko'rsatilmaydi; xoh u boy, xoh kambag'al; xoh podshoh, xoh oddiy fuqaro toifasiga ajratilmaydi. Insonlar o'rtasidagi adolatni shariat qonun-qoidalarida ham ko'rishimiz mumkin. Namozda barcha insonlar bir qatorda turib namoz o'qishi, ro'za tutayotganda hamma bir xil ochlik hissini tuyishi, Hajda ham barcha ibodatchilar bir xil kiyim kiyishi, hattoki, vafot etganda hamma toifa kishilar bir xil kafanlikka o'ralishi- bu insonlar o'rtasidagi adolat va tenglik qoidalarini targ'ib qilishdir.

Shu bilan birga, Odam ato avlodlarining barchalari bu hayotda eng aziz qilib yaratilganligiga shubha yo'q. Dalil sifatida yana muqaddas kalomlar yordamga keladi: "Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz va mukarram qildik" (Isro surasi, 70-oyat). Insonlarning hayoti, e'tiqodi, ilm olishi, umr kechirishi kabi huquqlar barcha uchun barobar edi.

Bu tenglik insonning amallarida namoyon bo'ladi. Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida bu tenglikni shunday ifodalaydi: "...Bu o'rinda yana bir narsaga diqqatni qaratmoqchimiz, u ham bo'lsa-so'fiylarning: "Inson-insonning birodari", jumladan, boy-u kambag'al ham bir-biriga birodar, degan g'oyasi mavjud edi. Bu g'oyaga ko'ra, shoh o'z raiyati, boy qo'li ostidagi xizmatkorlari, xo'ja o'z qullari oldida javobgardir, ular o'zaro inoqlikda yashashi kerak"

Islom falsafasida insonga berilgan imtiyozlar benihoya bisyor. Darhaqiqat, islom dini ham insonparvar din. Ushbu falsafa vakillari esa har qachon insonni ham ruhan, ham jismonan komillikka erishishi uchun bir qancha bosqichlarni yengib o'tishi kerak deb yozishadi. Bunday bosqichlarda insonning ruhiy olami, qalbi poklanadi, ma'naviy olami go'zallashadi, vahdat ul vujudga erishadi.

Bir qator tasavvuf allomalari komil insonning belgilari sifatida diniy va dunyoviy bilimlarni egallagan, pokiza, qalbi keng, karomatlari serob deya ta'riflanadi. Komil inson tushunchasiga oid ko'plab mulohazalar va fikrlar hali-hanuz muhokamalar markazida. [3]. Shunga qaramay, mazkur tushunchaning mohiyatini to'liq va batafsil ochib bera olgan manba sifatida Sayyid Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiylarning "Insoni komil nomli risolalarini maxsus tilga olib o'tish mumkin. Ilmiy manbalarda komil inson tushunchasi ilk marotaba Muhyiddin ibn al-Arabiy(xalq orasida Shayx Kabir nomi bilan mashhur)

tomonidan muomalaga kiritilgan, deya ta'kidlanadi. Umuman olganda, komil inson-o'z nafsini jilovlay olgan insondir.

Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" kitobida shunday yoziladi: "Sayyid Ablulkarim Geloniy fikriga ko'ra, har bir inson ikkinchisining o'rnini bosadigan nusxadir va bir-birining qarshisida turgan ko'zgu kabidir. Bitta odamdagi xislat va sifat ikkinchisida aks etib turadi. Ammo farqi shundagi, bu akslanish ba'zilar fe'l-harakat bo'yicha bo'lsa, ba'zilar quvvat, ya'ni xislat-xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. Demak, iste'dod va qobiliyat, xususiyat va sifatiga ko'ra bir-biriga o'xshash odamlar behad ko'p. Bularni umumiy nom bilan xalq, odamlar deb ataymiz.

Ammo shunday komil va akmal odamlar borki, ular kamolotda nafaqat o'zga odamlardan, balki bir-biridan ham keskin farqlanib turadi. Bularni anbiyo va avliyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: ba'zilar komil, ba'zilar akmal, bir qismi fozil, yana bir qismi afzal, yana bir guruh esa afzal-u akmaldir. Sayyid Abdulkarim Geloniy mazkur tasnifni aytib, yana qo'shib qo'yadi: "Komil inson voqean, Muhammad sallallohu alayhi vasallamdir va qolgan anbiyo-yu avliyolarning kamoloti unga nisbatandir, xuddi fozilning afzalga nisbatiday".

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda komil inson boshqa insonlardan fazl-u kamoli, axloqi, ruhiy-ma'naviy olamining go'zalligi bilan ajralib turuvchi, ham so'zi, ham amali go'zal ilm-u donish egalarini anglaymiz.

Hazrat Mir Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida esa Farhod komil inson deya tasavvur qiladi hamda o'zi istagan barcha sifatlar-u fazilatlarni unda mujassamlashtiradi. U Farhodni shunday ta'riflaydi:

Demonkim ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok,  
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.  
Munungdek tiynati pokiga loyiq.  
Duosin aytibon poki xaloyiq.

Ko'ngil pokligi, ko'z pokligi, til pokligi, so'z pokligi Islom ta'limotida ham yetakchi g'oyalar sirasiga kiradi. Navoiy esa buni adabiy qahramon-Farhod siymosida gavdalantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Islom falsafasida insonning har tomonlama yetuk bo'lishi, nuqs-u qusurlardan xalos bo'lishi singari g'oyalar ilgari surilgan. Shuningdek, nafs bilan kurasha olishi, qalbini har xil nopok illatlardan tozalashi, Alloh taoloning bergan ne'matlaridan faqat yaxshilik yo'lida foydalanishi ham asosiy mezon qilib ko'rsatiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. "Tafsiri Hilol". Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ikkinchi nashr,-2008.
2. "Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar". G.Ruzmatova, D.Raximjanova. "Tafakkur". Toshkent,-2024.
3. "Tasavvuf". N.Komilov "Movarounnahr". Toshkent,-2009.
4. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2221/2692>



**Received:** 16 June 2025  
**Accepted:** 5 July 2025  
**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S TEACHINGS IN IMPROVING THE SPIRITUAL FORM OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN**

**Achilov Firdavs**

Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: [achilovfirdavs@mail.ru](mailto:achilovfirdavs@mail.ru)

**Abstract.** Mahmudkhodja Behbudiy emphasized the need to raise the awareness of the identity, culture, history of the Uzbek people, and to pay attention to science and enlightenment to a new level, considering this issue as a key factor in the upbringing of young people, high spirituality and knowledge. Today, the youth of New Uzbekistan should pay great attention to education, self-awareness, acquiring knowledge, learning languages, and improving their knowledge in various fields in creating their future. Mahmudkhodja Behbudiy's ideas in this regard serve as a key factor in directing today's modern youth to be active in social life and to engage in productive and useful activities.

**Keywords:** high spirituality, enlightenment, culture, spiritual image, spiritual development, globalization, education, history.

## **YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TA'LIMOTINING AHAMIYATI**

**Achilov Firdavs**

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mahmudxo'ja Behbudiy, o'zbek xalqining o'zligini, madaniyatini, tarixini anglashni, ilm-fan va ma'rifatga e'tibor qaratishni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ta'kidlab, bu masalaga yuksak ma'naviyat va bilimni yoshlar tarbiyasining asosiy omili sifatida qaragan. Bugungi kunda, Yangi O'zbekiston yoshlari o'z kelajagini yaratishda ta'lim-tarbiya, o'zlikni anglash, ilm egallash, til o'rganish va turli sohalarda o'z bilimni oshirishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi g'oyalari bugungi kun zamonaviy yoshlarini ijtimoiy hayotda faol bo'lish, samarali va foydali faoliyatga yo'naltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yuksak ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, ma'naviy qiyofa, ma'naviy rivojlanish, globallashuv, ta'lim-tarbiya, tarix.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N16>

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek milliy uyg'onish adabiyotining yetakchi namoyandalardan biri sifatida, o'z asarlarida ta'lim va ma'rifatning muhimligini ta'kidlagan. Uning ta'limoti Yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, o'zbek xalqining o'zligini, madaniyatini, tarixini anglashini, ilm-fan va ma'rifatga e'tibor qaratishini o'zgartirish zarurligini ta'kidlab, yuksak ma'naviyat va bilimni yoshlar tarbiyasining asosiy omili sifatida qaragan. Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni ilm olishga, ilm-fan va ma'rifatga intilishga chaqirgan. U ta'limning faqat bilim olish emas, balki insonni to'g'ri tarbiyalash, uning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashdagi rolini o'z ma'rifatparvarlik g'oyalarida keng targ'ib etgan. Bugungi kunda, Yangi O'zbekiston yoshlari o'z

kelajagini yaratishda ta'lim va ilmga, o'zlikni anglashga, turli sohalarda o'z bilimini oshirishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi g'oyalari yoshlarni samarali va foydali faoliyatga yo'naltirishda asos bo'la oladi. Buyuk ma'rifatparvar milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishni o'zbek xalqining tarixiy madaniy merosi, an'alarini hurmat qilishni, o'z milliyligini anglashni muhim deb bilgan. Yangi O'zbekiston yoshlari o'z madaniyatini va tarixini o'rganish, milliy qadriyatlarini hurmat qilish orqali o'zligini mustahkamlashi lozim. Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy g'oyalari bugungi yoshlar uchun ham bir dasturilamal bo'lib, o'zbek xalqining tarixiy yutuqlarini yodga olish va kelajakda o'z madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Vatanparvarlik va el-yurt oldida mas'uliyat masalasi ham Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limotida yetakchilik qiladi. U o'z asarlarida xalqning taraqqiyoti va yurtning sevish lozimligi g'oyalarini ilgari suradi. Vatanparvarlik g'oyasi uning ta'limotida markaziy o'rinni egallagan bo'lib, yoshlarni o'z yurtini sevishga, unga xizmat qilishga, erkinlik va mustaqillik uchun kurashishga chaqirgan. Yangi O'zbekiston yoshlari o'z vataniga bo'lgan sevgi, hurmat va fidoyilikni namoyish etishlari zarur. Mahmudxo'ja Behbudiyning vatanparvarlik g'oyalari, yoshlarda o'z yurtiga xizmat qilish, millat manfaatlari yo'lida ishlash hissini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mahmudxo'ja Behbudiyning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ustuvor deb hisoblagan. Uning ta'limotida adolat, to'g'rilik, halollik va insoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlar yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda, Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda axloqiy va ma'naviy jihatlarni rivojlantirish zarur. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu sohadagi ta'limotlari yoshlarni halol, adolatli va ma'naviy jihatdan pok insonlar bo'lishga undaydi. Ijtimoiy faollik va mas'uliyat masalalari ham adib ilmiy merosining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adib yoshlarni faqat shaxsiy rivojlanishga emas, balki jamiyatga foyda keltirishga ham chaqirgan. U yoshlarni ijtimoiy hayotda faol bo'lishga, jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shishga undagan. Yangi O'zbekiston yoshlari bugungi global dunyoda o'z faoliyatlarini nafaqat shaxsiy manfaatlarini ko'zlash, balki jamiyatga foyda keltirish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish orqali amalga oshirishlari lozim. [1,2].

Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z zamonining ilg'or g'oyalarini qo'llab-quvvatlar ekan, yoshlarga zamonaviy bilimlar va innovatsiyalarni o'rgatish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratgan. Ilm-fan, texnika, san'at va madaniyatning rivojlanishini faol qo'llab-quvvatlagan. Yangi O'zbekiston yoshlari uchun Mahmudxo'ja Behbudiyning bu ta'limoti ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishini o'z faoliyatlarida qo'llashni, global izlanishlar va innovatsiyalarni o'rganishni taqozo etadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limotlari Yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Uning ta'limoti yoshlarni ilmga, ma'rifatga, milliy o'zlikka, vatanparvarlikka, axloqiy qadriyatlarni saqlashga va ijtimoiy faollikka undaydi. Bu g'oyalar bugungi yoshlar uchun o'z kelajagini yaratishda va yurt taraqqiyotiga hissa qo'shishda yo'l ko'rsatadigan muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlarga qoldirgan ta'limoti milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalariga asoslangan. U o'zining asarlarida va faoliyatida O'zbekiston yoshlariga bir nechta muhim ta'limotlarni taqdim etgan. Behbudiyning o'z asarlarida ilm-fan va ma'rifat sohasini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratgan. U yoshlarni ilm olishga, kitob o'qishga, va tarixni o'rganishga chaqirgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar uchun ma'rifatli, ongli va madaniyatli bo'lishni targ'ib qilgan. Milliy iftixor va o'zlikni anglash masalasi adib ta'limotining asosini tashkil etadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy qadriyatlar va an'alarini hurmat qilishni, o'z

xalqining tarixiy merosini avaylab-asrash lozimligini ko'p o'rinlarda ta'kidlab o'tgan. U yoshlarni o'zlarining milliy o'zligini anglashga undagan. [3,4].

Behbudiy o'z davrida mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan edi. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi"ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. 1917-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlari qurultoyida Behbudiy faol ishtirok etib, unda nutq so'zlagan. U musulmonlar orasida kelib chiqadigan har qanday nizolarga qarshi chiqqan. Shu qurultoyda Behbudiy o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylangan. 1917-yil 26-noyabr kuni Qo'qonda o'lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshlaydi va 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" tashkil etilganligi e'lon qilinadi. Behbudiy ushbu muxtoriyatning asosiy ilhomchilari va g'oyaviy yetakchilaridan biri bo'lgan. Biroq muxtoriyat sho'rolar tomonidan shafqatsiz bostiriladi. May oyining boshlarida Behbudiy Samarqandga qaytadi, biroq ko'p o'tmay Toshkentga yo'l oladi. U yerda Turkiston sho'ro hukumati rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazishga harakat qiladi, ammo bu urinishlar natijasiz yakunlanadi.

1919-yil bahorida mamlakatni tark etishga uringan Behbudiy Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya josuslari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan hibsga olinadi. Hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birga Qarshidagi qamoqqa tashlanadi va o'sha yerda qatl etiladi. Bu fojia haqida Samarqanddagilar bir yil o'tgach xabar topadilar. Behbudiyning o'limi Fitrat, Cho'lpon, Ayniy kabi adiblar tomonidan chuqur motam bilan qarshilanib, unga atab marsiyalar yozilgan. Qarshi shahri esa 1926–1937-yillar oralig'ida Behbudiy nomi bilan atalgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning barcha faoliyati faqat o'z xalqining manfaati uchun edi, u o'z farzandlarini savodli insonlar sifatida tarbiyalash uchun kurashdi, shunda xalqi baxtli yashashi mumkin deb hisobladi. U o'z davrida vatandoshlariga qarata: "Qancha mol-mulkingiz bor bo'lsa soting va farzandlaringizni o'qiting", deya murojaat qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni erkin fikrlashga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga da'vat qilgan. U yoshlarni ijtimoiy jarayonlarda faollik ko'rsatishi lozimligini ta'kidlagan. Ma'rifatparvar adib zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni o'rganishni, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy qilishni muhim deb bilgan. U yoshlarni dunyo miqyosidagi ilmiy yutuqlarga nisbatan ochiq fikrli va yangilikka intilishishga undagan. Jamoatchilik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari ham adib falsafiy ta'limotining asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni jamiyatga xizmat qilishga chaqirgan. U, shuningdek, jamoatchilik ishlarida ishtirok etishni, o'z yurtiga xizmat qilishni, jamiyatda adolat va tinchlikni ta'minlash lozimligini ta'kidlagan. Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limoti o'zbek millatining o'zligini anglashiga, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga, hamda yoshlarni jamiyatda mas'uliyatli va ijtimoiy faollikka undashga xizmat qilgan. Uning ta'limoti bugungi kun yoshlarining ma'naviy va axloqiy yuksalishi uchun hamon dolzarbdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo'ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi. Tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy merosini o'rganish ishlari boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta'lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan,

Mahmudxo'ja Behbudiya ehtirom ko'rsatib, yoshlarga o'rnak qilib ko'rsatish hamda ma'naviy merosini chuqur o'rganish bo'yicha oqilona va adolatli islohotlar olib borayotganligi barchamizga yaxshi ma'lum. 2020-yil 24-yanvar kuni prezidentimizning Oliy majlisga yo'llagan murojaatnomada milliy yetakchimiz "2020-yili xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi", deya ta'kidladilar.

"Umuman olganda, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi",- degan yurtboshimizning ta'kidlari buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlarining e'tirofidir, albatta. [5].

Prezidentimiz 2020-yil 30-sentyabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga yo'llagan murojaatida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to'xtalib, "...Mamlakatimizda Uchinchi renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lida ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar", dedi hamda uch jadid: Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudi va Munavvarqori Abdurashidxonovni istiqloq, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, "Milliy ta'lim va tarbiya tizimi"ni yaratishdagi hissasi uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanganini bildirdi. O'z davridayoq "Turkiston jadidchilik harakati otasi" deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning millat oldida, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti yo'lida qilgan xizmatlari e'tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi. Mustaqillik yo'lida fido bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning umri millat va vatan umri qadar boqiydir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 452 b.
2. Qosimov B. Behbudi va jadidchilik. – ["O'zbekiston adabiyoti va san'ati"](#) // 1990-yil 1926-yanvar.
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudi. – T., 1994.
4. Qosimov B. M.Behbudi – Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2006.
5. Abdurashidov Z. Mahmudxo'ja Behbudi va uning "Oyina" jurnali. – T.: Muharrir, 2019.
6. Haydarov A. "Zarafshon"ning Behbudiysi. – T.: Shaffof, 2020.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC PROCESSES, MIGRATION AND URBANIZATION ON INTERCULTURAL DIALOGUE**

**Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich,**  
teacher at Gulistan State Pedagogical Institute

**Abstract.** This article studies the impact of various processes taking place in society, in particular demographic changes, population migration and urbanization on cultures as the main topic. Due to these processes, the transformation of cultures, the formation of the mentality of peoples and the processes of national identity (identity) are analyzed. The impact of demographic processes, population migration and urbanization on cultural relations in different regions is philosophically analyzed. This analysis examines such aspects as changes in intercultural relations, the emergence of new cultural forms and the evolution of traditional cultures. The article also deeply analyzes the issues of global migration flows, the impact of urbanization on the cultural landscape, and the preservation or change of traditional values modern conditions. This analytical approach helps to understand the complex dynamics of intercultural relations and predict future development trends of cultures.

**Keywords:** demography, population migration, urbanization, culture, mentality, identity, emigrant, ethics, intercultural dialogue, cultural diversity, value.

## **DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI**

**Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich**  
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyatda kechayotgan turli jarayonlar, xususan, demografik o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urbanizatsiyaning madaniyatlarga ko'rsatayotgan ta'siri asosiy mavzu sifatida o'rganiladi. Mazkur jarayonlar tufayli madaniyatlarning transformatsiyasi, xalqlarning mentaliteti va milliy o'zligini anglash (identitet) jarayonlari shakllanishi tahlil qilinadi. Madaniy munosabatlarga turli hududlarda yuz berayotgan demografik jarayonlar, aholining ko'chishi va urbanizatsiya kabi omillarning aks etishi falsafiy tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali madaniyatlararo munosabatlardagi o'zgarishlar, yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishi va an'anaviy madaniyatlarning evolyutsiyasi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, global migratsiya oqimlari, shaharlashuvning madaniy landshaftga ta'siri, an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanib qolinishi yoki o'zgarishi masalalari ham chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tahliliy yondashuv madaniyatlararo munosabatlarning murakkab dinamikasini tushunishga va madaniyatlarning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** demografiya, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya, madaniyat, mentalitet, identitet, emigrant, axloq, madaniyatlararo dialog, madaniy xilma-xillik, qadriyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N17>

### **Kirish**

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u doimiy takomillashib borganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti qaysidir demografik o'zgarishlar bilan birga kechganligini kuzatish mumkin. Demografik o'zgarishlar – aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, yosh tarkibining o'zgarishi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlaridagi tendensiyalar

– madaniyatlarga bevosita taʼsir etadi. Aholi tarkibidagi oʻzgarishlar madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar va turmush tarziga yangi unsurlarni olib kirishi mumkin.

Migratsiya – odamlarning bir joydan boshqa joyga koʻchishi – madaniyatlararo dialogning eng muhim omillaridan biridir. Migranlar oʻzlari bilan yangi gʻoyalar, tillar, dinlar va madaniy amaliyotlarni olib keladi, bu esa mahalliy madaniyatlar bilan oʻzaro taʼsirlashib, yangi madaniy shakllarning paydo boʻlishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – aholining qishloq joylardan shaharlarga koʻchishi – madaniyatlarning konsentratsiyasi va integratsiyasiga olib keladi. Shaharlar turli madaniyatlarning uchrashuv joyi boʻlib, bu yerda madaniyatlararo dialog yanada faollashadi, yangi madaniy tendensiyalar va submadaniyatlar paydo boʻladi.

Madaniyat inson yoki jamiyatning faoliyati natijasi boʻlib, u doimiy takomillashib boruvchi hodisa hisoblanadi. Madaniyatning takomili oʻzaro munosabatlar jarayonida sodir boʻlib, xalqlar mentalitetining boyishiga va milliy oʻzlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Madaniyatlararo dialog – global dunyoning ajralmas qismi boʻlib, turli xalqlar va etnik guruhlar oʻrtasida oʻzaro tushunish, hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, madaniyatlararo munosabatlar doimo bir xil boʻlib qolmaydi; ular jamiyatda roʻy berayotgan dinamik jarayonlar taʼsirida oʻzgarib, rivojlanib boradi. Demografik oʻzgarishlar, migratsiya va urbanizatsiya shular jumlasidandir. Ushbu jarayonlar madaniyatlarning shakllanishi, oʻzgarishi va oʻzaro taʼsiriga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.

### **Metodlar**

Sharq mutafakkirlari Nosir Xisrav, Abdurazzoq Samarqandiy al-Idrisiy, Abul Fido, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy oʻz risolalarida fuqarolarning turli oʻlkalar va xalqlarga koʻchib oʻtishi va bu muayyan maʼnoda madaniyatlar dialogi sifatida rivojlanganligini asoslaganlar. Xususan, Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, Z.Boburning “Boburnoma”, Furqatning “Sayohatnoma”, Gʻiyosiddin Naqqosh “Kundaliklar” asarlarida xalqlarning ijtimoiy, madaniy hayotini, urf-odatlari, dunyoqarashiga mehnat qilish uchun koʻchib kelgan xalqlarning madaniyatiga taʼsiri ochib berilgan.

Bundan tashqari, 1885-1889-yillardagi tadqiqotlarida E.Ravenshteyn jarayonni falsafiy jihatdan oʻrganishni boshlab berdi. Migratsiyaning koʻrinishlari, qonunlarini sanab oʻtib, uni keltirib chiqaruvchi sabablarga ham alohida eʼtibor beradi [1; 3-5-b]. Uning tadqiqotlari bugungi kungacha mazkur mavzudagi barcha ilmiy izlanishlar uchun asos sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mamlakatimiz ilmiy doirasida ham soʻnggi yillarda bir qancha tadqiqotlar orqali migratsiyaning jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri va ahamiyatini ochib berishga harakat qilinmoqda. S.Alimov “migratsiya axloqi va uning siyosiy-maʼmuriy tizimlar bilan taʼsirlashuvi, migrantlarning ijtimoiy muhitga adaptatsiyasi muammolarining axloqiy xususiyatlari, migratsiyaning emigrant davlat etosferasiga taʼsirining oʻziga xos jihatlari falsafiy jihatdan tadqiq etadi” [2; 12-b.]. S.Avazov “yuksak turmush darajasi mehnat migratsiyasi koʻlamini optimallashtiruvchi asosiy omil sifatida tadqiq etilib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mehnat migratsiyasiga taʼsiri ochib berilgan” [3; 14-b.]. D.Axmedova “Xotin-qizlar mehnat migratsiyasi jarayonlarining sotsiologik tahlili yoritilib, unda dissertant tomonidan 2021-yil iyun, iyul va avgust oylarida oʻtkazilgan sotsiologik tadqiqot tahlili yoritilgan” [4; 15-b.]. Oʻzbekistondagi migratsion munosabatlardan kelib chiqib jarayonni

imkon qadar tartibga solish, kamaytirib borish, chiqib ketuvchilar uchun ham alohida madaniy-axloqiy talablar belgilash shart hisoblanadi.

### **Natijalar**

Xalqlar o'rtasidagi munosabatlar mavjud ekan, madaniy o'zgarishlar va assimilyatsiya jarayonlari uzluksiz davom etadi. Demografik jarayonlarning rivojlanishi jamiyatga ham turli imkoniyatlar, ham muammolarni olib keladi. Tug'ilish darajasi, kasalliklar, ta'lim tizimi, mehnat bozori va oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlar migratsiya vaziyatining kengayishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, aholining yanada qulay hayot sharoitlarini izlab yo'lga chiqishi va urbanizatsiyaning tezlashuvi kabi jarayonlarga ham turtki beradi. Bunday sharoitda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati ortadi, ammo madaniy o'zlikni saqlash, integratsiya masalalari ham dolzarblashadi.

Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, yosh tarkibidagi o'zgarishlar kabi demografik tendensiyalar madaniy qadriyatlarning transformatsiyasiga, urf-odatlarining evolyutsiyasiga va an'anaviy madaniy amaliyotlarning zamonaviylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodning shakllanayotgan yangi qadriyatlari va qarashlari madaniy landshaftni qayta shakllantirib, kelajak madaniyatini belgilaydi. Qaysi bir jamiyatda ichki muammolar mavjud bo'lib, ularning yechimi shu jamiyatning o'zida topilmasa, u doimiy ravishda yechim taklif etayotgan tomonlardan, ko'pincha tashqi kuchlardan yordam izlashga majbur bo'ladi. Demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar ham turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi bilan birga, madaniy ta'sirlarga berilish xavfini oshiradi. Bu esa milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni asrash va o'ziga xosligini yo'qotmaslik kabi dolzarb masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Shunday ekan, demografik siyosatni yuritishda nafaqat iqtisodiy omillarni, balki madaniy omillarni ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya oqimlari madaniyatlararo munosabatlarni faollashtiradi, yangi madaniy elementlarni olib kiradi va mahalliy madaniyatlar bilan aralashish natijasida gibridd madaniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Migrantlar o'z tillari, dinlari, urf-odatlar va an'analari bilan birga kelib, mahalliy aholi bilan o'zaro ta'sirlashadi, bu esa madaniy xilma-xillikning oshishiga va yangi madaniy shakllarning yaratilishiga olib keladi. Shu bilan birga, madaniy to'qnashuvlar va integratsiya muammolari ham yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas. Migrantlar o'z madaniyati va qadriyatlarini olib kelgani sababli, qabul qiluvchi jamiyatda o'zaro tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklar kelib chiqishi mumkin. Biroq, ayni paytda, migrantlar mahalliy madaniyatga yangi unsurlarni olib kirib, uning boyishiga va yangilanishiga ham sabab bo'ladilar. Shunday ekan, integratsiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish va tolerantlikni oshirish madaniy to'qnashuvlarni minimallashtirish va madaniy xilma-xillikni ta'minlash uchun muhimdir.

Urbanizatsiya madaniyatlarning konsentratsiyasiga va o'zaro ta'siriga katta hissa qo'shadi. Shaharlar madaniy xilma-xillikni o'zida mujassam etgan markazlarga aylanadi, bu yerda turli etnik guruhlar, millatlar va submadaniyatlar birga yashab, o'zaro ta'sirlashadi. Shahar muhiti madaniy innovatsiyalarni rag'batlantiradi, yangi madaniy tendensiyalarning paydo bo'lishiga turtki beradi va madaniyatlararo dialog uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq, urbanizatsiya jarayoni an'anaviy madaniy qadriyatlarning asta-sekin yo'qolishiga va madaniy o'zlikni saqlash bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shaharlarga nafaqat yuksak madaniyat vakillari, balki madaniy qoloq qatlamlarining ham kirib kelishi natijasida ommaviy madaniyat ustuvorlik qila boshlaydi. Bu o'z navbatida, atrof

hududlardagi aholining shaharlarga intilishini kuchaytiradi va “qorishma” madaniyatning tarqalishiga olib keladi. Shu bilan birga, shaharlarning infratuzilmaviy jozibadorligi madaniy jozibadorlikka aylanib, ayrim migrantlarga nisbatan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda, shaharlarni barqaror rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash va madaniy xilma-xillikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [5; 3-4-b].

Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalari va globalizatsiya madaniyatlararo munosabatlarga ta'sirini kuchaytiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar turli madaniyatlarning vakillari o'rtasida aloqa o'rnatish va ma'lumot almashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayon madaniy gegemonlik va madaniy assimilyatsiya xavfini ham tug'diradi.

### **Muhokama**

Madaniyatlararo dialogning faollashuvi, madaniy xilma-xillikning ortishi va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishi kabi ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi, madaniy to'qnashuvlar va assimilyatsiya xavfi kabi salbiy oqibatlar ham mavjud.

Tadqiqotdan olingan natijalar migratsiya, urbanizatsiya va madaniyatlararo munosabatlar bo'yicha mavjud nazariyalar bilan mos keladi. Xususan, migratsiya oqimlari madaniy xilma-xillikni oshirishi va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishiga olib kelishi, urbanizatsiya jarayoni esa madaniyatlarning konsentratsiyasiga va o'zaro ta'siriga yordam berishi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [6; 3-4-b.].

Shuningdek, tadqiqot natijalari madaniy siyosatni ishlab chiqish va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan bir qator muhim masalalarni ko'rsatib berdi:

- Madaniy xilma-xillikni saqlash: Madaniy o'zlikni asrash va etnik guruhlar o'rtasida madaniy muloqotni rag'batlantirish madaniy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Hukumat va nodavlat tashkilotlar madaniy merosni asrash, milliy urf-odatlarini qo'llab-quvvatlash va madaniyatlararo tadbirlarni tashkil etish orqali bu maqsadga erishishlari mumkin.

- Madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlash: Migrantlarning qabul qiluvchi jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi madaniyatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishi uchun muhim shartdir. Integratsiya jarayonini osonlashtirish uchun til kurslari, madaniy moslashuv dasturlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari yaratilishi zarur.

- Axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish: Internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy ta'sirini minimallashtirish va madaniy gegemonlik xavfini kamaytirish uchun media savodxonligini oshirish, mahalliy kontentni qo'llab-quvvatlash va madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish zarur.

- Ta'limning roli: Madaniyatlararo tolerantlikni shakllantirish va madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Ta'lim dasturlariga madaniyatlararo muloqot, inson huquqlari va madaniy merosni o'rganish bo'yicha mavzular kiritilishi lozim.

Ushbu tadqiqotning cheklangan jihatlari ham mavjud. Xususan, tadqiqot faqatgina ma'lum bir mintaqadagi madaniy munosabatlarni o'rganish bilan cheklangan. Kelajakda madaniy munosabatlarning global tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan keng qamrovli



tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, tadqiqotda ishlatilgan ma'lumotlar to'plamining hajmi ham cheklangan bo'lishi mumkin.

Demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarning murakkab dinamikasini hisobga olish, madaniy xilma-xillikni saqlash va jamiyatda madaniy barqarorlikni ta'minlash madaniy siyosatni ishlab chiqishda va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

### **Xulosa**

Ushbu izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo dialogga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar madaniy xilma-xillikning oshishiga, madaniyatlararo muloqotning faollashuviga va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Biroq, ular an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi, madaniy to'qnashuvlar va assimilyatsiya xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Madaniy siyosatni ishlab chiqishda va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda ushbu jarayonlarning ta'sirini hisobga olish muhimdir. Madaniy xilma-xillikni saqlash, madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish va ta'lim orqali madaniyatlararo tolerantlikni oshirish zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganishga qaratilishi kerak. Xususan, global migratsiya oqimlarining madaniy ta'sirini, shaharlashuvning madaniy landshaftga ta'sirini va an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanib qolinishi yoki o'zgarishini o'rganish muhimdir. Demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo dialogga ta'sirini tushunish madaniy siyosatni ishlab chiqish va jamiyatda madaniy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Ravenstein E.G. The laws of migration // Journal of Statistical Society of London.Vol .48, № 2 .London, (June 1885). – P. 167-235.
2. Алимов С.К. Аҳоли миграцияси ижтимоий-ахлоқий муҳит трансформацияси омили сифатида. – Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.: 2022. - Б. 49.
3. Avazov S.E. Mehnat migratsiyasi: mazmun va shakl, sabab va oqibat dialektikasi. – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.: 2024. - B. 49.
4. Axmedova D.O. O'zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy omillari. – Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.: 2023. - B. 55.
5. Akbarjonovich, M. A. (2023). Historical Analysis of Population Migration. International Journal on Orange Technologies, 5(4), 68-70.
6. MANSUROV, A. (2024). Development stages of migration from a historical point of view. «ACTA NUUZ», 1(1.1), 108-111.

**Received:** 16 June 2025**Accepted:** 5 July 2025**Published:** 15 July 2025*Article / Original Paper***THE PHILOSOPHY OF PERSONALITY AND DESTINY IN THE “BABURNAMA”****Khamdamov Bekhzod Khabibovich**

Assistant Department "Social Sciences"

Bukhara State Medical Institute

**Abstract.** This article explores the philosophical dimensions of personality and destiny in Zahiriddin Muhammad Babur's autobiographical work Baburnama. It examines how Babur reflects on personal struggle, responsibility, and the tension between free will and divine predestination in the context of historical upheavals. The author interprets Baburnama not only as a historical chronicle but also as a philosophical journey of inner self-reflection, ethical leadership, and spiritual understanding. Babur's narrative reveals a thoughtful and introspective figure who seeks harmony with himself, his people, and God.

**Keywords:** Babur, Baburnama, personality, destiny, self-knowledge, philosophy, ethics of leadership.

**ФИЛОСОФИЯ ЛИЧНОСТИ И СУДЬБЫ В «БОБУРНАМЕ»****Хамдамов Бехзод Хабибович**

Ассистент кафедры «Социальные науки»

Бухарского государственного медицинского института

**Аннотация.** Статья посвящена философскому осмыслению понятий личности и судьбы в автобиографическом труде Захириддина Мухаммада Бабура «Бобурнаме». Автор анализирует, как в условиях политической нестабильности и личных испытаний Бакур формирует образ личности, проходящей через внутреннюю борьбу, размышления, сомнения и поиск смысла. Особое внимание уделяется его взглядам на соотношение свободы воли и предопределения, ответственности правителя, а также духовному измерению судьбы. «Бобурнаме» предстает как не только историческое, но и философское произведение, раскрывающее внутренний мир человека, ищущего гармонию с собой, обществом и Богом.

**Ключевые слова:** Бобур, Бобурнаме, личность, судьба, самопознание, философия, этика правителя.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N18>**ВВЕДЕНИЕ**

Захириддин Мухаммад Бакур (1483–1530), основатель Империи Бабуридов, был не только полководцем и правителем, но и глубоким мыслителем, поэтом и гуманистом, воспитанным в культурной и интеллектуальной среде Тимуридов. Его философия — это не отвлечённая система понятий, а живая духовная и нравственная позиция, проявившаяся в его делах, поэзии, автобиографии «Бобурнаме» и отношении к миру. «Бобурнаме» — выдающееся автобиографическое произведение Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530), сочетающее в себе хронику, литературное произведение, философский дневник и личные исповеди. Помимо описания исторических событий и походов, Бакур раскрывает в нем философские размышления о человеке, судьбе, времени и духовной ответственности. Эти размышления придают произведению глубину, выходящую за рамки мемуаров, превращая его в яркий образец

восточной философии личности. Философия Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530) — это не отвлечённая система понятий, а живая внутренняя практика, воплощённая в его действиях, поэзии, духовных исканиях и ежедневной борьбе с собой и обстоятельствами. Его философия формировалась в пространстве ислама, суфизма, гуманизма и политического реализма, но стержнем, проходящим через всё его наследие, является путь духовного самопознания — осознание своей души, своей ответственности и своего места в мире и перед Богом.

### АНАЛИЗ

Центральным образом «Бобурнаме» является авторская личность — человек, который не просто фиксирует события, а рефлексировать, сомневается, страдает, принимает решения и меняется [4, 93 стр].

Бабур показывает себя: как сын, отец и внук Тимура — с чувством исторической ответственности; как воин и правитель, стоящий перед моральным выбором; как мыслитель, задающий себе вечные вопросы о добре, зле, истине, вере. Он не идеализирует себя, признаёт слабости и ошибки, тем самым открывая внутреннюю работу над собой. Это делает его философию личности — глубоко искренней и человеческой [7, 214 стр].

Его философия нашла своё выражение в поэтическом наследии, автобиографическом труде «Бобурнаме» и конкретных поступках как правителя. Она охватывает темы самопознания, судьбы, справедливости, красоты, служения и духовного роста. Бабур воспринимает личность как духовный субъект, формирующийся через внутреннюю борьбу, сомнения, утраты и размышления. Он открыто говорит о своих слабостях, ошибках, тревогах, что делает его образ честным и живым. Для него важнейшим делом является самопознание — путь к очищению сердца, преодолению эгоизма и достижению внутреннего света. Бабур был глубоко погружён в суфийскую традицию, особенно в учения тарикатов накшбандия и чистия, что отразилось на его восприятии человека как сосредоточения воли и духа, соединённых в стремлении к Богу.

Центральным философским вопросом для Бабура было соотношение свободы воли и судьбы. Он принимал идею предопределения, но никогда не отказывался от активного действия и личной ответственности. Судьба для него — это не приговор, а испытание, через которое раскрывается истина. Именно поэтому он постоянно подчёркивает значимость человеческого намерения (ният), усилия (ҳаракат) и морального выбора.

Как правитель, Бабур исповедует философию справедливости, умеренности и ответственности перед Богом и людьми. Он считает, что власть — это испытание, а не дар. Честность, забота о подданных, отказ от тирании и роскоши — все эти принципы стали основой его политической этики. Он не разделял религии и управления, но при этом был сторонником терпимости и межкультурного уважения, особенно во времена пребывания в Индии. Его гуманизм проявился в признании ценности любой культуры, языка и вероисповедания.

Бабур — человек чувствительный и эстетически одарённый. В «Бобурнаме» и поэзии он неоднократно обращается к описанию природы, пейзажей, архитектуры. Красота, по его мнению, — это проявление Божественного в земном. Она успокаивает,

вдохновляет, учит. Его эстетическая философия — это созерцание, способ размышления, путь к внутренней гармонии.

Одной из главных философских тем в «Бобурнаме» является соотношение судьбы и личного выбора. Бабур часто размышляет о том, насколько человек свободен в своих поступках и какова роль предопределения (қадар):

«Инсон ният қилур, аммо барча ишни тақдир ҳал қилур.»

Такие строки отражают исламское мировоззрение, согласно которому: человек обладает нияз (намерением) и ихтиёр (свободой воли), но конечный результат определяется иродаи илоҳий (Божьей волей).

Тем не менее, Бабур не впадает в пассивность — он действует, принимает решения, берёт на себя ответственность, полагаясь на Бога, но не перекладывая на Него вину за неудачи. [2, 28 стр].

Судьба Бабура была полна потерь и трагедий: он теряет Фергану, терпит поражения, сталкивается с предательством, вынужден скитаться. Но эти испытания он осмысливает не как проклятие, а как урок и божественное испытание, формирующее его как человека:

«Мард ким, азми улуғ бўлса, мусибатдан синмас.» [1, 275 стр].

Для Бабура человек — это не просто часть истории, а её соавтор. Он считает, что каждый человек, особенно правитель, несёт ответственность: перед народом, перед совестью, перед Богом.

Он не оправдывает жестокость политикой, не скрывает сомнений, не избегает самокритики. Его честность — проявление глубокой нравственной философии личности, стремящейся к внутренней целостности.

Таким образом, философия судьбы у Бабура тесно связана с идеей внутреннего роста: чем тяжелее путь — тем сильнее становится дух. Он воспринимает трудности как милость, ведущую к самопознанию и смирению.

Несмотря на внешние поражения, изгнания и утраты, в «Бобурнаме» чувствуется, что Бабур сохраняет внутреннюю свободу и достоинство. Он может потерять трон — но не теряет достоинства и духовного стержня [5, 78-79 стр].

Эта идея особенно близка суфийской философии: истинная личность — не та, кто побеждает других, а та, кто побеждает самого себя.

Одной из уникальных особенностей «Бобурнаме» является внимание автора к самонаблюдению. Бабур не просто рассказывает о событиях — он анализирует свои чувства, мотивы, настроения, сомнения. Эта рефлексия делает его произведение родственным суфийской практике муҳосаба — ежедневного отчёта перед собой и Богом [8, 265 стр].

Он фиксирует не только военные успехи, но и такие моменты, как усталость, грусть, страх, радость от встречи с друзьями, умиление природой.

Это делает «Бобурнаме» не хроникой славы, а дневником внутренней эволюции личности, которая раскрывается через человеческие слабости и силу духа.

Такой подход — редкость для того времени. Он придаёт тексту философскую глубину и универсальность, позволяя читателю сопереживать, учиться и задумываться над собственной жизнью [9, 173 стр].

Во многих местах «Бобурнаме» Бабур размышляет о быстротечности времени, непостоянстве удачи, бренности человеческой жизни. Эти темы имеют не только литературный, но и философский характер, отсылающий к идеям моменто мори, которые звучат в суфизме, исламе и даже стоицизме.

Он пишет, что богатство, власть, слава — всё это приходяще. Истинную ценность имеют: вера, честность, память о человеке после его смерти.

«Бу дунёда шунчалар ишлар қилдим, аммо ҳақиқий хотиржамликни қачон ҳис қилдим — билмайман.»

Такие фразы выражают глубинное чувство философского одиночества, характерное для зрелого человека, осознавшего ограниченность земной жизни и тоску по вечному [10, 124 стр].

Таким образом, философия Бабура — это не застывшая система понятий, а процесс духовного движения, путь сердца, разумного усилия и божественного вдохновения. Его философия учит быть честным перед собой, не бояться сомнений, стремиться к высшему, несмотря на жизненные трудности. Самопознание в понимании Бабура — это основа нравственности, источник внутренней силы и ключ к подлинному лидерству. Через самопознание человек постигает своё место в мире, свою связь с вечностью и свою ответственность перед Истиной [6, 75 стр].

### ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Философия личности и судьбы в «Бобурнаме» — это не система отвлечённых идей, а жизненно прочувствованная практика, рожденная в битвах, изгнаниях, любви, тоске, молитвах. Бабур показывает, как личность формируется не в покое, а в противоречиях, как судьба человека зависит и от высших сил, и от его собственной воли.

Он учит нас: принимать жизнь со смирением, вести борьбу с эго, быть честным перед собой, искать смысл даже в поражениях, и стремиться к истине через самопознание. Таким образом, «Бобурнаме» — это философия судьбы, написанная не с кафедры, а с седла. Это путь человека, который искал в себе не царя, а пилигрима истины.

«Бобурнаме» — это не просто историческое повествование, а глубокое философское свидетельство о том, как человек проживает свою судьбу, ищет смысл, ошибается и находит истину через страдание и размышление.

Философия личности и судьбы в этом произведении демонстрирует: синтез восточной мистики и практического реализма, уважение к божественному порядку и свободе человека, образ личности, формирующейся в борьбе с самим собой и обстоятельствами [3, 15-17 стр].

Бабур — не только летописец эпохи, но и философ в доспехах, который оставил потомкам пример честного разговора с самим собой и с вечностью.

### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Бабур, Захириддин Мухаммад. Бобурнаме. — Ташкент: Шарқ, 2015. — 384 с. (Оригинальный источник философских и автобиографических размышлений автора.)
2. Бабур. Диван (шеърӣй мерос). — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. — 240 с. (Поэтическое выражение философии личности и судьбы.)

3. Алимов, Ш. Ш. Бобур — давлат арбоби ва шоир сифатида. — Тошкент: Мукаммал, 2013. — 224 б. (Анализ литературного и интеллектуального наследия Бабура.)
4. Бердухожаев, А. А. Тасаввуф тарихи ва мазмуни. — Тошкент: Ижод, 2010. — 186 б. (Обзор суфийских концепций, применимых к философии Бабура.)
5. Юнусов, А. Т. Фалсафа ва шахс муаммоси. — Тошкент: Фан, 2007. — 198 б. (Проблемы личности и судьбы в восточной философии.)
6. Nasr, Seyyed Hossein. The Garden of Truth: The Vision and Promise of Sufism, Islam's Mystical Tradition. — New York: HarperOne, 2007. — 310 p. (Обзор суфийских взглядов на судьбу и самопознание.)
7. Chittick, William C. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-'Arabi's Metaphysics of Imagination. — Albany: State University of New York Press, 1989. — 389 p. (Глубокий анализ суфийской философии и понятий "я" и "судьбы".)
8. Trimingham, J. Spencer. The Sufi Orders in Islam. — Oxford: Clarendon Press, 1971. — 320 p. (Описание суфийских тарикатов, включая накшбандия и их влияние на политиков и мыслителей.)
9. Эрматов, У. Х. Тарихда шахс масаласи ва унинг фалсафий таҳлили. — Тошкент: Фан, 2009. — 176 б. (Философский анализ понятия личности в историческом контексте.)
10. Абдуллаева, М. Р. Этик и суфий: Философская традиция Востока. — Самарканд: СамДУ нашриёти, 2016. — 152 с. (Об этике и философии личности на основе суфийского подхода.)

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES****Received:** 16 June 2025**Accepted:** 5 July 2025**Published:** 15 July 2025*Article / Original Paper***THE NECESSITY OF CREATING AN EXPLANATORY DICTIONARY OF QUALITY AND CERTIFICATION TERMS IN THE STATE LANGUAGE****Mamadaliyeva Naibakhon Saidaminovna,**  
Doctor of Philological Sciences, Professor**Mamadaliyeva Odinakhon Nozim qizi,**  
National University of Uzbekistan

**Abstract.** This article presents a scientific rationale for the development of an explanatory dictionary of terms in the field of quality management, particularly relevant for education and production sectors. The study analyzes terminology used in national and international standards, accreditation systems, and quality assurance frameworks. The research is based on ISO, GOST, and ENQA documents. The author categorizes the terms and explains their meaning, context, and functional significance within the quality assurance system.

**Keywords:** quality, explanatory dictionary, terminology, education standards, ENQA, ISO 9000, accreditation, management, quality assessment, methodology.

**DAVLAT TILIDA SIFAT VA SERTIFIKATLASH ATAMALARI IZOHLI LUG'ATINI YARATISH ZARURATI****Mamadaliyeva Naibaxon Saydaminovna,**  
Filologiya fanlari doktori, professor  
E-mail: [naibakhon@bk.ru](mailto:naibakhon@bk.ru)**Mamadaliyeva Odinaxon Nozim qizi,**  
O'zbekiston Respublikasi Milliy universiteti  
E-mail: [kamilovaodina49@email.com](mailto:kamilovaodina49@email.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida sifatni boshqarish bilan bog'liq asosiy atamalarni to'g'ri va bir xil talqin etish maqsadida izohli lug'at yaratish zarurati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Sifat atamalarining milliy va xalqaro standartlar, normativ hujjatlar hamda ta'limdagi qo'llanilishi tahlil qilinib, lug'at yaratishning ilmiy, amaliy va strategik ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot ISO, GOST va ENQA hujjatlari asosida olib borilgan. Muallif atamalarni toifalarga ajratib, ularning mazmun va funksional vazifalarini sharhlab beradi.

**Kalit so'zlar:** sifat, izohli lug'at, atamashunoslik, ta'lim standarti, ENQA, ISO 9000, akkreditatsiya, menejment, ta'lim sifatini baholash, metodologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N19>**Kirish**

Bugungi globalashuv jarayonlarida ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida sifatni ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda mahsulot sifatini kafolatlash, xizmat ko'rsatish sohasida mijozlarni qoniqtirish kabi maqsadlar sifat boshqaruvi tizimining markazida turadi.

Sifatga oid tushunchalar va atamalar turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, ta'lim muassasalari, akkreditatsiya organlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yagona ma'noga ega bo'lmashligi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mahsulot sifati va sertifikatlash sohasi bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy rivojida muhim o'rin tutadi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, texnik hujjatlar, standartlar va me'yoriy asoslarni to'g'ri tushunish va amaliyotga tatbiq qilish uchun sohaviy atamalarning aniq, bir xilda tushuniladigan, ilmiy asoslangan va davlat tilida shakllangan izohli lug'ati zarur hisoblanadi.

Birinchi navbatda, mahsulot sifati va sertifikatlash sohasida qo'llaniladigan atamalarning talqinida aniqlik yetishmasligi amaliyotda ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Har bir standart yoki texnik reglamentda foydalanilayotgan atama ma'lum bir kontekstda muayyan mazmunni ifodalaydi. Biroq, ayni bir atamaning turli manbalarda, turli muassasalarda yoki hatto mutaxassislar o'rtasida turlicha talqin qilinishi muammolarga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikning noto'g'ri ijro etilishi, texnik reglamentlarning buzilishi, hamkorlikdagi ish jarayonlarida noaniqliklar yuzaga kelishini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida texnik jihatdan tartibga solish sohasi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonun[1] asosida tashkil etilgan bo'lib, u bilan bog'liq barcha me'yoriy hujjatlar — davlat standartlari[2], texnik reglamentlar[3], sertifikatlash talablari, akkreditatsiya mezonlari va boshqa hujjatlardagi atamalar aniq va bir xil tushunilishi talab etiladi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tashkilotlar — O'zstandart agentligi, O'zbekiston Milliy metrologiya instituti, O'zbekiston Standartlar instituti, Sifat nazorati markazi kabi muassasalar atamalardan yagona ma'noda foydalanishi zarur. Buni ta'minlashning asosiy yo'li — izohli lug'at yaratishdan iborat.

Shuningdek, xalqaro me'yorlar asosida ishlaydigan sohalarda atamalarni to'g'ri tarjima qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Mahsulot sifati va sertifikatlashga oid atamalar asosan ingliz, rus, nemis va fransuz tillarida shakllangan. Ular o'zbek tiliga to'g'ri va ilmiy asoslangan holda tarjima qilinmas ekan, mazmun yo'qotilishi, noto'g'ri talqin, hatto noto'g'ri me'yoriy hujjat tayyorlanishi ehtimoli kuchayadi. Bu esa turli xalqaro auditorlar, inspeksiya organlari bilan hamkorlikda ham jiddiy to'siqlar keltirib chiqaradi.

Izohli lug'at bu muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi[4]. Fan va texnika, madaniyat va san'at sohalariga oid o'zlashma terminlar va ular tarkibidagi terminellemlar ilmiy adabiyotlardan va turli sohaviy terminologik lug'atlardan borgan sari mustahkam joy olmoqda. Asosan, yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrlarda xalqaro nufuzga ega bo'lgan ba'zi zamonaviy Yevropa tillaridan ham o'zlashmoqda. Xalqaro miqyosda qo'llanuvchi ana shunday minglab so'z va terminlar har doim ham keng ommaga, ba'zan hatto mutaxassislarga ham tushunarli bo'lavermaydi. Shu nuqtai nazardan hozirgi davrda xalqaro terminlarning ma'nosini ochib beruvchi, ularning turli xil xususiyatlarini to'liqroq aks ettiruvchi davlat tilida maxsus izohli lug'atlarga ehtiyoj mavjud. Bunday izohli lug'atlarda har bir atamaning davlat tilidagi to'liq ta'rifi, me'yoriy va texnologik manbasi, qo'llanish sohasi, xalqaro sinonimi va muqobillari berilsa, amaliy jarayonlarda ishonchli va standartlashgan axborot aylanmasi vujudga keladi. Bu, o'z navbatida, tarjimonlar, muhandislar, sertifikatlovchi organlar, korxonalar va davlat nazorati organlari o'rtasida samarali va mukammal hamkorlikni ta'minlaydi.



Ta'lim sohasi nuqtai nazaridan ham mazkur lug'at muhim o'rin tutadi. Mahsulot sifati, sertifikatlash va texnik tartibga solish yo'nalishida kadrlar tayyorlash jarayonida atamalarining to'g'ri tushunilishi, ularning aniq manbasi va mazmunini anglash talabalarning nazariy bilim va amaliy salohiyatini shakllantirishda muhim omildir. Bakalavriat, magistratura, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida mazkur lug'at o'quv dasturlari, darsliklar, ilmiy ishlar va mutaxassislik imtihonlarida asosiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Shuningdek, sohaviy mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarida izohli lug'at qo'llanmaviy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar uchun ISO[5], Codex Alimentarius[6], IEC[7], GFSI[8] kabi xalqaro standartlar bilan ishlash jarayonida, xorijiy sheriklar bilan shartnomalar tuzish, mahsulot eksporti uchun sertifikat olishda lug'atdagi aniq va standartlashtirilgan atamalar muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan qaralganda, mahsulot sifati va sertifikatlash sohasida aniq atamalarining mavjudligi ilmiy-texnik innovatsiyalar, yangi texnologik yechimlar, "Sifat menedjmenti"[9] tizimlari, mahsulot xavfsizligi monitoringi va akkreditatsiya jarayonlarini samarali yo'lga qo'yishga yordam beradi. Bu esa mamlakat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Nihoyat, ushbu lug'at loyihasi davlat tilining rivoji va fan tili sifatida shakllanishiga ham katta hissa qo'shadi. Hozirgi kunda texnik, ilmiy va iqtisodiy sohalarda o'zbek tilidagi atamalarining to'la qamrab olinmaganligi, atamalarining yaxlit va yagona bazasining mavjud emasligi til madaniyatidagi to'siqlarni vujudga keltirmoqda. Izohli lug'at esa mazkur sohadagi bo'shliqni to'ldiradi, davlat tilida fanning yuksalishiga turtki beradi.

Sertifikatlash esa bugungi kunda sifatni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash va bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni targ'ib qilishda muhim mexanizm sifatida shakllangan. Shu nuqtai nazardan bu maqolada sertifikatlash jarayonida ishlatiladigan asosiy atamalar va ularning ma'noviy-huquqiy mazmuni tahlil qilinadi. Maqsad — sohada yagona ilmiy uslubiy yondashuvga asoslangan atamalar lug'ati yaratishga ilmiy zamin yaratish.

### Metodlar

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asosida ish olib borildi:

1. Ta'lim va ishlab chiqarish tizimlarida qo'llanilayotgan normativ hujjatlar (ISO 9000, GOST R, ENQA standartlari) tahlil qilindi;
2. Atama va tushunchalarning izohlari tarkibiy-mantiqiy tahlil qilindi, ularning o'zaro bog'liqligi va iyerarxik tuzilishi o'rganildi;
3. Mutaxassislar bilan intervyu va so'rovnomalar tashkil qilindi (sohaviy ekspert bahosi);
4. Xalqaro amaliyotdagi muvaffaqiyatli lug'atlar bilan taqqoslash usuli (benchmarking) qo'llanildi.

Bu usullar orqali atamalarni izchil, metodologik asoslangan, amaliyotda qo'llaniladigan holda tizimlashtirish imkoni yaratildi.

Sertifikatlash atamalarini tadqiq qilishda esa ilmiy tahlilning bir qancha uslubiy yondashuvlari qo'llanildi. Jumladan, **empirik usullar** sifatida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, sertifikatlash jarayonini bevosita kuzatish va soha mutaxassislari bilan suhbatlar tashkil etish orqali ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, **teoriyaviy usullardan** — tahlil va sintez, abstraksiya, deduksiya va induksiya, hamda muqoisaviy tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini asosiy manbalar sifatida A.R.Yusupovning “Osnovnye terminy i ponyatiya sertifikatsii” nomli ilmiy maqolasi, xalqaro standartlar [10], (ISO 9001, ISO 9004, ISO 14011) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sertifikatlash sohasidagi normativ qarorlari [10] tashkil etdi. Ushbu manbalar orqali milliy va xalqaro amaliyotni qiyosiy tahlil qilish imkoni yaratildi.

### **Natijalar**

1. Sifat sohasidagi asosiy atamalar tartiblandi: “sifat”, “menejment”, “audit”, “sertifikatlash”, “akkreditatsiya”, “o‘lchov birxilligini ta‘minlash”, “rezultativlik”, “samaradorlik”, “mudofaa” va h.k.
2. Atamalarning izohlari fandagi ta‘riflar, amaliyotdagi qo‘llanilishi, qonunchilikdagi yoritilishi nuqtai nazaridan taqqoslandi.
3. Lug‘at uchun quyidagi toifalar asosida klasterlashtirish amalga oshirildi:
  - ta‘lim tizimida qo‘llaniladigan atamalar;
  - ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar;
  - metrologiya va texnik tartibga solishdagi atamalar;
  - xalqaro atamalar va ularning adaptatsiyasi.
4. 200 ga yaqin atamadan iborat namunaviy lug‘at loyihasi shakllantirildi.
5. Atamalar tarkibiy qismlarga (sifat menejmenti jarayonlari bo‘yicha: rejalashtirish, amalga oshirish, tekshirish, ta‘sir etish – PDCA sikl) asoslangan holda tartiblandi.

Sertifikatlash jarayonini to‘g‘ri anglash va uni amalga oshirishda atamalarning aniq va izchil talqini katta ahamiyatga ega. Yusupov A.R.ning tahlilida sertifikatlash sohasida qo‘llaniladigan bir qator muhim tushunchalarga mukammal ta‘riflar berilgan. Jumladan, «sertifikatlash» — mahsulotning belgilangan me‘yor va talablarga muvofiqligini rasman tasdiqlashga qaratilgan faoliyat sifatida talqin etiladi. Bu jarayon maxsus organlar va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, «sertifikat» — ushbu muvofiqlikning rasmiy dalili sifatida mahsulot yoki xizmat uchun beriladigan hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat tegishli standartlarga javob berishni tasdiqlaydi.

«Muvofiqlik belgisi» esa mahsulotga yoki xizmatga qo‘yiladigan maxsus belgi bo‘lib, u iste‘molchiga ushbu obyekt belgilangan normativ hujjatlar talablariga javob berayotganini bildiradi.

Bundan tashqari, «milliy sertifikatlash tizimi» — davlat miqyosida faoliyat yurituvchi, o‘zining ichki qoidalari va boshqaruv mexanizmlariga ega bo‘lgan tashkilot va jarayonlar majmui hisoblanadi. Ushbu tizim orqali mamlakatda sifatni boshqarish, xavfsizlikni ta‘minlash va bozor nazorati amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonda ishtirok etuvchi asosiy shaxslardan biri — «ekspert-auditor» bo‘lib, u belgilangan talablarga muvofiqlikni baholash ishlarini amalga oshirish vakolatiga ega, maxsus attestatsiyadan o‘tgan va malakaga ega mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi.

**Sertifikatlash subyektlari.** Sertifikatlash jarayonida bir qator yuridik va jismoniy shaxslar faol ishtirok etadi va ularning har biri muayyan vazifa va majburiyatlarga ega. Birinchi navbatda, ushbu sohada boshqaruv va nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi markaziy organ — O‘zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi hisoblanadi. U sertifikatlash siyosati, qoidalari, davlat nazorati va akkreditatsiyani amalga oshiradi.

Bundan tashqari, akkreditatsiyadan o'tgan organlar, sinov laboratoriyalari, inspeksiya organlari, hamda ekspert-auditorlar, ishlab chiqaruvchilar, yuridik va jismoniy shaxslar ham sertifikatlash jarayonida subyektlar sifatida ishtirok etadilar.

Ular o'rtasidagi munosabatlar aniq qonunchilik asosida tartibga solinadi. Sertifikatlarni berish, ularni tekshirish, haqiqiyligini tasdiqlash, zarurat tug'ilganda bekor qilish yoki qayta ko'rib chiqish jarayonlari belgilangan me'yoriy hujjatlar va qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Buning natijasida, sertifikatlash sohasida yuqori darajadagi tizimlilik, shaffoflik va mas'uliyat ta'minlanadi.

### **Muhokama**

Izohli lug'at yaratishdagi asosiy muammolardan biri – tushunchalarning turlicha talqin qilinishi va bir xil atamaning sohalar bo'yicha har xil ma'noda ishlatilishidir. Masalan, "audit" tushunchasi ta'limda "vnutrennee samootsenivanie" sifatida, ishlab chiqarishda esa "vneshnyaya proverka sootvetstviya" sifatida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, "sifat" atamasi ham turli mamlakatlarda, turli sohalarida subyektiv talqin qilinadi: Yevropa mamlakatlarida bu atama mijoz qoniqligini ifodalasa, IA mamlakatlarida talablarga muvofiqlik nuqtai nazaridan baholanadi.

Xalqaro va milliy atamalarining bir xil talqin etilishini ta'minlash uchun izohli lug'at nafaqat tushunchalarni sharhlab berishi, balki ularning turli sohalaridagi qo'llanilishi haqida misollar va manbalar keltirib o'tishi zarur.

### **Sertifikatlash hujjatlarining yuridik kuchga ega bo'lishi**

Sertifikatlash jarayonining huquqiy asoslari uning rasmiy va majburiy hujjatlari orqali ta'minlanadi. Sertifikatlar va muvofiqlik belgilari yuridik kuchga ega bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya qilinishi shart. Avvalo, har bir sertifikat va tegishli belgi **O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan yuritiladigan davlat reyestriga rasman kiritilgan** bo'lishi zarur. Reyestrda o'tkazilmagan hujjatlar amalsiz, deb hisoblanadi va ularning qonuniy kuchga ega emasligi belgilangan.

Bundan tashqari, sertifikat yoki belgini **boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarga berib yuborish, o'tkazish yoki taqdim etish qat'iyan man etilgan**, chunki bunday harakatlar amaliy jarayonda soxtakorlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, agar sertifikat **akkreditatsiyadan o'tmagan organ** tomonidan berilgan bo'lsa, u hujjat ham amalda haqiqiy hisoblanmaydi va davlat tomonidan tan olinmaydi. Bu holatlar soha faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda bozorda shaffoflik va ishonchni saqlashga qaratilgandir.

Sertifikatlash sohasida ilmiy va amaliy ishlarning samarali tashkil etilishi, huquqiy mexanizmlarning aniq ishlashi va professional muloqotning to'g'ri yo'naltirilishi uchun **aniq, yagona va standartlashtirilgan atamalar tizimi** zarur hisoblanadi. Bunday atamalar soha uchun huquqiy aniqlikni ta'minlaydi, amaliyotda esa shaffoflik va bir xil talqin qilish imkonini yaratadi, ilmiy va amaliy tahlil natijalarini o'zaro qiyoslash, baholash va qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Xalqaro amaliyotda bu kabi glossariylar ISO va IEC kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ko'plab mamlakatlarda normativ asos sifatida qabul qilingan. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, milliy sertifikatlash tizimini takomillashtirishda turdosh atamalarni jamlagan, maqsadli va mukammal **izohli atamalar lug'atini** yaratish muhim vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. Bunday lug'at ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash, huquqiy

hujjatlar ishlab chiqish va davlat nazoratini amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

### Xulosa

Sifat atamaları izohli lug'ati yaratish – bu bilimlarni standartlashtirish, mutaxassislar, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va nazorat organlari o'rtasida yagona axborot maydonini shakllantirishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy tashabbusdir. Ushbu lug'at:

- ta'lim jarayonida sifatni baholashda aniqlik va xolislikni ta'minlaydi;
- akkreditatsiya va sertifikatlash tizimida izchillik yaratadi;
- xalqaro hamkorlikda tushuncha qarama-qarshiliklarini kamaytiradi, aniq tarjima va tushunishni kafolatlaydi;
- ilm-fan va ishlab chiqarishni bog'lovchi intellektual ko'priq vazifasini bajaradi, ilmiy-nazariy jihatdan atamalarni sistemalashtiradi
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarning aniq va bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi;
- milliy fan tilining shakllanishiga xizmat qiladi

Shuningdek, kelgusida turli sohalar bo'yicha ixtisoslashgan atamalar izohli lug'atlari (masalan, tibbiyot, muhandislik, agrar, iqtisodiy va h.k.)ni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Bu lug'at loyihasi nafaqat lingvistik yoki uslubiy ehtiyoj, balki milliy iqtisodiyot va fan rivoji uchun **strategik ahamiyatga egadir**.

Sertifikatlash atamaları — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy va amaliy jarayonlarning asosiy poydevoridir. Ularning aniq, maqsadli va standartlashtirilgan holda shakllantirilishi milliy va xalqaro hamkorlik, sifatni boshqarish, muvofiqlikni baholash va bozorda ishonchli mahsulot tarqatishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bu maqolada berilgan tahlillar va namunaviy lug'at satrlari sohada atamalar izohli lug'ati yaratish loyihasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qila oladi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni// <https://www.lex.uz/docs/6392312>
2. <https://www.uzsti.uz/shop>
3. [https://gov.uz/oz/standart/activity\\_page/texnik-reglamentlar](https://gov.uz/oz/standart/activity_page/texnik-reglamentlar)
4. Z.Nasimov. Lug'atlar – tilimiz xazinasining bebaho gavharlaridir// <https://yuz.uz/news/lugatlar--tilimiz-xazinasining-bebaho-gavharlaridir>;
5. A.Madvaliev, N.Mahkamov, Z.Miraxmedova, A.Saidno'monov. Xalqaro termielementlarning izohli-illyustrativ lug'ati. –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 432 b.
6. <https://www.iso.org/ru/home.html>
7. <https://www.fao.org/fao-who-codexalimentarius/en/>
8. <https://www.iec.ch/homepage>
9. <https://impact.economist.com/sustainability/project/food-security-index/>
10. <https://www.standart.uz/cyrl/news/view?id=379>
11. A.R.Yusupov. Основные термины и понятия сертификatsii // <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-terminy-i-ponyatiya-sertifikatsii>
12. O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-6392305>; O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/20326>; O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4704>;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagi "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-91-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-6821843>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PF-6240-sonli "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni // <https://lex.uz/docs/-5443205> ; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 yanvardagi 43-sonli "O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo'lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-5249376>

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **STUDYING THE CONVERGENCE OF LINGUISTIC MEANS ON THE MATERIAL OF A LITERARY PROSE TEXT**

**Aliyeva Elvina Ametovna**

Doctor of Philology, Associate Professor  
Head of the Department of Russian Linguistics  
National University of Uzbekistan  
E-mail: [aliyeva.elvina@rambler.ru](mailto:aliyeva.elvina@rambler.ru)

**Rasulova Dilbar Nasrullayevna**

1st year Master's student of  
National University of Uzbekistan  
E-mail: [dilbar.rasulova.01@mail.ru](mailto:dilbar.rasulova.01@mail.ru)

**Abstract.** The article is devoted to the analysis of the convergence of linguistic means in a fiction text. The interaction of stylistic devices, their influence on the semantic structure, emotional expressiveness and authorial representation are studied, based on modern linguistic approaches and examples from fiction.

**Keywords:** linguistics, convergence, stylistic convergence, interaction of devices, emotional-expressive expressiveness, idiosyncrasy, text interpretation.

---

## **ИЗУЧЕНИЕ КОНВЕРГЕНЦИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА**

**Алиева Эльвина Аметовна**

доктор филологических наук, доцент  
факультета журналистики и узбекской филологии НУУз  
заведующая кафедрой русского языкознания

**Расулова Дильбар Насруллаевна**

магистрант 1 курса, специальности «Лингвистика: русский язык»  
факультета журналистики и узбекской филологии НУУз

**Аннотация.** Статья посвящена анализу конвергенции языковых средств в художественном тексте. Исследуется взаимодействие стилистических приёмов, их влияние на смысловую структуру, эмоциональную выразительность и авторскую репрезентацию, опираясь на современные лингвистические подходы и примеры из художественной прозы.

**Ключевые слова:** лингвистика, конвергенция, стилистическая конвергенция, взаимодействие приемов, эмоционально-экспрессивная выразительность, идиостиль, интерпретация текста.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N20>

**Введение.**

В художественном тексте конвергенция проявляется как стилистическое и синтаксическое явление, объединяя различные выразительные средства для усиления художественного воздействия.

**Методы, использованные в исследовании.** Описательный метод, интерпретационный анализ, сравнительно-аналитический метод.

**Анализ литературы.**

В художественном тексте конвергенция проявляется как стилистическое и синтаксическое явление, объединяя различные выразительные средства для выражения экспрессии. В связи с этим в современной лингвистике вырос интерес к изучению особенностей конвергенции в языке художественной прозы. Исследования проводятся на материале литературы разных языков.

Так, Н. С. Маторина, анализируя конвергенцию на материале англо-американской прозы, акцентирует внимание на «содержательной характеристике» [12] стилистической конвергенции, и определяет эту характеристику как «совокупность смыслов, образуемых в результате внутритекстовых процессов в микротексте конвергенции» [12], что может характеризовать отношение самого автора к моделируемой в тексте ситуации.

При выделении особенностей языка англо-американской прозы, Н. С. Маторина приходит к выводу, что стилистическая конвергенция играет немаловажную роль, результатом которой является и взаимовлияние языковых средств [12]. Взаимовлияние, по мнению автора, происходит по трем типам: «1) компонентов внутри конвергенции; 2) всех компонентов конвергенции на один компонент; 3) одного компонента на всю структуру конвергенции» [12]. Она считает, что именно внутритекстовые процессы в структурном образовании являются стрессовым элементом в образной природе конвергенции, что создает обширный информационный потенциал конвергенции в самой структуре прозаического текста [12]. Более того, исследователь опирается на тематические модели (эмоции, поведение, описание природы, городской пейзаж и так далее) при классификации конвергенции [12]. Например, в описании эмоций, по замечанию автора, преобладают параллельные структуры конвергенции (концентрированное наложение нескольких выразительных средств, например, параллелизма, повтора, инверсии, полисиндетона, асиндетона) [12], тогда как в описании места действия – последовательные (наращивание и добавление большого количества стилистических единиц, таких как эпитеты, перифразы, градации, сравнения) [12].

Н. С. Маторина акцентирует, что конвергенция является важным элементом в макроконтексте [12]. Именно макроконтекст художественного произведения во многом определяет информационный потенциал конвергенции, обусловленный стилевой системой текста, жанровыми особенностями, авторской манерой письма и общей композиционно-смысловой структуры художественной ткани произведения [12]. Анализ моделей конвергенции и их функционирования в конкретных жанрово-стилевых контекстах позволяет более точно определять индивидуально-авторский стиль, а также систематизировать способы репрезентации художественной действительности в англо-американской прозе.

С. А. Кузьменко, анализируя идиостиль известной новозеландской писательницы К. Мэнсфилд, пришла к выводу, что в идиостиле К. Мэнсфилд конвергенция приобретает полифункциональный характер и служит не только средством художественной выразительности, но и инструментом смысловой маркировки ключевых фрагментов текста [11]. С. А. Кузьменко выявляет прямую зависимость между «степенью конвергентности» и «концептуальной значимостью текстовых отрезков»: чем выше концентрация стилистических средств, тем глубже имплицитный потенциал высказывания и тем ближе оно к типу «гипотетического художественного текста» с присущими ему чертами имплицитности и открытости [11].

С опорой на традиционные уровни языковой структуры, С. А. Кузьменко в ходе анализа 29 рассказов К. Мэнсфилд, вошедших в сборники «*Bliss and Other Stories*» («Счастье и другие рассказы» [11]) и «*The Garden Party and Other Stories*» («Пикник и другие рассказы» [11]), выделила фонетические, лексические и синтаксические конвергенции, а также их «комбинированные (смешанные) формы», демонстрирующие более сложное взаимодействие стилистических ресурсов [11]. Как отмечает автор, некоторые разновидности, в частности собственно фонетические конвергенции, встречаются крайне редко и чаще всего привязаны к специфическим повествовательным моделям [11]. Так, синтаксические конвергенции чаще всего реализуются в текстах, построенных на развёрнутых авторских описаниях с использованием сложных синтаксических конструкций, тогда как лексические конвергенции характерны для фрагментов с образными и экспрессивными характеристиками [11]. Наибольшую прагматическую нагрузку, по наблюдению С. А. Кузьменко, несут смешанные конвергенции, возникающие на стыке различных языковых уровней. Как замечает исследователь, ярким примером может служить рассказ «*The Wind Blows*» [11], в котором состояние юной героини, влюблённой в своего учителя музыки, передаётся через сложную сеть лексико-синтаксических взаимодействий: механичность её действий за фортепиано, сосредоточенность на голосе учителя, эмоциональный подтекст каждой детали повествования образуют конвергентную структуру, отражающую внутреннюю напряжённость и чувственную восприимчивость персонажа [11]. С. А. Кузьменко считает, что пример лексико-синтаксической рассредоточенной конвергенции ярко представлен в эпизоде из рассказа «*The Wind Blows*» [11], где через совокупность стилистических приёмов разных языковых уровней К. Мэнсфилд удаётся точно воспроизвести эмоциональное состояние героини:

«*His voice is far, far too kind. lite crotchets and quavers are dancing up and down tlie stave like little black boys on a fence Wliy is he so... She will not cry - she has nothing to cry about*» [11].

Как отмечает С. А. Кузьменко, данная конвергенция включает «интенсифицированный повтор» («*far, far too kind*»), усиленный наречием *too*, «компаративную метафору» («*the crotchets and quavers are dancing up and down the stave*») в сочетании с «визуально-игровым сравнением» («*like little black boys on a fence*»), а также «апозиопезис» («*Why is he so...*») и «синонимически организованный лексический повтор» («*will not cry – she has nothing to cry about*») [11]. Исследователь подчеркивает, что все эти средства, будучи распределёнными на протяжении нескольких предложений, образуют рассредоточенную конвергенцию, подчинённую единой



прагматической задаче – передаче субъективного восприятия героини, находящейся в эмоциональном напряжении [11]. Авторская метафорика К. Мэнсфилд создает эффект «сенсорного искажённого восприятия», где чёрные и белые клавиши ассоциируются с забором и танцующими фигурами, что визуализирует внутреннюю смятенность персонажа [11]. Повтор и апозиопезис, в свою очередь, фиксируют психологическую борьбу с подавленными слезами [11].

С. А. Кузьменко предлагает дифференциацию конвергирующих взаимодействий по критерию доминантности, выделяя «однополюсную и многополюсную» конвергенции [11]. В случае однополюсной конвергенции наблюдается наличие ярко выраженного стилистического ядра, а именно одного доминирующего средства, вокруг которого группируются периферийные элементы, усиливающие его семантический и экспрессивный потенциал [11]. По мнению С. А. Кузьменко, такая структура описывается через понятийную модель «поля» с «ядерно-периферийной организацией» [11]. Исследователь приводит пример подобной конвергенции: «*But her words, so light, so soft, so chill, seemed to hover in the air, to rain into his breast like snow*» и отмечает, что «ядро образовано серией эпитетов» (*light, soft, chill*), задающих основную семантическую линию, в то время как метафоры (*hover in the air, rain into his breast*) и сравнение (*like snow*) выступают как «периферийные компоненты», расширяющие смысловое поле основного ряда [11]. Повтор наречия *so* усиливает «эмфатический эффект и формирует семантическую цепь легкость – невесомость – холод – снежность, концентрируя внимание на эмоциональной изоляции и отчуждённости» [11].

В противоположность этому, как пишет исследователь, многополюсная конвергенция предполагает наличие нескольких равноправных стилистических ядер, каждое из которых несёт значимую концептуальную нагрузку [11]. Иллюстративным примером, который приводит С. А. Кузьменко, является экспозиция рассказа К. Мэнсфилд «*A Cup of Tea*» [11], где характеристика главной героини, Розмэри Фелл, строится на совмещении цепочки эпитетов с антитезой [11]. Эффектное противопоставление «великолепной королевы» и «убогих гостей» не только создаёт выразительный контраст, но и «структурирует художественное пространство персонажа как внутренне расколотое» [11]. По замечанию С. А. Кузьменко, каждое стилистическое средство («эпитет, антитеза, гипербола» [11]) выступает как самостоятельная смысловая доминанта, формируя сложное, многослойное восприятие образа [11].

С. А. Кузьменко отмечает, что во многих рассказах К. Мэнсфилд намеренно разделяет разные смысловые уровни текста. Внешние события и действия героев подаются с минимальной связью с реальной предметной картиной, а основной смысл скрыт в глубинном, образно-эмоциональном слое. Восприятие таких текстов требует от читателя не столько логического понимания, сколько интуитивного понимания авторской мысли через образы, настроение и общее впечатление [11]. Язык в этих текстах играет не столько номинативную, сколько «экспрессивно-ассоциативную роль» [11], где он работает как проводник настроений, тончайших психологических состояний, эмоций и подсознательных реакций [11]. Именно благодаря гибкости синтаксиса, ритмике фразы, тонкой метафорике и особой звучности слов К. Мэнсфилд

удаётся погружать читателя в сферу скрытых значений, не прибегая к прямому описанию чувств или ситуаций.

М. А. Ананьина, также проводя исследование на материале произведений английского писателя Ч. Диккенса, считает, что синтаксическая конвергенция в художественном тексте может выступать как важнейшее средство создания ритмико-смыслового единства и выражения внутреннего состояния героя [8]. Анализируя отрывок из романа Чарльза Диккенса «Дэвид Копперфилд», исследователь отметил, что отклоненные от грамматической нормы герундиальные предикативные конструкции, вводимые посредством предлога *of*, становятся основным средством конвергенции, формируя целую композиционную структуру текста [8, с. 42]. Предлог *of* функционирует во фрагменте как скрепляющий элемент, объединяя абзацы в единое сверхфразовое единство, в котором каждое новое предложение эллиптически и опирается на начальную герундиальную конструкцию. Такое построение придает тексту, по замечанию автора, «эффект упаковки» [8, с. 43], что усиливает ощущение сна, хаотичности восприятия и передает внутреннюю рассеянность и эмоциональное волнение героя. При этом эллипсис сочетается с анафорическим повтором и параллелизмом, создавая ритмическую, динамическую линию повествования [8, с. 44]. В дополнение ко всему, М. А. Ананьина считает важным подчеркнуть, что синтаксическая конвергенция переходит в стилистическую за счет объединения с лексическим повтором, метафорой и образными сравнениями [8, с. 45].

Г. Ф. Коваленко рассматривает конвергенцию как ключевой механизм в реализации коммуникативных моделей репрезентации автора в тексте и его индивидуального мировосприятия, выражения авторского мироощущения и формирования его ценностной картины мира в рамках художественного текста [10]. Анализируя идости́ль американского писателя Ирвинга Стоуна на материале романов «*Love is Eternal*» и «*The President's Lady*» [10], Г. Ф. Коваленко выделяет ряд когнитивно-прагматических функций конвергенции, среди которых особое место занимают актуализирующая, оценочная, объяснительная и ассоциативно-стимулирующая [10]. Посредством этих функций формируется структурная организация текста и экспликации авторского мировидения. Так, с позиции прагматической тактики авторепрезентации в работе анализируется концепт «*FRONTIER*» в романе И. Стоуна «*The President's Lady*» [10]. Автор замечает, что выбор данного концепта обусловлен частой актуализацией этого явления в американской культуре в середине XX века, ввиду стремления осмыслить исторический процесс с позиции морально-нравственного ориентира героев эпохи фронтир [10]. Г. Ф. Коваленко пишет, что конвергенция, реализуемая через персонификацию, взаимодействующую с антитезой и гиперболоу, совмещённую с метонимией, играет ключевую роль в репрезентации структурных компонентов данного концепта – таких как «узлы *time, space, frontiersmen/pioneers and their activity*» [10]. Конвергентное взаимодействие стилистических средств позволяет выявить неочевидные концептуальные признаки, среди которых можно выделить: «ощущение единства человека с природой, радость при виде освоенных территорий, преодоление огромных трудностей, зарождающееся чувство патриотизма, стремление к независимости, зарождение новой жизни со всеми ее сложностями и невзгодами, проявляющийся интерес к политической жизни» [10].

Г.Ф. Коваленко проанализировала стилистическую конвергенцию в романе «The President's Lady» в аспекте «стимулирования межтекстового ассоциативно-смыслового поля текстообразующего концепта LOVE» [10]. Исследователь определил, что авторская индивидуальность в актуализации данного концепта проявляется, с одной стороны, в активном использовании разнообразных изобразительно-выразительных средств в рамках конвергенции (метафоры, градации, перифразы, гиперболы, синтаксический параллелизм, риторические вопросы и т.д.) [10]. С другой стороны, ассоциативно-смысловое поле концепта формируется в соответствии с восприятием феномена любви как такового, представляющим уникальные черты авторского мировосприятия и эмоционально-ценностной картины мира [10].

На основании проведенного анализа Г. Ф. Коваленко приходит к выводу, что прагматический потенциал конвергенции в идиостиле И. Стоуна проявляется в обеспечении комплекса коммуникативных тактик (саморепрезентации автора, интерпретации авторского мировоззрения и т.п.). Эти тактики объединяются общей прагматической установкой – стремлением к коммуникации, в которой автор и читатель выступают как активные соучастники смыслового диалога.

Э. Г. Новикова рассматривает конвергенцию речевых художественных приемов (под художественными приемами в ее работе понимаются «*артемы*» [13, с. 26]) на примере творчества современного российского прозаика, постмодерниста Татьяны Толстой. Анализируя сложное взаимодействие метафорического и метонимического переноса, а также лексико-семантического синкретизма, автор особое внимание уделяет последнему феномену, так как в нем актуализируются одновременно несколько лексических значений. В художественной прозе Т. Толстой, по замечанию автора, речевые художественные приемы метафорического и метонимического переноса нередко выступают в сложное взаимодействие, формируя конвергентные смысловые конструкции, в которых образы приобретают пространственно-временную глубину. Э. Г. Новикова предлагает различать два уровня функционирования конвергентных артем: «локальный» и «глобальный» [13, с. 30], которые важны для интерпретации прозы Т. Толстой. Под первым уровнем понимается проявление художественных приемов в пределах отдельной фразы или словосочетания – таких, которые не участвуют в создании значимых для всего текста образов. Автор отмечает, что прием метафорического и метонимического переноса действует на уровне отдельных описаний, не выходя за рамки локального контекста. Они создают яркие, но изолированные образы [13, с. 30]. Под глобальным действием художественных приемов понимаются конвергентные артемы, формирующие ключевые образы, находящиеся «под общим влиянием глобального контекста», который они же и формируют [13, с. 30]. Э. Г. Новикова подчеркивает, что такие артемы сложно анализировать, ввиду того что они подчиняются не только лексико-семантической логике, но и внутренней структуре всего произведения [13, с. 30]. Исследователь приходит к выводу, что тексты Т. Толстой характеризуются высокой степенью речевой усложненности, выраженной конвергирующими артемами, что увеличивает семантическую емкость текста [13, с. 30].

Конвергенция в прозаическом тексте может быть направлена не только на усиление эмоционально-экспрессивного фона текста, но и на раскрытие идейного содержания произведения, выход в идейный мир авторского замысла. Как отмечает О.

Е. Вильная, в романе-триллере Стивена Кинга «Зеленая миля» конвергенция играет ключевую роль в обличении юридической системы правосудия, калечащей жизни невинных людей [9]. Исследуя текст романа, О. Е. Вильная подмечает, что различные стилистические приемы (метафоры, эпитеты, синтаксический параллелизм, градация и другие) объединяются в рамках одного фрагмента. Например, «в создании образа антагониста романа – Перси Уэтмора» [9, с. 56], ядром конвергенции выступает градация, обращающая внимание читателей на характеристику этого человека, отмечая «что проще перечислить, кто относился к нему лояльно, нежели назвать всех, кто его ненавидел» [9, с. 56]. Особенностью такой конвергенции, где каждый стилистический прием усиливает воздействие предыдущего, является повышенная интенсивность стилистического воздействия на читателя. Иного типа конвергенция, по мнению автора, наблюдается при описании страданий Джона Коффи, где используются метафоры и гиперболы. В сочетании с повторяющимися конструкциями, они усиливают ощущение несправедливости и трагичности происходящего [9, с. 57]. Такие конвергентные модели способствуют глубинному раскрытию центральной идеи произведения – критике судебной системы. Как отмечает О. Е. Вильная, именно через конвергенцию языковых средств автору удается передать сложные этические и моральные дилеммы, стоящие перед персонажами романа.

В рамках художественного текста конвергенция может представлять интегративное явление, состоящее из структурных, смысловых и ритмических элементов. А. М. Царев и Р. Ш. Царева, анализируя языковую структуру повести-сказки Ч. Диккенса, выявили наличие четко выраженных ритмических единиц и ритмических групп, выполняющих одновременно смысловые функции. Исследователи определили повторяющиеся синтаксические модели, такие как «*in came + object, in they all came, away they all went*» [14, с. 191], и градации «*down – round – and round, old top couple – new top couple – all top couples*» [14, с. 191], которые формируют ритмическую основу текста. Эти конструкции задают определенную динамику повествования, усиливая восприятие сцены художественного произведения как единого эмоционально-насыщенного целого. Синтаксическая конвергенция проявляется в концентрированном использовании стилистических средств. В контексте одного сверхфразового единства, анализируемого авторами, наблюдается синтаксический параллелизм, а отсутствие сказуемого в последующих синтаксических конструкциях поддерживают высокую ритмическую напряженность и выразительность описания [14, с. 192].

А. М. Царев и Р. Ш. Царева подчеркивают, что повторяющиеся ритмические структуры и синтаксические конвергенции не только формируют динамическую линию повествования, но и становятся важным средством художественного выражения, усиливая эмоциональное восприятие нелицеприятных черт главного героя [14, с. 192].

Изучению конвергенции языковых средств в языке художественной прозе посвящены исследования узбекистанского лингвиста Э. А. Алиевой. В работах Э. А. Алиевой приводятся наблюдения, являющиеся актуальными для анализа языковой конвергенции в художественной прозе, особенно в контексте влияния контактирующих языковых средств [1, 2, 3, 6, 7]. Так, например, в своей монографии, посвященной раскрытию семантико-функциональных особенностей вопроса в художественно-прозаическом монологе на материале русской орнаментальной прозы, исследователь

отмечает, что взаимодействие вопроса с другими субъектно-экспрессивными структурами способствует формированию пространственно-временной плоскости, в которой «создает эффект одновременности его восприятия и речи» [4, с. 103]. Анализируя данные конструкции в художественном тексте, автор отметил, что они способны к активному взаимодействию с другими субъектно-экспрессивными средствами синтаксиса [4, с. 105]. Вопросы, вступая в синтаксическую и интонационную конвергенцию, становятся механизмом «диалогизации монолога» и, напротив, «монологизации диалога» [4, с. 105]. Особенно выразительным оказывается приём серийного использования вопросов в пределах ограниченного текстового фрагмента. При этом осложнение вопросительных конструкций «модально-эмоциональным значением», равно как и варьированный повтор, формирует эмоционально-смысловую градацию, своеобразное нарастание интонационно-смыслового напряжения [4, с. 105]. Таким образом, наблюдается интегративное взаимодействие синтаксических, интонационных и прагматических языковых элементов, направленных на создание многоплановой текстовой динамики.

Подобная направленность на выявление функционально-смысловой многослойности синтаксических средств перекликается с другим исследованием Э. А. Алиевой, где анализируются речевые формы устного диалога (повеления, обращения, формы второго лица местоимений и глаголов), а также парцеллированные и инпарцеллированные конструкции, зевгма и хиазм в произведениях русских писателей-орнаменталистов первой четверти XX века [5, с. 97]. В работе особое внимание уделяется конвергенции этих выразительных средств и их типологической классификации в структуре художественного текста. В рамках анализа было выявлено, что речевые формы устного диалога вступают в сложные типы конвергенции с другими синтаксическими средствами. Повелительные конструкции, например, могут функционировать как вставки или эллиптические формы, формируя двухкомпонентную сосредоточенную гетерогенную деривационную конвергенцию [5, с. 97]. Повторы обращений и форм второго лица реализуются как рассредоточенные типы той же природы. Более сложные синтаксические образования, такие как сочетание парцелляции, инфинитивных рядов, повторов повелений, инверсий, местоимений второго лица, а также включение вопросительных и восклицательных предложений, формируют многокомпонентную рассредоточенную гетерогенную эквиполентную конвергенцию [5, с. 97].

Экспрессивные фигуры синтаксиса, такие как хиазм и зевгма, автор рассматривает как важнейшие элементы художественной структуры орнаментальной прозы. Говоря о зевгме как об одной из фигур экспрессивного синтаксиса, Э. А. Алиева подчеркивает ее полифункциональность [5, с. 210]. По замечанию автора, основная функция зевгмы – выделительно-информативная. Данная фигура, вступая в конвергенцию с «гипозевксисом, повтором, вопросительными, вставными, эллиптическими, парцеллированными и инпарцеллированными конструкциями» [5, с. 210], приобретает свойства сложного смыслового приёма. Она не только акцентирует внимание читателя на значимом фрагменте текста, но и способствует созданию скрытых смыслов и логического и языкового смещения, тем самым превращаясь в эффективный инструмент манипуляции вниманием и формирования «затруднённой

формы», что является характерной чертой орнаментального письма и направленной на усложнение восприятия [5, с. 210]. Особое внимание уделяется семантически осложнённым хиазму, при котором изменение порядка слов ведёт к трансформации их синтаксических функций, а также «хиастическому каламбуру», способному порождать новые смыслы и скрытые значения [5, с. 211]. Взаимодействуя с другими выразительными средствами (повтором, инпарцелляцией, вопросом, метафорой, метонимией и синекдохой) хиазм становится не только приёмом усиления художественной выразительности, но и средством формирования подтекста, иносказания и эстетически маркированного воздействия на читателя [5, с. 211].

**Выводы.** Подытоживая, следует сказать, что конвергенция в пространстве художественного текста представляет собой многоуровневое взаимодействие синтаксических и стилистических средств, обеспечивающие ритмическую, структурную и смысловую целостность художественной ткани.

### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Алиева Э. А. Конвергенция парцелляции и сегментации в тексте очерков М. Цветаевой «Мой Пушкин» и «Пушкин и Пугачев» // Язык. Образование. Культура. Материалы международной научно-теоретической конференции. – Караганда, 2024. – С. 58-60.
2. Алиева Э. А. Конвергенция субъектно-экспрессивных средств синтаксиса в создании субъективизации повествования // XVI Виноградовские чтения сборник научных статей ежегодной научной международной конференции филологов-русистов. – Ташкент, 2020. – С. 7 – 10.
3. Алиева Э. А. Конвергенция экспрессивных синтаксических средств на материале рассказа Г. Пряхина «Интеллигенция и жестокость» // Вестник НУУз, 2022, 1/8/1. – С. 214-217.
4. Алиева Э. А. Семантико-функциональные особенности вопроса в художественно-прозаическом монологе (на материале языка русской прозы первой трети XX века): монография. – Ташкент: Университет, 2016. – 128 с.
5. Алиева Э. А. Экспрессивные синтаксические средства русской орнаментальной прозы: монография. – Ташкент, 2022. – 244 с.
6. Алиева Э. А., Абдуллаева Г. Деривационный повтор в конструкции с именительным темы // Актуальные проблемы русского словообразования. – Ташкент, 2024. – С. 44-47.
7. Алиева Э. А., Мясоедов Е. Семантико-функциональный потенциал вставных конструкций в рассказе Г.В. Пряхина «Животное начало» // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2023. – №10. – С. 63-66.
8. Ананьина М. А. Стилистическая функция синтаксической конвергенции // Lingua mobilis. – 2011. – №. 6 (32). – С. 41 – 46.
9. Вильная Е. О. Идеиная нагрузка стилистических конвергенций в романе-триллере С. Кинга «Зеленая Миля» // Актуальные вопросы филологической науки XXI века. Современные лингвистические исследования. – Екатеринбург, 2019. – Ч.1. – С. 53 – 59.
10. Коваленко Г. Ф. Прагматический потенциал стилистической конвергенции в идиостиле И. Стоуна: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. – Барнаул, 2012. [Электронный ресурс] URL: <https://www.dissercat.com/content/pragmaticheskii-potentsial-stilisticheskoi-konvergentsii-v-idiostile-i-stouna> (Дата обращения: 15.04.2025 г.)

11. Кузьменко С. А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. ... дис. канд.филол. наук. – Ставрополь, 2006. [Электронный ресурс] URL: <https://www.dissercat.com/content/lingvopragmaticheskie-svoistva-konvergentsii-stilisticheskikh-sredstv> (Дата обращения: 24.06.2025 г.)
12. Маторина Н. С. Информационный потенциал стилистических конвергенций (на материале англо- американской художественной прозы): Дис. ... канд.филол. наук. – М., 1989. [Электронный ресурс] URL: <https://www.dissercat.com/content/informatsionnyi-potentsial-stilisticheskikh-konvergentsii> (Дата обращения: 05.03.2025 г.)
13. Новикова Э. Г. Конвергенция речевых художественных приемов в малой прозе Т. Толстой //Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2015. – №. 390. – С. 26 – 32.
14. Царев А.М., Царева Р.Ш. Ритм и стилистическая конвергенция в «Рождественской песни» Ч. Диккенса // Современные парадигмы лингвистических исследований: методы и подходы. Сборник материалов Международной научно-практической конференции. – Стерлитамак, 2019. – С. 187 – 193.

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE LAW OF CLASSIFICATION IN LEXICOGRAPHY**

**Eshboyev Kahramon Bakir o'glu**

Associate Professor of Renaissance University of Education,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the law of gradation in the field of lexicography. The principle of gradation is considered as an important methodological basis for determining the levels on which words and word combinations are described in dictionaries, their semantic scope, stylistic coloring and communicative value. The article notes that by identifying the laws of gradation and applying them to the process of compiling a dictionary, the dictionary will be understandable and effective for the user. The results of this analysis serve as an important scientific basis for further improving lexicography and forming new approaches to lexicography.

**Keywords:** lexicography, classification, semantic level, stylistic criterion, pragmatic approach, lexicography, explanatory dictionary, synonym dictionary, educational dictionary.

## **LEKSIKOGRAFIYADA DARAJALANISH QONUNIYATINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI**

**Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li**

Renessans ta'lim universiteti dotsenti,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada leksikografiya sohasida darajalash qonuniyatining nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. So'z va so'z birikmalari lug'atlarda qanday darajalar asosida tavsiflanishi, ularning ma'no doirasi, uslubiy bo'yalishi va kommunikativ qiymatini aniqlashda darajalash tamoyili muhim metodologik asos sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada darajalanish qonuniyatlarini aniqlash va ularni lug'at tuzish jarayoniga tatbiq qilish orqali lug'atning foydalanuvchi uchun tushunarli va samarali bo'lishi ta'minlanishi qayd qilingan. Ushbu tahlil natijalari leksikografiyani yanada takomillashtirish va lug'atchilikda yangicha yondashuvlarni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, darajalanish, semantik daraja, stilistik mezon, pragmatik yondashuv, lug'atshunoslik, izohli lug'at, sinonimik lug'at, o'quv lug'at.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N21>

Ilmiy adabiyotlarda leksikografiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida qaralsa-da, uning leksikologiya bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Lug'at birinchi navbatda tilning leksikasini, shu jumladan so'zlarning ma'nosini, foydalanish chastotasini, nutq kontekstini, stilistik elementlarni va shakl va mazmun bilan bog'liqligini o'rganadi. Leksikografiya, ko'pincha "lug'atshunoslik" deb yuritiladi, va tilshunoslikning lug'atshunoslikka oid mavzularini o'rganadigan va tahlil qiladigan bo'limidir. Leksikografiya lug'atchilikning nazariy asoslarini ifodalasa, lug'atchilik esa lug'at tuzish amaliyoti bilan shug'ullanadi. Bir so'z bilan aytganda



leksikografiya lug'atlarni tuzish nazariyasini, leksikografiya esa ularni tuzish amaliyotini anglatadi.

XX asr 90-yillari va undan keyingi davrda leksik sinonimlarning leksikografik talqini yuzasidan o'zbek tilshunosligida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi. Tilshunos olimlar O.Bozorov, Sh.Orifjonova, Sh.Bobojonov, G.Rahmonov, A.Eshmuminov, F.Saidova, B.Doniyorovning leksik sinonimlarning lug'atlarda berilishi bilan bog'liq izlanishlari ham leksikologiya va leksikografiya sohasida sezilarli yangiliklarni olib kirdi. XX asrning 90-yillaridan keyin so'zlardagi iyerarxik munosabat tufayli yuzaga kelgan *giponimiya*, *partonimiya* va *graduonimiya* kabi hodisalar fanda yangi burilishni hosil qildi. Darajalanish (*graduonimiya*) hodisasini alohida sinonimlar bilan bog'liq holda o'rganish tilshunoslikda ko'plab tadqiqotlarning yaratilishiga poydevor bo'lmoqda[1;29].

Bilamizki, graduonimiya va sinonimiya hodisalari asos belgilariga ko'ra o'xshash. Graduonimiya va sinonimiyaning o'rtasidagi o'xshashliklarni tahlil qilsak, sinonimiya va graduonimiya hodisasida farqlovchi belgi sinonimiyada sinonim qatorlarning aynanligi kuzatilsa, graduonimik qatorlarda esa bir-biridan farqlilik holatlarini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, antonimiya va graduonimiya hodisasining o'zaro munosabatini qaraydigan bo'lsak, antonimiyada antonimik qatorlarning umumiy, birlashtiruvchi ma'no qirralari bilan bir qatorda, qarama-qarshi ma'no qirralari ham bo'lishi talab qilinsa, graduonimiyada esa so'zlar o'zaro ma'noviy munosabatlariga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorlarini hosil etishiga ko'ra farqlanadi.

Graduonimiya hodisasi yillar davomida tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Shuni aytib o'tish joizki, leksik-semantik munosabatlar tarkibiga kiruvchi graduonimiya hodisasi dastlab sinonimiya hodisasi tarkibida o'rganilgan. Yunon faylasuf olimi Platonning "*Kratil*" asarida mazkur masalaga Suqrot bilan munozara tarzida javob izlanganligini ko'rish mumkin. Qadimgi Yunon tilshunosligining falsafiy davrida faylasuflar notqlikka alohida urg'u berdilar. Binobarin, notqlikka bevosita xizmat qiladigan stilistika va sinonimiyaga oid tadqiqotlarni miloddan avvalgi VI-V asrdayoq yunon tilshunosligida juda ko'plab uchratish mumkin edi. Darhaqiqat, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirlar uchun muhim ekanini ta'kidlagan edi[2;10].

So'nggi paytlarda so'zlararo ma'noviy munosabatlar sohasi kengayib ma'nodoshlik (sinonimiya) va qarama-qarshilik (antonimiya) ma'nolaridan tashqari leksik-semantik munosabatlarning yana bir turi graduonimiya (darajalanish) tushunchasi keng ommalashmoqda. Ushbu holat sinonimiya va graduonimiyaga o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashni talab qilmoqda. Graduonimiya aniq ta'rifga ega bo'lmagan hollarda, turli darajadagi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ko'pincha turli sinonimlar tarkibiga kiritilgan. Buning boshqa qonuniy sabablari ham bor edi. Chunki, sinonimlar o'xshash ma'nolarga ega so'zlarni qamrab oladi.

Tilshunoslikda graduonimiya hodisasi sinonimiyaning tarkibi sifatida o'rganilishining birinchi bosqichi antik davrlarga, ikkinchi bosqichi XVII-XIX asrlarga to'g'ri keladi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida tilshunoslikka sistem-struktur yo'nalish g'oyalarining kirib kelishi natijasida tilning leksik-semantik munosabatlar tizimi munosabatlar sistemasi bilan boyidi. Leksik-semantik munosabatlar tizimining o'zi ikki xil munosabatlar asosida tadqiq qilina boshlandi:

1. Leksik-ma'noviy munosabatlar. 2. Leksik shakliy munosabatlar. Graduonimiya hodisasi leksik-ma'noviy munosabatlar tarkibidagi sinonimiya, giponimiya, meronimiya kabi munosabatlar bilan birgalikda turli aspektlarda tekshirila boshlandi.

Bugungi tilshunosligimizda graduonimiya termini bilan yondosh ma'noda qo'llanayotgan *gradatsiya*, *graduallik* kabi tushunchalar biroz bahstlab bo'lib ular to'liq graduonimiya hodisasini namoyon qila olmasligi tadqiqotlarda ilmiy asoslangan[2;47].

Sinonimiya va graduonimiya hodisalarining o'zaro munosabati haqida O.Bozorov o'zining fikrlarini quyidagicha keltirib o'tadi: sinonimiya tarkibidagi darajalanishga oid nozik farqlar aslida sinonimiyaning emas, balki graduonimiyaning pereferik (graduonimiyaning sinonimiya ichiga kirib borishi, tutashishi) belgilaridir[3;84]. Graduonimiya va sinonimiya hodisalarining o'zaro munosabati xususida O.Bazarov tilshunos I.G.Pavlovning fikrini quvvatlab, quyidagicha yozadi: "Graduonimiya va sinonimiya hodisalari asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadi. Zero, sinonimiya ikki va undan ortiq leksema va frazemalar sememalarining aynanligiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuvchiga tayanadi. Bundan sinonimlarda asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa, teng emasligi ma'lum bo'ladi"[4;92].

Tadqiqotchi M.Qosimova o'zining graduonimiyaga bag'ishlangan ilmiy ishi[2;35] da bir qancha olimlarning darajalanish bo'yicha fikrlarini keltirib o'tgan. Jumladan: Til birliklari aro amal qiladigan leksik-semantik munosabat turlarining har biri o'ziga xos lingvistik belgi va xususiyatlarga ega. Leksik-semantik munosabatlar tilshunoslikning muntazam ravishda tadqiq qilib kelinayotgan masalalaridan hisoblanadi. Graduonimiyaning leksik-semantik munosabatlar tizimidagi o'rni masalasi bilan jiddiy shug'ullangan olimlardan biri Eduard Sepirdir. U graduonimik qatorning mavjudligi va leksik-semantik munosabatlar tizimi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan[2;35]. Tilshunos olimalar: R.Safarova va Sh.Orifjonovalar graduonimiya hodisasining leksik sistemasidagi o'rni haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Leksik sistemada uchrovchi munosabatlarning salmoqli qismini giper-giperonimik (jins-tur) va graduonimik (darajalanish) munosabatlari tashkil etadi"[6] ushbu fikrga professor A.Sobirov quyidagicha tushuntirish beradi. "Masalan, *"qor"* so'zi *yomg'ir, do'l, jala, qirov, shudring, shabnam* so'zlari bilan birgalikda yog'in leksik-semantik guruhini tashkil qiladi. Mazkur paradigmatic qatorda yog'in giperonim (tur), *qor, yomg'ir, do'l, jala, qirov, shudring* giponim (jins) sanaladi. Graduonimiya (darajalanish)ni sinonimiya (ma'nodoshlik)dan farqlash lozim. Sinonimiya ifoda plani har xil, lekin mazmun planiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Bizningcha, bu ikki hodisani farqlashda so'zlarning denotativ hamda konnotativ asoslariga tayanib ish ko'rish lozim"[7;36]. O.Bozorov fonetik, leksik va sintaktik sathlardagi graduonimiya (darajalanish)ga atroflicha to'xtalar ekan, lug'aviy darajalanishga alohida baho beradi. Lug'aviy darajalanishning denotativ va konnotativ ma'nolarda voqelanishini, antonimiya va sinonimiyani shakllantirishga xizmat qilishini uqtirib o'tadi[2;35]. Sh.Orifjonova "graduonimik qatorlarning lug'aviy tizimda ajratish va o'rganish so'zlararo ma'noviy munosabatlarni tadqiq qilish ishiga aniqliklar kiritilishi va ularni to'ldirishi mumkin"ligini ta'kidlaydi[6;24].

Tilshunos A.Eshmuminov "O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi" nomli falsafa doktori dissertatsiyasida atoqli tilshunos olim A.Nurmonovning fikrlariga tayangan holda graduonimiya va sinonimiya hodisalarini Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asarida mukammal yoritgan. Eski o'zbek tili va forsiy tilning imkoniyatlarini

o'zaro qiyoslash evaziga turkiy tilning fors tilidan ustun jihatlarini ochib bergan, degan xulosaga keladi[8;15]. U sinonimik uyalarga diqqat qaratib, mazmunda o'xshash so'zlarning ma'no nozikligini ajratish evaziga, ularning farqlanishini mavjud holatlar asosida ko'rsatib bergan. Masalan, *“ichmoq, sipqormoq, tamshimoq* (suv ichmoq); *yig'lamoq, yig'lamsinmoq, ingramoq, singramoq, o'kurmok, yig'ichqirmoq, sintamoq, hoy-hoylab yig'lamoq* (yig'lamoq); *yasanmoq, bezanmoq* (pardoz qilmoq). Navoiy yuqoridagi fe'llarning ba'zilari umumiy, birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, lekin paradigma a'zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *ingramoq, singramoq, o'kurmok, inchkirmok, yig'lamoq* so'zlari *“yig'lamoq”* birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmaga mansub bo'lsa ham, lekin ularning har qaysisi yig'lashning xilma-xil ko'rinishlarini ifodalaydi. Bir-biridan yig'lash darajasi bilan farqlanadi. Shoir fikrini isbotlamoq uchun bu so'zlar ishtirok etgan badiiy asarlardan parchalar keltiradi[9;88-89]. Alisher Navoiy dalil uchun keltirilgan leksemalarning har qaysisini she'r ichida ishlatadi va bu so'zlarning matn tarkibidagi badiiy-estetik rolini ko'rsatib beradi. Fors tiliga aynan tarjima qilish mumkin emasligini isbotlaydi va bu bilan ham turk tilining go'zal tomonlarini ochishga harakat qiladi. Shoir sinonimik uya tarkibidagi so'zlarning o'ziga xos farqlovchi ma'nolarini topar ekan, leksema semantik tuzilishining uzviy tahliliga yaqin bo'lgan usuldan foydalanadi[9;88-89]. Alisher Navoiy o'zining badiiy ijodida, ayniqsa, sinonimlarga ko'p murojaat qilgan. Zotan, sinonimlar o'tmishda bo'lgani singari hozirgi paytda ham badiiy stilistikaning asosiy o'zagini, uning joni va qonini tashkil qiladi[10;110].

“Ma'lumki, lug'atda ma'nodosh so'zlarning ba'zan ko'proq qo'llaniladigan variantlari berilib, so'ng kamroq uchraydigan sinonimlari keltirilsa, darajalanish lug'atida, leksemalar hajmning ortishiga ko'ra, ishlatilish ko'lamiga ko'ra, tezlikning oshishiga ko'ra, hashamning ortishiga ko'ra qator belgilar asosida joylashtirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, graduonimiya hodisasining sinonimiyadan farqli tomonlarini ochishga xizmat qiladi. Sinonimlar va antonimlar asosida tuzilgan darajalanish qatori har doim ham barcha sinonimlar va antonimlarni o'z ichiga olmasligi odatiy hol, chunki ba'zi sinonimlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, okkazional, kontekstual yoki kognitiv sinonim bo'lishi mumkin. Graduonimiya va sinonimiya hodisalari tashqi tomondan bir-biriga o'xshasa-da, ular mohiyatan boshqa-boshqa hodisalardir”[4;18].

Gradonimik qator a'zolarini sinonimik qator birliklaridan ajratishning asosiy belgisi ma'no va mazmun jihatidan darajalardagi farqdir. Ammo bugungi kungacha ko'plab tillarning sinonimlari lug'atlarida ularning aralash shaklda berilganligi darajani tushunish va farqlashga to'sqinlik qilmoqda. So'zlarning graduonim lug'atlarini yaratish sinonim va gradonimlarni bir-biridan ajratishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn lug'atlarda sinonimlarni, antonimlarini, shuningdek gradonimik qatorlarni berish bu hodisalarning orasidagi farqlarni aniqlashda zamin yaratadi. Davr talabi va yoshlarning ko'proq kompyuter, internet, ular orqali ma'lumot va bilim olish imkoniyatlari yuqori bo'lgan o'zaro aloqalari ham onlayn lug'atlarni takomillashtirishga, nazariy bilimlarni yangi tadqiqotlarda amalda qo'llashga katta e'tibor berishni talab qiladi.

Muayyan belgi (hodisa) miqdorini kamaytirish yoki ko'paytirish darajalanish hodisasining mazmuni va mohiyatini aniqlashning asosiy mezonidir. Ushbu hodisa til tiplari, til oilasi va uning lahjalari o'rtasidagi munosabatlarda, umuman tilning barcha darajalarida,

ularning birliklarida, umumiy va xususiy tizimlarida, graduonimiyaning falsafiy asoslariga va u shakllanadigan miqyosga qarab ifodalanadi.

Graduonimik munosabatlarga muqobil lingvistik yondashuvni ishlab chiqish uzoq tarixga ega. Faylasuflar narsalar mantig'i haqida gapirganda, bu hodisalarni ham baholashni maqsad qilgan. Tadqiqotimizning oldingi qismida aytib o'tilganidek, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul-lug'atayn" asarida "yig'lamoq" fe'li misolida ma'nolari darajalanuvchi so'zlar qatorini keltiradi. L.Bolinjer ingliz tili materiali asosida bu hodisani (u gradatsiya deb nomlagan) tadqiq etib, uning to'rt kategoriyasini ajratadi[12;324]. Shuningdek, ayrim olimlar ravishlar misolida gradatsiya shkalasi tuzilishining assimetriyasini ko'rsatishgan[13], ba'zilar gradatsiya shkalasida belgining eng yuqori cho'qqisini berishgan[14], ayrimlari esa intensivliklarning tasniflarida belgi rivojlanishi (o'sishi yoki pasayishi)ning darajasini ko'rsatuvchi belgilar shkalasini ko'rsatishadi[15]. *I.O.C.Menahonov*ning fikricha, hamma so'zlar cheksiz gradatsion qator hosil qiluvchi sinonimlar bo'la oladi[16]. Binobarin, leksika va fonologiyadagi gradual munosabatlar yuzasidan *N.D.Arutyunova*, *N.A.Yeskova*, *C.O.Karsevskiy*, *N.S.Trubesskiy*, *T.Givon* kabi tilshunos olimlar o'z fikrlarini bildirishgan.

Tadqiqotchi M.Otaboyeva falsafa doktori dissertatsiyasi[17;23] da darajalanish hodisasi maxsus qatorlarda namoyon bo'lib, darajalanish qatorlarining a'zosi asosan uch va undan ortiq so'zlarda yaqqol namoyon bo'lishini aytib o'tadi. Ko'p a'zoli qatorlarda umumiy belgi miqdoridagi o'zgarishlar yoki sifatning bosqichlanishini ko'proq namoyon etish imkoniyati mavjud. Darajalanish qatoridagi har bir graduonimning bir-biriga munosabati turlicha bo'ladi. Bu graduonimik munosabatlar miqdor, sifat, tezlik, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'zgarish kabilarda aks etib, ozdan ko'pga, ko'pdan ozga, o'rtachadan ko'pga, o'rtachadan ozga, *oz→me'yoriy→ko'p, ko'p→me'yoriy→oz* ko'rinishidagi holatlarda namoyon bo'ladi. Darajalanish qatorining asosiy belgisi miqdor yoki sifatning tadrijiy o'sib yoki kamayib borishini aks ettirgan darajalanmalar (darajalanmalar<sup>1</sup>) yoki graduonimlar jamlanmasidan iboratdir (*boshlamoq → davom ettirmoq → tugatmoq* kabi).

Sinonimiya va graduonimiya — lingvistik tushunchalar bo'lib, ular so'zlar orasidagi ma'noviy va grammatik aloqalarni ifodalaydi. Ularning o'xshash va farqli tomonlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

*Sinonimiya* — bu biror tilning so'zlarida bir-biriga yaqin yoki bir xil ma'no ifodalovchi so'zlar o'rtasidagi munosabatni anglatadi. Sinonimlar o'zaro ma'no jihatidan bir-biriga yaqindir, lekin ba'zi kichik farqlar mavjudligi uchrab turadi.

*Graduonimiya*: Graduonimiya (yoki graduatsiya) esa — so'zlarning ma'nosidagi darajalar, daraja farqlari (*tuzuk — durust — yaxshi — ajoyib — ajib*) yoki sifatlarning o'zaro farqlanishini bildiradi. Bu so'zlar odatda sifatning turli darajalarini yoki intensivlikni ifodalaydi. Masalan, "*kambag'al — qashshoq — bechora — faqir — yo'qsil — gado — bechorahol — miskin*" va so'zlari darajalanishni ifodalovchi so'zlardir.

*O'xshash tomonlari*: Ikkala tushuncha ham so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga bog'langanligini bildiradi. Sinonimlar bir xil ma'noni turlicha ifodalaydi, graduonimlar esa bir xil sifatning turli darajalarini ifodalaydi.

*So'zlar o'rtasidagi bog'lanish*: Ikkala holatda ham so'zlar o'rtasida bog'lanish mavjud — sinonimlarda ma'no jihatidan o'xshashlik, graduonimiyada esa darajaviy o'zgarish mavjud.

*Muayyan kontekstda ishlatilishi:* Sinonimlar va graduonimlar tilshunoslikda va nutqda bir xil ma'no yoki daraja ifodalayotgan kontekstga qarab ishlatiladi.

**Ma'no farqlari:** Sinonimlar ma'nosini o'zaro almashtirish mumkin, masalan, *go'zal* va *chiroyli* so'zlari o'rtasida deyarli ma'no farqi yo'q, ular bir xil ma'noni bildiradi. Graduonimlar esa ma'no jihatidan bir-biriga teng bo'lmagan so'zlar bo'lib, ular bir xil sifatni turli darajalarda ifodalaydi. Masalan, *iliq-issiq-jazirama* so'zlari o'rtasida farq mavjud, chunki ular darajalar orasidagi farqni bildiradi.

Sinonimlar o'rtasidagi farqlar faqat ma'no va ba'zi grammatik xususiyatlarga bog'liq. Ular o'xshash ma'noga ega, lekin ishlatishda kontekstga qarab farqlanadi.

Graduonimlar o'zaro darajaviy farqlarni bildiradi, ya'ni bir-birini to'ldiradi. Masalan, *yaxshi* – *a'lo* – *zo'r* bu so'zlar bir xil sifatning turli darajalarini bildiradi.

Sinonimlar sifatlarni yoki holatlarni bir xil ma'noda bildiradi, lekin ular ko'pincha turli kontekstlarda ishlatiladi.

Graduonimlar sifatlarning turli darajalarini ifodalash uchun ishlatiladi, va ular orasidagi farqlar sifatning intensivligi yoki kuchi bilan bog'liq bo'ladi.

Sinonimiya so'zlar o'rtasidagi ma'no o'xshashligini ifodalaydi, graduonimiya esa bir xil sifat yoki holatning turli darajalarini bildiradi. Sinonimlar bir xil ma'no uchun turli so'zlarni ishlatadi, graduonimlar esa biror sifatni darajalar orqali ifodalaydi.

Leksikografiyaga graduonimiyani tatbiq qilishning yana ham bir necha sabablarini keltirish mumkin. Masalan:

**Grammatik tizimni tushunish:** Graduonimiya tilning grammatik tizimini chuqurroq tushunishda muhimdir. Masalan, sifatlarning **gradatsiyasi** (darajalari) — sifatlarning yuqori, o'rta va past darajalarini aniqlash (masalan, “*yaxshi*”, “*yaxshiroq*”, “*juda yaxshi*”) — tilning morfologik tizimi qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Bu tilshunoslarga grammatik qoidalar va ularning ishlash mexanizmlarini o'rganishda qo'l keladi.

**Semantik o'zgarishlarni aniqlash:** So'zlarning semantik ma'nosi va uning turli kontekstlardagi o'zgarishlarini tahlil qilishda graduonimiya juda muhimdir. Masalan, so'zlarning ma'nosi bir xil bo'lishi mumkin, lekin ularning kuchi yoki intensivligi turli darajalarda bo'lishi mumkin: “*salqin*” → “*muzdek salqin*”, “*yaxshi*” → “*juda yaxshi*”. Bunday o'zgarishlar so'zlarning semantik darajalanishi orqali ifodalanadi.

**Sinonimlar va antonimlarni o'rganish:** Graduonimiya sinonimlar va antonimlarni (qarama-qarshi ma'no tushunchalari) o'rganishda ham zarur bo'ladi. So'zlarning bir-biriga o'xshash yoki qarama-qarshi ma'nolarini tahlil qilishda gradatsiya yordamida so'zlarning kuchi va farqlarini aniqlash mumkin. Masalan, *qattiq* → *o'rta* → *yumshoq* so'zlari o'rtasidagi farqni darajalanish yordamida aniqlash mumkin.

**Metafora va stilistik tahlil:** Graduonimiya tilshunoslarga tilning stilistik o'zgarishlarini, jumladan, metaforalarning qanday ishlashini o'rganishda yordam beradi. Masalan, *yuragi muzlagan*- *yuragi toshdek*- *yuragi yo'q* kabi iboralarda so'zlar ma'nosi kuchaytirilgan yoki o'zgartirilgan bo'ladi. Darajalanish bu turdagi semantik o'zgarishlarni aniqlashda muhim vositadir.

**Fonologik gradatsiya:** Fonetik yoki fonologik darajadagi gradatsiya (masalan, tovushlarning kuchayishi yoki kamayishi) ham tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Fonologik gradatsiya, masalan, intonatsiya va aksentdagi o'zgarishlar, so'zning talaffuziga ta'sir qiladi va tilning fonetik tuzilishini tushunishga yordam beradi.

**Ijtimoiy va pragmatik kontekstlar:** Graduonimiya soʻzlarning turli ijtimoiy va pragmatik kontekstlarda qanday ishlashini tushunishda ham qoʻllaniladi. Masalan, biror soʻz ijtimoiy maqomga qarab turlicha maʼno yoki taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bu soʻzlarning darajalanishi orqali ifodalanadi, yaʼni ular turli darajalar boʻyicha farq qiladi: *ruxsat etilgan, yoʻl qoʻyilgan, maʼqullangan*.

**Matn va muloqotni tahlil qilish:** Darajalanish soʻzlarning muloqotdagi oʻzgarishini, shuningdek, matnlardagi semantik va grammatik qatlamlarni oʻrganishda yordam beradi. Matndagi soʻzlar va iboralar oʻrtasidagi farqlarni aniqlashda gradatsiya vositasi sifatida foydalanish, matnning toʻliq maʼnosini tushunish imkonini yaratadi.

Graduonimiya tilshunoslikda soʻz va iboralar oʻrtasidagi darajaviy farqlarni, ularning semantik va grammatik oʻzgarishini oʻrganish uchun muhim vositadir. Soʻzlarning intensivligi, maʼno va shakl darajalari, sinonim va antonimlar, metaforalar va pragmatik kontekstlar kabi aspektlarni tahlil qilishda graduonimiya tilni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, grammatika, semantika, pragmatika va stilistika sohalarida tilning toʻliq va mukammal tahlilini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida soʻzlararo maʼnoviy munosabatlarning yana bir turi boʻlmish lugʻaviy graduonimiya hodisasi haqidagi qarashlarning shakllanib borayotganligi oʻzbek tili leksikologiya sathida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar borligidan dalolat beradi[6]. Bu borada graduonimiya hodisasining anʼanaviy sinonimiya xususidagi qarashlar bilan oʻzaro munosabati masalasiga oydinlik kiritilishi soʻz shakli va ularning maʼnoviy munosabatlari doirasida bajarilgan yangi bir tadqiqotni yuzaga chiqaradi. Jumladan, lugʻaviy maʼno guruhlaridan biri boʻlgan sinonimik soʻzlar orasidagi bunday munosabat maʼno jihatdan bir xil boʻlgan soʻzlar belgisining oz-koʻplik darajasiga koʻra farqlanishiga asoslanadi. Soʻzlarning ana shu munosabatlarini hisobga olib guruhlash, yaʼni soʻzlarning (maʼno) miqdoriy koʻrsatkichiga koʻra darajalanishini asoslovchi guruhlangan soʻzlar qatorini — graduonimik lugʻaviy qatorni tashkil etadi. Bunday guruhlardagi har bir soʻzda ayni bir belgining turli xil darajasi aks etadi. Masalan, *odam – kishi – inson – siymo – daho, nam tortmoq – hoʻl boʻlmoq – ivimoq – boʻkmoq; sabo – shabada – yel – shamol – boʻron – toʻzon – quyun* kabi.

Soʻz maʼnosidagi darajalanuvchi belgi turli soʻzlar guruhida (paradigmalarda) xilma-xil va rang-barang boʻlishi mumkin. Ushbu xilma-xillik hamda rang-baranglik bir guruhdagi soʻzlar (paradigmalar)da maʼlum bir belgining ozlik yoki koʻplik kabi sifati bilan farqlanadi. Masalan, *sabo – shabada – yel – shamol – boʻron – toʻzon – quyun* kabi qatorni oladigan boʻlsak, bunda havo oqimining kuchayib borish darajasining ortib borishi kuzatiladi. Ayni qatordagi leksemalar shu farqliliklarga asoslanib, soʻzlararo maʼnoviy munosabatning bir turi boʻlgan graduonimiya hodisasini shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, graduonimik tadqiqotlarning sinonimik qarashlarga taʼsiri kuzatilar ekan, soʻzlararo maʼnoviy munosabatlarning aynanliklardan farqliliklar tomon oʻtib borish holatlarining mavjud boʻlishi tabiiydir.

Aytish lozimki, graduonimik qator maʼlum belgining kamayishi yoki koʻpayishiga asoslanganligi uchun unga kiruvchi har bir aʼzo (graduonim) ayni vaqtda oʻzining muayyan oʻrniga ega boʻladi. Masalan, *hujra → kulba → uy → qasr → koshona → saroy* graduonimik tizimida oʻrin-joyning hajmiga nisbatan katta-kichikligi hamda tashqi koʻrinish belgilari jihati bilan ham (kulba uyga, uy qasrga, qasr koshonaga, koshona esa saroyga nisbatan koʻrkamligi bilan ham) farqlanishini kuzatish mumkin.

Xullas, graduonimik qatorning eng muhim belgisi, ya'ni xususiyati shundaki, bu qatorda aynanlikka nisbatan farqlilik bo'rtib turadi va farqlilik omilining yetakchiligida (bir umumiy sema belgisi miqdorining ozaytirilishi yoki ko'paytirilishi natijasida) yangidan yangi leksemalar (graduonimlar) hosil qilinadi.

*Lahza — on — soniya — daqiqa — soat — kun — sutka — hafta — oy — yil -asr — era* kabi leksemalarning denotatlari har xil, ular *vaqt miqdorining ortib borishiga ko'ra* darajalanadi va mana shu keskin farq graduonimiyani sinonimiyadan ajratib turadi.

Sinonimik va graduonimik paradigmalar ba'zi hollarda bir nuqtada kesishib, o'zaro to'qnashishi mumkin bo'lsa-da, ular mohiyat e'tibori bilan bir hodisa emas. Sinonimiya, avvalo, so'zning ma'no tuzilmasidagi ifoda va vazifa semalaridagi tafovutlarga asoslanadi. Boshqa tomondan, graduonimik paradigmalarni farqlash so'zlarning nomlash (denotativ) semalarida mujassam bo'lgan miqdoriy daraja va sifat farqlari semantikasi bilan bog'liqdir. Shu boisdan, graduonimik qator tarkibidagi qo'shni birliklar ba'zan sinonimik munosabatlarga kirishishi mumkin. Bu yerda ta'kidlash joizki, sinonimiya va graduonimiya o'rtasidagi tafovut ularning asosiy semantik tayanchlarida yaqqol ko'rinadi: sinonimlar ko'proq funksional-ekspressiv yoki uslubiy farqlarga ega bo'lsa, graduonimik birliklar esa ma'no intensivligi, ya'ni darajalanish masalan, *chang — to'zon — dovul — to'fon* asosida bir-biridan ajraladi. Shu sababli, ular o'zaro o'xshashlik ko'rsatgan hollarda ham, bu faqat yuzaki va shartli o'xshashlik hisoblanadi.

Leksikografiyaga umuman tilshunoslikka darajalanish qonuniyatini tatbiq etish zamonaviy tilshunoslikning muhim talablaridan biridir. Bu tamoyil yordamida so'zlarning ma'no, uslubiy rang, emotsional tus yoki qo'llanish doirasiga ko'ra tizimli tartibda joylashtirilishi ta'minlanadi. Ayniqsa sinonimlar, antonimlar, va metaforik ifodalarni izohlashda darajaviy yondashuv so'zlar orasidagi nozik semantik farqlarni ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa leksikografik manbalarni yanada aniq, funksional va didaktik jihatdan boyitadi. Shunday ekan, zamonaviy lug'atlar tuzishda darajalanish tamoyilining qo'llanilishi ilmiy asoslangan, foydalanuvchi uchun qulay va tilning stilistik boyliklarini chuqur aks ettiruvchi yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar/Литературы/References:

1. F.Saidova. Lug'atlarda sinonim leksemalar talqini. Filol. fan. fals. dok. diss. – Guliston, 2023. – 137 b.
2. Qosimova M. O'zbek tilidagi fe'llarda semantik graduonimiya va uning leksikografik ahamiyati – Filol.fan.fals.dok. ...diss – Termiz, 2023 – 138 b.
3. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 270 б.
4. Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларида лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – 210 б.
5. Сепир Э. Градуирование. НЗЛ. Выпуск XVI. Лингвистическая прагматика. – М.:1985. – 504 с
6. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 113 б.
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 36.
8. Эшмуинов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. фалс.док. ... дисс. – Қарши, 2022. – 119 б.
9. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б.88-89.
10. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. –110 б.

11. Bolinger D. Degree words. – Paris: Lions, 1972. – 324 p.
12. Апресян Ю.Д. Лексикическая семантика: синонимическая средства языка. – М., 1995. – 472 с.
13. Червенкова И.В. О показателях меры признака (на материале современного русского языка) // Годишник на Софийския университет, Факультет по славянски филологии, том 68 (1). – София, 1975. – С. 7-110.
14. Григоренко Т.Н. Семантические типы интенсификаторов (на материале современного языка). Лексико-семантическая структура в языке и речевой деятельности. – М, 1983. – С. 62-79.
15. Степанов Ю.С. Антонимо-синонимическая группы слов. Основы общего языкознания. – М.: Провещение, 1975. – 270 с.
16. Отабоева М. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2022. – 172 б.



Received: 16 June 2025

Accepted: 5 July 2025

Published: 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ETYMOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF THE SUFFIX -ISM IN UZBEK PHILOLOGICAL TERMINOLOGY**

**Qodirova Barno Ibragimovna**

Associate Professor, Department of Uzbek Language and Literature

Sharof Rashidov Samarkand State University

E-mail: [kodirova.b86@gmail.com](mailto:kodirova.b86@gmail.com)

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the etymological origins, morphological formation, linguistic function, and semantic aspects of the -ism suffix in Uzbek philological terminology. It traces the evolutionary development of the affix from Ancient Greek -ismos, Latin -ismus, and French -isme, through Russian and eventually into the Uzbek language. Based on Russian and English sources, the study explains how the suffix is used to form terms derived from noun, adjective, and occasionally verb roots. The adaptation of borrowed scientific, literary, philosophical, and stylistic terms into Uzbek via transliteration is also explored. A statistical analysis identifies 47 terms with the -ism suffix in the fields of literary studies and linguistics. Their origins (Latin, Greek, French, Russian, etc.) and semantic groupings (literary movements, linguistic phenomena, stylistic categories) are presented with tables and diagrams.

**Keywords:** philological terminology, etymology, morphology, transliteration, literary studies, linguistics, borrowed terms, Latin, Greek, terminological system, semantic analysis, linguistic model.

## **O'ZBEK FILOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA -IZM QO'SHIMCHASINING ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI**

**Qodirova Barno Ibragimovna**

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “-izm” qo'shimchasining o'zbek filologik terminologiyasidagi etimologik manbalari, morfologik shakllanishi, lingvistik funksiyasi hamda semantik jihatlari keng ko'lamda tahlil qilingan. “-izm” affiksining qadimgi yunoncha “-ismos”, lotincha “-ismus”, fransuzcha “-isme” shakllari orqali boshqa tillarga, jumladan rus va undan o'zbek tiliga o'tgan evolyutsion yo'li izohlangan. Maqolada rus va ingliz manbalariga tayangan holda ushbu qo'shimchaning ot, sifat va ba'zan fe'l asosidan yasalgan terminlarni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, transliteratsiya yo'li orqali o'zbek tiliga o'zlashgan ilmiy, adabiy, falsafiy va stilistik terminlarning shakl va mazmun jihatidan milliy tilga moslashganligi ko'rsatiladi. Statistik tahlil asosida adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalariga oid jami 47 ta “-izm” qo'shimchali terminlar aniqlanib, ularning kelib chiqish manbalari (lotin, yunon, fransuz, rus va b.), semantik guruhlari (adabiy oqimlar, til hodisalari, stilistik birliklar) bo'yicha taqsimoti jadval va grafiklar bilan ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** filologik terminologiya, etimologiya, morfologiya, transliteratsiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, o'zlashma terminlar, lotin tili, yunon tili, terminologik tizim, semantik tahlil, lingvistik model.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N22>

Turli tillar orqali o'zbek tiliga kirib kelgan ko'plab ilmiy, falsafiy, siyosiy va madaniy terminlar orasida “-izm” qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur qo'shimchaning etimologik xususiyatlariga nazar tashlasak, uning qaysi tildan kelib chiqqanligi va lingvistik jihatlari anglashiladi.

Rus tilshunoslaridan Y.V.Grudeva, I.A.Ivanovalar -izm qo'shimchasi kelib chiqishi jihatidan lotincha o'zlashma ekanligini ta'kidlashadi va shunday izohlashadi: "U shunday so'z yasovchi elementlarga mansubki, qabul qiluvchi til (bu yerda rus tili) tarkibida qayta ajralib chiqib, hatto produktiv (yangi so'zlar yasashga yaroqli) bo'lib qoladi [2, 72].

T.F.Yefremovanning "Yangi izohli so'z yasash lug'ati"da qayd etilishicha, -izm qo'shimchasi ishtirok etgan otlar nafaqat sifat asosidan, balki ot asosidan va (kam hollarda) fe'l asosidan ham yasalgan bo'lishi mumkin. Mazkur lug'atda -izm qo'shimchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Словообразовательная единица, образующая: имена существительные мужского рода, которые представляют собою названия общественно-политических, научных или эстетических учений, направлений, систем, а также качеств, склонностей, действий или состояний, связанных с тем, что названо мотивирующим именем существительным, редко – глаголом (артистизм, байронизм, гамлетизм, героизм, дарвинизм, дилетантизм и т.п.); имена существительные, которые являются названиями элементов языка, речи, какого-нибудь произведения, характеризующихся признаком, названным мотивирующим именем прилагательным (архаизм, вульгаризм, диалектизм, латинизм, окказионализм, пушкинизм, украинизм и т.п.)" [3]. Ya'ni: "-izm – so'z yasovchi birlik bo'lib, quyidagilarni hosil qiladi: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy yoki estetik oqimlar, yo'nalishlar, tizimlar, shuningdek, xususiyatlar, moyilliklar, harakat yoki holatlarni bildiruvchi erkak jinsdagi otlar (motivlovchi ot yoki kamdan-kam hollarda fe'l asosida): artistizm, bayronizm, gamletizm, geroizm, darvinizm, diletantizm va h.k.; shuningdek, til, nutq yoki har qanday asarning belgilarini ifodalovchi, motivlovchi sifat asosidan yasalgan otlar: arxaizm, vulgarizm, dialektizm, latinizm, okkazionalizm, pushkinizm, ukrainizm va b. k".

Ingliz manbalarida esa bu haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: "-ism qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, amaliyot, tizim, ta'limot va hokazo ma'nolarini anglatadi. Fransuz tilidagi -isme, lotincha -isma, -ismus (shuningdek, italyan va ispan tillarida -ismo, golland va nemis tillarida -ismus) shakllaridan olingan. Bu esa o'z navbatida yunon tilidagi -ismos qo'shimchasidan kelib chiqqan bo'lib, biror narsa bilan shug'ullanish yoki uni o'rganish, uni targ'ib qilish ma'nolarini bildiradi. U odatda -izein (ya'ni "-izatsiya qilish") fe'l yasovchi qo'shimchadan olingan ot yasovchi shakldir" [6].

Mazkur qo'shimcha ishtirok etgan so'zlar turli tillarda mavjud bo'lib, buni quyidagicha izohlash mumkin:

Lotin tilining dastlabki tarqalish hududi nisbatan tor bo'lib, markazida Rim shahri joylashgan Latsium viloyati bilan chegaralangan. Biroq Rim davlati o'z siyosiy va harbiy kuchi bilan asta-sekin butun Apennin yarim orolini egalladi va o'z hududini Italiya chegaralaridan tashqariga, ya'ni Ispaniya, Galliya, Dakiya kabi mintaqalarga ham kengaytirdi. Yevropa hududida Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan xalqlar orasida romanlashtirish jarayoni boshlangan. Bu jarayon, ya'ni xalq tilida qo'llaniladigan lotin tilining mahalliy sharoitda shakllanishi, milodiy V asrga – Rim imperiyasining inqirozga uchrashi davriga to'g'ri kelib, lotin adabiy tili va ta'lim tizimining zaiflashuvi fonida jadallashgan.

Bosib olingan yerlarda xalqlar o'z ona tillarini darhol tark etmagan, balki ma'lum vaqt davomida o'z tillari bilan birga Rim hukmronlarining tilidan ham foydalanganlar. Lotin tilining o'zlashtirilishi, asosan, amaliy muloqot orqali – og'zaki nutq va kundalik til muhitida amalga oshgan. Shu tariqa, lotin tili yangi xalqlar tomonidan o'zlashtirilar ekan, lotin tili ularning ona

tillarining talaffuz, morfologik va sintaktik xususiyatlariga muvofiqlashtirilgan holda rivojlandi. Natijada, lotin tili o'zining sintetik (ya'ni so'z oxiri orqali grammatik munosabatni ifodalovchi) tuzilmasidan asta-sekin analitik (ya'ni yordamchi so'zlar va tartib asosida quriluvchi) tuzilishga o'ta boshladi. Bu holat roman tillarining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi [1].

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, yuqoridagi manbalardan ma'lum bo'ladiki, -izm (-ism) qo'shimchasi dunyo tillari orasida eng yirik va keng tarqalgan til oilasi bo'lmish hind-yevropa tillar oilasining roman tillari guruhiga kiruvchi fransuz, italyan, ispan, rumin tillariga borib taqaladi. Bu tillarning asosi esa lotin tili hisoblanadi.

-izm qo'shimchasi aslida qadimgi yunon tilidagi "-ismos", undan lotincha "-ismus" va fransuzcha "-isme" shakllari orqali rus tiliga, undan esa o'zbek tiliga o'tgan. O'zbek tilida ushbu modelga mos holda yuzlab so'zlar mavjud bo'lib, ularning katta qismi sovet davrida yoki undan keyingi modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tilga kirib kelgan. Masalan, kommunizm, sotsializm, realizm, romantizm va boshqalar. Bu atamalar o'zbek adabiy tilida faol qo'llanadigan terminlarga aylangan bo'lib, ularning ko'pchiligi o'zbekcha muqobilga ega emas yoki ularning o'zbekcha tarjimai kam ishlatiladi. Shuningdek, o'zbek tilida ham bu model asosida kalka (to'g'ridan-to'g'ri tarjima) yoki o'zlashma yo'li bilan yangi so'zlar yaratilgan, masalan, millatchilik (natsionalizm), hukmronlik (dominantizm), dunyoviylik (sekulyarizm). Ba'zi manbalarda ayrim yasalmalarning ma'nosi sifat asosli so'z birikmalari bilan sinonim bo'lishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, *geosentrik sistema* – *geosentrizm* kabi.

Ko'pgina sohalarida mavjud bo'lganidek, filologiya sohasida ham terminlarning morfologik usulda hosil bo'lishida -izm qo'shimchasi salmoqli o'rinni egallaydi. Masalan, filologiyaning sohalaridan biri bo'lmish adabiyotshunoslik sohasiga oid terminlarga quyidagilarni keltirish mumkin: *Avangardizm* (fransuzcha), *akmeizm* (grek-yunoncha), *alogizm* (grek-yunoncha), *anaxronizm* (grek-yunoncha), *arxaizm* (grek-yunoncha), *varvarizm* (lotincha), *vulgarizm* (lotincha), *vulgar sotsiologizm* (lotincha), *gongorizm* (ispancha), *dadaizm* (fransuzcha), *dialektizm* (grek-yunoncha), *dramatizm* (grek-yunoncha), *impressionizm* (fransuzcha), *klassitsizm* (lotincha), *komparativizm* (lotincha), *lakonizm* (grek-yunoncha), *modernizm* (fransuzcha), *naturalizm* (lotincha), *neostrukturalizm* (inglizcha + lotincha), *postmodernizm* (fransuzcha), *poststrukturalizm* (fransuzcha+lotincha), *prozaizm* (lotincha), *realizm* (lotincha), *sentimentalism* (fransuzcha), *simvolizm* (grek-yunoncha), *strukturalizm* (lotincha), *syurrealizm* (fransuzcha), *formalizm* (lotincha), *futurizm* (lotincha), *ekspressionizm* (fransuzcha) [4]. 2013-yilda nashr etilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"ga asosan o'zlashma 443 ta termindan 30 tasini -izm qo'shimchasi bilan yasalgan terminlar tashkil etadi.

Tilshunoslik sohasiga oid -izm qo'shimchasi ishtirok etgan terminlar quyidagilar: *analitizm* (grek-yunoncha), *argotizm* (fransuzcha), *bilingvizm* (lotincha), *vokalizm* (lotincha), *gallistizm* (lotincha), *germanizm* (lotincha), *grestizm* (grek-yunoncha), *dialektizm* (grek-yunoncha), *istorizm* (ruscha), *kanselyarizm* (lotincha), *monosillabizm* (grek-yunoncha), *okkazonalizm* (lotincha), *parallelizm* (grek-yunoncha), *professionalizm* (lotincha), *purizm* (lotincha), *singarmonizm* (grek-yunoncha), *evfemizm* (yunoncha) [5].

Mazkur terminlar etimologiyasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, lotin tilidan o'zlashgan terminlarning ustunligini ko'rishimiz mumkin. Buni quyida statistik tahlil orqali berishga harakat qilamiz.

Filologiya sohasiga oid -izm qo'shimchasi ishtirok etgan terminlarning umumiy soni taxminan 47 tani tashkil qilib, etimologik (kelib chiqish) statistikasi quyidagi jadvalda ko'rsatib berilgan:

| <b>Tili</b>                                       | <b>Terminlar soni</b> | <b>Foiz (%)</b> |
|---------------------------------------------------|-----------------------|-----------------|
| Lotincha                                          | 17 ta                 | 36.2%           |
| Grek-yunoncha                                     | 13 ta                 | 27.7%           |
| Fransuzcha                                        | 8 ta                  | 17.0%           |
| Ruscha                                            | 1 ta                  | 2.1%            |
| Ispancha                                          | 1 ta                  | 2.1%            |
| Inglizcha                                         | 1 ta                  | 2.1%            |
| Aralash (fransuzcha+lotincha, inglizcha+lotincha) | 2 ta                  | 4.3%            |
| Boshqa                                            | 4 ta                  | 8.5%            |

Bu terminlarni semantik jihatdan quyidagicha tahlilini berish mumkin:

|                                        |                                                 |
|----------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Adabiy oqimlar va estetik yo'nalishlar | 20 ta (realizm, futurizm, dadaizm...)           |
| Til tizimi bilan bog'liq hodisalar     | 10 ta (analitizm, vokalizm, singarmonizm...)    |
| Sotsiologik/psixologik qarashlar       | 5 ta (sentimentalizm, purizm...)                |
| Fonetik/morfologik birliklarga oid     | 5 ta (monosillabizm, vokalizm...)               |
| Stilistik birliklarga oid              | 4 ta (kanselyarizm, evfemizm, okkazionalizm...) |

Ma'lumki, transliteratsiya usuli orqali terminlar hosil bo'lishi – bu lingvistik hodisa bo'lib, xorijiy (ko'pincha lotincha, yunoncha, inglizcha, fransuzcha, ruscha) atamalarini o'z til fonetikasiga moslashtirib yozish jarayonini anglatadi. Bu usul tarjima emas, balki shaklni asosan saqlagan holda yozuvni almashtirish jarayonidir. Ushbu usul orqali termin semantik jihatdan tushunarli bo'lib qoladi, ammo milliy tilning leksik-fonetik normalariga moslashtiriladi. Yuqorida tahlilga tortilgan filologik terminlar ham transliteratsiya usulida o'zlashgan bo'lib, kirill yoki lotin alifbosiga moslashtirilgan hamda terminlarning tovush tarkibi milliy talaffuzga yaqinlashtirilgan.

Shunday qilib, yuqorida tilga olingan filologik terminlar ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek tilida filologiya sohasiga oid -izm so'z yasovchi qo'shimchasiga ega bo'lgan taxminan 47 ta leksik birlik mavjud. Bu terminlar mustaqillikkacha asosan rus tili orqali kirib kelgan. -izm qo'shimchasi adabiy-estetik oqimlar, til hodisalari va stilistik uslublarni ifodalovchi terminologik vosita sifatida faol ishlatiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Богородицкий В.А. Введение в изучение современных романских и германских языков. Издательство литературы на иностранных языках. – Москва, 1959. – С. 11.
2. Грудева Е.В., Иванова И.А. Существительные с формантом -izm как показатель ключевых тем эпохи (на материале газетного подкорпуса нкря) / Вестник Череповецкого государственного университета 2013. № 3. Т. 1. – С. 72.
3. Ефремова, Т.Ф. Новый толково-словообразовательный словарь русского языка / Т.Ф. Ефремова. – М., 2000.
4. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.

- 
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
  6. <https://www.etymonline.com/word/-ism>

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **GENRE FEATURES OF THE POEM IN CHILDREN'S LITERATURE**

**Tursinbayev Ilkham Pulatbay ugli**

Berdak Karakalpak State University, Nukus

E-mail: [tursinbaevilham@gmail.com](mailto:tursinbaevilham@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the emergence, stages of development, and theoretical foundations of the poem genre in children's literature are highlighted. Based on the history of the formation of the poem in adult literature, its features, functional and aesthetic tasks in children's literature are analyzed. It also reveals the current state of the genre, current problems, and gaps in scientific research. The structural similarities and differences of the poem in children's and adult literature were identified, and the approaches to the poem in the main scientific sources of world.

**Keywords:** genre, scientific research, literary studies, poetics, research.

## **BOLALAR ADABIYOTIDA POEMANING JANRIY XUSUSIYATLARI**

**Tursinbaev Ilham Po'latbay o'g'li**

Mustaqil izlanuvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bolalar adabiyotida poema janrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslari yoritilgan. Poemaning kattalar adabiyotidagi shakllanish tarixiga tayangan holda, uning bolalar adabiyotidagi o'ziga xos xususiyatlari, funksional va estetik vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, janrning hozirgi holati, dolzarb muammolari va ilmiy tadqiqotlardagi bo'shliqlar ochib beriladi. Bolalar va kattalar adabiyotidagi poemalarning strukturaviy o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi, jahon va milliy adabiyotshunoslikdagi asosiy ilmiy manbalardagi poema haqidagi yondashuvlarni umumlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** janr, ilmiy izlanish, adabiyotshunoslik, poetika, tadqiqot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N23>

**Kirish.** Bolalar adabiyotida poema janri alohida poetik janr sifatida shakllanib, murakkab adabiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ushbu janr dastlab kattalar adabiyotida yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik bolalar adabiyoti tarkibida tarbiyaviy va estetik vazifalarni bajaruvchi muhim janrga aylangan. Jahon va milliy adabiyotshunoslikda poema janrining epik xususiyatlari, lirizm bilan uyg'unlashuvi, poetik tuzilishi haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Lekin bolalar adabiyotida ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari va psixologik-ma'naviy ta'siri haqida ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Mazkur maqola bolalar adabiyotidagi poema janrining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, uning adabiy-funksional ahamiyatini yoritish va mavjud ilmiy bo'shliqlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Bolalar adabiyotida poema janrining paydo bo'lishi va janr sifatida rivojlanish hodisasini umuman adabiy poema janrining paydo bo'lish asoslari bilan taqqoslab o'rgangan ma'qul. Chunki, poema janri bolalar adabiyotidan oldin kattalar adabiyotida paydo bo'ldi.

**Usullar.** Tadqiqotda– poema janrining nazariy asoslari, janriy ko‘rinishlari, lirik-epik tabiatini o‘rganishda adabiy-nazariy tahlil usulidan, bolalar va kattalar adabiyotidagi poemalarning strukturaviy o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashda qiyosiy tahlil usulidan, jahon va milliy adabiyotshunoslikdagi asosiy ilmiy manbalar, shuningdek rus va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida poema haqidagi yondashuvlarni ko‘rib chiqishda tadqiqotlar tahlili usulidan foydalanildi.

Poemalar poeziyaning keng qamrovli epik sifatidagi janri bo‘lganligi uchun murakkab mazmunli-shakliy tabiatga ega. Poemalarning janr xususiyati kattalar adabiyoti nuqtai nazaridan allaqachon o‘zining nazariy tahliliga ega bo‘lib, jahon adabiyotshunoslik ilmida ham, milliy adabiyotshunoslik ilmida ham keng ko‘lamli tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda poema qo‘shma janr sifatida har xil qirrasidan o‘rganildi. Adabiyotshunoslik tadqiqotlarida poema — epik janrning bir turi sifatida baholanib, insonlar taqdirini, davr haqiqatini, ma‘lum bir voqealarni she‘r satrlari bilan yetkazib beriladigan, ma‘lum darajada syujetga ega, qahramonlarning muloqoti, konfliktlari, ichki kechinmalari, xarakteri, xatti-harakatlari tasvirlanadigan poetik asar deb tushuntiriladi. Poema janrining tabiati, o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, har bir xalqlardagi rivojlanish yo‘nalishlari va bosqichlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Poemalar Aristoteldan boshlab mashhur nazariyotchilar V.G. Belinskiy, V.M. Jirmunskiy, L.I. Timofeev, G.N. Pospelov, G.L. Abramovich va boshqa olimlarning adabiyot nazariyasiga oid asarlarida, shuningdek, har bir taspektida maxsus tarzda rus adabiyotshunoslik ilmida N.V. Zaxaova, Yu.A. Meshkov, V.Sh. Anisimov, T.S. Volkova, V.P. Prishpa, V.A. Redkin, J.K. Shorova, M.N. Zubkov, E.V. Titova, L.R. Nadirshina, R.S. Panesh, qozoq adabiyotshunoslik ilmida K.K. Alpibayev, A.Narimbetov, O‘zbek adabiyotshunosligida N.Rahimjonov, S.Turabekova, V.Muhitdinov, I.To‘lakov, Sh.A. Hasanov, D.X.Quvvatova, turkman adabiyotshunosligida A.Garaev, A.Ashirov, boshqird, tojik, ukrain, ozarbayjon va boshqa xalqlar adabiyotshunoslik ilmida K.A. Axmedyanov, X.Ataxanova, N.R. Mazepa, R.Yu. Aliyev, O.V. Kuznetsova va h.k. tomonidan o‘rganildi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida ham poemalarning janr tabiati va rivojlanish bosqichlari, turlari, tasvirlash xususiyati bo‘yicha bir qancha maxsus tadqiqotlar olib borildi. A.Nasrullayev, Q.Sultanov, P.A. Dabilov, Q.Mambetov, Sh.Sayimbetovlar tomonidan maxsus o‘rganilgan bo‘lsa, bulardan tashqari o‘quv qo‘llanmalari, adabiyot darsliklari, yakka shoirlar ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham ma‘lum darajada o‘rganildi.

Bu tadqiqotlardagi poemaning adabiy termin sifatidagi asosiy xususiyatlari yetarlicha aniqlangan. Jahon bolalar adabiyoti janrlari bir qancha mamlakatlarda turli an‘ana va maqsadlarga mos shakllangan va rivojlangan. Shu bilan bog‘liq holda xorijiy adabiyotshunoslik ilmida bolalar adabiyoti masalalarida asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, estetik va emotsional rivojlanishiga ta‘siri, bolalarga mo‘ljallangan asarlardagi fantastika, axloqiy va tarbiyaviy asarlarning tahlili (ingliz bolalar adabiyotida oila, bolalar adabiyotida amerikalik qahramon), bolalar adabiyotini tadqiq etish metodologiyasi kabi jihatlar yetakchilik qiladi [1].

**Natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. Bolalar adabiyotida poema janri kattalar adabiyotidagi an‘analar asosida shakllanib, tarbiyaviy-ma‘rifiy yo‘nalishga ega bo‘lgan.
2. Bolalar poemalarida lirik va epik janrlarning uyg‘unlashuvi, folklordan olingan elementlar bilan zamonaviy adabiyotning o‘zaro aloqalari aniqlanib aks etadi.

3. Bolalar poemalari tematik jihatdan farq qiladi: ularda ko'pincha axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega mavzular, tabiat va insonlar o'rtasidagi munosabat, hayotiy hikmatlar va kundalik hayotiy tushunchalar yoritiladi. Shoirning bunday mavzularni tanlashi – bolalarning ruhiy va estetik rivojlanishiga ta'siri ko'zda tutilishi bilan bog'liq.
4. Folklor elementlari bolalar poemalarining tarkibida ham, yana bayon usullarida ham, folklorik obrazlarda ham ko'zga tashlanadi [2].

Demak, bolalar poemalari tarkibidagi ertaklardagi kabi xayoliy bayonlar, ertaklik syujetlar, shuningdek tabiat bilan chambarchas bog'liqlik folklor asarlarining kuchli ta'sirini va xalq bolalar folklorining bolalarga ta'sir etish kuchining ham ahamiyatini bildiradi.

M.Jumaboyev o'zbek bolalar adabiyotidagi poemalardagi ijobiy qahramon masalasini tahlil qilar ekan, o'zbek bolalar poemalarida ijodiy personajlar qanday yaratilgani, ularning xususiyatlari, yoshlar psixologiyasiga, ruhiyatiga ta'siriga e'tibor qaratadi. Olimning bolalar poemalaridagi ijobiy qahramon konsepsiyasida yoshlarga ta'lim-tarbiyaviy namuna va ijobiy hayotiy obraz modelini yaratish yetakchilik qilishini belgilab ko'rsatadi [3]. Demak, bolalar poemalarida obrazlarni yaratishda asosan axloqiy ahamiyat hisobga olinadi. Shuning uchun ijobiy qahramonlar ko'proq yaratiladi. Salbiy qahramonlar ham o'z qilmishlaridan pushaymon bo'lib, to'g'ri yo'lga tushishi bilan ijobiy qahramonga aylanadi.

Bolalar poemalarining tili ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar poemalari ko'pincha, sodda, yengil til bilan yoziladi, bolalarning yosh xususiyati va yosh psixologiyasiga mos so'zlar, fikrlar, g'oyalar tanlanadi. Shuning bilan birga, bolalar poemalarida takrorlanuvchi so'zlar bilan takrorlanuvchi qatorlar tez-tez qo'llaniladi. Bu bolalarning xotira qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Shuningdek, bolalar poemalari unchalik murakkab syujet va murakkab kompozitsion qurilishga asoslanmaydi. She'r tuzilishi ham, ayniqsa, maktabgacha va kichik hamda o'rta maktab yoshidagi bolalar poemalarida qisqa bo'g'inli, mohirona qo'fiyalangan, takrorlanuvchi tovushlari ko'pligi bilan ajralib turadi.

Umuman, bolalar adabiyotidagi shunday asosiy xususiyatlarni yakunlaydigan bo'lsak, bolalar adabiyotida poemalar ham kattalar adabiyoti poemalaridagi kabi hajmi bo'yicha, bayon usuli bo'yicha epik va lirik xususiyatlarni saqlaydi, lekin ular g'oya-tematikasi, syujeti, obrazlari, tili, she'r tuzilishi bo'yicha bolalarning har tomonlama qabul qilishiga moslashtirib yaratiladi.

Demak, bolalar adabiyotidagi poemalarning janr tabiatida quyidagi xususiyatlarni belgilab ko'rsatish mumkin:

- Soddalik va obrazlilik;
- Aniq syujet va kompozitsion tuzilma;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi g'oya;
- Bola psixologiyasiga mos voqeaviylik va xarakterlar;
- Ixcham va sodda ritmik-stilistik til va kompozitsiya.

**Muhokama.** Poemalarda eposdagi kabi syujetning bo'lishi, lirikadagi kabi lirik qahramon obrazi bo'lishi va she'riy shaklda yozilishi kabi eng asosiy uch belgisi ajratib ko'rsatiladi. Poemaning eng dastlabki namunalari sifatida Gomerning "Iliada" va "Odisseya", Dantening "Ilohiy komediya" asarlari e'tirof etildi. Ulardagi mifologik va tarixiy xususiyatlar poemaning asosiy xususiyatlari sifatida belgilanib kelindi. O'tishi bilan poemaning mazmuni ijtimoiy, falsafiy sifatlar bilan kengaydi. Poemalarga faqat she'riy emas, balki syujetli bayoni va problematika ko'lami chuqur bo'lgan lirika bilan uyg'unlashgan nasriy asarlar ham qo'shila



boshladi. Tasvirlash usullari xilma-xillikka ega bo'ldi. Romantik, realistik, lirik, epik, liro-epik, liro-dramatik tasvirlar bilan yorug'likka chiqqan poemalar bu turning qo'shmaligini yanada oshirdi. Sh.Sayimbetov o'zining dissertatsiya ishida adabiyotshunoslik ilmidagi poema janriga oid nazariy fikrlarni umumlashtirib, uning eng asosiy belgilarini quyidagicha ko'rsatib o'tadi: «...poema janrida yaratilgan asarlarda inson hayotida uchraydigan har xil voqea-hodisalar, xalqning boshidan kechirgan turmush haqiqati va ularning yuksak insoniy fazilatlari lirik planda badiiy tasvirlanishi bosh mezon qilib olinadi. Ikkinchidan, poemalarning qurilishida berilgan epik syujetni yoki voqea-hodisalarni poetik shaklda aks ettirish, o'z-o'zidan poemaning liro-epik janrning muhim belgilarini o'zida mujassam etganligini ko'rsatadi. Uchinchidan, poemalar janr xususiyatlariga ko'ra lirik, epik, liro-epik, dramatik, mazmuniga ko'ra tarixiy, biografik, ijtimoiy-hayotiy, satirik, psixologik, falsafiy kabi turlarga bo'linadi. Albatta, shunday bo'lib qarash, poemalardagi voqea-hodisalarni qaysi janr turida tasvirlashning ustunligiga yoki muvozanatligiga bog'liq... Shuningdek, boshqa xalqlarda poemaning poema-ballada, poema-ocherk, poema-novella, poema-ertak, hujjatli poema va h.k. shakllari ham uchraydi. Bu demak, poemalarning bir necha janrli shakllarni o'z ichiga jamlashga moyil qo'shma va sinkretik asar ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu janr asarlarini bugungi kungacha ko'pchilik ilmiy ishlarda goh "doston", goh "poema", goh "lirik epos" nomi bilan atash tez-tez uchraydi» [5:16].

Demak, adabiy janr sifatida murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tib, turli transformatsiyalardan o'tib, yangi shakl va mazmunga ega bo'lgan poemalarni liro-epik janr sifatidagi asosiy xususiyatini hisobga olgan holda bolalar adabiyotining ham bir janri sifatida e'tibor qaratamiz.

Bolalar adabiyotida poema janrining paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab va uzoq davom etadi. Bolalar adabiyotida poemalar asosan milliy xususiyatlar bilan birga ko'pincha, o'zida ta'lim-tarbiyaviy mazmunni mujassamlashtiradi. Shuning uchun, bolalar adabiyotidagi poemalar haqida so'z ketganda eng avvalo bu janrning shu tomoniga e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki bolalar adabiyotida poemalar bolalarning axloqiy va estetik rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan. Ulardagi ijodiy g'oya va obrazlar o'quvchilarga ibrat bo'lishga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining ahamiyatini anglashga qaratilgan. Shu bilan birga, poema janridagi asarlar ko'pincha, bolalarning ma'naviy jihatdan kamol topishini ta'minlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va aniq tasvirlar orqali tarbiya berishni maqsad qiladi.

Jahon adabiyotshunosligidagi poema bo'yicha tadqiqotlarda ham, bolalar adabiyoti bo'yicha tadqiqotlarda ham bolalar adabiyotidagi poemalar bo'yicha maxsus tadqiqotlarning qilinmaganligining guvohi bo'ldik. Bolalar adabiyoti dostonlari faqat bolalar adabiyoti janrlari yoki bolalar shoirlari ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda, darslik va qo'llanmalarda kam darajada so'z yuritilgan. Ularning ko'pchiligida ayrim poemalarning mazmuni, syujeti, ularni yozishdagi shoirning mahorati, poemalarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi-yu, ammo umuman bolalar adabiyotida poema janrining asosiy xususiyati nimada, bolalar adabiyotida poema janrining qanday nazariy masalalari bor, degan masalalarning boshi ochiq qoladi.

Shunday muammolar bolalar adabiyotida poemalar bo'yicha dolzarb masalalarni paydo qiladi:

- bolalar poemalarining xususiyatlari: lisoniy, uslubiy, qurilishi, syujet va kompozitsion qurilishi;

- bolalar poemalarining g'oyaviy-tematik xususiyati;
- bolalar poemalarining bolalarning psixologik rivojlanishiga, lug'at boyligining shakllanishiga, emotsional intellektining rivojlanishiga ta'siri;
- bolalar poemalarining janriy tarkibi va tasviriy rang-barangligi;
- bolalar poemalarining tarbiyaviy ahamiyati;
- bolalar poemalari orqali ularning etik masalalarining yechim topishi (yaxshi bilan yomonning farqini ajratish, munosabatni shakllantirish, sevgi va do'stlikning ahamiyatini tushuntirish va h.k.).
- ijodkorlik va xayol qilish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

**Xulosa.** Bolalar adabiyotida poema janri murakkab, ko'p funksiyali va estetik-tarbiyaviy salohiyatga ega janr sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu janr bolalar ruhiyatiga mos ravishda ishlangan asarlar orqali ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, poema janrini bolalar adabiyotidagi alohida fenomen sifatida o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ann Alston. (2008). The Family in English Children's Literature (Children's Literature and Culture). – 2008. – P. 176; Carol M. Butzow, John W. Butzow. (2005). The American Hero in Children's Literature: A Standards-Based Approach. – 2005; – P. 152; Hans-Heino Ewers. (2009). Fundamental Concepts of Children's Literature Research: Literary and Sociological Approaches; Routledge (Taylor & Francis). – 2009. – P. 199.; Kay E. (1990). Vandergrift. Children's Literature: Theory, Research, and Teaching. Libraries Unlimited. – 1990; Keith O'Sullivan, Pádraic Whyte (eds.) (2017). Children's Literature Collections: Approaches to Research. Palgrave Macmillan US. – 2017. – P. 260; Korbeck, S. (1995). Children's poetry: Journeying beyond the road less traveled [Electronic version]. School Library Journal, 41(4), 43-44; Townsend, J. R. (1992). Written for children: An outline of English-language children's literature (First Harper Trophy ed.). New York: HarperCollins.
2. Абдуқулов Т. 70-йиллар болалар поэмалари ва фольклор: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1977.
3. Жумабаев М. Проблема положительного героя в узбекских детских поэмах: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 22 с
4. Эгамов Х. Язык и стиль узбекских детских поэм: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 25 с.; Ярашова Н.Ж. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти: Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 54 б.
5. Сайымбетов Ш. XX асир екинши ярымы қарақалпақ поэмаларының поэтикалық өзгешеликleri (1955-1980-жж.). Филология илимleri бойынша философия докторы (PhD) илимий дәрежесин алыў ушын усынылған диссертациясы. Нөкис, 2021.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE PROTAGONIST'S FATE IN THE PHILOSOPHICAL NOVEL "THE MAGIC SKIN"**

**Abdurahmonova Farangiz Husan qizi**

2nd-year student of the Faculty of Uzbek Philology  
Termiz State University

**Khudoymurodova Khurriyat**

Lecturer at the Department of Literary Studies, Termez State University  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

**Abstract.** This article discusses the world-famous philosophical novel *The Magic Skin* by one of the pillars of French literature, Honoré de Balzac. It provides an ideological analysis of the work, an examination of its plot and composition, and particularly focuses on the roles of the characters — especially the main character, Raphael de Valentin. Through his life, emotions, thoughts, and actions, the article explores his characterization and psychology, ultimately revealing the central idea of the novel. The main purpose of this research is to convey the essence of this literary masterpiece to readers and to contribute, even in a small way, to the field of literary studies.

**Keywords:** realism, image, plot, philosophical novel, characteristic, psychological analysis, fate, artistic analysis.

## **"SAG'RI TERI TILSIMI" FALSAFIY ROMANIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRINING BADIY TALQINI**

**Abdurahmonova Farangiz Husan qizi**

Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

**Xudoymurodova Xurriyat**

Termiz davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasini o'qituvchisi  
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fransuz adabiyotining arkonlaridan biri — Onore de Balzakning dunyoga mashhur "Sag'ri teri tilsimi" falsafiy romani haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, asarning g'oyaviy tahlili, syujet va kompozitsiyasining analizi hamda asosan obrazlarning asarda tutgan o'rni, ayniqsa, bosh obraz Rafael de Valentinning hayoti, hissiyotlari, o'ylari, qilmishlari orqali uning xarakteristikasi va psixologiyasi eng asosiysi, asarning bosh g'oyasi ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu durdona asarning asosini o'quvchilarga yetkazish va adabiyotshunoslik sohasiga oz bo'lsa-da hissa qo'shishdir.

**Kalit so'zlar:** realizm, obraz, syujet, falsafiy roman, xarakteristika, psixologik tahlil, taqdir, badiiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N24>

**Kirish.** Jahon adabiyotining arkonlaridan biri bo'lmish fransuz adabiyoti o'zining serqirra ijodkorlari va durdona asarlari bilan boshqa adabiyotlardan keskin ajralib turadi. Shunday go'zal adabiyot olamining vakili, benazir iste'dod egasi, Onore de Balzak ijodi alohida ahamiyatga molik, ayniqsa, uning "Insoniyat komediyasi" epopeyasi adabiyot osmonida eng yorug' yulduzlardan biri bo'lib joy olgan. Ushbu kitobga 111 roman joylanishi reja qilingan,

biroq Balzak vafotiga qadar 72 asar yozishga ulgurgan, xolos. Balzak ushbu epopeyani o'z qo'li bilan uch toifaga ajratgan:

|                                                |                                                                                                         |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.Scènes de la vie (Hayot sahnalari)           | Jamiyatning turli qatlamlarini aks ettiradi; shaxsiy, viloyat, Parij, harbiy, qishloq hayoti sahnalari. |
| 2.Études philosophiques (Falsafiy tadqiqotlar) | Hayot, taqdir, shaxsiyat, muhabbat, istaklar, aks ettirgan, chuqur fikrlar aks etgan asarlar.           |
| 3.Études analytiques (Tahliliy tadqiqotlar)    | Jamiyat institutlarini, munosabatlarini tahlil qiladi; nikoh, mulk, huquq, urf-odatlar haqida           |

#### 1. Onore de Balzak. La Comedie Humaine(to'liq to'plam). Furne, Parij-1842

Bu asarlarning biri adabiyot olamida o'ziga yarasha o'ringa ega, xususan, adib qalamiga mansub “Sag'ri teri tilsimi” falsafiy romani inson va hayotining tub mazmunini ochib beradigan takrorlanmas asardir, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Asarning g'oyasiga alohida to'xtalish uchun obrazlar tizimi va syujetga e'tibor berish lozim, negaki asar g'oyasi bir epizodning taqdiri orqali ochib berilgan, har qanday asarda bosh va epizodik obrazlar bo'lganidek, asarning bosh personaji Rafael de Valentin ismli 27 yoshlardagi yosh yigitchadir. Ushbu yigitchaning taqdiri, uning o'y-xayollari, orzu-umidlari, jamiyatga bo'lgan munosabati, haqiqiy hayotni qaysi ko'z bilan ko'rishi, dunyoqarashi orqali asarning, balki butun bir jamiyatning, butun insoniyatning azaliy muammolari, orzu-niyatlari ochib beriladi. Voqealar rivojida esa uning o'ziga xos xarakteristikasi, psixologiyasi va uning faqat o'zigagina xos bo'lgan o'zligi ochib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Fransuz millatining faxr-u iftixori bo'lmish Onore de Balzak biografiyasi va ijodiyotiga oid tadqiqot va izlanishlar boshqa yozuvchilarga qaraganda juda erta XIX asrlardayoq boshlangan. Jumladan, Baalzak haqida ilk ma'lumotlar fransuz adabiyotshunosi va tanqidchisi Charles-Augustin Sainte-Beuve (1804-1869) hali Balzak tirikligidayoq tanqidiy yondashuvlarni boshlab yuborgan. Umuman olganda, Balzak haqida adabiyotshunoslar doirasida doim ham iliq fikrlar bildirilmagan, xususan, Sainte-Beuve ham ba'zi maqolalarida Balzakni qoralagan. Misol uchun, u “Portraits litteraires” maqolasida Balzakning “Sag'ri teri tilsimi” romani ham kiritilgan “shohona” asari — “Insoniyat komediyasi” haqida shunday deydi:

“... “Insoniyat komediyasi” san'atdan ko'ra pul topishga mos.” — deya uning ushbu buyuk asarini “tijorat adabiyoti” deya baholaydi. [1:210] Bundan tashqari, Hippolyte Taine (1828-1893) fransuz tarixchisi ham uning jodini o'ziga xos uslub — ijtimoiy tarix kontekstida o'rgangan va o'zining “La literature francaise” asarida unga shunday ta'rif beradi: “XIX asrning eng yirik romani nullisti”. [2:63]. Binobarin, nafaqat fransuz adabiyotshunoslari, balki o'zbek aadabiyotshunoslari va munaqqidlari ham Balzak hayoti va ijodiga oid turli izlanishlarni olib borishgan. Jumladan, o'zbek dabiyotshunoslari orasida 1-bo'lib Balzak hayotiga oid jiddiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U fransuz realizmiga va Balzakning “Insoniyat komediyasi”ga tahliliy yondashuvlar bergan. Yana bir adabiyotshunos hamda tarjimon Mamanazarova Sayyora ham Balzakning tasvir uslubi, psixologik realizmi haqida o'z fikrlarini bildirib, maqolalar yozgan. Eng muhimi adibning ba'zi asarlarini tarjima qilib o'zbek kitobxonlariga Balzakni tanitishda katta xizmat ko'rsatgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolaning yozilishida turli metodlardan, shuningdek, analitik — tahliliy metod, deskriptiv — tavsiflovchi metod, empirik metod, deduktiv — mantiqiy metod hamda tanqidiy yondashuv kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan

**Tahlillar va natijalar.** Asar voqealari qashshoqlikdan, ruhiy bosimdan, kambag'allik balosidan qiynalib, axyri o'z joniga qasd qilish uchun Sena daryosiga o'zini tashlashga otlanganidan boshlanadi. U olim, ziyoli oq-u qorani tanigan o'qimishli inson, biroq ko'p qiyinchiliklar uning ruhiyatiga ta'sir qilib, shu darajaga yetkazganki, u o'z joniga qasd qilmoqchi, shunday bir vaziyatda tasodifan uning qo'lga tilsimli sag'ri teri tushib qoladi, uning tilsimi shunday ediki, uni egallagan inson uning har bir istagi xoh so'z bilan, xoh uyi bilan umriga zomin bo'ladi, ya'ni har bir xohish sag'ri terini qisqartirib yuboradi. Sag'ri teriga ham bu tilsim alohida so'zlar bilan qadimgi arab yozuvda yozib qo'yilgan edi. Sag'ri teriga shunday so'zlar yozilgan: Mening egam hamma narsaga ega bo'ladi, ammo uning joniga men ega bo'laman, tangri irodasi shu istaganingni tila, ijobat bo'lgay, lekin tilagingni hayotingga mosla, joning menda, har bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayaman, menga ega bo'lishini istaysanmi ol, senga tangri yor bo'lgay omin. Qisqargan terini esa na gidravlik bosim, na mexanik moslama, na kimyoviy kislotalar bilan cho'zish uning hajmi va tarkibiga ta'sir etish mumkin. Muxtasar aytganda Rafael hayotdan shunday to'ygan ediki, hatto shu darajada og'ir shartlarni ham pisand etmay sag'ri terini qabul qiladi. Asar voqealari chaqmoqdek tez va keskin o'zgarib, Rafaelning hayotida tubdan burilish yasaydi, sag'ri teri rostdan ham naf berib, uning har bir istagi amalga oshaveradi va uning hayot iplari asta-sekin uziladi. Inson shunday jonzotki, unga fikrlash qobiliyati hadya etilgan, biroq uning bir lahza oldingi fikri va bir minut keyingi fikri o'rtasida yer bilan osmoncha farq bo'lishi mumkin, hatto Rafael ham bir kun avval hayotdan to'yib turgan edi, aksincha, ertasi kuni terining qisqarganini ko'rib, jon-poni chiqib ketadi. Kecha o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan inson bugun umrining qisqarayotganini ko'rib, ho'ngrab yig'laydi. Bu- Allohning mo'jizasi. Asarning eng kulminatsion nuqtasi Rafaelning haqiqiy hayot mazmunini anglab yetishidir, avvalo, asar voqealari davomida Rafael teatrda bir go'zalni, ya'ni kambag'allik chog'i ko'ngil qo'ygan, ammo muhabbat olovini olishni istamagan, mehribon, eng ajib his-tuyg'ular egasi Polinani uchratib qoladi, shuncha vaqt, shuncha oy-u kun o'tgachgina o'z sevgisini ichidan his qiladi.

Savol tug'ilishi mumkin, nega o'sha paytlarda ham qizning mehr- muhabbatga to'la, samimiy yuragini ko'rib turib ham unga sevgi izhor qilmadi. Birinchidan, Rafael futbollik botqog'iga shunchalar botib qolgan ediki, bu botqoqning tarkibi dabdababozlik, soxtalik, riyo, qalbaki asar yozish kabi balchiqlardan iborat edi. Bu botqoq bilan Polinadek sof va ezgu qizni bir joyga qo'yish — bu eng chirkin, insonning vijdoniga ham to'g'ri kelmaydi. Ikkinchidan, u soxta sevgi domiga tushib qoladi. Rafaelning dunyoqarashida katta bo'shliq bor edi, u yoshligida otasi tomonidan ruhiy bosimga uchraydi, otasi vafotidan so'ng esa kambag'allik jazirasidan qattiq kuyadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u kambag'al qizning beg'ubor ishqini emas, balki kiborlar jamiyatining chirkin iplariga jon-jahdi bilan o'ralib qolgan ayol- Fiadoraning soxta muhabbatini haqiqiy ish deb o'ylaydi va hayotdagi eng katta xatolardan birini qiladi. Shuningdek, Rafaelning har bir tilagi, hatto o'ylagan taqdirda ham amalga oshaveradi, lekin birgina tilagi Polina meni sevib qolsin degan iltijosi amalga oshmaydi. Chunki avvaldan mavjud tilakni qayta bajarishning iloji yo'q, ya'ni Polina avval boshdan uni ezgu tuyg'ular ila bor qalbi ila sevardi. O'sha vaqt, o'sha joy, o'sha vaziyatda Rafael- asarning ushbu epizodi har bir insonning ko'ziga yosh keltiradi. "Sag'ri teri tilsimi" kitobining eng kulminatsion nuqtasi va

asarning tub mohiyati ushbu epizodda mujassamlashgan. O'sha payt, o'sha joy, o'sha vaziyatda Rafael umrning tub ma'nosini anglab yetadi, ya'ni hayotda faqat boylik, dabdaba, moddiyat bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi, balki muhabbat, ezgulik, ma'naviyat eng boqiy tuyg'ulardir. Jumladan, tarozining bir tomoniga pul, mansab, ganchbozlikni qo'yadigan bo'lsak, ikkinchi tomoniga esa faqat sevgini joylashtirsak, o'z-o'zidan sevgi toshi tarozini bir tomonga og'dirib yuboradi, negaki sevgigina insonni insoniy his-tuyg'ular bilan o'rab turadi, uni inson qilib turadi. Taroziining narigi tomonidagi obyektlar esa uni insoniylikdan chiqarib, hayvon bilan barobar qilib qo'yadi. Asar yakunida Rafael Polina bilan qisqa muddat baxtli yashasa-da, ularning sof ishqini o'lim changali ajratib yuboradi. Eng so'nggida esa bosh qahramon Rafael tilidan aytilgan aytilgan ehtirosli va o'tli jumlar uning haqiqiy hayotdan olgan eng so'nggi to'g'ri va yakunlovchi xulosasi sifatida o'quvchi qalbida qoladi: "Polina, Polina, men seni sevaman, seni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman, sen bilan birga bo'lishni istayman. Sening quchog'ingda o'lishni istayman", - [3:283] deya qilgan iqrori asl hayotdagui eng samimiy va eng to'g'ri fazilat muhabbat ekanligini anglagan edi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, "Sag'ri teri tilsimi" kitobi bilan Onore de Balzak har bir yo'ldan adashgan insonni to'g'ri yo'lga solish, haqiqat yo'lidan o'zga yo'lga adashishdan qaytarib qolishga harakat qiladi. Ayniqsa, Balzak ushbu asar orqali jamiyatga ko'zgu tutadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pchilik adabiyotshunoslar va munaqqidlar XIX asr fransuz realizmi davriga oid bo'lgan "Insoniyat komediyasi"ning yuragi hisoblangan "Sag'ri teri tilsimi" falsafiy romanini "jamiyat ko'zgusi" deya bejiz ta'rif bermagan. Asar so'nggida roviy — hikoya qiluvchi tomonidan aytilganidek, takabbur, ikkiyuzlamachi, kiborlar jamiyatining eng chirkin botqog'iga botib qolgan, go'zal va husn-u malohat bobida yagona bo'lsa-da insoniy fazilatlar va nafis hislardan mutlaqo mosuvo bo'lgan riyokor Fyodora obrazi haqida shunday deyiladi: "...Agar ta'bir joiz bo'lsa, Fyodora — jamiyatning o'zi!" [3:286] Nafaqat davrning, balki butun har bir davrning global muammosini aks ettirgani uchun, shuningdek, haqiqiy takrorlanmas obrazlarni yaratib har bir insonga, kitobxonga ko'zgu tutgani uchun ham bo'lsa kerak, bu asar asr oshgan asarlar sirasiga kiradi va har qanday adabiyot muxlislarining yuragini zir titratib, uning eng chuqur yeridan joy oladi, nafaqat bugungi kun, balki kelajakda ham "Sag'ri teri tilsimi" asari o'z mohiyatini yo'qotmagay.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. CH. Sainte-Bauve. *Portraits litteraires* II jild. "Garnier freres". Parij-1838
2. H.Taine. *Etude sur Balzak* II jild. Nouveaux essais de critique et d'histoire. Parij, Hachette-1865
3. O.Balzak. *Sag'ri teri tilsimi*. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1981
4. U.Hamdammov. A.Qosimov. *Jahon adabiyoti*. Akademya nashr. Toshkent-2024.

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW****Received:** 16 June 2025**Accepted:** 5 July 2025**Published:** 15 July 2025*Article / Original Paper***THE BASIC PRINCIPLES OF THE EUROPEAN UNION LAW****Yunusov Khaydarali Muratovich,**

Professor of the Department of International

Law and Human Rights,

Tashkent State University of Law

Doctor of Law (DSc)

E-mail: [yunusovkm@gmail.com](mailto:yunusovkm@gmail.com)

**Abstract.** This article discusses the basic principles of the European Union law and their significance. The basic principles are described as the source of the European Union law. The basic principles of the European Union law are classified based on various criteria. Among them, the main emphasis is placed on the basic principles arising from the legal nature of the European Union. The content and essence of the principle of the primacy of the EU law over national law, the principle of direct application of the European Union law, the principle of legal integration, the principle of equality, the principles of loyalty to the Communities and solidarity are revealed.

**Keywords:** European Union law, fundamental principles of law, member states, national law, international law, sources of law, classification, legal system, law enforcement practice.

**YEVROPA ITTIFOQI HUQUQINING ASOSIY PRINSIPLARI****Yunusov Xaydarali Muratovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasi professori,

yuridik fanlar doktori (DSc)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqi huquqining asosiy prinsiplari va ularning ahamiyati haqida soʻz yuritiladi. Asosiy prinsiplar Yevropa Ittifoqi huquqining manbasi sifatida tavsiflanadi. Yevropa Ittifoqi huquqining asosiy prinsiplari turlicha mezonlar asosida tasniflanadi. Ular orasida Yevropa Ittifoqining huquqiy tabiatidan kelib chiquvchi asosiy prinsiplarga asosiy urgʻu beriladi. Milliy huquq normalariga nisbatan Ittifoq huquqi normalarining ustuvorligi prinsipi, Yevropa Ittifoqi huquqining toʻgʻridan-toʻgʻri amal qilish prinsipi, huquqiy integratsiyalashuv prinsipi, tenglik prinsipi, Hamjamiyatlarga sodiqlik va birdamlik prinsiplarining mazmun va mohiyati ochib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** Yevropa Ittifoqi huquqi, huquqning asosiy prinsiplari, aʼzo davlatlar, milliy huquq, xalqaro huquq, huquq manbalari, tasniflash, huquqiy tizim, huquqni qoʻllash amaliyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N25>

Huquqning asosiy prinsiplari har qanday huquqiy tizimning markazida turadi. Ular “madaniyatli millatlar tomonidan eʼtirof etilgan huquqning umumiy prinsiplari” sifatida Xalqaro odil sud Nizomining 38-moddasida ham eslatib oʻtilgan [1, 297-bet].

Nizomda faqatgina “huquqning umumiy prinsiplari” haqida soʻz ketayotganligini unutmash kerak, zotan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari mustaqil manba sifatida mavjud ekanligi munozarali masaladir.

“Huquq prinsipi – voqelikning obyektiv tartibi, ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarining me’yoriy in’ikosidir” [2, 87-bet], degan ta’rifdan kelib chiqib, uning asosiy unsurlaridan birini ajratib ko’rsatish mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, qonuniyat bu – doimiy ravishda takrorlanib turadigan qoidalar yoki hodisalar majmuasidir. Shundan kelib chiqqan holda, xuddi odat huquqi kabi, huquq prinsiplari ham takrorlanib turish xususiyatiga ega bo’lgandagina prinsip sifatida e’tirof etilishi mumkin. Biroq, bunda uning xalqaro-huquqiy munosabatlarda emas, balki milliy huquqiy tizimlarda takrorlanib turishi nazarda tutiladi.

Umuman olib aytganda, huquqning asosiy prinsiplari tarixan ichki huquqning mahsuli sifatida qaralishi mumkin. Bir necha davlatlar tomonidan ichki huquqiy munosabatlarning o’xshash va bir xil normalar bilan tartibga solinayotganligi o’sha normalarning ularning (davlatlarning) tegishli sohalardagi o’zaro aloqalarini ham tartibga soluvchi umumiy norma sifatida xalqaro munosabatlar doirasiga ko’chishi uchun sabab bo’lgan. Mazkur prinsiplar xalqaro munosabatlar doirasida faqatgina davlatlarning roziligi bilan xalqaro-huquqiy normaga aylanishi mumkin bo’lib, ular xalqaro shartnomalar yoki xalqaro odat huquqi ko’rinishidagina xalqaro huquqqa aylana olishi e’tirof etiladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, huquq prinsiplari shartnomalar va odat huquqida aks etishi bilangina xalqaro huquq kategoriyasi sifatida tan olinishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, milliy huquq prinsiplari mustaqil manba sifatida hatto bir nechta milliy huquqiy tizimlardan birdek joy olgan taqdirda ham xalqaro huquqda ipso facto mavjud bo’la olmaydi. Shu tufayli, xalqaro huquq prinsiplari joriy shartnomalar va odat huquqi ruhidan kelib chiqqan umumiy qoidalardir, degan fikr ham keng tarqalgan.

Huquqning asosiy prinsiplari milliy huquqiy tizimlar mahsulidir. U xalqaro munosabatlarga faqat davlatlarning shartnomaviy ruxsati va irodasi bilangina tatbiq etilishi mumkin. Xalqaro odil sudning yoki Yevropa Ittifoqi (Hamjamiyatlar) sudining mazkur prinsiplarni xalqaro nizolarni hal qilish jarayoniga tatbiq etish vakolati ham faqat aniq holatlardagina davlatlarning xohish-irodasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu bois, huquqning umumiy prinsiplari birma-bir va barcha davlatlar tomonidan birdek shartnomaviy yoki odat huquqi ko’rinishida tan olinmas ekan, ular xalqaro huquqning qo’shimcha manbasi bo’lib qolaveradi va hech qanday yuridik majburiy kuchga ega bo’lmaydi.

Boshqa huquqiy tizimlardagi kabi, Yevropa Ittifoqi huquqiy tizimida ham huquqning umumiy prinsiplariga tez-tez murojaat qilinadi. Yevropa hamjamiyatlari ta’sis shartnomalarida faqat ikki martagina “a’zo davlatlar huquqiy tizimlarining umumiy asosiy prinsiplari”ga murojaat qilish imkoniyati qayd etilgan edi (Yevropa hamjamiyati shartnomasining 6- va 288-moddasi). Shunga qaramay, mana shu imkoniyatdan kelib chiqqan holda, Sud Hamjamiyatlar huquqining deyarli barcha sohalari, ayniqsa, inson huquqlarini to’laqonli ta’minlash va kafolatlash uchun huquqning asosiy prinsiplariga tayanar edi. Shu tufayli, bu prinsiplarning barchasi sud amaliyotida o’z ifodasini topa bordi va, natijada, Yevropa Ittifoqi huquqi sud amaliyotida asosiy prinsiplar tizimi vujudga keldi. Biroq, endilikda, bu prinsiplarning barchasini a’zo davlatlarning huquqiy tizimlari uchun xos bo’lgan umumiy asosiy prinsiplar, deb bo’lmaydi. Chunki, bugungi kunda ularning ma’lum bir qismini Yevropa Ittifoqi (Hamjamiyatlar) xarakteridan kelib chiquvchi asosiy prinsiplar tashkil etadi.

Asosiy prinsiplarga murojaat qiluvchi sud amaliyotining keyingi yillarda g’oyat tez rivojlanganligi va ko’rib chiqilgan ishlar sonining muttasil oshib borayotganligi bir tomondan,



Yevropa Ittifoqi huquqi asosiy prinsiplarini, ikkinchi tomondan, sud amaliyoti yoki sud ishlarining o'zini tasniflash zaruratini keltirib chiqardi.

Yevropa Ittifoqi huquqining asosiy prinsiplari turli usullar va yondashuvlar bilan tasniflanishi mumkin. Jumladan, ular huquq sohalari bo'yicha (iqtisodiy huquq, madaniy huquq, inson huquqlari va asosiy erkinliklar va h.k.), huquqiy tizimlar bo'yicha (milliy va Ittifoq huquqi) yoki ularning o'zlarining xarakteri (protsessual, umumiy, maxsus va h.k.) bo'yicha tasniflanadi.

Aksariyat holatlarda prinsiplar, kelib chiqishiga ko'ra yoki qaysi huquqiy tizimga tegishli ekanligiga qarab, ikki turga ajratiladi. Ularning birinchisi – barcha a'zo davlatlarning huquqiy tizimlari uchun umumiy bo'lgan asosiy prinsiplar bo'lsa, Yevropa Ittifoqi (Hamjamiyatlar) xarakteridan kelib chiquvchi asosiy prinsiplar – ikkinchi turkumni tashkil etadi. Tasniflashning bunday turi yana bir bor Yevropa Ittifoqi va milliy huquqiy tizimlar orasidagi chegarani aniqlab olishga, ularning o'zaro munosabatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Shu bilan birga, barcha tashkillashgan huquqiy tizimlar uchun tabiiy va ajralmas bo'lgan asosiy prinsiplar turkumi borki, u yuqoridagi har ikkala, ya'ni milliy huquqiy tizimlarga ham, Yevropa Ittifoqi huquqiga ham bab-baravar tegishlidir. Bular protsessual huquq – odil sud jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan **odil sudlovning protsessual prinsiplari** turkumidir. Ushbu prinsiplar sudga murojaat qilish huquqi, samarali sud himoyasi, yuridik xavfsizlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'langandir. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tiladi.

1) Oqilona huquqiy boshqaruv yoki samarali sud tizimiga murojaat qilish prinsipi. Mazkur prinsip odil sudlovni benuqson tashkillashtirish, milliy miqyosda Yevropa Ittifoqi huquqining samaradorligi shubha ostiga olingan vaqtda jabrlanuvchining milliy instansiyalarga murojaat qilish huquqini mustahkamlaydi. Ayni vaqtda, ushbu prinsip Yevropa Ittifoqi huquqi va milliy huquqiy tizimlar orasiga hech qanday raxna solmaydi. Aksincha, milliy sudlar tomonidan inson huquqlarining to'la va samarali himoya qilinishi fuqarolarning Yevropa Ittifoqi sudiga preyuditsial tartibda murojaat qilishiga ehtiyoj qoldirmasligini anglatadi.

2) Sud himoyasining barcha vositalariga nisbatan ochiqlik prinsipi. Mazkur prinsip Yevropa Ittifoqi huquqining murakkab tabiatidan kelib chiqadi. Unga ko'ra, Yevropa Ittifoqi huquqi subyektlarining ishi milliy instansiyalar tomonidan, milliy huquq subyektlarining ishi – Yevropa Ittifoqi sud instansiyalari tomonidan ko'rib chiqilayotgan paytda ularga Yevropa Ittifoqi huquqi yoki milliy huquqiy tartibot haqida to'la va ochiq ma'lumotlar yetkazib beriladi. Odatda, milliy instansiyalar, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi sudi tomonidan ish ko'rilganda, deyarli barcha himoya ishlari va hujjatlari yuridik maslahat firmalari yoki advokatlar orqali o'tadi. Shunday bo'lsa-da, fuqarolarni yetarli yuridik maslahat va ma'lumotlar bilan ta'minlash sud apparati zimmasiga ham yuklatilgan. Shu tufayli, sud ishlari va ularga berilgan izohlar Rasmiy Axborotnomada barcha tillarda muntazam ravishda chop etib boriladi.

3) Yevropa Ittifoqining ma'muriy instansiyalarida himoya huquqini hurmat qilish prinsipi raqobatchilik qoidalarini ma'muriy nazorat qilish sohasida manfaatdor tomonlarni kerakli hujjatlar bilan tanishtirish imkoniyatini yaratish, Komissiya tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlarning maqsad va mohiyatini bildirish majburiyati, ish sharoitlaridan kam bo'lmagan yashash sharoitlariga ega bo'lish huquqini hurmat qilish, o'z-o'zini jinoyatchi deb topishni rad etish kabilarni o'z ichiga oladi.

4) Huquqiy xavfsizlik va huquqiy ishonch prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi: qaror yo'naltirilayotgan subyektni bu haqda oldindan xabardor etish, huquqiy aktlarning vaqt

o'lchami nuqtai nazaridan orqaga ta'sir etmasligi, shaxsga oid ma'lumotlarni sir saqlash majburiyati.

5) Tenglik prinsipi. Tenglik prinsipining amal qiladigan sohalari va tatbiq etiladigan ko'lami juda keng. A'zo davlatlar orasidagi munosabatlardan tortib individlar orasidagi kundalik aloqalarda tenglik prinsipini uchratish mumkin. Biroq bu yerda gap bevosita protsessual sud jarayonidagi tenglik haqida ketmoqda. Ya'ni, sud ishi bilan bog'liq hujjatlarni to'ldirish jarayonida qo'shimcha hujjatlar, garov, ahamiyatsiz ma'lumotlar talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Noteng protsessual talablarning o'zi Yevropa Ittifoqi huquqi tizimidagi tenglik prinsipining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi demakdir.

**Ikkinchi turkumdagi prinsiplar** – a'zo davlatlarning huquqiy tizimlari uchun umumiy bo'lgan asosiy prinsiplardir.

Mazkur prinsiplar Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Lissabon shartnomasi (YeILSh) ning 2-moddasida sanab o'tilgan [3]. Unga asosan, Ittifoq a'zo davlatlar uchun umumiy bo'lgan ozodlik, tenglik, demokratiya, huquqiy davlat, insoniy or-nomus, inson huquqlari va erkinliklari, jumladan, ozchiliklar huquqlarini hurmat qilish kabi qadriyatlar yoki prinsiplar asosida tashkil topgan.

YeILShning 6-moddasiga muvofiq, Ittifoq 1950-yil 4-noyabrda Rim shahrida imzolangan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasida kafolatlangan hamda a'zo davlatlarning umumiy konstitutsiyaviy an'alaridan kelib chiqadigan insonning asosiy huquqlarini Ittifoq huquqining asosiy prinsipi sifatida hurmat qiladi.

Asosiy prinsiplar 2004-yil 29-oktyabrda davlat va hukumat rahbarlari tomonidan imzolangan Yevropa Ittifoqi uchun yagona Konstitutsiya ta'sis etish to'g'risidagi shartnomada yanada urg'ulangan holda o'z aksini topgan edi.

Hozirda Lissabon shartnomasining tarkibiy qismi sifatida joy olgan Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar bo'yicha xartiyasi muqaddimasi Ittifoqning insoniy qadr-qimmat, ozodlik, tenglik va birodarlik, demokratiya va huquqiy davlat kabi bo'linmas va umumbashariy qadriyatlar asosida tashkil topganligini ta'kidlaydi [4, 391-407-betlar].

A'zo davlatlarning huquqiy tizimlari uchun umumiy bo'lgan asosiy prinsiplarning Yevropa Ittifoqi huquqidan joy olishi Yevropa Ittifoqi (Hamjamiyatlar) tabiatidan kelib chiqadigan prinsiplarning yoki xalqaro huquq prinsiplarining milliy huquqiy tizimlarga implementatsiya qilinishidan ko'ra murakkabroq jarayondir.

Bir tomondan, Yevropa Ittifoqi huquqining milliy huquqiy tizimlarga nisbatan mustaqilligi, ikkinchi tomondan, ular orasida huquqning barcha sohalarida ustuvorlikning ta'min etilmaganligi a'zo davlatlarning huquqiy tizimlari uchun umumiy bo'lgan asosiy prinsiplarni Yevropa Ittifoqi huquqiga transpozitsiyalashni qiyinlashtirib yuboradi. Buning ustiga, asosiy prinsiplarning birdek e'tirof etilishi ularni amalda ta'minlashning bir xil darajasini anglatmaydi. Shu nuqtai nazardan, "huquqiy davlatdan huquqiy hamjamiyat sari" konsepsiyasi ham biroz shubha ostida qolishi tayin.

Insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish Ittifoqning bosh prinsiplaridan biri ekan, Yevropa hamjamiyatlari odil sudi sudi (YeHOS, keyinchalik Yevropa Ittifoqi sudiga aylantirilgan) hamjamiyat (keyinchalik Ittifoq) institutlarining bu boradagi faoliyatini nazorat qilishga haqlidir. Mana shu vakolat doirasida Sud tomonidan quyidagi asosiy huquqlar e'tirof etilgan: insoniy or-nomus, qadr-qimmat (1974, *Casagrand* sud ishi); tenglik prinsipi (1962,

*Klockner* sud ishi); kamsitmaslik (1976, *Defrenne/Sabena* sud ishi); fikr va soʻz erkinligi (1976, *ERT* sud ishi); samarali sud himoyasi huquqi (1986, *Johnston* ishi); erkin kasbiy faoliyat va mulkka egalik huquqi (1979, *Hauer* sud ishi).

Yevropa Ittifoqi va uning huquqiy tabiatidan kelib chiquvchi asosiy prinsiplar – **uchinchi turkumdagi prinsiplarni** tashkil qiladi.

Mazkur prinsiplarning aksariyati Yevropa Ittifoqi huquqi tabiatidan kelib chiqsa-da, biroq ularning baʼzilari Yevropa Ittifoqi va milliy huquqiy tizimlarning oʻzaro munosabatlari yoki taʼsiri natijasida, qolaversa, mana shu munosabatlarni tartibga solish maqsadida yuzaga kelganligini eʼtirof etish lozim. Ushbu prinsiplar taʼsis shartnomalarini shunchaki sharhlash natijasigina emas, balki Yevropa Ittifoqi huquqining asl manbasi sifatida ham gavdalanadi. Masalan, milliy belgilarga qarab kamsitmaslik, aʼzo davlatlararo hamjihatlik prinsipi, institutsional muvozanat prinsipi kabilar, dastavval, taʼsis shartnomalarida oʻz aksini topgan.

**1) Huquq normalar orasida ustuvorlikni taʼminlash prinsipi.** Jamiyatdagi huquqiy tartibga solinadigan munosabatlar sohasi va koʻlami turli-tuman boʻlib, ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar ham shaklan rang-barangdir. Biroq mazkur munosabatlar oʻzaro bogʻliq boʻlmagan holatda, alohida mavjud boʻlishi juda kamyob hodisadir. Shu bois, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solayotgan normalar orasida ustuvorlik boʻlishi talab etiladi, zotan, busiz yagona va mushtarak huquqiy tartibot oʻrnatilishi mumkin emas.

Yevropa Ittifoqi huquqi nuqtai nazaridan, huquq normalari ustuvorligi ikki xil maʼnoda tushuniladi. Birinchisi, milliy huquq normalariga nisbatan Ittifoq (Hamjamiyatlar) huquqi normalarining ustuvorligi prinsipidir.

Yevropa Ittifoqi huquqi milliy huquqqa nisbatan ustuvor mavqe kasb etadi va ular orasida meʼyorlar (normalar) kolliziyasi yuzaga kelgan vaqtda milliy sudlar va maʼmuriyat tomonidan Ittifoq huquqi qoʻllaniladi.

Yevropa Ittifoqi huquqining birlamchi manbalari boʻlmish taʼsis shartnomalari va ularga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisidagi shartnomalar milliy huquqqa nisbatan soʻzsiz ustuvordir. Biroq orttirma huquqqa nisbatan bu qoidaning qoʻllanilishi mumkin emas. Qolaversa, hatto taʼsis shartnomalarida ham Ittifoq huquqining ustuvor ekanligi oʻz ifodasini toʻla-toʻkis topmagan. Yevropa Ittifoqi huquqidagi bu kemptik Odil sud amaliyoti bilan toʻldirilgan. YeHOS bir qator sud ishlarida ushbu prinsipni takror va takror taʼkidlagan.

*Van Gend en Loos* sud ishi [5] boʻyicha YeHOS xulosasiga koʻra, milliy sudlar milliy huquqning u yoki bu normasiga tayangan holda Hamjamiyatlar huquqiga putur yetkazishi mumkin emas.

Bu borada *Costa/ENEL* sud ishi [6] yanada sermazmundir. 1964-yil 24-fevral va 7-martda chiqarilgan YeHOS qarorida Hamjamiyatlarga aʼzo davlatlar oʻzlarining bir tomonlama huquqiy akti va xatti-harakati bilan oʻzlari tomonidan qabul qilingan shartnoma normalariga qarshi bora olmasligi urgʻulanadi.

Sudning fikriga koʻra, Hamjamiyatga aʼzo davlatlar oʻz ixtiyorlari bilan Hamjamiyatlarga muayyan suveren huquqlarni bergan ekan, demak, ayni shu sohalarda Hamjamiyatlar huquqiga ham ustuvorlik berilgan. Bundan tashqari, har bir davlat Hamjamiyatlar huquqining majburiy kuchi, uni sharhlash va amalga tatbiq etishga oʻz holicha yondashar ekan, u holda Hamjamiyatlar huquqining yaxlitligi xavf ostida qoladi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan shartnomalar bilan yuklatilgan majburiyatlar a'zo davlatlar tomonidan chiqarilgan qonun hujjatlari tufayli shubha ostiga olinsa, ular so'zsiz majburiy emas, balki ehtimoliy bo'lib qoladi.

Agar o'zining mustaqil manbalariga ega bo'lgan, shartnomalar bilan tug'ilgan Yevropa Ittifoqi huquqi ichki milliy qonunlar bilan qarama-qarshi qo'yilar ekan, u o'zining nafaqat integratsiyaviy xarakterini yo'qotadi, balki butun Ittifoqning huquqiy asosi o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi huquqining mustaqilligi (avtonomligi) uning mavjudligining ajralmas shartidir. YeILShning 4-moddasi (sobiq YeHShning 10-moddasi) a'zo davlatlarga shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishni yuklaydi.

Sud fikricha, xalqaro huquqning umumiy prinsiplaridan kelib chiqqan holda hech bir konstitutsiyaviy hujjat yoki norma Ittifoq (Hamjamiyatlar) huquqiga zid kelishi mumkin emas. Ta'sis shartnomalari va milliy konstitutsiyalar orasidagi tafovutlar ta'sis shartnomalari ratifikatsiya qilinib, kuchga kirgunga qadar barham topmog'i lozim [7].

Yevropa Ittifoqi huquqining ustuvorligi, nazariy jihatdan, "orttirma huquq"qa ham taalluqli bo'lsa-da, biroq "orttirma huquq" hujjatlarining yuridik kuchi bir necha marta milliy sudlar tomonidan shubha ostiga olingan.

YeHOS 1971-yil 14-dekabrda chiqargan Reglamentga oid qarorida [8, 1039-bet], reglamentga qarshi keluvchi har qanday milliy huquqiy aktlar o'z kuchini yo'qotadi, deb e'lon qiladi. Milliy sudlar tomonidan Ittifoq huquqini milliy konstitutsiyaviy huquq doirasida cheklashga urinishlar ham ro'yobga chiqmagan.

Yevropa Ittifoqi huquqining ustuvorligi prinsipi Ittifoqqa a'zo bo'lib kirayotgan davlatlar uchun ham majburiydir. Ular a'zo bo'lib kirayotgan vaqtdagi Yevropa Ittifoqi huquqi o'zining barcha elementlari bilan, qabul qilingan sanasidan qat'iy nazar, ular uchun ustuvordir.

Xulosa qilib aytganda, Ittifoq huquqi bir butunlikda (ta'sis shartnomalari, orttirma huquq) o'zining mutlaq vakolatiga kiruvchi sohalarida barcha turdagi milliy huquqiy tizimlar uchun ustuvordir. Sud mazkur prinsip a'zo davlatlarga Ittifoq (Hamjamiyatlar) huquqini samarali amalga oshirish uchun mustaqil choralar ko'rish majburiyatini ham yuklaydi. Bundan kelib chiqadiki, nafaqat joriy normalar Ittifoq huquqiga zid bo'lmasligi, balki kelajakda bunday aktlar qabul qilinishining ham oldi olinishi lozim.

Ikkinchisi, **ichki huquqiy makondagi normalar ustuvorligi** prinsipini, ya'ni Ittifoq institutlari tomonidan qabul qilinayotgan normalar orasidagi ustuvorlikni yoki ustuvor ketma-ketlikni anglatadi. Bu ustuvorlik normalar yaratuvchi huquqiy hujjatlarning o'zidayoq aks etadi. Ta'sis shartnomalari va to'ldiruvchi shartnomalardan keyingi o'rinda keluvchi reglament va direktivalar boshqa ko'rinishdagi hujjatlarga nisbatan ustuvor maqom egallaydi. Qaysi organ tomonidan qabul qilinayotganidan qat'iy nazar, asosiy reglamentlar ijrochi reglamentlardan ustuvordir.

O'z navbatida, bunday ustuvorlik Ittifoqning "orttirma huquqi"dagi bosh qoidalar va ijroi choralarni o'zaro farqlashga asos bo'luvchi normalar iyerarxiyasini hurmat qilish prinsipini keltirib chiqaradi [10].

**2) Yevropa Ittifoqi huquqining to'g'ridan-to'g'ri amal qilish prinsipi.** To'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etish prinsipining amal qilish ko'lamini va darajasi Ittifoq huquqining manbalari kategoriyasiga qarab xilma-xil, cheklangan va cheklanmagan, shartlangan va shartsiz bo'lishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi huquqining birlamchi manbalariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etish prinsipini qo'llash ta'sis shartnomalarida o'zining aniq ifodasini topmagan. Shuningdek, ta'sis shartnomalaridagi umumiy maqsadlar va vazifalarni o'zida mujassam etgan normalar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega emas va individlarning da'vo qo'zg'ashlariga asos bo'la olmaydi.

Ta'sis shartnomalari va ularga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi shartnomalarning Umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati hamda va Adliya va ichki ishlar sohasiga oid normalariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etish prinsipi qo'llanilmaydi. Chunki bu sohalar Maastrixt va Amsterdam shartnomalari bilan paydo bo'lgan Yevropa Ittifoqi huquqining to'liq "hamjamiyatlashtirilmagan" sohalaridir.

Yevropa Ittifoqi huquqini to'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etish prinsipining bir qator shartlari ham mavjud: ular aniq, tushunarli va maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ularni qo'llash uchun boshqa qo'shimcha aktlar (jumladan, umumiy xarakterdagi deklaratsiya, havola yoki uni qo'llash yuzasidan qo'shimcha choralar ishlab chiqishga qaratilgan qarorlar) va xatti-harakatlar ko'zda tutilgan bo'lmasligi lozim.

Xuddi mana shu shartlar ikkilamchi huquq normalari (reglament, direktiva va qaror)ga ham tegishlidir. Reglament va qaror bu borada hech qanday munozaraga o'rin qoldirmaydi, biroq "gorizontal" ta'sir kuchiga ega bo'lmagan direktivalarning to'g'ridan-to'g'ri amalga tatbiq etilishi borasida yakdil fikrlar mavjud emas.

**3) Huquqiy integratsiyalashuv prinsipi.** Mazkur prinsip Yevropa Ittifoqi huquqining milliy huquqiy tizimlar tomonidan qabul qilinishi, o'zlashtirilishi va milliy huquqning tarkibiy qismiga aylanishi jarayonini anglatadi. Ayniqsa, yangi a'zo davlatlar tomonidan "orttirilgan huquq" ("droit acquis") deb yuritiladigan mazkur huquq tizimining qabul qilinishi Ittifoqqa a'zolikning eng muhim talablaridan biridir.

Yuqorida eslatilgan ikki prinsip (Yevropa Ittifoqi huquqining ustuvorligi va to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi) Yevropa Ittifoqi huquqi normalarini milliy huquqqa singdirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Mana shunday holatdagina Yevropa Ittifoqi huquqi a'zo davlatlar hududida yuridik majburiy kuch oladi va amal qiladi.

Firma Molkerei-Zentrale sud ishida huquqiy integratsiyalashuv prinsipiga shunday ta'rif beriladi: "Hamjamiyatlar huquqi normalari hech qanday milliy xarakterdagi choralarsiz milliy huquqiy tartibot ichiga kirib boradi" [11, 211-bet]. Milliy huquqiy tizimga singib ketgach, Hamjamiyatlar huquqi xuddi milliy huquq singari amal qila boshlaydi. A'zo davlatlarning vazifasi ushbu huquqning o'zlashtirilishi uchun zarur huquqiy iqlimni yaratishgina emas, balki uning samarali amal qilishi uchun qulay shart-sharoitlar tug'dirishdan iborat.

Maastrixt shartnomasiga ilova qilingan "Hamjamiyatlar huquqiy aktlarini qo'llashga oid deklaratsiya" Hamjamiyatlar huquqini aniq va to'liq inkorporatsiya qilish integratsiyaning muhim omili ekanligini ta'kidlagan edi [12, 0139-bet].

Yevropa Ittifoqi huquqining milliy huquqqa integratsiyalashuvi bir necha yo'nalishda amalga oshadi. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega bo'lgan reglamentlar avtomatik ravishda milliy huquqdan joy oladi. Direktivalar esa milliy huquq tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar bilan transpozitsiyalanadi. Shuning uchun direktivalarni inkorporatsiya qilish alohida e'tibor talab qiladi.

**4) Tenglik prinsipi.** Bu prinsip milliy, jinsiy, irqiy, nogironlik, yosh va jinsiy moyillik belgilariga qarab kamsitmaslik prinsipining asosidir. Ya'ni, fuqarolar qonun oldida tengdirlar.

Shuningdek, tenglik prinsipi Ittifoqning reglamentar va ijrochilik faoliyatiga ham taalluqlidir. Tafovutlashning tabiiy omillari asosli bo'lgandagina o'xshash sharoitlarni tafovutlash mumkin: iqtisodiy agentlar orasidagi tenglik, a'zo davlatlarning byudjet sohasidagi tengligi shular jumlasidandir.

2007-yilda qabul qilingan va 2009-yilda kuchga kirgan "Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma va Yevropa hamjamiyati to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Lissabon shartnomasi (YeILSh) birinchi marta Ittifoqning demokratik asoslarining uchta asosiy prinsipini belgiladi: demokratik tenglik, vakillik demokratiyasi va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya [13, 240-bet]. Demokratik tenglik prinsipiga muvofiq, Ittifoqning barcha institutlari, organlari va ofislari barcha fuqarolar oldida va ularga nisbatan o'z vazifasini tenglik prinsipi asosida amalga oshirishi lozim. Institutlarning fuqaroligi, millati, diniy mansubligi, tili, jinsi yoki boshqa mansublik belgilaridan qat'i nazar, barcha fuqarolarga teng munosabatda bo'lishi talab etiladi (YeILShning 9-moddasi).

Vakillik demokratiyasi prinsipi Yevropa Parlamentiga to'g'ridan-to'g'ri saylovlar orqali amalga oshiriladi. Har qanday qaror fuqarolar bilan bamaslahat qabul qilinishi lozim (YeILShning 10-moddasi).

Lissabon shartnomasi tufayli to'g'ridan-to'g'ri demokratiya endilikda fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ta'minlanadi. Uning tartibi 2011-yil 11-martdagi Kengash qarori asosida belgilab berilgan [14].

Lissabon shartnomasi Ittifoq va a'zo davlatlar o'rtasidagi hamda a'zo davlatlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator yangi prinsiplarni olib kirdi. Ittifoq barqarorligi va a'zo davlatlarning o'zaro hamkorligi birdamlik tamoyili (Principle of solidarity) bilan yanada mustahkamlandi. Mazkur tamoyilga oid ayrim qoidalar oldingi shartnomalarda ham eslatib o'tilgan bo'lsa-da, Lissabon shartnomasida birinchi marta tamoyil sifatida yaqqol namoyon bo'ldi.

Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 3-moddasiga ko'ra, Ittifoq a'zo davlatlar orasidagi birdamlikni rag'batlantirishni maqsad sifatida belgilaydi. 42-moddaning 7-bandiga muvofiq, "Biror a'zo davlat o'z hududida qurolli agressiyaga duchor bo'lsa, boshqa a'zo davlatlar o'z imkoniyatlaridagi barcha vositalarni ishga solgan holda unga yordam va ko'mak ko'rsatishi lozim". Yevropa Ittifoqining amal qilishi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 222-moddasi Ittifoq va a'zo davlatlarning mazkur tamoyilni amalga oshirishdagi mas'uliyatini yanada kengaytirdi: "Biror a'zo davlat terrorchilik hujumiga giriftor bo'lsa yoxud insoniy yoki tabiiy ofat qurboniga aylansa, Ittifoq va uning a'zo davlatlari birdamlik ruhi ostida birgalikda harakat qiladi. Ittifoq o'zining hamda o'z ixtiyoriga topshirilgan a'zo davlatlarning barcha, jumladan, harbiy vositalarini safarbar etadi". Yevropa Ittifoqining amal qilishi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 122-moddasi esa, Polsha, Chexiya, Litva kabi yangi a'zo davlatlarning talabini inobatga olgan holda Kengashga a'zo davlatlarning birdamligi ruhidan kelib chiqib, mahsulotlar tanqisligi, ayniqsa, energetika sohasida taqchillik yuzaga kelgan holatlarda iqtisodiy vaziyatga oid zarur qarorlar qabul qilish huquqini beradi. YeIALSHning

67- va 194-moddalarida ham a'zo davlatlarni birdamlikka chorlovchi qoidalar mavjud. Shu tariqa, Lissabon shartnomasi a'zo davlatlarini birdamlik tamoyilidan kelib chiqadigan majburiyatlarini kuchaytirish bilan Ittifoqning ichki va xalqaro munosabatlardagi nufuzini yanada oshirishga harakat qildi.

Yevropa Ittifoqi huquqi huquqiy tizim sifatida murakkab tuzilmaga ega. Mazkur tizimning barcha murvatlari o'zaro muvofiqlik va uyg'unlikda ishlagandagina uning samaradorligi namoyon bo'ladi. Yevropa Ittifoqi huquqi bugungi kunda ilg'or huquqiy tizim sifatida e'tirof etilsa-da, bir qator muammolardan holi emas va uning istiqboli mazkur muammolarni qanchalik hal etilishiga bog'liq.

Xususan, huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan muammolarning birinchi guruhi, avvalo Yevropa Ittifoqi huquqining yaxlit huquqiy makon sifatida amal qilishi, umumiy bozor qonunlarining yangi a'zo davlatlar hududida yaxshi ishlamasligi, ijro nazoratining sustligida namoyon bo'ladi. Xususan, Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 3, 42-moddaning 7-bandi, Yevropa Ittifoqining amal qilishi to'g'risidagi Lissabon shartnomasining 122, 222-moddasi hamda 67- va 194-moddalarida ko'zda tutilgan Ittifoqqa sodiqlik va birdamlik tamoyiliga to'liq va vijdonan rioya etilmayotganligi Ittifoqning ichki va xalqaro darajadagi nufuziga soya solib kelmoqda.

COVID-19 global pandemiyasi Yevropa Ittifoqining bir qator normalari va tamoyillarining amalda ishlamasligini namoyon etdi. Jumladan, a'zo davlatlarning chegaralarni zudlik bilan yopishi, Ittifoq va boshqa a'zolarining zarariga o'zining zaxiralarini yashirishga bo'lgan urinishi, tibbiy mahsulotlar eksportini bir yoqlama taqiqlashi Lisabon shartnomasida ko'zda tutilgan birdamlik tamoyilini deyarli yo'qqa chiqardi. Natijada birdamlik tamoyilini majburlovchi mexanizmlar bilan yanada kuchaytirish zarurati yanada yaqqol sezildi.

Xulosa qilib aytganda, huquq manbalari nuqtai nazaridan Yevropa Ittifoqi huquqi xalqaro huquq va milliy huquqdan farq qiladi. Jumladan, odat huquqi Yevropa Ittifoqi huquqi tizimida mavjud emas. Xalqaro huquq va milliy huquqning qolgan manbalari Yevropa Ittifoqi huquqida namoyon bo'ladi. Ular orasida huquqning umumiy prinsiplari markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Mazkur prinsiplar, bir tomondan, Yevropa Ittifoqi huquqini xalqaro huquq bilan bog'lash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ular Yevropa Ittifoqi sud amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. Boshqacha qilib aytganda, ularning prinsip sifatida e'tirof etilishida Yevropa Ittifoqi sudining ahamiyati kattadir.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

- 1 Dupuy P.-M. Les grands textes de droit international public. 2-édition. Dalloz, Paris, 2000. – R. 297.
- 2 Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. Дарслик. – Т.: Адолат, 2001. – Б.87.
- 3 Treaty on European Union and the Treaty on the Functioning of the European Union: <http://eur-lex.europa.eu> – JO C 83 of 30.03.2010: Consolidated versions of the Treaty on European Union and the Treaty on the Functioning of the European Union.
- 4 Charter of Fundamental Rights of the European Union. – Official Journal of the European Union. 2012. C 326/391. – P. 391-407.
- 5 CJCE, Arrêt du 5 février 1963, Van Gend en Loos v. Administration fiscale néerlandaise, aff. C-26/62, Rec. 3.
- 6 CJCE, Arrêt du 15 juillet 1964, Costa C/ENEL, 6/64, Rec. – P. 1141.
- 7 Case 56/64, 58/64 Judgment of the Court of 13 July 1966, Etablissement Consten S.a.R.L. & Grunding-Verkaufs-G.m.b.H v. Commission of the EEC, Rec. 429 (1966); Case 11/70, Judgment of the Court of 17 December 1970, Internationale Handelsgesellschaft GmbH v. Einfuhr-und Vorratsstelle für Getreide und Futtermittel, (1970) Rec. 1125.
- 8 Case 43/71, Judgment of the Court of 14 December 1971, Politi SAS/Ministry for Finance of the Italian Republic. Rec. – R. 1039.

- 
- 9 Case 106/77, Judgment of the Court of 9 March 1978, Amministrazione delle Finanze dello Stato v. Simmenthal SpA, (1978) Rec. – R. 629.
  - 10 Aff. Sayag, 9/69, Rec. – R. 329 (10 Juillet 1969); Algera, 7/56, Rec. – R. 84 (12 Juillet 1957); Koster, 25/70, Rec. – R. 1161 (17.12.70).
  - 11 C-28/67, Judgment of the Court of 3 April 1968, Westfalen/Lippe GmbH v. Hauptzollamt Paderbom, (1968), Rec. 211.
  - 12 Declaration on the quality of the drafting of Community legislation: Official Journal C 340 10/11/1997. – P. 0139.
  - 13 Nicholas Moussis. Access to the European Union. Law, Economics, Policies. 20<sup>th</sup> edition. – Cambridge, Intersentia, 2013. – P. 240.
  - 14 Regulation 211/2011, OJ L 65 of 11.03.2011, last amended by regulation 268/2012, OJ L 89 of 27.03.2012 //https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX%3A32012R0270.



Received: 16 June 2025

Accepted: 5 July 2025

Published: 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ENSURING HUMAN RIGHTS IN THE UZBEK KHANATES: AN EXAMPLE OF DEALING WITH CITIZENS' APPEALS AND OVERSEEING THEM**

**Zokirov Sherzod**

Leading researcher Institute of Legislation and legal policy under the President of the Republic of Uzbekistan,  
doctor of philosophy (PhD) on science in law  
E-mail: [sherzokirov@gmail.com](mailto:sherzokirov@gmail.com)

**Abstract.** In this article, the provision of human rights during the Uzbek khanates was considered on the example of the consideration of citizens' appeals and its supervision. In this regard, it is studied on the basis of fragmentary facts present in the scientific literature and in scientific research carried out by researchers. At the same time, during the period of the Uzbek khanates, the consideration of citizens' appeals and the implementation of control over them have been analyzed based on the national legal documents available today.

**Keywords:** citizens' appeal, human rights, Uzbek khanate, reception ceremony, gender equality, representative institution, repeated appeal, mukhtasib.

## **O'ZBEK XONLIKLARIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHI: FUQAROLAR MUROJAATLARI BILAN ISHLASH VA U BO'YICHA NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MISOLIDA**

**Zokirov Sherzod**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek xonliklari davrida inson huquqlarini ta'minlanishi fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va uni nazorat qilish misolida ko'rib chiqilgan. Bu borada ilmiy adabiyotlarda va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mavjud bo'lgan fragmentar faktlar asosida o'rganilgan. Shu bilan birga, o'zbek xonliklari davrida fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va u bo'yicha nazoratni amalga oshirish bugungi kunda mavjud milliy qonunchilik hujjatlariga asosan qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fuqaro murojaati, inson huquqlari, o'zbek xonliklari, qabul marosimi, gender tengligi, vakil instituti, takroriy murojaat, muhtasib.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N26>

### **KIRISH**

O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanishi, tarixiy xotirasiz kelajak yo'qligi, tarix millat uchun ruhiy ozuqa ekanligi barchaga ayon. So'nggi yillarda qadim va boy tariximizni har tomonlama va chuqur o'rganish, asosiysi, olingan natijalarni xalqimizga yetkazish har qachongidan ko'ra kuchliroq ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu o'ta muhim va mas'uliyatli jarayonda turli yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarning o'rni alohidadir. Bugungi yangi

O'zbekistonda mamlakatimizning haqqoniy tarixini tiklash va uning rivoji uchun barcha zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlar yaratildi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining deyarli har bir chiqishi, nutq va risolalarida tarixiy xotiraga tayangan holda faxr va iftixorni yuksaltirish milliy o'zlikni asrab qolishning asosiy omillardan biri ekaniga alohida urg'u berilmoqda. Ushbu fikrimizning yaqqol misoli sifatida davlatimiz rahbarining Qashqadaryo viloyatida yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumani faollari bilan o'tkazgan uchrashuvida bildirgan fikrlarini keltirishimiz mumkin.

Prezidentimiz fikrining avvalida buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning To'xtamishxon bilan bo'lgan tarixiy jangdagi ulkan g'alabasi haqida o'qiganini va bu jang haqidagi ma'lumotlarga avval duch kelmaganini, u kishi uchun bu yangilik bo'lganini aytgan. Fikrining so'nggida esa: "Biz nega shu kabi buyuk ajdodlarimiz tarixini yaxshi o'rganmaymiz? Uzoq yillar ura-ura bilan umuman boshqalar tarixini, boshqalar g'alabasini miyamizga singdirishgandi. Mutasaddilarga topshiriq berdim – biz, birinchi navbatda, o'zimizning bobolarimiz tarixini o'rganishimiz kerak" [22], deb tarixni chuqur o'rganishga alohida urg'u berganligi ham har bir tadqiq etilayotgan mavzuning, eng avvalo, tarixini bilish muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

### **METODOLOGIYA**

Ushbu maqolani tayyorlashda IMRAD usulidan foydalanildi. Bunda, tegishli sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikri o'rganildi, muhokama qilindi va taqqoslandi. Shuningdek, tahlilda muallifning subyektiv fikrlari ham katta o'rin egallaydi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

O'zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar tashlanganda, O'zbek xonliklarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bevosita ushbu xonliklardagi boshqaruv tizimiga bog'liq bo'lgan deb aytish mumkin. Sababi, fuqaroning murojaatini bevosita hal qilish, ular tomonidan berilgan arz va shikoyatlarni hukmdor (xon, amir)larga yetkazish hamda murojaatlarning shariat normalariga muvofiq va qonuniy hal etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun turli xildagi bosqichlar, tuzilmalar, alohida mansablar joriy etilgan. Hukmdorlar aholining arz va shikoyatlarini hal etishda boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda ish ko'rganlar.

Masalan, Buxoro xonligida davlat boshlig'i mahkamasining ikki asosiy maxsus xodimi bo'lib, ular amirning kundalik ishini yuritish masalalari bilan bevosita mashg'ul bo'lgan. Ulardan biri parvonachi bo'lib, u amir farmonlari va boshqa qarorlarini beklarga hamda boshqa mansabdor shaxslarga yetkazish masalalari bilan shug'ullangan [7; B. 148.]. Ikkinchi lavozim egasi dodhoh, ya'ni, davlat boshlig'iga turli masalalar bo'yicha kelib tushadigan ariza va shikoyatlarni qabul qilib, xonga yetkazish hamda berilgan javoblarni o'z egalariga qaytarish vazifasini bajarish yuklatilgan lavozim hisoblangan [18; B. 14.].

Buxoro amirligida amirlar ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishga katta e'tibor bilan qaraganlar. Ya'ni, davlatning eng oliy darajasidagi amaldorlar inson huquqlarini ta'minlanishining bir ko'rinishi hisoblangan raiyatning murojaatlarini bevosita o'zlari ham ko'rib chiqish bilan shug'ullanganlar. Xususan, ariza va shikoyatlar shaxsan amirning o'zi tomonidan ko'rib chiqilar, ba'zan shaxsan amirning nazorati ostida murojaatlar mazmunan ko'rib chiqish uchun shayxulislom, qushbegi yoki qozikalonga topshirilgan. Amir tomonidan ko'rib chiqish topshirilgan murojaatlarni amaldorlar ko'rib chiqishdan bosh tortsa yoxud ularni yetarli darajada hal qilmasalar, shikoyatchilar takroriy ravishda ikkinchi marotaba amirga

murojaat etishlari mumkin bo'lgan. Ikkala holatda ham qoida bo'yicha ma'lum bir ish bo'yicha qaror joyning o'zida qabul qilinishi lozim edi [2].

Hozirgi kunda ushbu holatni milliy qonunchiligimiz bilan taqqoslaganda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning **32-moddasida** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilishni yoki ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish mumkin ekanligiga oid qoidalar o'rnatilgan.

Buxoro amirligida amir Shoxmurod tomonidan o'tkazilgan islohotlar ichida, ayniksa, sud islohoti diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va g'ayriqonuniy ish qilayotgan o'z xo'jayinini javobgarlikka tortishga haqli bo'lgan [8; B. 207.].

Bunday qoida o'sha vaqtdagi Buxoro amirligidagina emas, butun Turkiston davlatlarida sudlovni ijobiylashtirish hamda har bir inson huquqi ta'minlanishi yo'lida tashlangan katta qadam bo'lgan. Bundan tashqari, qirq a'lamdan (qonunshunoslardan) iborat oliy sud (qozixona) palatasi tuzilgan. Uning a'zolari shariat huquqi asosida amir Shohmurodning o'zi tuzib bergan to'plamni qo'llariga olib, arz va shikoyatlarni hal etishda unga karab ish ko'radigan bo'lganlar.

Ariza yoki shikoyat da'vogarning maxsus ishonchli vakili tomonidan topshirilishi hamda sud jarayonida uning **vakil sifatida** ishtirok etishi mumkin bo'lgan.

Hozirga kelib murojaatlarga oid qonunchilik normalarida ushbu vakillik instituti mavjud bo'lib, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning **6-moddasida**, agar murojaatlar murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilsa, murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerakligi to'g'risidagi norma mustahkamlangan. Demak, vakillar orqali murojaat qilish institutining shakllanishi mana shu davrdan boshlangan degan xulosani ilgari surishimiz mumkin.

Buxoro amirligining Kamat tumanida yashovchi Tuxtaoy ismli ayol 1875 yilda amir Sayyid Muzaffarga (1860-1885) shikoyat bilan murojaat qilganligi, murojaatining mazmuni, Burxon ismli shaxs ushbu ayolni o'ziga turmushga chiqishga majbur qilayotganligi bo'lgan. Amir Buxoro Qozi-kaloniga mazkur holatni tekshirish va sabablarini aniqlash bo'yicha maxsus topshiriq "muboraknoma" berganligi manbalarda qayd etilgan [21; B. 50.].

Bundan ko'rinadiki, Buxoro amirligida nafaqat erkak murojaatchilar, balki **ayollarning ham murojaatlari tinglangan** va **ularning huquqlarini himoya qilish** hamda **buzilgan huquqlarini tiklash** hamda **gender tengligini ta'minlash** choralari ko'rilgan.

1747-1920 yillarda hukm surgan Buxoro amirligi davlat apparati musulmon davlatchilik an'analari va chingiziy-turkiy odatlar asosiga qurilgan. Bu apparatdagi muhim institutlaridan biri hukmdorning aholi arz-dodini ko'rib chiqish tizimi edi. Chunki bu tizim amirga, avvalo, mamlakatda ichki tartibni saqlash, qolaversa, adolatparvar hukmdor sifatida xalq oldidagi obro'sini oshirishga xizmat qilardi.

An'anaga ko'ra, aholi arzi saroyda maxsus o'tkaziladigan marosimda va hukmdorning shahar yoki mamlakat bo'ylab qilgan safarlari davomida qabul qilingan. So'ng amir arizalar bilan shug'ullanishni o'z amaldorlariga topshirgan. Buxoro amirligi saroy devonida bu jarayon aks etgan yozishma fors tilida yuritiladigan muboraknoma (ko'plikda muboraknomajot) va arz (ko'plikda aroiz) hujjatlari orqali amalga oshirilgan. Tabiiyki, aholi arzini ko'rib chiqish instituti

ayrim farqlar bilan Qo'qon va Xiva xonliklarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, Qo'qon xonligida ham arizalarga **yo'llangan javoblar** muboraknoma deb yuritilgan [17; B. 7.]. Lekin ularni yuritish ishi Buxoro amirligidagichalik tartibli emas edi. Xiva xonligida esa, saroyga kelgan arizalar bilan yasovulboshi shug'ullangan. Arizalarga javoban yasovulboshi devonidan fatak yoki nishona hujjati yuborilgan [1; B. 227.]. Buxoroda esa, muboraknoma aholi nomidan kelgan ariza va turli iltimoslarga javoban yozilgan [20; B. 80.]. Xiva xonligidagidan farqli ravishda, bu yerda u hukmdor devonida (darbori oliy, rikobi oliy) amirning shaxsiy kotibi munshiy tarafidan yozilgan [15; B. 26-26.]. Unda arizada ko'rsatilgan masala yuzasidan amirning irodasi buyruq shaklida tegishli amaldorga yuborilgan.

Muboraknoma, avvalo turli mazmundagi arizalariga javoban yozilgan. U bir amaldorga yoxud ko'rilayotgan ishga aloqasi borligiga qarab **bir necha amaldorga** yuborilgan.

Hozirgi kun bilan qiyoslaganda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid qonunchilik hujjatlari ustidan nazoratni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi idora hisoblangan prokuratura organlariga kelib tushgan murojaatlarga javob berishda bir necha tarkibiy tarmoq (*boshqarma, bo'lim*) mas'ul bo'lib hisoblanishi tarixi Buxoro amirligida ariza va shikoyatlarga javob berishda qo'llanilgan muboraknomalarga o'xshash bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Muboraknomalar mazmuni va funksiyasiga ko'ra ikki xil bo'lgan. Uning birinchi turi murojaat qilingan arzning qisqacha mazmuni bilan boshlanib, amirning mazkur holat bo'yicha qanday ishlar qilinishi kerakligi haqidagi buyrug'i bilan yakunlangan. Muboraknomaning ikkinchi turi esa, amaldor tomonidan bajarilgan ishini ma'qullash yoki qo'shimcha ko'rsatma berish, mukofotlash mazmunida yozilgan. Bu turdagi muboraknomalar tuzilishi qisqa va lo'nda bo'lgan.

Muboraknomalarda ko'rilishi ko'zda tutilgan muammolar mazmunan quyidagi sohalarni qamrab olgan:

- ijtimoiy muammolar (masjid-maqbaralar, madrasalar, ko'priklar, yo'llar, suv inshootlarini ta'mirlash, yangilarini qurish);
- ta'lim sohasidagi muammolar (madrasalar faoliyatini yo'lga qo'yish, muhtoj talabalarni turar-joy va kitoblar bilan ta'minlash);
- yer-mulk sohasidagi muammolar (yer-mulkchilikning turli shakllarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish);
- huquq sohasidagi muammolar (yuz bergan qotillik va ma'muriy huquqbuzarliklarga chora ko'rish, aybdorlarni jazolash);
- oilaviy muammolar (oilaviy nizolarni ajrim qilish) [23].

Milliy olimlarimizdan Z.M.Muqimovning qayd etishicha [4; B. 231.], Buxoro amirligida sud va sudlovlikka oid to'rtta mansab bo'lgan. Ya'ni, shayxulislom, mufti-huquqshunos, muhtasib va o'qituvchi.

Uchinchi mansab hisoblangan muhtasiblar (*bugungi kun bilan taqqoslaganda prokuror bajaradigan vazifa va funksiyalarga qiyoslash mumkin, muallif Sh.Z.*) bu davrda aholini shariat taqiqlagan harakatlardan tiyilib turishga, yaxshilikka oid harakatlarni qilishga undaganlar. Shariat qonun-qoidalarining bajarilishi ustidan doimiy nazorat olib borib, mansabdor shaxs va dindorlar axloq hamda qadr-qimmat qoidalariga amal qilishlarini ta'minlash borasida ham nazoratni amalga oshirishgan.

Bundan ko'rinadiki, Ashtarxoniylar davrida ham shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat muhtasiblar tomonidan amalga oshirilgan.

Xiva xonligida ham fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Jumladan, Muhammad Rizo Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida, XIX asr boshlarida Xorazmning hududiy yaxlitligini tiklash uchun faol harbiy yurishlari bilan ajralib turgan Qo'ng'iro't hukmdorlaridan biri – Muhammad Rahimxon I (1806-1825) xonlikning turli qismlariga **aholining ariza va shikoyatlarini tinglash** uchun juda ko'p marta borganligi qayd etilgan [6; B. 456-457.].

Dashtiqipchoq qabilalarining Xorazm hududiga joylashish jarayoni alohida urug'larning o'zaro munosabatlarini va ularning milliy boshqaruvda ishtirokini tartibga soluvchi muayyan tizim va mexanizmlarni yaratishni talab qilgan. Bunday tadbirlar, Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon (1644-1663) davrida o'tkazilib, xonlikning ma'muriy-boshqaruv tizimi qayta tashkil etilgan. Ya'ni, ma'muriy islohotga ko'ra, xonlikdagi barcha o'zbek qabilalari to'rtta qabila birlashmalariga bo'lingan. Xonlik markaziy ma'muriyatida ham yangi lavozimlar joriy etilgan. Jumladan, ikkita shayxulislom, ikkita qozi, Sayyid ota avlodlaridan bitta rais, mutavalli, yasovulboshi (ariza va shikoyatlar bilan shug'ullanuvchi), arbob kabilar joriy etilgan [6; B. 45-46.]. Shunisi diqqatga sazovorki, bu lavozimlarning deyarli barchasi kichik o'zgarishlar bilan xonlikda 1873 yilga qadar mavjud bo'lgan [4; B. 125-126.].

yashash sharoitlari yaxshilanmoqda. Kambag'allikni qisqartirish maqsadida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yangi samarali mexanizmlari joriy etilyapti. Mamlakatimizda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish maqsadida joriy etilgan "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimlari dastlabki ijobiy natijasini berayotganini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, faxriylarimiz, xotin-qizlar, yoshlar, aholining yordamga muhtoj qatlamlarining huquq va manfaatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda".[2]

Ijtimoiy himoyani kuchaytirish doirasida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirildi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etildi, bandlikka ko'maklashish va qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqildi.

Ikkinchidan, inson sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash. "Davlatimiz rahbari ta'rifiga ko'ra, inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi"

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa'y-harakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi muhim omilga aylandi.

O'tgan davrda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilsak, bu o'zgartirish va qo'shimchalar ijtimoiy hayotni, davlat qurilishi va boshqaruvini yanada demokratlashtirishga, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini kuchaytirishga qaratilganligini ko'ramiz.

Mukammal Konstitutsiyani qabul qilish masalani bir tomoni. Lekin uni faqat qabul qilib qo'yib, normalarini ta'minlanishini samarali choralari ko'rilmasa kutilgan natija chiqmaydi, albatta. Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim<sup>2</sup>, tibbiyot (sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish)<sup>1</sup>, odil sudlov sohasini takomillashtirish ("Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish)<sup>2</sup>.

Uchinchidan, har kim uchun teng imkoniyatlar yaratish. «Tahlillarga ko'ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ayollarning erkaklar bilan teng ishtiroki ta'minlansa, jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 26 foizga o'sadi. Dunyo miqyosida ayol deputatlarning ulushi 1995 yildagi 11,3 foizdan joriy yilga kelib 27,2 foizga ko'tarilgani albatta quvonarli holdir».

«Bizning tashabbusimiz bilan ilgari surilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to'g'risida»gi rezolyutsiyasini qo'llab-quvvatlashingizga umid qilaman».

Taniqli siyosiy faylasuf Djon Roulz jamiyat institutlarining o'zaro hamkorligining samaradorligini belgilash uchun ijtimoiy shartnoma nazariyasini ilgari surgan. Uning fikricha

har yaxshi jamiyat tomonidan kafolatlanishi kerak bo'lgan erkinlikning asoslari bu: vijdon erkinligi; siyosiy erkinlik (ya'ni vakillik demokratiyasi, so'z va matbuot erkinligi); shaxs uchun zarur bo'lgan boshqa erkinlik (qo'llikdan ozod bo'lish, erkin harakatlanish, erkin kasb tanlash), qonunda belgilangan boshqa huquq va erkinliklar.

O'zaro ishonchning ijtimoiy ahamiyati Stenforddagi Demokratiya, taraqqiyot va huquq ustuvorligi masalalari bo'yicha Markazning katta ilmiy xodimi Frensis Fukuyamaning "Ishonch: ijtimoiy fazilatlar va farovonlik sari yo'l" nomli kitobida ayniqsa yorqin ochib berilgan.[3; 34-b]

Ijtimoiy normalar turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Jumladan, u jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan xulq-atvor normalari, huquqiy normalar, diniy normalar, estetik normalar, urf-odat, marosim va an'analar, korporativ normalar sifatida namoyon bo'ladi. Qanday ko'rinishda namoyon bo'lmasin, kishilarni birlashtiruvchi va hamkorlikka chorlovchi omil vazifasini o'taydi. Binobarin, uni ijtimoiy adolatning navbatdagi elementi sifatida e'tirof etish mumkin.

Shaxslararo hamkorlik jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan qadriyatlarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. "Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushunchadir".[4;646-b] Qadriyatlarning umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlar kabi turlari mavjud. Ularning butun bashariyatga tegishli bo'lgan qismi umuminsoniy qadriyat deyilishi bizga ma'lum.

Bundan tashqari, "shunday qadriyatlar xam mavjudki, ular muayyan millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir. Ularni milliy qadriyatlar deyiladi".[5; 646-b]

Shunday qilib, ijtimoiy adolat tarkibi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: a) shaxslararo hamkorlik; b) o'zaro ishonch; v) ijtimoiy normalar; g) jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar. Ushbu elementlarning shakllanganligi darajasi jamiyat ijtimoiy adolatining salmog'ini, hajmini belgilaydi. Salmoqli ijtimoiy adolat barqarorlik omili, taraqqiyot manbai, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartidir.

Ijtimoiy adolat — o'zgarmas fenomen emas. U qator tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy omillar ta'sirida shakllana boradi. Xususan, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy aloqalar mavjud tabiiy shart- sharoitlardan kelib chiqadi. Bu aloqalarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan shaxsiy hamkorlik haqida ham shunday deyish mumkin. Turli tabiiy shart-sharoitlarda umrguzaronlik qilayotgan xalqlar turmushida shaxsiy hamkorlikning turlicha shakllari rivoj topadi. Xulq-atvor normalari, huquqiy normalar, diniy normalar, estetik normalar, urf-odat, marosim va an'analar, korporativ normalar, jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar shakllanishining dastlabki asosi ham tabiiy shart-sharoitlar bilan bog'liq.

Ijtimoiy adolatni rivoj toptirish strategik ahamiyatga ega. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, yuksak darajada rivojlangan ijtimoiy adolat jamiyatda hukm surayotgan iqtisodiy tizim samaradorligini oshiradi. U eng avvalo mehnat jarayonining asosiy subyekti hisoblanadigan insonning imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijtimoiy adolat iqtisodiy jarayonlarga jalb etilgan kishilarning ishlab chiqarish vositalariga munosabatini o'zgartiradi. Shaxslararo hamkorlik, o'zaro ishonch, ijtimoiy norma va qadriyatlarning rivoj topishi ishlab chiqarish munosabatlari xarakteriga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy adolatning iqtisodiyotga ta'siri ayniqsa ijtimoiy islohotlar davrida yorqin namoyon bo'ladi. Bu davrda u fuqarolarni iqtisodiy

taraqqiyot maqsadlari atrofida birlashtirishning, salmoqli islohot dasturlarini amalga oshirishning manbasi vazifasini o'taydi.

Ikkinchidan, yuksak darajada rivojlangan ijtimoiy adolat jamiyatda hukm surayotgan siyosiy tizim barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" hamda 14-moddasi "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi" kabi muhim qoidalar o'z o'rnini topgan. Binobarin, davlat hokimiyatining, jamiyat siyosiy tizimining barqarorligi ana shu manbaning mustahkamligi darajasiga bog'lik. Xalq, jamiyat qudrati esa aynan shaxslararo hamkorlik, o'zaro ishonch, ijtimoiy norma va qadriyatlar rivoji bilan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, yuksak ijtimoiy adolat mavjud bo'lgan jamiyatlardagina siyosiy tizim ham demokratik xarakterga ega bo'ladi.

Uchinchidan, ijtimoiy adolat ijtimoiy farovonlik mezonlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Ma'lumki, jamiyatning farovonligi darajasini ifodalovchi qator ko'rsatkichlar mavjud. Bu ko'rsatkichlar turkumiga fuqarolarning o'z turmushi sifatidan roziligi darajasini, jamiyatda o'rta sinf vakillarining miqdorini, kambag'allik me'yorini, jinoyatchilik darajasini va shu kabi boshqa mezonlarni kiritish mumkin. Shaxslararo hamkorlikning maqbul shakllari qaror topgan, fuqarolarning bir-biriga ishonchi mustahkam bo'lgan, ijtimoiy normalarga qat'iy rioya etiladigan, umume'tirof etilgan qadriyatlar barqaror bo'lgan jamiyatda kishilarning o'z hayotidan roziligi yuqori bo'ladi, o'rta sinf vakillari ko'pchilikni tashkil qilgani bois kambag'allik soni ham kam bo'ladi, jinoyatchilik darajasi pasaya boradi.

To'rtinchidan, ijtimoiy adolat jamiyat a'zolarining ma'naviy yuksalishlari uchun zamin yaratadi. Har qanday jamiyat rivoji nafaqat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, balki ma'naviy omillarga ham bog'liqligi bizga yaxshi ma'lum. Biroq jamiyatda shaxslararo hamkorlik hukm surmas ekan, kishilar bir-birlariga ishonmas ekanlar, turfa insonparvar qadriyatlarga amal qilmas ekanlar, shaxs ijtimoiy fazilatlarini va xislatlarini yuksaltirib, qobiliyati va salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarib bo'lmaydi.

Beshinchidan, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy adolat milliy hamjihatlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. U rivojlangani sayin millat vakillari o'rtasidagi hamjihatlik va yakdillik, o'zaro hamkorlik va yordam, yagona maqsad yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatish istagi ham mustahkamlana boradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat milliy hamjihatlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Ijtimoiy adolat — jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqalarning xarakterini, ularning o'zaro hamkorligi va ishonchi, umumiy ijtimoiy normalar va qadriyatlarga moyilligi darajasini ifodalovchi tushunchadir. Murakkab tarkibga ega mazkur fenomen qator tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy omillar ta'sirida shakllana boradi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir». Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. [https://constitution.uz/oz/pages/prezident\\_maruzasi\\_25yil](https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil)

2. А.Х.Саидов. Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлида. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/616.11.01.2023>
3. Ҳайдаров М. Т. Ижтимоий ҳамкорликнинг назарий асослари.// Иктисодиёт ва молия, 2014, №8. Б-34
4. Назаров К. Жаҳон фалсафаси комуси. Иккинчи жилд.- Т.: Узб.файл. миллий жам. нашр.- Маънавият, 2019.- Б.646.



**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ISSUES RESOLVED BY EXPLOSIVE-TECHNICAL AND EXPLOSIVE EXAMINATIONS, APPOINTED ON THE BASIS OF MATERIAL EVIDENCE OBTAINED DURING THE INSPECTION AFTER THE EXPLOSION**

**Abulkhairov Rustamkhon Ibodullaevich,**

Lecturer at the Department of Criminalistics and Forensic Science  
of Tashkent State University of Law

E-mail: [r.abulxayrov@tsul.uz](mailto:r.abulxayrov@tsul.uz)

**Abstract.** This scientific article expresses substantiated opinions regarding the specifics of the appointment of explosive-technical and explosive examinations, which are appointed on the basis of material evidence obtained during inspection after an explosion.

It also describes the tasks, objects of research and issues solved by explosive-technical and explosive examinations.

**Keywords:** inspection, explosive expert, explosive substance, explosive device, explosion method, examination, diagnostics, identification, classification, situational, admissible evidence, pyrotechnic composition, object of study.

## **PORTLASHDAN KEYIN KO‘ZDAN KECHIRISH DAVOMIDA OLINGAN ASHYOVIIY DALILLAR BO‘YICHA TAYINLANADIGAN PORTLASH-TEKNIK VA PORTLOVCHI MODDALAR EKSPERTIZALARI HAL ETADIGAN MASALALAR**

**Abulxayrov Rustamxon Ibodullayevich,**

Toshkent Davlat yuridik universiteti

“Kriminalistika va sud ekspertizasi” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada portlashdan keyin ko‘zdan kechirish jarayonida olingan ashyoviy dalillar bo‘yicha tayinlanadigan portlash-texnik va portlovchi moddalar ekspertizalar tayinlashning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan asoslantirilgan fikrlar bildirilgan.

Shuningdek, portlash-texnik va portlovchi moddalar ekspertizalarining vazifalari, tadqiqot obektlari, hal etadigan masalalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ko‘zdan kechirish, portlash-texnik, portlovchi modda, portlovchi vosita, portlatish usuli, ekspertiza, diagnostik, identifikatsion, klassifikatsion, situatsion, maqbul dalil, pirotexnik qo‘shilma, tadqiqot obyekti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N36>

### **Kirish**

So‘nggi yillar jahonda jinoyatchilikning ko‘payishi, tobora tajovuzkor va zo‘ravon bo‘lib borishi bilan ajralib turadi. Buning ko‘rinishlaridan biri portlashlar yordamida sodir etilgan jinoyatlar hisoblanadi.

Bir qator sabablarga ko‘ra jinoiy portlashlarni tergov qilish qiyinchilik tug‘diradi va maxsus bilimlardan foydalanmaslik mumkin emas. Bu holatda eng muhim narsa portlovchi moddalar bo‘yicha mutaxassis, ya‘ni ekspertlarning maxsus bilimlaridan tergov jarayonida

foydalanishdir. Portlash bo'yicha tergovning muvaffaqiyati ko'pincha uning malakasiga, texnik va taktik tayyorgarligiga bog'liq.

Portlash – juda tez yonish bo'lib, katta miqdordagi energiya va siqilgan gazlar hosil bo'lishi bilan kuzatiladi. Bu energiya va gazlar mexanik buzilishlar keltirib chiqarishi mumkin [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, portlashdan keyin ko'zdan kechirish, portlovchi qurilma, portlovchi moddalar bo'yicha maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qiladi. Ehtiyotkorlik choralarga rioya etmaslik xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

### **Tahlil**

Portlash joyini ko'zdan kechirish eng muhim va ma'suliyatli tergov harakati hisoblanadi. Ko'zdan kechirishning maqsadi ish bo'yicha ahamiyatli haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash va mustahkamlashdir. Yuridik adabiyotlarda A.I.Vinbergning "hodisa sodir etilgan joyini ko'zdan kechirish - hodisaning mexanizmini o'rganishga, jinoyatchilik faoliyatining izlarini aniqlash, saqlash va keyinchalik o'rganish uchun qayd etishga hamda sodir etilgan hodisa holatlarini aniqlash maqsadida turli obyektlar, predmetlar, hujjatlar va boshqa ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarning qayd etilishiga qaratilgan tergov harakati hisoblanadi [2]" degan ta'rifi e'tiborga loyiqdir.

Ko'zdan kechirishda haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash tergov harakatining bevosita ishtirokchilari bo'lgan tergovchi va xolislarning bevosida ishtiroki orqali amalga oshirilib, tegishli video, foto kabi kriminalistik texnik vositalar qo'llaniladi.

Kriminalistik fotografiyaning turlari mo'ljalli, obzorli, mazmunli, detalli, tanib olish uchun kabi turlarga bo'linsa, uning uslublari oddiy, panoramali (chiziqli, doiraviy), hajmli (stereo), makro, reproduksiyali, o'lchamli (masshtabli), teleobyektiv bilan suratga olish kabilarga bo'linadi [3].

Suratga tushirishning xususiy usullari voqea sodir bo'lgan joyini suratga olish bayonnomasini tasviriy qilib mustahkamlashga va ashyoviy dalillarning fotonusxalarini jinoyat ishiga qo'shib qo'yishga yordam beradi. Voqea sodir bo'lgan joyini o'z vaqtida kechikmasdan suratga olish muhim ahamiyatga ega [4].

A.I.Vinbergning fikricha hodisa sodir etilgan joyini ko'zdan kechirish, bu - ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan va kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati bo'lib hisoblanadi. U o'z ichiga sodir etilgan hodisaning xarakteri, jinoyatchilar shaxsi, jinoyat motivlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan hodisa joyining holatini o'rganishi, har xil izlar va boshqa ashyoviy dalillarni topish, qayd etish va qo'lga kiritish kabi harakatlarni qamrab oladi [5].

Portlash joyini ko'zdan kechirishda tergovchi quyidagi taktik qoidalarga va tamoyillarga rioya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Ko'zdan kechirish kechiktirilmay, o'z vaqtida amalga oshirilishi;

Tergovchi portlash hodisasi sodir etilganligi to'g'risida xabar olgandan keyin darhol portlash joyiga yetib borishi lozim. Portlash joyini ko'zdan kechirish natijasida olingan ma'lumotlarga qarab, tergovchi hodisa to'g'risida, jinoyat sodir etgan shaxslar to'g'risida tergov tasmollarni ilgari suradi, jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topish va ushlab bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tezkor tadbirlarni tashkil etadi va keyin o'tkaziladigan tergov harakatlarini rejalashtiradi. Tergov harakati natijalarining isbotlovchi ahamiyati ko'p jihatdan uning o'z vaqtida o'tkazilganligi darajasiga bog'liqdir.

- Ko'zdan kechirishning obyektivligi;

Tergovchi ko'zdan kechirishda jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan holatlarni har tomonlama o'rganib, portlash bo'yicha to'plangan hujjatlarga bir xil baho berishi lozim. Tergovchi ayrim faktlarni dalil sifatida qabul qilib, ish bilan bog'liq bo'lgan ashyoviy dalillarni ikkinchi darajali deb hisoblashi mumkin emas. Obyektivlik, bu-voqelikka mos kelish demakdir. Portlashdan keyin ko'zdan kechirishning obyektivligi bu tergov harakatining boshlanishida, obyektlarni qanday holatda aniqlangan bo'lsa, shundayligicha qayd etish va dastlabki tadqiq etishdan iboratdir.

- Ko'zdan kechirishning har tomonlama to'liq o'tkazilishi. Ish bo'yicha noaniq, to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanilmaydi. Portlash joyini ko'zdan kechirish natijasida topilgan va aniqlangan faktlardan ish bo'yicha dalil sifatida foydalaniladi.

Portlash joyini ko'zdan kechirishning asosiy tamoyillari uning o'z vaqtida va atroflicha, batafsil o'tkazilishini alohida ajratib ko'rsatish lozimki, ular mumkin qadar maksimal axborot to'plashni ta'minlaydi.

Jinoyat alomatlari mavjud bo'lganda, jinoyat va jinoyatchi haqidagi xabarlarini, ma'lumotlarni olish uchun doimo dastlabki tergov mantiqan ashyolarni, izlarni hodisa joyini o'rganidan boshlanadi.

Ba'zan tergov harakati o'tkazilayotgan joyda olib qo'yilgan hamma narsalarni sinchikovlik bilan ko'zdan kechirishning imkoni bo'lmaydi. Bunday hollarda tergovchi yoki surishtiruvchi tergov harakatini bayonnomasida bu narsalar va hujjatlarning olib qo'yilganligini belgilaydi, xolislar ishtirokida olib qo'yilgan materiallarni o'raydi va muhrlaydi hamda ularni tergov yuritilayotgan joyga olib boradi. Bu yerda xolislar ishtirokida olib qo'yilgan narsalar va hujjatlarning muhri buziladi, ular ko'zdan kechiriladi, bu haqida alohida bayonnoma tuziladi.

Ko'p hollarda hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari asosida jinoyatning yasamaligi yoki jinoyat tarkibining mavjud emasligi yoxud jinoyat izlari bo'yicha muvoffaqiyatli qidiruv ishlari olib borish borasida xulosalar chiqariladi.

Portlash joyidan olingan barcha narsalar zararlanishsiz qadoqlanib va kuchli mexanik ta'sirlarsiz alohida quruq va qorong'i binoga etkaziladi va keyin, qayta qadoqlanmasdan imkon qadar tezroq tadqiq qilish uchun yuboriladi. Portlash joyidan izlar va narsalarni olishda avvalgi asl muhitga tegishli bo'lmagan barcha narsa to'planishi qoidasiga amal qilish kerak [6].

Portlash joyini ko'zdan kechirish bayonnomasida tergov harakatini o'tkazish paytida topilgan narsalarning barchasi juda to'liq qayd etilishi, ishda ahamiyatli bo'lgan barcha holatlarni qayd etishi, biroq bunda obyektarni juda maydalashtirib, chegaradan chiqib ketmaslik kerak.

Kriminalistika ekspertiza faoliyati bilan uzviy bog'liqdir, shuning uchun olimlarning asosiy e'tibori tahlil usullarini ishlab chiqish va zamonaviy tasvirni qayta ishlash usullaridan foydalangan holda raqamli tasvirni ilg'or tahlil qilish uchun ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotni yaratishga qaratilishi kerak [7].

Ekspertiza maxsus bilimlarni talab etadigan va surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimi asosida o'tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Ushbu tergov harakati ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risida ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimli bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda tayinlanadi. Bunda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya,

mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo'lishi ekspertiza tayinlash zaruriyatidan ozod etilmaydi.

Ayni paytda ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertlarning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas [8].

Amaldagi protsessual qonunchilikga asosan, ekspertiza tergovga qadar tekshiruv davomida tayinlanishi mumkin. Ekspertiza tayinlash yoki o'tkazmaslik to'g'risidagi savolni tergovchi, surishtiruvchi, sud hal qiladi va ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni qanday darajada yig'ilganligiga e'tibor berishi lozim.

Ekspertiza predmeti fan, texnika, san'at va boshqa sohaga mansub bo'lishi mumkin.

Ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan uslublar, vositalar, ma'lumotlar muayyan ravishda aniqlanib, voqelikka mos bo'lishi kerak va hali o'rganish bosqichida bo'lmasligi lozim. Ekspertiza tayinlash masalasini hal qilishda mutaxassislar yordamidan, ularning maslahatlaridan foydalanib, uni tayinlash imkoniyatlari, ekspertlarning tarkibi, tegishli materiallarning doirasi bo'yicha maslahatlashuv harakatlari o'tkazilishi mumkin.

Ekspertizani ekspertiza muassasalarining, boshqa davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning mutaxassislari yoki surishtiruvchi, tergovchi yoxud sud tayinlagan boshqa bilimdon shaxslar o'tkazadi.

Ekspertiza o'tkazishning asosiy talablaridan birishi ekspertni yoki ekspertiza muassasasini tanlash masalasidir. Ekspertiza muassasasini tanlash ekspert tekshiruvda hal etiladigan savollar va tegishli obyektlarga bog'liq.

Ekspert etib tayinlanadigan shaxslarni ikki guruhga, ya'ni ekspertiza muassasasida faoliyat yurituvchi xodimlar (ekspertlar), ekspertiza muassasalariga va ularning xodimlariga aloqasi bo'lmagan bilimdon shaxslarga bo'lish mumkin.

Ekspertiza obyektlariga tadqiq etiladigan obyektlar kiradi, zaruriy hollarda tegishli namunalar va jinoyat ishi materiallarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Ekspertiza tayinlash to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Unda ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan sabablar, ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlar, ularning qachon, qayerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi, ish materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda esa ekspert xulosasi asoslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, ekspert oldiga qo'yiladigan savollar, ekspertiza muassasasining nomi yoki ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxsning familiyasi ko'rsatilishi lozim.

Ekspertiza ekspertiza muassasidan tashqarida o'tkaziladigan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspertiza o'tkazish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqarilgandan keyin ekspertiza o'tkazish topshirilayotgan shaxsni chaqirtiradi, uni rad etishga asoslar bor-yo'qligini aniqlaydi.

Ekspert zaruriy tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin o'z nomidan yozma xulosa tuzadi va uni imzolab tasdiqlaydi.

Ekspertning xulosasida:

uning familiyasi, ismi va otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosi, ushbu ixtisoslik bo'yicha staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi;

xulosa berishdan bo'yin tovlaganlik va bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ekspertning ogohlantirilganligi;

ekspertiza qaysi protsessual qarorga asosan va qachon o'tkazilganligi;

uni o'tkazish vaqtida kim hozir bo'lganligi;

ekspert ishining qaysi materiallaridan foydalanilganligi, qaysi ashyoviy dalillar, namunalar va boshqa obyektlar tekshiruvdan o'tkazilganligi;

qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lgan va ekspert o'z tashabbusi bilan aniqlagan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Ekspert xulosasida jinoyat sabablari va uning sodir qilinishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek uni bartaraf qilishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Tekshirish o'tkazilgandan qolgan ashyoviy dalillar, namunalar, boshqa obyektlar, shuningdek fotosuratlar, sxemalar, chizmalar ekspert xulosasiga qo'shib qo'yilishi zarur.

Ekspert xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Ekspertning xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas, xulosaga qo'shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim.

Ekspert xulosasi ish bo'yicha mavjud bo'lgan va inkor etishga imkoniyatlar yaratmaydigan dalillar asosida chiqarilishi va bu dalillar qonuniy jihatdan to'g'ri aniqlangan va olib qo'yilgan, qayd etilgan bo'lishi lozim.

Ekspertiza o'tkazilish jarayonini baholashda tergovchi, surishtiruvchi ekspertning harakatlari uning xulosasida qay darajada o'z aksini topganligi va ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri o'tkazilganligi, to'g'ri uslublar va usullar qo'llanilganligi, taxminiy emas, balki qat'iy natijalar olinganligiga ular ishda mavjud va voqelikka to'g'ri bo'lgan dalillarga mos ekanligini aniqlashi kerak hamda hozirda fan-texnika imkoniyatlaridan to'la foydalanilganligini e'tiborga olish kerak.

Portlash joyini ko'zdan kechirish va ekspertiza tayinlashning nazariy asoslarini bilish, nafaqat ushbu sohada ilmiy izlanishlar, balki tergovni amalga oshiruvchi organlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

**Portlash-texnik ekspertizasi.** Mazkur ekspertiza portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari va ularning qo'llanishi natijasida hosil bo'lgan izlarni tadqiq qiladi. Portlatish usuli-bu turli portlatish moslamalarini qo'llashdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasining birinchi qismi 9-bandiga asosan, basharti, ish bo'yicha portlashlar, halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart [9].

Mazkur ekspertiza portlash faktini aniqlash, portlatish qurilmalarining tuzilishi, ishlatilgan portlovchi moddaning turi va miqdorini, portlash xavfsizligi qoidalarining buzilishi, tayyorgarlik ko'rilganlik holatini, oqibatlarini, portlatishdan avvalgi holatini tiklash, portlatish qurilmasi o'rnatilgan joyni topish, portlovchi moddalarning o'z o'zidan o't olishi mumkinligini aniqlash va boshqalar uchun o'tkaziladi.

Portlatish texnikasi ekspertizasida diagnostik, identifikatsion, klassifikatsion va situatsion turdagi vazifalar hal etiladi.

Portlash texnikasi ekspertizasini ekspertlar bajarishlari uchun, ular oldiga tergovchi, surishtiruvchi yoki sud tomonidan quyidagi savollarni qo'yishlari tavsiya etiladi:

Portlash sodir bo'lgan joydan portlash xavfi bo'lgan obyektlar olinganda:

1) portlash xavfi bo'lgan obyekt portlash materiallari yoki portlash qurilmalariga tegishlimi?

Portlash materiallari olingan bo'lsa:

1) ekspertizaga yuborilgan obyektlarda portlatish moddalarining qoldiqlari mavjudmi, agar bor bo'lsa ularning turi, xususiyati va ishlatilish sohasi belgilansin.

2) taqdim etilayotgan modda portlash materiallariga xosmi?

3) agar xos bo'lsa, qaysi material turiga portlovchi moddalar yoki portlatish jihozlariga mansub?

4) portlash materiallari kanday usulda ishlab chiqilgan (qo'lbola yoki sanoatda)?

5) xususiyatlari va ishlatilish sharoiti qanday?

6) ekspertizaga taqdim etilayotgan portlash materiali portlatishga yaroqlimi?

7) agar takdim etilayotgan portlash materiali sanoatda ishlab chiqarilgan bo'lsa, uning turi va markasi qanaqa?

Portlatish qurilmalari olingan bo'lsa:

1) portlatish qurilmasi hamda uning asosiy elementlarining konstruksiyasi va tayyorlash usullari (ko'lbola, sanoatda) qanday?

2) agar portlatish qurilmasi sanoatda ishlab chikarilgan bo'lsa, uning turi va markasi (artelleriya snaryadi, mina, granata, imitatsiya jihozlari, uyg'otish jihozlari va shu kabilar) kanday?

3) portlatish qurilmasi harbiy o'q dorilar (boyepripaslar) toifasiga mansubmi?

4) portlatish qurilmasi portlatish uchun yaroqlimi?

Portlash sodir etilganda:

1) sodir bo'lgan portlashning xususiyati, tabiati va uni keltirib chiqqan texnik sabablar qanday?

2) tadqiqot uchun taqdim etilgan obyektlarda portlovchi modda koldiqlari mavjudmi?

3) agar mavjud bo'lsa, qaysi turga mansub, uning xususiyatlari va ishlatish sharoiti qanday?

4) portlatish qurilmasining va uning asosiy qismlarining tuzilishi, tayyorlanish-ishlanish uslubi (sanoat ishlab chiqarishda, qo'lda yasalgan va hokazo) qanday?

5) portlatish qurilmaning o't oldirish usuli va tartibi qanday?

6) portlatilayotgan qurilmaning zararlanish xususiyati va trotil ekvivalentida portlash kuchi qanday?

7) portlash quvvati kancha va uning zarar yetkazish xususiyatlari qanday?

8) portlatish qurilmasi sanoatda ishlab chiqarilib tayyorlangan bo'lsa uning turi, markasi (artelleriya snaryadi, mina, granata, imitatsiya jihozlari, detonatsiya qilish jihozlari va shu kabilar) qanday?

9) portlatilgan kurilma o'q-dorilar toifasiga mansubmi?

10) portlatish qurilmasi qo'lda ishlangan bo'lsa uni yasagan shaxsning bu sohadagi mutaxassislik malakasi qanday?

Ekspertlarning oldiga qo'yilgan savollar portlash xavfi bo'lgan obyektlar bilan xavfsiz ish olib borish maqsadida surishtiruv, tergov organlari bilan kelishilgan holda bo'lishi kerak.

Portlash xavfi bo'lgan har bir obyekt bilan ishlash faqat laboratoriya rahbariyati ko'rsatmasi asosida amalga oshiriladi. Portlash xavfi bo'lgan obyektlarni tashish (transportirovka qilish) uchun ular quyidagi tartibda o'rab-joylashtirilishi zarur:

– o'ram porolon, kog'oz, penoplastlardan iborat bo'lishi;

- o‘ramlar va ulardagi obyektlar bir-biriga tegmasligi uchun va siljimasligi uchun mustahkamlash;
- elektr toki yordamida ishlaydigan portlatish jihozlarni alohida o‘rab-joylashtirish;
- portlovchi moddalarni o‘rab-joylashtirishda toza shisha, polietilen, qog‘oz va kartonli idishlardan foydalanish.

Portlash xavfi bo‘lgan obyektlarni tashish (transportirovka qilish) qurollangan qo‘rikchilar yordamida amalga oshiriladi va ularni xizmat avtoulavlarida, maxsus portlash konteynerlariga joylashtirilgan holda, tekshiriladigan joyga eltib qo‘yiladi.

Tushuntirilsinki, jinoyat to‘g‘risidagi ariza, xabar bilan birga taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar), fotosuratlar, audio-, videoyozuvlar faqat ushbu materiallarni taqdim etgan shaxslar ish qo‘zg‘atilgandan keyin so‘roq qilingan va taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar) kim tomonidan, qachon, qayerda, qanday holatlarda topilganligi yoki fotosurat, audio-, videoyozuvlar amalga oshirilganligi aniqlangan holdagina maqbul dalil sifatida foydalanilishi mumkin. Taqdim etilgan predmetlar (narsalar)ni maqbul dalil deb topishning zarur sharti ularni ko‘zdan kechirish to‘g‘risidagi bayonnoma tuzilganidan so‘ng chiqariladigan, predmetlar (narsalar)ni ishga ashyoviy dalil sifatida qo‘shish to‘g‘risidagi qaror (ajrim) hisoblanadi. Zarur hollarda hujjatlar, predmetlar (narsalar), fotosuratlar, audio-, videoyozuvlarni ishga daliliy ashyo sifatida ishga qo‘shish masalasini hal etish uchun tegishli ekspertiza tayinlanishi mumkin [10].

Portlovchi moddalar qo‘llanishlik sohasiga ko‘ra 4-guruhga mansub bo‘lib, bularga portlashni boshlab beruvchi, ta‘minlovchi (birlamchi) moddalar, brazantli (ikkilamchi) moddalar, otishga mo‘ljallangan moddalar yoki poroxlar va pirotexnik qo‘shilma moddalarni tashkil qiladi.

Portlashni boshlab beruvchi (birlamchi) portlash moddalari oz miqdordagi issiqlik yoki mexanik ta‘sir natijasida portlab ketish xususiyatiga ega bo‘lib, ular qisqa muddatda yonishi va detonatsiya reaksiyasiga o‘tishi bilan sifatlanadi. Bu moddalar portlash jarayonida birinchi bo‘lib yonadi va asosiy portlovchi moddani detonatsiyasi uchun qo‘llanadi. Mazkur moddaning eng ko‘p tarqalgan turlari simob, qo‘rg‘oshin azidi hisoblanadi.

Brizentli (ikkilamchi) portlatish moddalariga tashqi sharoit muhiti unchalik ta‘sir etmaydi. Bu moddalarni portlatish uchun yuqorida ko‘rsatilgan birlamchi moddaning kam miqdori (bir necha gramm) ishlatiladi. Brizentli portlovchi moddalariga turli individual vositalar, jumladan, trotil, geksojen, TEN, tetril, pikrent kislota va portlovchi qo‘shilmalar kiradi.

Otishga mo‘ljallangan (porox) moddalarining asosiy xususiyati portlashga olib keluvchi tezda o‘t olib yonuvchiligi hisoblanadi.

Portlatish qurilmasi deganda, maxsus ishlangan va ma‘lum sharoitlarda portlash qobiliyatiga ega bo‘lgan turli vosita - qurilmalar tushuniladi [11]. Bular qo‘lbola yoki sanoatda tayyorlangan bo‘lishi mumkin.

Portlatish qurilma (moslamalar)ning birorta qismi qo‘lda yasalgan yoki boshqacha usulda yig‘ilgan bo‘lsa, yasama qurilma deb hisobladi.

Sanoat ishlab chiqarishda fizikaviy portlatishdan hosil bo‘ladigan energiyadan foydalanish uchun tayyorlangan va gaz, chang-havo parlari qo‘shilmalaridan foydalanuvchi qurilmalar ekspertiza amaliyotida deyarli uchramagan.

Portlash moddalarining texnikaviy ekspertiza obyektlariga portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, portlatish qurilmalarini yasashda foydalanish mumkin bo'lgan materiallar, portlatish qoldiqlari, jinoyat ishi materiallari (hujjatlar) kiradi.

Portlovchi vositalarda ishlatiladigan portlovchi modda va materiallarning xilma-xil bo'lishligi kriminalistik tadqiqotda ekspertizaning o'ziga xos uslubiyatlarini qo'llashni talab etadi.

Portlovchi moddalardan qolgan izlarni tadqiq etishda asosan (tomchili) analitik reaksiya, yupqa qatlamli xromotografiya uslublari qo'llanib, ularning tahlili gaz – suyuqlik va suyuqlik xromotografiya, infra qizil spektrometriya, rentgenostruktur analiz yordamida o'tkaziladi.

Pirotexnik qo'shilmalar tarkibiga kiruvchi moddalarning turini aniqlash uchun elementli spektral va mikro spektral uslublari qo'llaniladi.

Pirotexnik qo'shilmalar tarkibiga kiruvchi moddalarning turini aniqlash uchun odatda elementli spektral va mikro spektral uslublari qo'llaniladi.

Portlash hodisasining xususiyatini aniqlash, portlab ketgan qurilmaning tashqi ko'rinishini tiklash, uning tuzilishi, ishlatish va qo'llanishlik prinsiplarini tekshirish sud-portlash ekspertiza sohasida maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Hal etiladigan masalalar ko'p hollarda kompleks xarakterga ega bo'lib, ularni yechish samaradorligi mutaxassisning amaliy tajribasi, malakasiga, boshqa turdagi ekspertiza natijalari va voqea yuzasidan yig'ilgan ma'lumotlarning to'laligiga bog'liqdir.

**Portlovchi moddalar ekspertizasi.** Ushbu ekspertizaning muhim asosini yonishni detonatsiyaga aylanish, detonatsiya va fizikaviy portlashlar nazariyasi tashkil qiladi.

Portlovchi moddalar tashqi ta'sirlar (zarba, issiqlik va boshqalar) natijasida katta tezlik bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, ko'p issiqlik va gaz ajratib chiqaradigan kimyoviy birikmalar yoki moddalar aralashmasidir.

Mazkur ekspertizasining tadqiqot obyektlari portlashga aloqador bo'lgan narsalar hamda sharoitlar, ya'ni oltingugurt, selitra, detanatorlar, alyumin kukuni, poroxlar, brizant portlovchi moddalar bo'lishi mumkin.

Ekspertizga ashyoviy dalillarni har biri alohida o'ralgan holda taqdim qilinishi kerak.

Ushbu ekspertiza yordamida quyidagi savollar hal qilinadi:

1) taqdim etilgan tuproq namunalarida portlovchi moddalar qoldiqlari mavjudmi? agar mavjud bo'lsa, uning turi va qayerlarda ishlatilishi aniqlansin.

2) taqdim etilgan fuqaroning uyidan ashyoviy dalil sifatida olingan o'g'it, oltingugurt va alyumin kukuni portlovchi moddalar hisoblanadimi?

3) taqdim etilgan ashyoviy dalillar portlovchi moddalar turkumiga kiradimi? Agar kirsam, uning turi aniqlansin.

4) taqdim etilgan metall bo'laklarida portlovchi moddalar qoldiqlari mavjudmi? ular qayerlarda ishlatilishi aniqlansin.

5) taqdim etilgan kiyim qoldiqlarida portlovchi moddalar mavjudmi? agar mavjud bo'lsa, uning turi aniqlansin.

Ashyoviy dalillarni olish to'g'risidagi qarorga portlash sodir bo'lgan joyning (binolarning) tasviri va uning chizmasi ilova qilinishi kerak. Ushbu ilovada binoning



o'lchamlari, ashyoviy dalil olingan joylar, jug'rofiy tomonlar (shimol, janub, sharq, g'arb) ko'rsatilmog'i lozim [12].

Mazkur turdagi ekspertizalarni bajarish an'anaviy fizik-kimyoviy usullardan tashqari zamonaviy analitik usullarni qo'llashni talab qiladi. Bu maqsadlarda o'ta sezgir kapillyar kolonkali gaz-xromatografi va xromato-mass-spektrometr qurilmalaridan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, portlash oqibatida yong'in yoki yong'indan keyin portlash sodir bo'lishini sabablarini aniqlash maqsadida, portlash-texnik va yong'in-texnik ekspertlarini kompleks tayinlash va o'tkazish ijobiy natija beradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Sud ekspertizasi va kriminalistika atamaları lug'ati. Mualliflar jamoasi. Toshkent: TDYUU-2024. 77-bet.
2. Матышев А.А. «Осмотр трупа на месте его обнаружения». изд. «Лань». С.-Петербург, 1994. С. 43.
3. Градобоев В.М. Судебная фотография для следователей: Часть 1. Учебное пособие. - Л., 1987.
4. Душеин С.В., Егоров А.Г., Зайцев В.В. и др. Судебная фотография. СПб: Питер, 2005.
5. Винберг А.И. «Криминалистика» 1950 й. С.3.
6. Дильдин Ю.М., Мартынов В.В., Семенов А.Ю. Место взрыва как объект криминалистического исследования. М.: Юрид. лит., 1995. с. 52-53.
7. Газизов В.А., Подволоцкий И.Н. Меры обеспечения цифровой криминалистики /В.А.Газизов, И.Н.Подволоцкий // Энциклопедия судебной экспертизы. — 2020. — № 1. — С. 21—28.
8. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процесси: Дарслик /Б.А.Миренский, А.Х.Раҳмонқулова бошқалар. Т: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004, 154-бет.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. -- Toshkent: Adolat, 2021.
10. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сон "Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида"ги Қарорининг 10-банди.
11. Р.Алимова, С.Отахўжаев. Суд экспертизасини ташкил қилиш ва ўтказиш масалалари (ўқув қўлланма). "Янги аср авлоди", Тошкент-2001. 67-бет.
12. Замонавий суд экспертизасининг имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш бўйича амалий қўлланма. "Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази. Тошкент-2023. 298-бет.

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE**

**Received:** 16 June 2025  
**Accepted:** 5 July 2025  
**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

**DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF EDUCATORS OF THE SOCIO-HUMANITARIAN DIRECTION**

**Jumaniyozova Muhaiyo Tojiyevna,**  
doctor of Pedagogical Sciences (DSc)  
Uzbekistan State University of world languages

**Abstract.** This article will talk about the problems of organizing the continuous education of pedagogical personnel, creative thinking.

**Keywords:** skills development, creativity, education.

**IJTIMOYIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,**  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
E-mail: [m.jumaniyozova@uzswlu.uz](mailto:m.jumaniyozova@uzswlu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolari, kreativ fikrlash haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, kreativlik, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N37>

Pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolariga butun dunyoda katta e'tibor bilan qaraladi. Katta yoshlilarni butun umr davomida o'qitish va ularga ta'lim berish ta'limning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini, shuningdek, rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Yevropaning rivojlangan davlatlarida katta yoshlilar ta'limining asosiy xususiyati mutaxassislarning o'z-o'zini rivojlashtirishiga va mustaqil kasbiy rivojlanishga yo'nalganligida bo'lib, bu davlatlarda mustaqil malaka oshirish, masofaviy ta'lim, aralash ta'lim, ochiq ta'lim resurslari vositasida har qanday soha mutaxassisi o'z ustida mustaqil ishlashni tashkil etishi uchun tegishli shart-sharoitlar va metodik ta'minot yaratilganligini qayd etish lozim.

O'zbekistonda ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirishga yordam beruvchi asosiy omillardan biri ta'lim sifatini oshirish hisoblanadi, chunki davlatning innovatsion rivojlanish salohiyati raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni va talabni kuchayishiga olib keldi.

Mamlakatimizda katta yoshlilar ta'limini tashkil etish, malakasini oshirishning huquqiy asosi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida belgilangan, unga ko'ra "kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi", – deyilgan [8]. Qonunning 15-moddasida "katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish"ning ta'lim olish shakli sifatida belgilanishi ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va egallangan bilimlarni mustaqil baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan innovator o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda malaka oshirish tizimini takomillashtirish va o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodologiyasi, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, andragogik tamoyillari va texnologiyalari, kattalar ta'limini tashkil etishning konseptual masalalari R.X.Djurayev, J.Yo'ldoshev, N.Muslimov, O.Musurmanova, X.Ibragimov, Sh.Q.Mardonov, A.A.Xalikov, D.I.Yunusova, O.A.Qo'ysinov, A.D.Asqarov, A.S.Djurayev, S.Yu.Maxmudov, M.T.Mirsoliyeva, M.A.Yuldashev, G.Ibragimova F.Zokirova, Sh.Pozilova, A.R.Aripdjanova, M.J.Shodiyevalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot muammosiga oid me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sharoitlar, texnologik yutuqlar va postindustrial iqtisodiyotga o'tish tezligining o'zgarishi; ta'lim sohasidagi xalqaro tajribalar, jamiyat ehtiyoji hamda ta'lim oluvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'zgarishi; o'qitishning zamonaviy texnologiyalari takomillashuvi; davlat buyurtmasi asosida o'qituvchiga qo'yilgan kasbiy talablarning o'zgarishi; DTS va o'quv dasturlarining optimallashtirilishi va modernizatsiya qilinishi; oliy ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimiga o'tilishi, oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi bilan bog'liq holda pedagog kadrlarning shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajasini, oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda qaratilgan kreativ, o'ziga xos yangicha yondashuvini shakllantirishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarorida ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida "pedagog kadrlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini hayot davomida o'qish tamoyili asosida takomillashtirib borish" vazifasi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoniga asosan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlari, qayta tayyorlash va malaka oshirishning zamonaviy talablariga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllari amaliyotga joriy etilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida qayta tayyorlash va malaka oshirishning maqsadi pedagog xodimlarning ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish, ilmiy saviyasini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat

ekanligini hisobga olgan holda, biz tadqiqot jarayonida yangidan joriy etilgan uzluksiz malaka oshirish tizimining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilishni vazifa sifatida belgilagan edik. Uzluksiz malaka oshirish tizimining didaktik xususiyatlari va pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratdik:

- 1) pedagog kadrlarning o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o'zi-o'zini rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etilgan tashkiliy tuzilmasi xususiyatlari;
- 2) uzluksiz malaka oshirish shakllari va bevosita malaka oshirish kurslarida ta'lim mazmunini tanlashning didaktik tamoyillari xususiyatlari;
- 3) uzluksiz malaka oshirish jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, malaka oshirishning rasmiy, norasmiy va informal shakllari uzluksizligi mohiyati va ularning didaktik tizimi xususiyatlari o'rganildi. "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan rahbar va pedagog kadrlarning o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi **uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etilgan tashkiliy tuzilmasi** (2.1-rasmga qarang) asosiy xususiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat-jamiat xususiyati;
- uzluksiz ta'limning ichki tuzilmalari bilan uzviy bog'liqligi;
- kattalar ta'limi (andragogika) asosidagi nazariyaga yo'nalganligi;
- ta'lim xizmatlari bozorini shakllanganligi;
- boshqaruvning turli shakllari rivojlanishi (qonunchilik, boshqaruvchilik, iqtisodiy);
- maxsus tayyorlangan pedagog kadrlar, jumladan maslahatchilar, boshqaruvchilar, tyutorlar, ta'limning o'rgatuvchi dasturiy vositalari.

Tashkiliy tuzilmaga mos ravishda tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv kurslarida masofadan o'qitish usullari qo'llanilishi belgilab qo'yilgan va davlat talablari yangilangan.

*"Davlat ta'lim talablari* – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablardir.

*Uzluksiz malaka oshirish tizimi* – rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish, muntazam ravishda rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi ko'p bosqichli tizim.

*Masofaviy malaka oshirish* – ishlab chiqarishdan ajralmagan holdagi masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali malaka oshirishning onlayn (videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o'tkazish) va offlayn (masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) shakli" [8].

*Mustaqil malaka oshirish* – ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarni rahbar va pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtirish, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish shakli;

*Muqobil malaka oshirish* – mustaqil malaka oshirish shakllaridan foydalanib, rahbar va pedagog kadrlarning individual kasbiy mahorat natijalari tasdig'ini amaldagi bevosita malaka oshirish shakllariga tenglashtirilgan shakli.

*Elektron portfolio* – rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat natijalarini baholashga qaratilgan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarni qamrab oluvchi elektron resurslar majmuasi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda, o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajralgan holda amalga oshiriladi.

Bevosita malaka oshirish shaklida o'quv jarayonini tashkil etish tegishli yo'nalishlar bo'yicha tasdiqlangan malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlar, mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Gumanitar yo'nalish va ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari mazmuniga kasblar va lavozimlarga bo'lgan kasbiy malaka talablariga muvofiqlik; davlat maktabgacha tarbiya talablariga, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlariga nisbatan izchillik; zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish vositalariga yo'naltirilganlik; dasturlar mazmunini qayta tayyorlash va malaka oshirishning belgilangan turlari va shakllariga muvofiqligi kabi bazaviy talablar qo'yilgan.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar asosida quyidagilarga yo'naltirilgan:

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublariga oid ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarida butun jahon Internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng foydalanish;

malaka oshirishning bilvosita shakllarini amaliyotga to'liq joriy etish, pedagog kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, tabaqalashtirilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini rivojlantirish asosida malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy etish.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagog kadrlariga qo'yiladigan malaka talablari yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar, ilmiy va

innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari, pedagogning mahorati va kreativligi, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi modullari doirasida belgilangan.

Malaka oshirish kurslarida ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi didaktik talablarga javob berishi lozim:

*ta'lim mazmunini jamiyat, fan, madaniyat va shaxsga muvofiqligi tamoyili.* Malaka oshirish ta'limi mazmunini kurs kontingentining bilim, ko'nikma va malakalari, kompetensiyalari darajasidan kelib chiqib shakllantirish maqsadga muvofiq. Ya'ni andragogik ta'limning didaktik tamoyillari: ishtirokchiga yo'naltirilganlik, tajribaga yo'naltirilganlik, hayot tarziga yo'naltirilganlikka ko'proq e'tibor qaratish, shuningdek, jamiyat, madaniyat va shaxs imkoniyatlari rivojlanishining zamonaviy darajasini aks ettiruvchi bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalar ta'lim mazmuniga kiritilishi lozim;

*o'qitishning muayyan protsessual jihatlarining yagonaligi tamoyili.* Bunga ko'ra ta'lim mazmunini shakllantirishda andragogik ta'limning rasmiy, norasmiy va informal konsepsiyalari hamda o'quv jarayonining aniq xususiyatlari, uning tamoyillari, amalga oshirish texnologiyalari va o'zlashtirish darajalari birligi hisobga olinishi kerak;

*turli sathlardagi ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi tamoyili.* Bunda nazariy bilimlar, o'quv modullari, o'quv materiallari mazmuni, ta'lim oluvchining shaxsi kabi qismlarni o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo qiladi;

*ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.* Bu tamoyil ta'lim dasturlari doirasida kompetensiyani egallashga qaratilgan ta'lim maqsadlari shaxsning umuminsoniy madaniyati, uning ma'naviy ehtiyoji va qobiliyatlari faol ijodiy va amaliy o'zlashtirilishi va rivojlantirilishiga shart-sharoit yaratishi kerak;

*ta'lim mazmunining asoslanganligi tamoyili.* Har bir fan yoki modul mazmuni gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni integratsiyalash, uzviylik va fanlararo aloqalarda turli nazariyalar tamoyillari va o'qish asoslari, konstruktivizm, fenomenologik anglash nazariyasi, transformativ o'qish, bixeviorizm, neyrobiologik o'qish nazariyasiga asoslanishi lozim;

*ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi tamoyili.* Andragogikada "ustoz-shogird" munosabatlari, turli yoshdagilarning o'qish qobiliyatini o'zgarishi, o'qish turlari: kognitiv o'qish, emotsional o'qish, tajriba asosidagi o'qish, ta'limda motivatsiya, malaka oshirish psixologiyasi, chegaralangan sharoitlar, xarajatlar, vaqt, joy, gender xususiyatlar hisobga olinishi lozim;

*evtagogik yondashuv asosida ta'limni shaxsning o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirishga yo'naltirish, ijodiy rivojlanib boruvchi ta'lim konsepsiyasiga asoslanganlik tamoyili.* Evtagogikada oliy ma'lumotdan keyingi ta'lim shakllari va ta'lim mazmuni shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'z-o'zini rivojlantirishning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilishiga, nimani, qachon va qaerda o'qishini erkin tanlashi tamoyiliga asoslanadi.

Ma'lumki, didaktik tizim-o'qitishning maqsadlari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining tartibli to'plami sifatida tushunilib, uning asosini ta'lim faoliyati tashkil etadi. Ta'lim faoliyati esa inson tomonidan butun hayot davomida amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi.

Har qanday didaktik tizim quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim (o'qitish)ning maqsadi va vazifalari; ta'lim mazmuni; ta'lim usullari va vositalari; ta'limni tashkil etish

shakllari; o'quv natijalari. Uzluksiz malaka oshirish jarayoni ham o'ziga xos didaktik tizimni amalga oshiradi.

Pedagoglarni davriy emas, balki doimiy ravishda uzluksiz o'qitib borish, malaka oshirishni kasbiy ehtiyojdan kelib chiqib tashkil etish maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (continuous professional development), o'zini-o'zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o'rganish (learning by doing) muhitini yaratish asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Professor N.A.Muslimov o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil kasbiy rivojlanish, bajarish orqali o'rganishning uchta darajasini va ularning "kuchli", "zaif" tomonlari hamda "muvozanatlash" ning xususiyatlarini ajratib beradi. Bular:

- 1) "tezkor" daraja – "kuchli" tomoni modellashtirish jarayonlari, dasturlashtirish, o'zini tutish dasturlari hamda o'quv harakatlarini detallashtirish, ularni qayta qurishning moslashuvchanligi bilan xarakterlansa, "zaif" tomonlari rejalashtirish va dasturlashdagi tushunmovchiliklar, kamchiliklar, o'quv maqsadlarini kam anglanishi hamda turg'un emasligi bilan izohlanadi. "Muvozanatlash" o'quv vazifalari va o'quv faoliyatiga oson kirishib ketish, unda oson yo'nalish olish, ta'lim beruvchi talablari va shartlariga oson moslashishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi;
- 2) "avtonom" daraja-"kuchli" tomoni rejalashtirishning yuqori darajada rivojlanganligi, natijalarni baholash bilan xarakterlansa, "zaif" tomonlari natijalarni rejalashtirish va baholash jarayonlarining yetarli emasligi, o'quv jarayonlarida yo'nalish olishning tezkor emasligi, rejalashtirishning tizimli emasligi bilan xarakterlanadi. "Muvozanatlash" o'quv jarayonida o'quv vaziyatlarini oldindan rejalashtirilishi, o'ylab chiqilishi, doimiy nazorat va tuzatish kiritish asosida amalga oshiriladi;
- 3) "turg'un" daraja-"kuchli" tomoni rejalashtirish hamda baholash jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan farq qilsa, "zaif" tomonlari modellashtirishda ko'rinadi. "Muvozanatlash" o'quv faoliyatini doimiy nazorat qilish va tuzatib borish orqali amalga oshiriladi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida pedagoglarning kreativ kompetentligini takomillashtirish uchun ta'lim oluvchi-tinglovchilarda ijodiy mustaqillikni rivojlantirish, pedagogik faoliyatda muammolarni yechish algoritmini loyihalashga o'rgatish, kreativlikning ahamiyati va qimmatini tushuntirish, ijodiy mustaqillikni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijobiy hissiy kayfiyat, ma'naviy sog'lom muhit, kasbiy imkoniyatlar va ichki motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash kerak.

Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ichki motivatsiya (bajarilayotgan topshiriq yoki ish natijasi uchun mas'uliyatni his qilish, mehnatsevarlik, o'z ishi natijasidan qoniqish, o'zining qadriyatlariga tayanish, bajarayotgan ishga bo'lgan ishonch, ichki intuitsiyaning rivojlanganligi) va tashqi motivatsiya (insonni o'z ishida erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa odamlar tomonidan e'tirof etilishini istashi, shaxsiy fazilatlar, layoqati va qadriyatlarining o'zga kishilar yoki uning uchun ahamiyati bo'lgan guruh tomonidan tan olinishiga erishish istagi), vositali motivatsiya (maosh, mukofot, tashakkurnoma va boshqalar bilan taqdirlanish istagi), ilg'or tajribalarni o'rganish uchun shart-sharoit mavjudligi, raqamli texnologiyalar sharoitida gumanitar fanlarni o'qitish malakasiga egaligi kabi ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqilsa, bevosita malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga mutaxassislik fanlari doirasida tinglovchilar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlashi mumkin bo'lgan tanlov modullari kiritilishi va dasturlar variativ bo'lishi lozim.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Нафиева А.Г. Креативная компетентность педагога: теоретический аспект // Молодежь и наука: реальность и будущее: Материалы III международной научно-практической конференции. – Невинномысск: НИЭУП, 2010. Т. I: Культурология. Педагогика. – 315 с.
2. Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. – 2-изд. – М.: УРСС, 2000. – 368 с.
3. Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – Toshkent: SAHHOF, 2023. – 416 b.
4. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish: Ped. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. – T., 2007. – 24 b.
5. Inamova N. Bo'lajak tarbiyachilarni mustaqil ta'lim jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi: Ped. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2023. – 43 b.
6. Innazarov M.A. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. bo'yicha fals. d-i (PhD) ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2020. – 224 b.
7. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – 434 с.
8. Исянов Р.Г. Кластерный подход в формировании модульной компетентности преподавателей высших образовательных учреждений. – Ташкент: ТГПУ, 2014. – 69 с.
9. Игнатович Е.В. Хьютагогика как зарубежная концепция самостоятельного обучения // Непрерывное образование: XXI век. 2013. Вып. 3: <https://blog.bitobe.ru/article/khyutagogika-evtagogika/>.
10. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: RTM, 2004. – 104 b.
11. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2016. – 309 b.
12. Yunusova D.I. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. d-ri ... dis. Avtoref. – T., 2012. – 46 b.
13. Kadirov X.Sh. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida mediakompetenlikni rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fanl. d-ri ... dis. Avtoref. – T., 2020. – 47 b.
14. Kaldibekova B., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2009. – 80 b.
15. Karimov K.A. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida axborot ta'lim muhitini tizimi (kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlar malakasini oshirish misolida): Ped. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – T., 2018. – 224 b.



**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ORGANIZATIONAL FORMS OF PHYSICAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Menglikulov Khairulla Alikulovich**

Termez State University

Department of Sports administration, Senior Lecturer

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

**Abstract.** This article examines the issues of organizing physical education in higher education institutions and analyzes the forms considered a priority by second- and third-year students. The study conducted at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy explored students' attitudes toward physical education classes and identified the most suitable and engaging sports for them. The research results showed that more than half of the respondents consider it appropriate to organize physical education through a sports club system, allowing students more flexibility in attending classes. Furthermore, the most popular sports among students were volleyball, basketball, athletics, football, and gymnastics. Such analytical studies aimed at improving the physical education system contribute to the implementation of the most effective and engaging forms of training for university students.

**Keywords:** physical education, forms of physical education, sports club, sports sections, physical activity, types of sports, institute, students.

## **OLIIY O'QUV YURTIDA JISMONIY TARBIYANING TASHKILIY SHAKLLARI**

**Menglikulov Xayrulla Aliqulovich**

Termiz davlat universiteti

Sport boshqaruvi kafedrasi, Katta o'qituvchi

P. f. b. f. d (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiyani tashkil etish masalalari, shuningdek, 2- va 3-kurs talabalari tomonidan ustuvor deb hisoblangan shakllar tahlil qilingan. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida olib borilgan tadqiqot davomida talabalarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati, ular uchun eng maqbul va qiziqarli sport turlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning yarmidan ko'pi jismoniy tarbiyani sport klubi tizimi orqali tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi, bu esa talabalarga mashg'ulotlarda erkin ishtirok etish imkonini beradi. Bundan tashqari, talabalar orasida eng ommabop sport turlari sifatida voleybol, basketbol, yengil atletika, futbol va gimnastika turlari tanlangan. Jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan bunday tahlillar universitet talabalari uchun eng samarali va qiziqarli mashg'ulot shakllarini joriy etishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya shakllari, sport klubi, sport to'garaklari, jismoniy faoliyat, sport turlari, institut, talabalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N38>

**Kirish.** Zamonaviy oliy ta'lim globallashtirish va xalqaro ta'lim makoniga integratsiya sharoitida rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat o'quv dasturlarining tuzilmasini o'zgartirishni, balki talabalar tayyorgarligining turli yo'nalishlarini, jumladan, jismoniy tarbiyani takomillashtirishni ham nazarda tutadi. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini

modernizatsiya qilish, o'quv yuklamasini optimallashtirish va ta'lim standartlarini xalqaro talablarga moslashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar kuzatilmoqda.

Ushbu o'zgarishlarning natijasi sifatida talabalarning majburiy o'quv yuklamasi kamaydi va bu "Jismoniy tarbiya" fanining o'quv rejadagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fakultativ darslar qatoriga kiritildi yoki sport klublari tizimi orqali erkin tashrif shaklida tashkil etildi. Bu esa pedagogika sohasi mutaxassislari, oliy ta'lim muassasalari ma'muriyati va talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning eng samarali shakllari borasida bahslarga sabab bo'lmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya faqat ta'limiy emas, balki muhim ijtimoiy va sog'lomlashtiruvchi funksiyaga ham ega. U sog'liqni mustahkamlash, harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, intizom, iroda va jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi. Biroq, byudjet mablag'larining kamayishi, yoshlarning an'anaviy jismoniy faoliyatga bo'lgan qiziqishining pasayishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kabi zamonaviy muammolar jismoniy tarbiyani tashkil etishda yangi yondashuvlarni izlashni talab qilmoqda.

Jahon tajribasida oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyani tashkil etishning turli modellari mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **An'anaviy model** - o'quv reja doirasida majburiy darslar, belgilangan normalar va talabalarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha belgilangan standartlar.

- **Klub tizimi** - talabalar tomonidan erkin tashrif etish mumkin bo'lgan sport klublari, to'garaklar va fakultativ dasturlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish.

- **Individual model** - talabalar mustaqil ravishda jismoniy mashg'ulotlarni tanlash va bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan tizim (onlayn dasturlar va masofaviy nazorat shakllari bilan).

- **Kasbga yo'naltirish modeli** - kelajakdagi kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarlik (masalan, pedagogika, tadbirkorlik yo'nalishidagi talabalar uchun).

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifalardan biri - akademik talablar va talabalarning jismoniy rivojlanishi o'rtasida muvozanatni ta'minlashdir. Jismoniy tarbiyaning qaysi modeli eng samarali ekanligi hali ham ochiq masala bo'lib, uni chuqur o'rganishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyani tashkil etishning afzal shakllarini tahlil qilish, shuningdek, talabalar o'rtasida eng ommabop sport turlarini aniqlashdan iboratdir.

Bugungi kunda jismoniy tarbiyani o'qitish jarayoni nafaqat talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga, balki ularning sog'lig'ini mustahkamlash, ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish va turmush tarzini faollashtirishga qaratilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ular uchun samarali va qiziqarli jismoniy tarbiya modellarini ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy tarbiyasi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, u sog'liqni mustahkamlash, harakat faolligini rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan. So'nggi o'n yilliklarda ushbu yo'nalishda yuqori ta'limdagi islohotlar, o'quv rejalari o'zgarishi va milliy ta'lim tizimlarining xalqaro makonga integratsiyalashuvi sababli sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Tadqiqotchilar qatorida **L. V. Mudryan** va uning hammualliflari jismoniy tarbiya nafaqat talabaning jismoniy rivojlanishiga, balki uning turli harakat turlarida ishtirok etish bo'yicha ijobiy tajriba orttirishiga ham xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Biroq, oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari, xususan Bolonya tizimining joriy etilishi, "Jismoniy tarbiya" fanining o'quv soatlarini qisqartirishga, ayrim universitetlarda esa uni fakultativ mashg'ulotlar qatoriga o'tkazishga olib keldi. Ushbu yondashuv jismoniy tarbiyaning rolini sezilarli darajada pasaytiradi va uni kasbiy ta'lim tizimidagi ahamiyatini kamaytiradi [9; 109-b.].

Boshqa tadqiqotchilar, xususan **O. V. Krilichenko**, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tashkil etish bilan bog'liq muammolarni ta'kidlaydilar. Asosiy kamchiliklardan biri sifatida ushbu fanni o'qitish samaradorligini baholash mezonlarining noaniqligi keltiriladi. Bu esa, jismoniy tarbiya fanining maqsad va vazifalarining aniqlashtirilmaganligi, uni talabalarga qanday shaklda va qanday natijalarga asoslanib yetkazish kerakligi borasida noaniqlik keltirib chiqaradi [8; 43-b.].

Jismoniy tarbiyani takomillashtirish masalalari **D. Y. Turdimurodov** ishlarida ham yoritilgan bo'lib, tadqiqotchi bu sohani modernizatsiya qilish yo'llaridan biri sifatida talabalarining mustaqil ishlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvda talabalarga mashg'ulot shakli, mazmuni, tezligi va joyini mustaqil tanlash erkinligi beriladi. Biroq bunday tizimni joriy etish individual ta'lim tizimini yaratish va talabalarni jismoniy tarbiyaga jalb etish uchun qo'shimcha motivatsiya mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi [4; 137-b.].

Shuningdek, qator tadqiqotlar hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida **me'yoriy yondashuv** ustunlik qilayotganini ko'rsatadi, bunda talabalar individual xususiyatlari emas, balki o'rtacha jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiyani talabalarining ehtiyoj va motivatsion qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish ushbu yo'nalishning samaradorligini oshirishi mumkin.

Hozirgi kunda turli oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tashkil etishning quyidagi **modellaridan** foydalaniladi:

- **Kasbga yo'naltirish modeli** - kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

- **An'anaviy model** - fanni o'quv rejasiga majburiy fan sifatida kiritish, kredit tizimi asosida baholash va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini dars jadvaliga qo'shish.

- **Individual model** - talabalarga o'z xohishlariga ko'ra harakat faoliyati turlarini va mashg'ulot jadvalini tanlash imkoniyatini berish [5; 573-b.].

Kelajakda jismoniy tarbiya sohasida quyidagi **rivojlanish yo'nalishlari** muhim ahamiyat kasb etishi mumkin:

- **Sport klublari tizimini joriy etish** - talabalar o'z xohishiga ko'ra turli sport mashg'ulotlarida ishtirok etishi mumkin bo'lgan tizimni yaratish.

- **Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish** - talabalarining jismoniy faolligini monitoring qilish va ularni mashg'ulotlarga jalb qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish.

- **Jismoniy tarbiya dasturlarini moslashtirish** - talabalarining qiziqishlari va zamonaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda sport va jismoniy faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish.

Shunday qilib, ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimini isloh qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Hozirgi zamon tendensiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy dars shakllaridan individual va moslashuvchan modellar tomon o'tish talabalar motivatsiyasini oshirish va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida odatda haftasiga ikki marta sport to'garaklari mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Mutaxassislar bir haftalik mashg'ulotning talabalar salomatligiga ijobiy ta'siri kamligini ta'kidlaydilar. Shu sababli, ta'lim-tarbiya jarayonida yangi yondashuvlar talab etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jismoniy madaniyatning qadr-qimmatlariga oid yangi tizimli tushunchalar jismoniy tarbiyani inson biologik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omil emas, balki sog'lom turmush tarzi shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni sifatida qarashni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasasida talabalar tomonidan jismoniy tarbiyani tashkil etishning afzal ko'rilgan shakllarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat edi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqot 2023-2024-o'quv yili boshida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Pedagogika fakulteti bazasida tashkil etildi. Unda turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan 45 nafar talabalar qatnashdi:

- **2-kurs** - 19 kishi;

- **3-kurs** - 26 kishi.

Aynan ushbu kurslarni tanlash sababi shundaki, kichik va katta kurs talabalari oliygohda jismoniy tarbiyaga nisbatan har xil qarashga ega bo'lishi mumkin. Kichik kurs talabalari hali maktab tizimi ta'sirida bo'lishi mumkin, katta kurs talabalari esa universitet muhitiga moslashib, jismoniy faollikka bo'lgan munosabatlari shakllangan bo'ladi.

Talabalarga **ikki asosiy qismdan** iborat anonim so'rovnoma taklif qilindi:

### **1. Jismoniy tarbiyani tashkil etish shaklini aniqlash:**

Oliyogohda jismoniy tarbiyani qanday shaklda tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?

a) Belgilangan jadval asosida majburiy fan sifatida.

b) Erkin tashrif tizimiga asoslangan sport klublari orqali.


c) Jismoniy tarbiyani to'liq bekor qilish.

Ushbu savol talabalarining jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabatini baholash va eng ko'p talab qilinadigan shaklni aniqlash imkonini berdi.

### **1. Sport turlarini tanlash:**


Agar imkoniyat bo'lsa, qaysi sport turi yoki jismoniy faollik bilan shug'ullanishni xohlar edingiz?

Ushbu savol talabalar o'rtasida eng ommabop sport turlarini aniqlash va sport klublari hamda to'garak mashg'ulotlarni rivojlantirish uchun yo'nalishlarni belgilash imkonini berdi (1-rasm).



**1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari (kurslar kesimida).**

Ko'rinib turibdiki, talabalarning yarmidan ko'pi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga erkin qatnashish imkoniyatini afzal ko'rmoqda.



**2-rasm. Talabalar orasida mashhur sport turlari.**

**Talabalarining sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tanlashini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eng mashhur beshlikka voleybol, basketbol, yengil atletika, futbol va gimnastika turlari kiradi (2-rasm).**

Kelajakda talabalar uchun jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari yanada turli va qiziqarli bo'lishi mumkin. Jamiyat rivojlanishining yaqin kelajagidagi bosqichida iqtisodiy voqeliklar oliy ta'lim muassasalarida tegishli sport va sog'lomlashtirish infratuzilmasini yaratishga ishonch berish uchun asos bo'ladi.

Talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilishning klub tizimiga o'tish hozirgi paytda shunday xavfni tug'diradiki, ayrim talabalar jismoniy tarbiya ta'siridan chetda qolishi mumkin. Bu holat pedagogika va tadbirkorlik oliygohlari uchun boshqa ta'lim muassasalariga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega, chunki kelajakdagi pedagog o'sib

kelayotgan avlodning o'zini anglash jarayoni, motivatsiyali, emotsional va irodaviy sohalariga faol ta'sir ko'rsatib, ularni faoliyatga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Deyarli bir xil miqdorda ovoz to'plagan sport turlari quyidagilar: stol tennisi, badminton, shaxmat, fitnes va turli kurash turlari.

**Xulosa.** Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tashkil etish shakllarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida ushbu yo'nalishning o'rni va ahamiyati muayyan muammolar va o'zgarishlarga duch kelmoqda. An'anaviy majburiy mashg'ulotlar shakli bosqichma-bosqich sport klublari tizimi va talabalar qiziqishlariga asoslangan individual yondashuvlar bilan almashtirilmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Talabalarining aksariyati jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining majburiy emas, balki sport klublari orqali erkin tashkillashtirilishini afzal ko'rishadi.

- Institutda jismoniy tarbiya bo'yicha turli modellar mavjud bo'lib, eng samaralisi talabalar ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashuvchan tizim yaratishdan iborat.

- Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiyani majburiy fan sifatida qisqartirish jismoniy faollik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin, shu sababli institut sport infratuzilmasini rivojlantirish va talabalarni muntazam jismoniy mashg'ulotlarga jalb qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish uchun an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy usullar bilan uyg'unlashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va talabalarining motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki kelajakda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarining jismoniy tarbiyani tashkil etishning ustuvor shakllarini baholash natijalariga ko'ra, respondentlarning yarmidan ko'pi jismoniy tarbiyani erkin qatnash imkoniyatiga ega sport klubi tizimi orqali tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. G'aniyev, S., & Nurqobilov, A. (2024, June). Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazoratini tashkil qilish. In *Conference on the role and importance of science in the modern world* (Vol. 1, No. 5, pp. 85-88).
2. Nornurodov, A. N. (1998). Jismoniy tarbiya.
3. Turdimuratov, D. (2025). Talabalar ta'limining samaradorligini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 5(2), 586-592.
4. Turdimurodov, D. (2024). Talabalarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish xususiyatlari. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 1(2), 135-140 b.
5. Turdimurodov, D. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining pedagogik shartlari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 4(S/9), 570-575.
6. Turdimuratov, D. (2025). Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarini shakllantirish. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг*

*долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(S/2), 249–255.

7. Fayzullayev, S. (2024). Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining ta'limdagi ahamiyatlari. *News of the NUUZ*, 1(1.7), 210-211.
8. Криличенко О. В. Состояние и перспективы развития системы физического воспитания в высших учебных заведениях. / О. В. Криличенко // [Педагогика, психология и медико-биологические проблемы физического воспитания и спорта](#). - 2011. Вып. 7. 43-47-б.
9. Мудрян В. Л. Проблемы физического воспитания студентов и поиск их решения / В. Л. Мудрян, Г. И. Радковская // Педагогика и современные аспекты физического воспитания: сб. науч. трудов II Междунар. науч.-практ. конф., (21-22 апреля 2016 года) / под общ. ред. Ю. О. Долинного. - Волгоград: ДГМА, 2016. 106-112-б.
10. Хандога Я. В. Перспективы повышения качества организации учебного процесса по физическому воспитанию студентов вузов. /Я. В. Хандога В. И. Хондога. - Мариупольский государственный гуманитарный университет. №11. 143-148-б.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF THE STEAM EDUCATIONAL APPROACH IN ROBOTICS LESSONS**

**Zhurayeva Balkhiya**

Center for Higher Education Development Research 1st Year Foundation doctoral student

**Abstract.** This article analyzes the importance of applying the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) approach in robotics lessons. It explores the core principles of the STEAM methodology, its integration into robotics education, and its role in developing students' knowledge, practical skills, and creative potential. The article also discusses effective strategies for organizing lessons based on STEAM and presents practical recommendations for enhancing the quality of modern education.

**Keywords:** STEAM education, robotics, integrated approach, creative thinking, problem situation, practical training, modern education.

## **ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA STEAM – TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI**

**Jurayeva Balxiya Farxod qizi**

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 1- kurs tayanch doktoranti

E-mail: [balxiya.jurayeva@devedu.uz](mailto:balxiya.jurayeva@devedu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada robototexnika darslarida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta'lim yondashuvining ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada STEAM yondashuvining asosiy tamoyillari, uning robototexnika faniga integratsiyalashuvi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu yondashuv orqali dars jarayonlarini samarali tashkil etish va zamonaviy ta'lim talablariga mos metodik yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM ta'limi, robototexnika, integratsiyalashgan yondashuv, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyat, amaliy mashg'ulot, zamonaviy ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N39>

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'lim tizimida texnologik taraqqiyot bilan hamnafas ravishda, o'quvchilarning real hayotda qo'llay oladigan amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmonida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotga o'tish hamda yosh avlodni yuqori bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislar etib tayyorlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.[2] Bu borada innovatsion pedagogik yondashuvlar orasida keng e'tirof etilayotgan STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) modeli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarga noan'anaviy yondashish, hamkorlikda ishlash va texnologiyalar bilan



ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, ushbu yondashuvning robototexnika kabi amaliy fanlar bilan uyg'unligi ta'limda yuqori samaradorlikka olib keladi. O'quvchilar robototexnika darslarida dasturlash, qurilmalarni boshqarish va loyihalash orqali nafaqat texnik bilimga ega bo'ladilar, balki o'z ijodiy va tahliliy salohiyatlarini ham namoyon etadilar. Hozirgi kunda o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini kuchaytirish, ularni kreativ va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish ta'limdagi muhim vazifalardan biridir. Bunyodkorlik g'oyasining zamirida har bir insonning erkin va farovon hayot kechirishi, ochiq jamiyatda yashashi hamda fikr va e'tiqod erkinligiga ega bo'lishi kabi demokratik qadriyatlar mujassam. Ushbu g'oya ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ongida mustaqil fikrlash, yangilik yaratishga intilish, shuningdek, erkin ifoda madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. STEAM ta'lim yondashuvi aynan ana shu g'oyani amaliyotda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. [1]

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — robototexnika darslari jarayonida STEAM ta'lim yondashuvini qo'llashning ahamiyatini tahlil qilish hamda uning o'quvchilarning kreativ fikrlashi, muammoli vaziyatni hal qilish ko'nikmalari va fanlararo bilimlarni integratsiyalash asosidagi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlashdan iborat. Harakatlar strategiyasi orqali yaratilgan huquqiy asos ta'limda aynan shunday zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etishga zamin yaratdi. [2]

### ASOSIY QISM

Robototexnika darslariga STEAM yondashuvini qo'llash orqali ta'lim jarayoni yanada mazmunli va zamonaviy mehnat bozoriga moslashgan holga keladi. Shu sababdan, bugungi kunda STEAM ta'lim yondashuvi dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda — AQSh, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Singapur kabi davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

STEAM — bu fanlararo yondashuv bo'lib u quyidagi beshta sohaning integratsiyasiga asoslanadi: [5]

**S** — Science (Fanlar): fizika, biologiya, kimyo orqali real dunyo hodisalarini tushunish.

**T** — Technology (Texnologiya): zamonaviy qurilmalar, dasturlash va axborot texnologiyalari.

**E** — Engineering (Muhandislik): qurish, loyihalash, texnik tizimlar bilan ishlash.

**A** — Art (San'at): dizayn, kreativlik, estetik tafakkur.

**M** — Mathematics (Matematika): hisob-kitoblar, algoritmlar, tahliliy tafakkur.

Shuningdek, bugungi kunda dunyoda shunday texnologiyalar mavjudki, ular hali keng tatbiq etilmagan bo'lsa-da, yaqin kelajakda inson turmushining ajralmas qismiga aylanishi hech kimga sir emas. Ana shunday istiqbolli sohalardan biri — bu robototexnika bo'lib, u sanoat, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida tobora keng qo'llanilib, inson hayotini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Robototexnika** – bu texnik vositalarni loyihalash, yig'ish, dasturlash va ularni boshqarish bilan bog'liq fan bo'lib, u o'quvchilarda muhandislik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fan quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Sensorlar, aktuatorlar va mikrokontrollerlar bilan ishlash;
- Dasturlash asoslari (masalan, Scratch, Arduino, Python);
- Qurilmani loyihalash va prototiplash;

- Texnik muammolarni mustaqil hal qilish.

**Fan maqsadi** – o‘quvchilarda texnologiyaga qiziqish uyg‘otish, ularning amaliy bilimlarini mustahkamlash, muammolarni tizimli hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirishdir.

**Amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar** – darslarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini real qurilma ustida sinab ko‘radilar va o‘z ijodiy fikrlarini texnologik shaklga keltiradilar.

#### Robototexnikaning keng qo‘llanilish sohalari

| Soha              | Misollar                                          |
|-------------------|---------------------------------------------------|
| Sanoat            | Avtomobil, elektronika, metall ishlov berish      |
| Tibbiyot          | Jarrohlik robotlari, reabilitatsiya vositalari    |
| Harbiy            | Razvedka robotlari, portlovchi aniqlovchi dronlar |
| Qishloq xo‘jaligi | Dala monitoringi, o‘simliklarni parvarish qilish  |
| Maishiy xizmat    | Tozalovchi robotlar, sun‘iy yordamchilar          |
| Kosmos            | Mars roverlar, sun‘iy yo‘ldosh xizmat robotlari   |
| Ta‘lim            | STEAM loyihalar, LEGO, Arduino asosidagi darslar  |

Robototexnika fani STEAM yondashuvining amaliy maydonidir. Bu darslarda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida bir nechta fan elementlarini birlashtirgan holda ishlaydi: masalan, biror robotni loyihalashda fizika, matematika, muhandislik bilimlari va dizayn yondashuvi qo‘llaniladi.

**Integratsiyalashgan dars metodikasi** quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Muammoni aniqlash (real hayotdan olingan holat);
- Yechim g‘oyasini ishlab chiqish (muhandislik dizayni);
- Qurilmani loyihalash va yig‘ish (texnologiya);
- Dasturlash va sinovdan o‘tkazish (fan va matematika);
- Natijalarni baholash va taqdimot qilish (san‘at va kommunikatsiya).

**STEAM asosidagi loyihaviy ishlar** o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

- Ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish;
- Ko‘p bosqichli loyihalarni amalga oshirish;
- Texnik chizmalar va dasturiy yechimlar yaratish;
- Hamkorlikda ishlash va o‘z g‘oyasini himoya qilish.

#### Misollar:

“Chiqindi ajratuvchi avtomatik robot” — ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan loyiha.

“Aqlli suvni tejovchi tizim” — muhandislik va dasturlash orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish.

“Chiroq yoqadigan harakat datchigi” — sensorlar asosida harakatni aniqlovchi qurilma.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan robototexnika darslari o‘quvchilarda quyidagi natijalarga olib keladi:

**Bilim va ko‘nikmalarining rivojlanishi** – o‘quvchilar nazariyani amaliyotga tatbiq etishni o‘rganadilar, texnik tafakkurlari rivojlanadi.

**Ijodkorlik va innovatsion fikrlash** – o‘quvchilarning o‘z g‘oyasini texnik loyihaga aylantira olish salohiyati shakllanadi.

**Fanlarga bo‘lgan qiziqishning ortishi** – o‘quvchilar matematika, fizika, informatika fanlariga real hayotiy misollar orqali chuqurroq qiziqadilar.

**Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish** – o'quvchilar dasturlash, elektronika va dizayn sohalarida boshlang'ich bilimga ega bo'ladilar.

**Jamoaviy ishlash va muomala madaniyati** – guruh bo'lib ishlash, fikr almashish va loyiha himoyasi orqali kommunikatsion ko'nikmalar rivojlanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda ta'lim sohasida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi tobora keng tarqalib, ayniqsa, robototexnika darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. STEAM yondashuvi orqali ta'lim oluvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan bilimlarga ega bo'ladilar (Georgette Yakman, 2010). Yakman tomonidan ishlab chiqilgan STEAM modeli fanga asoslangan bilimlarni hayotiy kontekstda qo'llashni rag'batlantiradi. Bu yondashuvda san'at (Art) komponenti orqali estetik fikrlash, dizayn va kreativlikni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi, bu esa aynan robototexnika kabi amaliy fanlarda muhim ahamiyat kasb etadi.[7] Land (2013) esa ta'limda fan va san'atning integratsiyasini bolalarning muammolarni turli nuqtai nazardan ko'ra olish qobiliyatini rivojlantiruvchi omil sifatida ko'rsatgan.

Robototexnika darslari STEAM yondashuvining barcha komponentlarini o'zida mujassam etadi. Chunonchi, robot yasash jarayonida fizika va matematikadan foydalanish (S va M), dasturlash va texnologik qurilish (T), muhandislik dizayni va loyiha asosida ishlash (E), hamda robotning tashqi ko'rinishini ishlab chiqish yoki interaktiv dizaynlar qilish (A) faoliyatlari mavjud. M. Bers (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, robototexnika loyihalari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida muhandislik va informatika ko'nikmalari shakllanishi bilan birga, jamoaviy ish, muloqot va ijodiy fikrlash malakalari ham rivojlanadi.

Bequette & Bequette (2012) o'z tadqiqotlarida san'at va dizaynni fan va texnologiyaga integratsiyalash orqali o'quvchilarda nafaqat texnik bilimlar, balki kreativ kompetensiyalar, innovatsion tafakkur, loyihalash madaniyati shakllanishini ta'kidlaydilar. Xususan, robototexnika darslarida o'quvchilar biror real muammoni aniqlab, unga texnologik va estetik yechimlar izlaydi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi (Kim va boshqalar, 2015).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarorida maktablarda robototexnika, dasturlash va STEAM yo'nalishlarida ixtisoslashtirilgan ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa davlat siyosati darajasida ushbu yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi. Mahalliy tadqiqotlarda ham L. Zaripov, O. Avazboyev, O. Karimov, S. Karimova; O. Jo'raev, M. Yo'ldoshev STEAM asosida olib borilgan robototexnika mashg'ulotlari o'quvchilarning fanlarga qiziqishini oshirishi, ijodkorlik va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishiga sabab bo'lishi qayd etilgan. L. Zaripov nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirib, texnologik kompetensiya nafaqat bilim, balki muammo yechish va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. STEAM metodikasi shu jihatdan o'quvchilarning algoritmik fikrlashi va innovatsion yondashuvini mustahkamlaydi.[10]

### MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, robototexnika darslariga STEAM ta'lim yondashuvini tatbiq etish o'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishda

samarali vosita hisoblanadi. Tajriba asosida aniqlanganki, integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lay oladi, bu esa ularning motivatsiyasi va ishtirokchanligini oshiradi.

O'tkazilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning robot modellarini yaratish, ularni dasturlash va loyihani taqdim etish jarayonidagi faol ishtiroki, ularning ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirayotganini ko'rsatdi. Xususan, guruhlarda ishlash, o'zaro fikr almashish, estetik yondashuvlar va matematik hisob-kitoblar orqali loyihani yaxlit holda amalga oshirish o'quvchilarning kompleks kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan ilmiy ishlanmalar L. Zaripov, O. Avazboyev, O. Karimov, S. Karimova; O. Jo'raev, M. Yo'ldoshev, M. Bers, Land, 2013; bilan mos keladi. STEAM yondashuvi orqali robototexnika darslarining samaradorligi ortishi, 3D-print vositasida o'quv materiallarini vizuallashtirish o'quvchilarda nafaqat texnik, balki ijodiy va ekologik tafakkurni hamda, tizimli fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanishi kuzatilgan.[6]

Shu bilan birga, tajriba davomida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, o'quvchilarni barcha STEAM komponentlari bo'yicha teng darajada faol ishtirok ettirish, ba'zi texnik vositalarning yetishmasligi, vaqt cheklovi va metodik qo'llanmalar tanqisligi kabi omillar darsning samaradorligiga qisman ta'sir ko'rsatdi. Bu holat, kelgusida STEAM yondashuvini to'liq va tizimli joriy qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaxshilash lozimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot robototexnika darslarida STEAM ta'lim yondashuvini qo'llash o'quvchilarni nafaqat texnologiyaga, balki fanlararo bilimlarga, ijodkorlikka, tanqidiy fikrlashga ham qiziqtirishini ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlari bilan to'la uyg'unlashadi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur tadqiqot doirasida robototexnika darslarida STEAM ta'lim yondashuvini qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga oid quyidagi natijalar kuzatildi:

1. **O'quvchilarning darsga qiziqishi oshdi.** STEAM asosida tashkil etilgan darslar yuqori motivatsiya, faol ishtirok va mustaqil izlanishga yo'naltirilganligi sababli o'quvchilarda texnologiya va muhandislik sohasiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi.
2. **Kreativ kompetensiyalar shakllandi.** O'quvchilar robot modellarini loyihalash, kodlash va taqdim qilish jarayonida ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammoni hal qilish, estetik yondashuvni qo'llash kabi ko'nikmalarga ega bo'ldilar.[8]
3. **Fanlararo bog'liqlik mustahkamlandi.** STEAM yondashuvi orqali fizika, matematika, texnologiya, informatika va san'at fanlari mazmunini o'zaro bog'lagan holda qo'llash o'quvchilarda bilimlarni kompleks yondashuv asosida qo'llashni shakllantirdi.
4. **Jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi.** Robototexnika loyihalarini guruhlarda amalga oshirish orqali o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, roli taqsimlash, fikr almashish, va murosaga kelish ko'nikmalari rivojlandi.[11]
5. **Amaliy faoliyatga yo'naltirish samarali bo'ldi.** Darslarda nazariy bilimlar real muammolar asosida amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirildi, bu esa o'quvchilarning tanqidiy va tizimli fikrlashini kuchaytirdi.
6. **Metodik yondashuvni takomillashtirish ehtiyoji aniqlandi.** Tajriba davomida ba'zi kamchiliklar (masalan, texnik vositalarning yetishmasligi, vaqt chegarasi, ba'zi

o'quvchilarning STEAM tajribasizligi) ham aniqlanib, kelgusida bu yo'nalishni metodik jihatdan yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

### XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, robototexnika darslarida STEAM ta'lim yondashuvini qo'llash o'quvchilarning nafaqat texnik, balki ijodiy, tanqidiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar fanlararo integratsiyalashgan bilim asosida muammoli vaziyatlarni hal qilish, loyihaviy faoliyat olib borish, jamoada ishlash va o'z g'oyasini ifoda qilish kabi kompetensiyalarni egallaydilar.

STEAM asosida tashkil etilgan robototexnika darslari:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratdi;
- kreativ fikrlash, muhandislik va san'at elementlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarni keng qamrovli kompetensiyalar bilan qurollantirdi.[9]

Tadqiqot shuningdek, bunday yondashuvni samarali joriy qilish uchun metodik ta'minot, o'qituvchilarning STEAM yondashuvi bo'yicha malakasi va texnik bazani yaxshilash zarurligini ham ko'rsatdi.

### AMALIY TAKLIFLAR

1. **Robototexnika darslarini STEAM asosida tizimli tashkil etish:** Dars rejalarida fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish va har bir loyihani real hayotdagi muammoga yo'naltirish tavsiya etiladi.
2. **Metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish:** O'qituvchilar uchun robototexnika va STEAM yondashuvini birlashtirgan amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyatga oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.
3. **O'quvchilarning kreativ kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish:** Faqat yakuniy mahsulot emas, balki jarayondagi ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, dizayn va estetik yondashuv kabi jihatlar ham baholanishi kerak.
4. **O'qituvchilar malakasini oshirish:** STEAM yondashuvi va robototexnika integratsiyasi bo'yicha amaliy seminarlar va malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish muhim.
5. **Texnik bazani takomillashtirish:** Maktablar robototexnika to'plamlari, kompyuterlar, dasturlash vositalari va boshqa zarur qurilmalar bilan ta'minlanishi lozim.

**Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish:** Loyihaviy ishlarni kengroq auditoriyaga taqdim etish (masalan, ko'rgazmalar, tanlovlar, mahalliy festival va tadbirlar orqali) orqali o'quvchilarni rag'batlantirish mumkin.

187-sonli qaror bilan tasdiqlangan o'quv dasturlarida o'quvchilarning texnik va estetik bilimlari uyg'un tarzda shakllantirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa **STEAM va robototexnika** yo'nalishlarini joriy etishda muhim metodik va mazmuniy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaror asosidagi dasturlarni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash, ya'ni Arduino, LEGO Mindstorms, micro:bit kabi vositalar orqali boyitish, o'quvchilarning kompetensiyalarini yuqori bosqichga olib chiqishga imkon beradi.[3]

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir – T.: "Tasvir" nashriyot uyi, - 2021. B.36.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning kasbiy fanlar bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan o'quv dasturi. Texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya. (1-9-sinflar). –T., 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Avazboyev A.I., Ismadiyarov Y.U. Texnologiya o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) – T.: TDPU, 2018. – B.284. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.– 126 b.
6. E.Kanessa, K.Fonda, M.Zendaro. Available 3d printing for science, education and sustainable development. – Krasnodar, Russia, 2013.
7. G.Yakman,(2010). STEAM: A Framework for Teaching Across the Disciplines. In Childrene's Technology and Engenering, 15(4),pp. 24-26.
8. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.– 126 b.
9. Малахова И.А. Развитие креативности личности в социокультурной сфере: педагогический аспект: Монография. – Минск.БГУ культуры искусств, 2006. – С.327.
10. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD)– Т.: 2020. - 141 б.
11. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T. 2023 y.-252 b.

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS AND EFFECTIVENESS OF EXPERIMENTAL WORKS ON THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE ART-PEDAGOGICAL APPROACH**

**Nasritdinova Madina Nurullaevna**

Independent Researcher, Faculty of Pedagogy,

Psychology and Art Studies,

Fergana State University

Email: [m\\_nasritdinova0806@gmail.com](mailto:m_nasritdinova0806@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the content and outcomes of experimental research aimed at developing the artistic and creative competence of future teachers based on the art-pedagogical approach. The results of applied experiments conducted during 2023–2025 are presented within the framework of the author's original "3I" methodology and a dedicated digital platform. Significant improvements were observed in students' levels of artistic perception, creative thinking, and project-based initiative. The findings support the effectiveness of art-pedagogical methods in enhancing both the personal and professional development of pre-service educators.

**Keywords:** art pedagogy, creative competence, integration, interpretation, digital education, experimental research.

## **ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI TAHLILI VA SAMARADORLIK DARAJASI**

**Nasritdinova Madina Nurullayevna**

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan "3I" metodikasi va maxsus raqamli platforma doirasida 2023-2025 yillarda amalga oshirilgan amaliy tajriba natijalari keltirilgan. Badiiy idrok, kreativ tafakkur va ijodiy faollik darajalarida sezilarli o'sish kuzatilgan.

**Kalit so'zlar:** artpedagogika, ijodiy kompetentlik, integratsiya, interpretatsiya, raqamli ta'lim, tajriba-sinov ishlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N40>

### **Kirish**

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni[1:] (№UP–60, 28.01.2022 y.), shuningdek, "Ta'lim va tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (№PQ–4342, 2023 y.)da ta'lim mazmunini yangilash, zamonaviy innovatsion

yondashuvlarni joriy etish, yosh avlodni ijodiy va mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Aynan ushbu strategik maqsadlar ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, uning badiiy-estetik dunyoqarashi va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak muallimlarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish masalasi muhim metodik va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, ijodiy kompetentlik shaxsning bilim, ko'nikma va ijodiy faolligi uyg'unligida namoyon bo'ladigan ko'p qirrali kasbiy sifat hisoblanadi. U ta'lim jarayonida estetik va madaniy mazmunni o'z ichiga olgan faoliyatlarni integratsiya qilish, talabalarda tashabbuskorlik, interpretatsiya qobiliyati va original g'oyalarni ilgari sura olish salohiyatini rivojlantirish orqali shakllanadi.

Bu borada artpedagogika — ya'ni badiiy-ijodiy faoliyat orqali shaxsning ichki dunyosiga ta'sir o'tkazish va uning emotsional-estetik salohiyatini ochib berishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv – nafaqat ta'limning mazmunini boyitish, balki shaxsning ijodiy kompetensiyalarini o'sishida samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish masalasi tahlil etilib, amaliy tajribasino ishlarining natijalari va samaradorlik darajasi ochib beriladi. Tadqiqot muallifi tomonidan ishlab chiqilgan "3I" metodikasi, maxsus raqamli platforma va o'quv-uslubiy ta'minotga tayangan holda eksperimental tadqiqot sifatida olib borilgan.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Bugungi pedagogika fanining rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida artpedagogika nafaqat ta'lim mazmunining estetik va ijodiy boyishini, balki shaxsning ichki salohiyatini ochishda, uning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutayotgan innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Artpedagogika ta'lim jarayonida san'at turlari vositasida faoliyatni tashkil etish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish va estetik-emotsional salohiyatni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mutaxassislar bu borada qator nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, M.Voronova[3;] o'z ishida artpedagogik yondashuvni ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi metodik tamoyil sifatida ko'rib chiqib, uning ta'limda shaxsning mustaqil va kreativ qaror qabul qilish qobiliyatiga ta'sirini ilmiy asoslab bergan. N.Kolesnikova[2;32-38] esa san'at vositalaridan foydalangan holda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish va jamoaviy muloqotni shakllantirishda artpedagogikaning samaradorligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, YE.Shapiro[4:78] badiiy faoliyatning shaxsiy identifikatsiya va estetik tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritib, artpedagogikaning ta'limiy ta'sirini psixologiya-pedagogik asoslarda tahlil qilgan.

Bundan tashqari, V.S.Kuzin, L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin kabi klassik pedagog-olimlarning asarlarida ham badiiy faoliyatning shaxs rivojiga ta'siri, ijodiylikning psixologiyasi va estetik tafakkur shakllanishiga oid nazariy qarashlar zamonaviy artpedagogik tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi bosqichda mazkur qarashlar pedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi innovatsion yondashuvlar bilan integratsiya qilinmoqda.



Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili artpedagogik yondashuvning badiiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirishdagi oʻrni va salohiyatini yoritish bilan birga, ushbu sohada mukammal metodik vosita va texnologiyalarni ishlab chiqish zarurligini ham koʻrsatmoqda.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda tajriba-sinov ishi asosida boʻlajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini artpedagogik yondashuv orqali shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligini baholash maqsad qilingan. Metodologik asos sifatida kompetentlikka yoʻnaltirilgan taʼlim, shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogika, interaktiv va art-texnologiyalar, shuningdek, multimodal taʼlim muhitini tashkil qilish nazariyalari olindi.

Tadqiqotda muallif tomonidan ishlab chiqilgan “3I” (Imitatsiya, Interpretatsiya, Improvizatsiya) metodikasi qoʻllanildi. Ushbu metodikada badiiy faoliyat (tasviriy sanʼat, musiqa, teatr elementlari), ijodiy vazifalar, interfaol oʻyinlar va muloqotlar orqali talabalarning emotsional, tafakkuriy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish koʻzda tutilgan.

Tadqiqotning eksperimental bazasi sifatida Fargʻona Davlat Universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Surxondaryo davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti (2023–2025 yy.) tanlangan. Tajribada umumiy hisobda 512 nafar “Pedagogika-psixologiya” yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi. Ularning yarmi tajriba guruhiga, qolgan qismi esa nazorat guruhiga ajratildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

didaktik kuzatuv;

test-savolnomalar;

diagramma va kontent tahlil;

subyektiv baholash va mutaxassislar ekspert xulosalari.

Tajriba davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Artpedagogika” oʻquv qoʻllanmasi, “Artpedagogika” nomli toʻgarak hamda maxsus raqamlashgan platforma (onlayn masofaviy kurslar, badiiy vazifalar va ijodiy forumlar)dan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari va muhokama**

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari artpedagogik yondashuvning boʻlajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini koʻrsatdi. Taʼlim jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan “3I” metodikasidan (Ijod – Interaksiya – Ilhom) hamda maxsus ishlab chiqilgan “Artpedagogika” oʻquv qoʻllanmasi va raqamli platforma elementlaridan foydalanish orqali talabalarda bir qator muhim koʻnikmalar shakllandi.

Fargʻona davlat universiteti pedagogika fakulteti bazasida (2023–2025) amalga oshirilgan tajriba davomida 182 nafar talabaga qoʻllangan artpedagogik metodlar asosida olingan natijalar quyidagicha boʻldi:

| <b>Koʻrsatkichlar</b>                | <b>Sinovgacha (%)</b> | <b>Sinovdan soʻng (%)</b> | <b>Oʻsish (%)</b> |
|--------------------------------------|-----------------------|---------------------------|-------------------|
| Badiiy idrok darajasi                | 48%                   | 86%                       | +38%              |
| Kreativ tafakkur                     | 41%                   | 83%                       | +42%              |
| Ijodiy tashabbus (loyihaviy faollik) | 39%                   | 84%                       | +45%              |

Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, talabalarning badiiy anglash, kreativ fikrlash va shaxsiy ijodiy faollikka munosabati sezilarli darajada o‘sgan. Jumladan, ijodiy tashabbus ko‘rsatish va mustaqil loyihalarda qatnashishga tayyorlik darajasi 45% ga oshgani yuqori motivatsiya va shaxsiy mas’uliyat shakllanganidan dalolat beradi.

Tadqiqotning kengaytirilgan bosqichi O‘zbekistonning uch hududida – Farg‘ona davlat universiteti (182 nafar), Toshkent davlat pedagogika universiteti (160 nafar) va Surxondaryo pedagogika institutida (170 nafar) amalga oshirildi. Umumiy hisobda 512 nafar talabaning qatnashishi bilan artpedagogik yondashuvning tizimli joriy etilishi tajriba doirasidan chiqib, makro-pedagogik amaliyot darajasiga ko‘tarildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ushbu metodika joriy qilingan guruhlarda badiiy-ijodiy kompetentlikning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi o‘rtacha **12,3%** ga o‘sgan. Bu esa artpedagogik yondashuvni pedagoglar tayyorlashda uzviy, innovatsion komponent sifatida tatbiq etishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

#### **Muhokama sifatida quyidagicha xulosalarni keltirish mumkin:**

Artpedagogik muhit talabalarda multimodal fikrlash, estetik idrok va emotsional intellektini rivojlantiradi.

“3I” metodikasi orqali shaxsiy ilhom va ijodiy faollikka bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi.

Badiiy faoliyatni ta‘lim mazmuniga integratsiya qilish orqali pedagogik yechimlar yangicha kreativ asosda quriladi.

Pedagogika ta‘limi tizimida artpedagogika metodlarini tizimli joriy qilish o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu asosda, artpedagogik yondashuvni amaliyotga tatbiq etish, uning metodik va raqamli bazasini yanada boyitish hamda milliy ta‘lim dasturlariga moslashtirish borasida ilmiy-amaliy ishlar davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

#### **Xulosa va tavsiyalar**

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, artpedagogik yondashuv asosida ishlab chiqilgan “3I” (Imitatsiya, Interpretatsiya, Improvizatsiya) metodikasi va maxsus o‘quv-uslubiy ta‘minotlar (platforma, qo‘llanma, metodik topshiriqlar) talabalarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari talabalarda kreativ tafakkur, estetik idrok va ijodiy tashabbus darajasining barqaror o‘shishini tasdiqladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta‘limning mazmun jihatdan boyishini ta‘minladi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy o‘shishiga ta‘sir ko‘rsatdi.

#### **Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:**

1. Artpedagogika talabalarda estetik qabul qilish, ijodiy fikrlash va shaxsiy ifodalanishni rivojlantiradigan samarali ta‘limiy muhit yaratadi.
2. “3I” metodikasi orqali shaxsiy ijodga ilhomlantiruvchi sharoitlar ta‘minlanadi, bu esa talabalarni mustaqil va faol ishtirokchiga aylantiradi.
3. Ta‘limda badiiy faoliyatni integratsiya qilish pedagogik kadrlarning kommunikativ, emotsional va ijtimoiy-kompetent imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### **Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:**

Artpedagogik yondashuv asosida yaratilgan “3I” metodikasini pedagogik ta‘lim muassasalarida metodik qo‘llanma va amaliy darslar orqali joriy etish;

Pedagoglar tayyorlash jarayonida artpedagogikaga oid modullarni ta‘lim dasturlariga kiritish;

Artpedagogik muhitni rivojlantirish maqsadida raqamli ta'lim platformalarini takomillashtirish va vizual-badiiy faoliyatni rag'batlantiruvchi onlayn resurslar bazasini yaratish;

Ta'lim muassasalarida badiiy-ijodiy laboratoriyalar va interaktiv art-mahsulotlar markazlarini tashkil etish;

Talabalar badiiy kompetensiyalarini xolis baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, artpedagogik yondashuv zamonaviy ta'limda nafaqat pedagogik yutuqlar, balki keng ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishga xizmat qiladigan samarali usullar qatorida e'tirof etilmoqda. Ushbu metodikani yanada takomillashtirish va ommalashtirish orqali mamlakatimiz ta'lim tizimida ijodiy shaxslar tarbiyasiga xizmat qiluvchi mustahkam zamin yaratiladi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони (№УП–60, 28.01.2022 й.)
2. Колешникова Н. А. Методика формирования художественно-творческой компетентности // Современное образование. - 2018. - № 2. - С. 32-38.
3. Воронова Т.П. Педагогика искусства: развитие креативной личности. – М.: Просвещение, 2020.
4. Шапиро Е.Л. Артпедагогика как средство развития эмоционального интеллекта // Педагогическое образование в России. - 2019. - № 5. - С. 75-80.
5. Nasritdinova M.N. Artpedagogika: O'quv qo'llanma. - F.: Klassik, 2024.
6. Зубарева, Н.С. Современный урок в арт-педагогической парадигме. // Мастер-класс, 2009, №9
7. Насритдинова, М. (2023). Artpedagogik Yondashuv Asosida Bolajak Musiqa Ta'limi Oqituvchilarining Ijodkorlik Qobiliyatlarini Rivojlantirishning Didaktik Ta'minoti. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(4), 241-246.
8. Асмолов А.Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. Рек. Мин. обр. РФ. — 2-е изд., перераб. / А.Г. Асмолов. М.: Смысл; Академия, 2002. ( 4. Asmolov A.G. Psychology of Personality: Principles of General Psychological Analysis: A Textbook for Students. higher textbook establishments. Rec. Min. arr. RF. - 2nd ed., revised. / A.G. Asmolov. M.: Meaning; Academy, 2002.)

**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **METHODOLOGY OF ORGANIZING THE LEARNING PROCESS IN VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF DIGITAL EDUCATIONAL PLATFORMS**

**Charshanbiyev Namaz Makhmatmurodovich**

Independent Researcher at the Institute for the Development of Professional Education

**Abstract.** This study provides methodological recommendations for the use of digital platforms in vocational education, which can be used to individualize the process of vocational education.

A prerequisite for improving the quality of vocational education and, as a result, the creation of a digital space in the future by preparing sought-after specialists who are ready to realize their potential.

**Keywords:** vocational education, digital technologies, digital platforms, educational process, individualized education.

## **KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI**

**Charshanbiyev Namaz Maxmatmurodovich**

Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot kasbiy ta'limda ishlatilishi mumkin bo'lgan raqamli platformalarni ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar asosida kasbiy ta'lim jarayonini individuallashtirishda qo'llanilishi mumkin.

Kasb-hunar ta'limida raqamli platformalardan foydalanish takomillashtirishning zaruriy sharti kasbiy ta'lim sifati va buning natijasida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga tayyor bo'lgan izlanuvchan mutaxassislarni tayyorlash orqali kelajakda raqamli makon yaratishdir

**Kalit so'zlar:** kasb ta'limi, raqamli texnologiyalar, raqamli platformalar, o'quv jarayoni, individuallashtirilgan ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N41>

**Kirish.** Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bugungi kunda oliy va kasbiy ta'limdagi dolzarb masala hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zarur ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda bizning dunyomiz raqamli formatga tobora ko'proq singib bormoqda. Kundalik hayotimizga tobora ko'proq yangi gadjetlar kirib bormoqda: planshetlar, ipadlar, smartfonlar, aqlli soatlar, 3-D realitiy, MacBooklar odatiy holga aylandi. Kasbiy ta'lim muassasalarida ham ta'lim formati o'zgarib bormoqda, namunaviy ma'ruzalar kino namoyishi, konferensiyalar, onlayn ma'ruzalar va boshqa turdagi darslar bilan almashtirilmoqda. Taqdimotlar, videolar, audio ilovalarni ko'rsatish endi yangilik emas. Raqamli texnologiyalar XXI asrda ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda [1, B 47-51], [2, №2], [3, B 200-202].

Bugungi kunda davlat tomonidan qo'yilgan ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun axborotni to'plash va qayta ishlash, intellektual mehnatdan foydalanish, yangi g'oyalarni yaratish va qo'llash zarur. Sanoatdagi innovatsion texnologiyalarning asosiy yo'nalishi ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirishdir. Bularning barchasi yuqori malakaga ega bo'lgan va qisqa vaqt ichida yangi texnologiyalarni o'zlashtira oladigan mutaxassislariga qiziqishni faollashtiradi [4].

Axborot ma'lumotlarini talaba-o'quvchilarga optimal yetkazib berish turli o'quv materiallarini yaratish imkonini beruvchi vositalar to'plamidir.

**Adabiyotlar tahlil.** Kasb ta'limda raqamlashtirishning nazariy asoslarini Ye.M. Yegorova [5], N.V. Shamova [6], A.Yu. Uvarov [7], N.P. Goncharuk, Ye.M. Xromova [8], G.A. Kruchinina [9] va boshqalarning asarlarida keltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda "raqamli texnologiyalar" tushunchasi mualliflar tomonidan juda tor doirada yoritilgan. Normativ-texnik hujjatlar atamaları lug'atida "raqamli texnologiyalar" tushunchasi "kodlar va signallarni ma'lum ketma-ketlikda va ma'lum chastotada yozib olish uchun kompyuterlar yoki boshqa zamonaviy jihozlardan foydalanadigan texnologiyalar" deb talqin etiladi [10]. Aksariyat mualliflar ta'limda raqamli texnologiyalarni raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etish usuli sifatida talqin etadilar. Ularning nuqtai nazariga qo'shilmiz va ushbu ta'rifni tadqiqotimiz uchun asos sifatida ishlatamiz. Bursev D.S., Gavriluk Ye.S., Shaugaraeva D.I., Astaxova T.N., Maslov N.S., Kirilova D.A., Bogdanova N.V., Puzankova L.V., Vartanova Ye.L., Virkovskiy A.V, Smirnov S.S., Makeenko M.I., Kleymenova Ye.V. kabi ko'plab mualliflar raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etish muammolarini o'rganishgan.

**Maqola materialining tahlili.** O'tkazilgan tadqiqotda kasbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilar o'rtasida raqamli makondan turli fanlar bo'yicha darslar uchun quyidagi didaktik materiallarni tanlash ishlab chiqilgan bo'lib, ular turli ta'lim muassasalarida o'qitishda qo'llanilishi mumkin [11, №4]. [12, №67], [13, B 287-289]

LMS — elektron ta'lim tizimi. Eng mashhur LMS quyidagilardir: Google Classroom, Canvas, Moodle, Ispring Suite — onlayn o'quv saytlarini yaratish uchun veb-ilovalar bugun kasb ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning pedagogik xizmatlardir.

Udemy — ochiq va yopiq video kurslarni yaratish va o'tkazish imkonini beradi, bu yerda o'qituvchi talabalarni kurslarga ro'yxatdan o'tkazish jarayonini boshqaradi. Platforma individual foydalanuvchilar uchun bepul, ammo ta'lim va boshqa tashkilotlar uchun pullik. Qo'shimcha vositalar mavjud — testlar, qo'shimcha materiallarni nashr etish qobiliyati, fikr-mulohazalar uchun muhokamalarni doimiy qilib borish zarur vositadir.

Ispring Online LMS — bu xodimlar va hamkorlarni o'qitish uchun korporativ onlayn portal yaratish maqsadida masofaviy ta'lim tizimi. Ushbu tizimda quyidagi funksiyalar mavjud: kurs muharriri, guruh boshqaruvi, test, kompyuterlar, Android va IOS uchun mavjud.

Video xizmatlari. Kasb ta'lim o'qituvchilarining 85% ga yaqini o'z darslarida YouTube yoki boshqa mavjud platformalarda videolarni namoyish etadilar. Kasbiy ta'limda videolarini ko'rsatish uchun eng keng tarqalgan platformalar: YouTube, Netflix, BBC TV, Amediateka.

O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va qiziqishini oshirish uchun YouTube'dagi quyidagi ko'plab mavzulardagi kanallarni ko'rishni tavsiya qilamiz:

Crash kursi. Kanalda quyidagi fanlardan ko'plab foydali darslar mavjud: matematika, fizika, informatika, astronomiya, tarix, biologiya, adabiyot, kimyo va boshqalar. Masalan talaba-

o'quvchilar sotsiologiya, mifologiya, falsafa, iqtisod, anatomiya va fiziologiya, ekologiya, psixologiya kabi fanlarni tanlashlari mumkin. Video ko'rinishidagi 15 daqiqalik darslar yosh avlod tomonidan mashhur, ammo hamma narsa ingliz tilida va hamma ham tarjima bilan subtitrlarga ega emas.

TutorOnline. Bu kanalda matematika, biologiya, tarix, kimyo, fizika, rus, fransuz va ingliz tillariga oid videolar taqdim etiladi. O'qituvchilar o'qitishga ijodiy yondashadilar, rap va boshqa nostandart yondashuvlardan foydalanadilar.

Audikar. Ushbu kanalda yagona markazlashtirilgan test sinovlariga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan asosiy fanlar bo'yicha videodarslar mavjud. O'qituvchilar murakkab mavzularni batafsil va qiziqarli tarzda tushuntiradilar.

Skeng: Ushbu onlayn maktab ingliz tilini filmlar, musiqalar, gazetalar va video intervyulardan misollar yordamida o'rgatadi. Ular mashhur filmlar, qo'shiqlardan iqtiboslarni tahlil qiladilar, Dota o'yinidan ingliz tilini o'rganadilar va hokazo.

Ommaviy fan va umumiy rivojlanish YouTube kanallari:

PostNauka. Ushbu mashhur YouTube kanalida taniqli olimlar fan haqida gapiradilar. Aniq va oddiy fundamental fan va olimlar haqida ma'ruzalar, intervyu va maqolalar videoroliklarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

MTda masofaviy ta'lim. 2020-yildan boshlab dunyoning juda ko'p davlatlarida o'qish jarayonlari masofaviy rejimga o'tdi. Masofaviy shaklda ta'lim berishda quyidagi resurslardan faol foydalaniladi: LMS tizimi va MT masofaviy o'qitish kanali. Youtube, LMS va Youtube kanalida siz darslarning translyatsiyalari va yozuvlarini, pedagogika bo'yicha ko'plab ma'ruzalarni va boshqalarni topishingiz mumkin. 2020-yil voqealari o'quv jarayonini tashkil qilish ta'lim muassasalaridan uy sharoitlariga o'tkazishni boshladi, bu esa o'quv jarayonida raqamli videokonferensaloqa resurslaridan foydalanishning dolzarbligini ochib berdi. Eng mashhur 2020-2021 yillar uchun ZOOM.US va Discord edi, ammo birinchisi TeamSpeak o'rnini bosa boshladi.

ZOOM.US — yuqori aniqlikdagi onlayn videokonferensiya va video vebinarlar uchun bulutli platforma. Zoom video konferensiya, onlayn uchrashuvlar, chat va mobil hamkorlikni birlashtirgan aloqa dasturini taklif etadi.

Skype — bu boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilish uchun mo'ljallangan dastur. Skype bilan foydalanuvchilar individual va guruhli ovozli va bepul video qo'ng'iroqlarni amalga oshirish, shuningdek, tezkor xabarlarini yuborish va boshqa Skype foydalanuvchilariga fayllar yuborish mumkin. Siz Skypedan har qanday qulay qurilmada foydalanishingiz mumkin: mobil telefon, kompyuter yoki planshet.

Discord video konferensiyani qo'llab-quvvatlaydigan bepul messenjer bo'lib, foydalanish uchun mo'ljallangan geymerlar va talaba-o'quvchilar orasida eng mashhur bo'lgan turli sohalar bo'yicha mashhur tarmoqdir.

TeamSpeak — bu Internetda ovozli va video aloqa uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi VoIP texnologiyasi orqali bir vaqtning o'zida deyarli cheksiz miqdordagi abonentlar gaplashishi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy tarmoqlar — VKontakte, Twitter, Facebook, Telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar talaba-o'quvchilar va ota-onalar bilan kamroq rasmiy muhitda muloqot qilish imkonini beradi.

O'smirlar va yoshlar orasida tobora ommalashib borayotgan Tik Tok ijtimoiy tarmog'ini ham alohida ta'kidlamogqchiman. Bu yerda ta'lim mazmuni tobora ko'payib bormoqda. Eng mashhur kasb ta'lim ijtimoiy tarmog'i, albatta, Instagram. Chunki ko'pchilik blogerlar o'z mahsulotlarini o'quv kurslari yoki qo'llanmalar shaklida chiqaradilar.

Shuningdek, siz o'quv jarayonida bulutli xizmatlardan foydalanishingiz mumkin, masalan: Google Drive; Mail.Ru buluti; Yandex Disk va boshqalar.

**Natijalar muhokamasi.** Kasb ta'lim muassasalarini axborotlashtirish sohasidagi eng muhim masala – o'quv materiallarining kompyuter versiyalari, o'quv jarayonini ko'rgazmali qo'llab-quvvatlash uchun ma'lumotlar bazasi, virtual laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladigan elektron o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va ulardan foydalanishdir. Bugungi kundagi asosiy maqsad ta'lim va fanni birlashtirgan yaxlit kompyuter tarmog'ini yaratish hamda har bir o'quvchini kompyuter texnologiyalariga asoslangan holda individual tayyorlash tizimini shakllantirishdan iborat [14, №3]. Ta'limning moslashuvchanligi talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida duch keladigan turli xil vazifalarga tayyorlash uchun juda muhimdir. Kasbiy ta'lim tizimida individuallashtirilgan ta'lim, qarorlar qabul qilish va oldindan belgilangan naqshlarsiz harakatlar, ko'p darajali va ko'p formatli Internet aloqalari ularning asosiy raqobatdosh afzalliklariga aylanmoqda. Individuallashtirilgan raqamli ta'lim resurslari talabalarni kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan ko'plab kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlashda o'quv jarayonini yanada moslashuvchan qilish imkonini beradi. Ta'lim samaradorligi shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari, shablonlarni cheklamasdan mustaqil qarorlar qabul qilish va Internet aloqalarining ko'p darajali, ko'p formatli variantlari bilan ta'minlanishi kutilmoqda, bular birgalikda sezilarli raqobatdosh ustunliklarni anglatadi [15, B 583].

Ta'limni raqamlashtirish kabi jarayon fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish, kadrlar tayyorlash metodologiyasi va texnologiyalarini optimallashtirish, dasturiy ta'minot sohasidagi eng so'nggi ishlanmalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish didaktik tamoyillarga asoslangan, ilmiy jihatdan tashkil etilgan va nazorat qilinadigan tizimli jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak. Bunday vaziyatda kompyuter texnologiyalarining to'liq imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'quv dasturining mazmunini namoyish etish va tahlil qilish, zarur nazariy bilimlarni shakllantirish, amaliy tajriba orttirish, o'quv jarayonining borishini samarali va sifatli baholash, keyingi kasbiy faoliyatda duch kelishi mumkin bo'lgan namunaviy ta'lim vaziyatlari, avtomatlashtirish afzalliklaridan foydalanish, sun'iy intellekt funksiyalaridir[16, №5].

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimiga moslashuvchan yondashish, uni muntazam takomillashtirish bilan shug'ullanish zarur. Kasb ta'limi sharoitida mazkur chora-tadbirlar vaqt yo'qotishlarini kamaytirish, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida takroriy va muntazam ishlarni qisqartirish va avtomatlashtirish, har bir o'quvchiga yondashuvni individuallashtirish, interaktivlik, qiziqishni ta'minlash, o'quv jarayonining borishini nazorat qilishni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini beruvchi, shuningdek, ularni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarning oldini olish uchun maxsus shart-sharoitlarni tashkil etish zarur [17, B 259-268].

Shubhasiz, so'nggi o'n yilliklarda kasb ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash usullari zamonaviy ta'lim maydonida to'g'ri ishlamayapti: ta'lim muassasalari uchun ko'p sonli kompyuterlar xarid qilinishi ta'lim sifatini oshirmaydi, raqamli

rivojlanish sohasida o'qituvchilarning yetarli darajada tayyorlanmagani ilg'or kompyuter texnologiyalarini joriy etishni sekinlashtiradi, raqamli resurslar salohiyatini joriy etishning cheklanganligi kelajakdagi kadrlar tayyorlash talablariga javob bermaydi [18].

**Xulosa.** Garchi tadqiqotda kasb ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanish tavsiya etilgan bir nechta raqamli platformalar tavsiflangan bo'lsa-da, bugungi tezkor raqamli rivojlanish sharoitida yangi ta'lim resurslarining yuzaga kelishini doimiy ravishda kuzatish, ularni amaliyotga tatbiq etish, takomillashtirish hamda aniq didaktik maqsad va vazifalarga moslashtirish zarur bo'lib qolmoqda. Kasbiy ta'limda raqamli platformalardan foydalanish ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi va natijada raqamli muhitda o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladigan, ilg'or fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Гушин, А.В. Особенности реализации информационной стратегии высшей образовательной организации / А.В. Гушин, О.И. Ваганова, О.Н. Филатова // Известия Балтийской государственной академии рыбопромыслового флота. – 2021. – № 3 (57). – С. 47-51.
2. Малушко, Е.Ю. Система электронного образования как инструмент повышения конкурентоспособности специалиста в условиях цифровой экономики / Е.Ю. Малушко, В.Г. Лизунков // Вестник Мининского университета. – 2020. – Т.8. – №2.
3. Филатова, О.Н. Профессиональное образование в современном информационном обществе / О.Н. Филатова, А.В. Гушин, Н.А. Шобонов // Проблемы современного педагогического образования. – 2018. – №61(2). – С. 200-202.
4. Суркова, Н. Э. Методика разработки и использования цифровых образовательных ресурсов при дистанционном обучении в учреждении среднего профессионального образования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Суркова Наталия Эвгеньевна. — Москва, 2007. —
5. Егорова Е.М. Теоретические основы цифровизации в профессиональном образовании / Е.М. Егорова // Вопросы педагогики. – 2020. – № 6-1. – С.100-109.
6. Шамова Н.В. Онлайн-обучение в образовательном протсесе; сильные и слабые стороны / Н.В. Шамова // Казанский педагогический журнал. – 2019. – № 2. – С. 20-24.
7. Уваров А.Ю. Технологии виртуальной реальности в образовании / А.Ю. Уваров // Наука и школа. – 2018. – №4. – С.108-117.
8. Горчарук Н.П. Модели интеграции цифровых и педагогических технологий в процессе подготовки будущих инженеров / Н.П. Горчарук, Е.И. Хромова // Казанский педагогический журнал. – – № 1. – С. 31 – 35.
9. Кручинин М.В. Применение цифровых технологий обучения в высшей школе: проблемы и перспективы, Swot-анализ / М.В. Кручинин, Г.А. Кручинина, Л.А. Петрукович // Казанский педагогический университет. – 2020. – № 3(140). – С. 64-75.
10. Словар – справочник терминов нормативно-технической документации [Электронный ресурс] – УРЛ: <http://нормативе.референсе.дистионарий.асадемис.ру> (дата обращения: 25.04.2021).
11. Сибгатуллина, А.Р. Адаптация молодых учителей к профессиональной деятельности в инновационной образовательной среде / А.Р. Сибгатуллина, Г.А. Степанова // Вестник Мининского университета. – 2021. – Т.9. – №4.
12. Филатова, О.Н. Педагог профессионального обучения в будущем цифровом образовательном пространстве / О.Н. Филатова, Г.А. Грибина, Е.Л. Ермолаева // Проблемы современного педагогического образования. – 2020. – №67(1).



13. Филатова, О.Н. Преимущества и недостатки дистанционного обучения / О.Н. Филатова, Е.В. Лукина, П.В. Канатев // Проблемы современного педагогического образования. – 2021. – №72(2). – С. 287-289.
14. Тимохин, А. Ю. Информатизация образования как средство повышения эффективности образовательного процесса / А. Ю. Тимохин, А. Б. Исаева // Мир науки. Педагогика и психология. — 2022. — Т. 10, № 3.
15. Informatization of technical vocational schools : Theoretical foundations and practical approaches / A. Lytvyn, L. Rudenko, Yu. Pelekh, V. Lytvyn // Education and Information Technologies. — 2020. — Vol. 25, № 14. — P. 583–609.
16. Morais, C. The use of digital yeducational resources in the support to learning in higher yeducation / C. Morais, L. Miranda, P. Alves // ICST Transactions on ye-Yeducation and ye-Learning. — 2015. — Vol. 2, № 5.
17. Ходанович, А. И. Информатизация образования как научно-методическая проблема / А. И. Ходанович // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герсена. — 2003. — № 6. — С. 259–268.
18. Тангиров, Х. Э. Об использовании электронных средств обучения в процессе организации учебнож деятельности школьников / Х. Эъ. Тангиров, Т. Т. Абдусаломов // Молодож учених. — 2014. — № 2 (61). — С. 860–864.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).